

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
T.N. QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA  
FANLARI ILMiy TADQIQOT INSTITUTI**

**YO‘LDOSHEV RUSTAM A‘ZAMOVICH**

**TA‘LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA**

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISH**

**METODIKASI**

**Toshkent – 2015**

**Юлдашев Р.А.** Методика преподавания узбекского языка в школах с русским языком обучения: Монография. – Ташкент: УзНИИПН, 2015. – 160 с.

**Yo'ldoshev Rustam A'zamovichning (pasportida Юлдашев Рустам Агзамович)** ushbu monografiyasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarga o'zbekcha to'g'ri talaffuzni, o'qishni, nutqni tinglab tushunishni o'rgatish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish metodikasi yoritilgan.

Monografiya o'zbek tili o'qituvchilari, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari, tadqiqotchi-izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrirlar:** **M.M.Rixsiyeva**, pedagogika fanlari nonzodi, dotsent;  
**L.R.Mirjalolova**, pedagogika fanlari nonzodi, dotsent

**Taqrizchilar:** **R.Safarova**, pedagogika fanlari doktori, professor;  
**R.Niyozmetova**, pedagogika fanlari doktori, professor;  
**G.Muxamedjanova**, pedagogika fanlari nonzodi, dotsent

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti navbatdan tashqari Ilmiy kengashining 2015 yil 17 iyunida bo'lib o'tgan 5-yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

## KIRISH

Ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarga nutqiy faoliyatning to'rtala turini (gapirish, o'qish, nutqni tinglab tushunish, yozma nutq) o'rgatish mashg'ulotlardagi asosiy ish turlarini ifoda etadi. Bugungi kunda ushbu to'rt yo'nalishdagi ta'limiy tadbirlar o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qilish hamda axborot olish madaniyati, mutolaa madaniyatini egallashga tomon qarab boradi, shu tufayli ushbu yo'nalishlar bo'yicha erishiladigan natijalarning ta'lim jarayonidagi, o'quvchilar hayotidagi ahamiyati yanada ortadi. Zero o'zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini egallash, og'zaki va yozma axborot manbalarining mazmunini nutqni tinglash yoki matnni o'qish orqali tushuna olish rus va boshqa millat vakillari, ularning farzandlari uchun birday zarurdir.

Nutqiy faoliyatning to'rtala turini o'rgatish sohasida olib boriladigan ishlarning samaradorligini ta'minlash yo'lida qo'llanadigan metod va usullar birinchi navbatda o'quvchilarda mustaqil ravishda gap tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga erishilgan yoki erishilmaganlikka qarab baholanadi va tanlanadi. Bugungi kunga qadar quyidagi ikki xil metodika yashash uchun da'vogarlik qilib kelmoqdaki, ularning bir-biridan keskin farqlari ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda:


- 1) matnni o'qishdan og'zaki nutq o'stirish tomon borish;
- 2) og'zaki nutq o'stirish ustuvorligida nutqiy faoliyatning o'qish, nutqni tinglab tushunish, yozma nutq turlari ustida ishlash.

Kamina (mazkur monografiya muallifi) o'tgan asrning 1965–1990 yillarida amalga oshirgan kuzatishlari, bevosita maktabda (ko'proq Toshkent shahridagi 170-maktabda) o'rindoshlik asosida bergan darslaridan shunga qat'iy ishonch hosil qilganki, matnni o'qish bilan bog'liq qanday ish turlari tashkil etilmasin, shahar va tuman markazlaridagi maktablarning rusiyazon o'quvchilari o'zbek tili darslarida shu tilda gapirib ketmaganlar.

O'zbek tilidan yaratiladigan qay bir darslikda dars materiallarining markaziga matn qo'yilsa, o'quvchilarga matnni to'g'ri o'qishni, mazmunini to'g'ri tushunishni o'rgatish va shu asosda ularning hayotiy bilimlarini yanada yuksaltirish, o'zbek tilidagi asarlar orqali his-tuyg'usiga ta'sir etish, shaxsini kamolotga yetkazish ishlari kabi muhim vazifalar o'qituvchining diqqat-e'tiborida bo'ladi. Matn ustida olib boriladigan ishlar o'z mazmuni bilan yoshlarga "adab" berishdan tashqari, ularni mustaqil hayotga tayyorlashi, imkon qadar kitobxon sifatida shakllantirishi, bu ishlar o'quvchilarning adabiy tayyorgarliklariga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishi darkor.

O'qishni o'rgatish mazmuni keng ko'lamli bo'lmasdan iloji yo'q. Ravshanki, bu yo'nalishdagi ishlarni og'zaki va yozma nutq o'stirish hisobidan amalga oshirmaslikning ham iloji yo'q. Aslida har qanday dars turining asosiy mag'zida birinchi navbatda og'zaki nutq o'stirish mazmunini tashkil etadigan leksik-grammatik material turmog'i va quyidagi chizma doirasida variativ turlarni hosil qilmog'i darkor:

## Dars strukturasi



Chizmadan ko'rinib turganidek, darsning markazida leksik va grammatik materiallarni o'rganish turadi. O'quvchilarga namuna asosida savol-javob qilishni (gap tuzishni), hikoyalashni, matnni o'qib mazmunini tushunish va qayta hikoya qilishni o'rgatish ham leksik-grammatik materiallarni faollashtirish, ham nutqning kommunikativ jihatlarini ustida ishlash, og'zaki nutqning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga erishish maqsadini ko'zda tutishi kerak.

Darsdagi asosiy ish turlarining tashqi o'ramini tashkiliy qism, eshitish mashqi, og'zaki axborot, ta'limiy yozma ish, uy vazifasini so'rash va mustaqil ish topshirish, o'quvchilar bilan yalpi suhbat, yalpi turlash va tushlash, yalpi tarjima, rasm (diafilm kadri) ustida ishlash, turli o'yinlar o'tkazish, kartochkalar bilan ishlash, uy vazifasini tushuntirish va boshqa shu kabi yumushlar hosil qiladi. Mazkur ish turlaridan ayrimlari dars boshida ham, dars o'rtasi va oxirida ham uyushtirilishi mumkin.

Chizmada aks ettirilgan dars strukturasi birinchi yo'nalish bo'yicha an'anaviy va noan'anaviy tarzda ish turlaridan iborat bo'lsa, o'yinlar hisobiga boyitilgan taqdirda ham o'z mohiyatini o'zgartirmaydi: o'qish ustuvorligi saqlanib qoladi. Yangi pedagogik texnologiya talabiga ko'ra darsda bajariladigan ishlar avval boshdan rejalashtirilishi, bunda ta'lim natijalari bashorat qilinishi, tashhislanishi va nazorat orqali baholanishi ham birinchi yo'nalish metodikasi doirasida amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalishdagi metodika gap tuzishda qatnashadigan grammatik vositalarni 2-9-sinflar bo'yicha didaktikaning osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon borish prinsiplariga amal qilgan holda loyihalashni ifoda etadi. Har bir grammatik vosita, o'rgatiladigan va faollashtiriladigan gap konstruksiyalari ajratiladi, o'quvchilarda mutlaqo mustaqil ravishda gap tuzish malakasini shakllantirishni ta'minlaydigan ish turlari belgilanadi.

Ikkala yoʻnalish yuqorida bayon etilgan xususiyatlariga koʻra «Oʻzbek tili» darsliklarining strukturasi ham bir-biridan farqlantirishga sabab boʻladi. Birinchi yoʻnalishdagi strukturaga leksik va grammatik materiallari matnda mavjudligiga qarab ajratilgan darsliklar mos keladi. Ikkinchi yoʻnalishdagi struktura yangi soʻzlari va grammatik materiallari gap qurilmasining leksik va grammatik taʼminoti sifatida taqdim etilgan darsliklarga xosdir. Oʻzbek tili darslarining asosiy mazmuni va tashkiliy qismlari sanalmish ish turlari har bir yoʻnalishdagi metodikada oʻziga xoslik kasb etadi. Masalan, birinchi yoʻnalish metodikasiga koʻra uy vazifasi oldingi darsda oʻqilgan matn bilan bogʻliq boʻladi. Namuna asosida mustaqil ravishda 20 dan ortiq savol berib, javob qaytarish, namuna asosida biror mavzuda 10 dan ziyod gap bilan hikoya qilishga doir topshiriqlar ikkinchi yoʻnalishdagi metodikada ustuvordir.

Matnga doir uy vazifasini yakka tartibda soʻrash anʼanaviy oʻzbek tili darslarining boshqa ish turlariga salbiy taʼsir oʻtkazadigan tomoni shundaki, ayrim oʻqituvchilar uch-toʻrt oʻquvchini stol yoniga chaqirib, soʻrab (ayniqsa, matni oʻqitib, rus tiliga tarjima qildirib, bir-ikki savolga javob olib, yangi soʻzlarning oʻzlashtirilishini tekshirib) baholash uchun baʼzan dars vaqtining yarmini sarflab yuboradilar. Dars vaqtini isrof qilishdan iborat kamchiliklar oʻzbek tilini oʻqitishdan koʻzlangan asosiy maqsadni unutish oqibatidir.

Yana bir misol. Oʻqituvchi oʻquvchilarga yangi soʻzlar ishtirokida gap tuzishni topshiradi. Bir oz vaqt oʻtgach, kim qanday gap tuzgan boʻlsa, shu gapni oʻqiydi va boshqalarga uni aytib turib yozdiradi. Bunday usul notoʻgʻri tuzilgan gaplarni faollashtirishdan tashqari, dars vaqtini isrof qilishga sabab boʻladi.

Boshqa bir misol. Oʻqituvchi oʻquvchilarga darslikdagi mashqda berilgan savollarga indamay javob qaytarishni topshirsa, vazifaning bajarilishi tekshirilayotgan paytda xatolarni tuzatishga ancha vaqt ketadi. Xatolarni tuzatish jarayonida oʻqituvchining oʻta faolligi esa mashqning taʼlimiy ahamiyatini yana ham tushirib yuboradi.

Yangi pedagogik texnologiya darsning pishiq-puxta rejalashtirilishi, aniq maqsad sari yoʻnaltirilishini taqozo etadi. Ayrim darslar har xil ish turlaridan iborat boʻlsa-da, ularda qaysi nutqiy faoliyat turlari ustuvor ekanligi tahlil qilinganda, shu narsa maʼlum boʻladiki, darslar yo nafaol nutqiy mashqlar koʻrinishida (yalpi suhbat, mashq, matni oʻqish va savollarga javob qaytarish, mashqdagi savollarga javob berish), yoki oʻqishdan iborat tarzda (uy vazifasi boʻlmish mashqni oʻqib berish, matni oʻqish va tarjima qilish, mashqni oʻqish va tarjima qilish), yoxud yozish tariqasida (biror mustaqil ishni yozma bajarish, matni rus tiliga yozma tarjima qilish yoki matnga doir savollarni yozma ravishda tuzish kabi) oʻtadi. Aslida har bir darsda gapirish ham, nutqni eshitib tushunish ham, yozuv ham maʼlum nisbatda almashinib kelishi darkor. Bu almashtirishlar tasodifiy boʻlmasligi, har bir faoliyat turi boʻyicha bajariladigan ishlar, erishiladigan natijalar darajasi, shu darajani taʼminlash uchun sarflanadigan optimal vaqt hisobi asosida amalga oshirilmogʻi lozim.

Leksik yoki grammatik mashq, savol-javoblar, shuningdek, boshqa ish turlari koʻrinishidagi noanʼanaviy usullar nechogʻlik maroqli boʻlmasin, oʻz holicha oʻzbek tilini oʻqitish samaradorligini taʼminlab bera olmaydi.

Samaradorlik o'quvchilarda gap tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilina boshlaganda, mutlaqo mustaqil ravishda istagan qurilishdagi gaplarni tuzish avtomatlashuv darajasiga yaqinlashtirilganda yuzaga chiqadi. Bularsiz og'zaki va yozma nutq o'stirishda tayinli natijalar ham bo'lmaydi. Shunday ekan, o'zbek tili darslarining asosiy mazmuni, asosiy ish turlari o'quvchilarga gap tuzishni o'rgatish zamirida tashkil etilmog'i har jihatdan asosli sanaladi.

O'zbek tilini o'rgatish zamirida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, ularga grammatik vositalardan mustaqil ravishda gap tuzib aytishda foydalana olishni o'rgatish yotadi. Mustaqil ravishda gap tuzib aytishga doir bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi yuqoridagi til hodisalarining nutqda yashash shakli sanaladi.

Nutqiy faoliyatning gapirish (so'zlash), o'qish, nutqni tinglab tushunish, fikrni yozma ifodalash) turlari o'quvchilarning har xil murakkablikdagi gaplarni tuzish va aytib bilishlariga bog'liq holdagina rivojlanadi. Agar o'quvchi mustaqil ravishda gap tuzishga doir BKMLarni egallasa, nutq samarali o'stiriladi. Aksincha, matndan nutq o'stirishga qarab borilsa, samarasiz o'tib kelingan darslar davom etib, o'qituvchi an'anaviy metodikaga xos metod va usullardan foydalanib ishlash, nomiga yangi pedagogik texnologiyani qo'llashga majbur bo'ladi.

Muayyan bilimlar asosida mustaqil ravishda gap tuzib aytish uchun tovushlar, so'zlar, so'z shakllarining o'zbekcha to'g'ri talaffuzini tez yodga tushira olish va talaffuz qilish tezligini oshira borish; nutqiy faoliyat turlari talabiga ko'ra o'zbekcha so'zlarni, ularning nutq vaziyatidagi ma'nosini xotiraga tushirish tezligini oshira borish, ularni grammatik jihatdan shakllantirish; sintagmalarning yuzaga kelishiga qarab talaffuz qilish, bu ishni gap tugal holatga kelgunga qadar davom ettirish zarur bo'ladi. Ushbu bilim va ko'nikmalar nutqiy mashqlar jarayonidagina malaka darajasiga yetkaziladi. Demak, avval o'quvchilarga mustaqil ravishda gap tuzib aytishni o'rgatish darkor.


Dars tuzilishida sodir etilishi lozim bo'lgan o'zgarishlar birinchi navbatda o'zbek tili o'qituvchisining metodika ilmidan xabardorligiga, qolaversa, darslik materiallariga nisbatan bo'lgan ongli munosabatida o'z ifodasini topishi kerak. O'qituvchi qo'lga istagan darslikni olar ekan, undagi o'quv materiallari til o'qitishning qaysi yo'nalishidagi metodikaga mosligini aniqlab olmog'i, savodli yondashmog'i zarur. Ushbu *«O'zbek tili» darsligi asosida og'zaki va yozma nutq o'stirish ustuvorligini ta'minlay olish layoqatini egallagan muallimgina yuqori samara bilan dars o'ta oladi.* O'quv qurollaridan biri bo'lmish darsliklar esa ma'lum muddat iste'molda bo'lgach, o'zgarishga uchraydi, takomillashtiriladi.

Aksincha, ilmiy asoslangan, hayot tajribasida tekshiruvlardan o'tgan umumiy metodik ko'rsatmalar jiddiy o'zgarishlarga uchramay, boyib, oydinlashib boradi, xolos. O'qituvchining umumiy metodik bilimi ayrim xususiy tavsiyalarga, darslik materiallariga ongli munosabatni shakllantiradi. Shularni nazarda tutib, darslikda berilishi mumkin bo'lgan o'quv materiallari, ish turlari, mashqlar haqida mushohada yuritar ekanmiz, biror kitobni asos qilib olmaslikni ma'qul ko'rdik. Faqat og'zaki nutq o'stirish ustuvorligi ta'minlangan ayrim

o'quv qo'llanmalari va kitoblarni eslatib o'tdik. Umumiy metodik ko'rsatmalar bilan qurollangan muallim o'quv materialining xarakteri tahlil qilingan o'rinlarda gap qaysi va qanday darslik haqida ketayotganini o'zi darhol fahmlab bilib oladi, shunga qarab o'z ishlarini tashkil etadi, degan fikrdamiz.

Ikkinchi yo'nalishga xos (og'zaki nutq ustuvorligidagi) darslarning asosiy ish turlari quyidagi chizma ko'rinishida variativlik hosil qilishi shart.

2-chizma



Ko'rinadiki, nutqiy faoliyatning to'rtala turi ustidagi ishlar leksik va grammatik materiallarni o'rganish bilan bevosita bog'liqdir. Leksika hamda grammatika (morfologiya va sintaksis) bir-birisiz deyarli yashay olmaydi. Masalan, jo'nalish kelishi *bermoq*, *ketmoq*, *jo'namoq* fe'llarini taqozo qilganidek, ushbu fe'llar ham jo'nalish kelishidagi so'zni talab etadi. Jo'nalish kelishigining ish-harakat yo'nalgan shaxs (kimga?) ma'nosi esa *bermoq* fe'li bilan bog'lanadi. Grammatik materiallarning ayni shu jihati uni dars mavzusi darajasiga olib chiqish mumkinligiga ishora qiladi. Darsning umumiy mavzusini belgilash masalasi alohida tadqiqot predmeti bo'la oladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasining ikkinchi yo'nalishi gap tuzib aytishga doir BKMLarni shakllantirish asosiga qurilib, nutqiy faoliyatning to'rtala turi o'zlashtirilayotgan leksik va grammatik materiallar hisobiga boyib, rivoj topib boradi. Qo'lingizdagi monografiya ana shu yo'nalishdagi metodikani ifoda etadi.

Biz monografiyani tayyorlashda ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablarda rus tilini o'qitishga doir ishlardagi, jumladan, professor V.I.Andriyanovning metodikaga oid kitoblaridagi, maktabda chet tillarni o'qitishga doir manbalardagi tavsiyalar hamda fikr-mulohazalar va yangi g'oyalarni hisobga olishga harakat qildik.

## I-BOB

### O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI O‘STIRISH

Ushbu birinchi bobning nomida *og‘zaki va yozma* so‘zlarini ishlatganimiz bejiz emas. «Nutq o‘stirish» bilan «og‘zaki nutqni o‘stirish» bir xil darajadagi tushunchalarni anglatmaydi. *Nutq o‘stirish* deganda nutqiy faoliyatning to‘rtala turi (so‘zlash, o‘qish, nutqni tinglab tushunish, yozish, ya‘ni fikrni yozma ifodalash)ni o‘rgatish tushuniladi. *Og‘zaki nutq o‘stirish* deganda esa nutqiy faoliyatning bir turi – so‘zlash (gapirish)ni o‘rgatish nazarda tutiladi. Nutq o‘stirishni yuqori daraja deb olsak, og‘zaki nutqni o‘stirish ana shu yuqori darajadan (sathdan) keyin turadigan, tasnif bo‘yicha avvalgining tarkibiga kiruvchi daraja deb hisoblashimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Rusiyzabon o‘quvchilarga o‘zbek tilida so‘zlash (gapirish)ni o‘rgatish «fikrni og‘zaki ravishda ifodalashni o‘rgatish» deb atalishi mumkin. Bular bir xil darajadagi ma‘nodosh metodik tushunchalardir.

Amaliyotda bo‘lgani kabi nutq o‘stirish degan g‘oyatda umumiy tushuncha darsning asosiy maqsadi qilib olinsa, erishiladigan natijalar ham o‘ta mavhum bo‘ladi: chunki bunda nutqiy faoliyatning qaysi turi bo‘yicha qaysi parametr ustida qanday maqsad bilan ish olib borilishi aniq belgilanmay qoladi.

Darhaqiqat, agar mazkur maqsad ko‘zlangan dars boshida eshitish mashqi o‘tkazilsa, so‘ng yangi so‘zlar o‘rganilsa, matn ustida ishlansa, uning mazmuni yuzasidan savol-javob tashkil etilsa, yozma mashq bajarilsa, shu ishlar yakunida nutq o‘stirishga erishildi, degan xulosa chiqarilsa, bunday xulosa ta‘lim beruvchining o‘z ishidan qanoatlanib, asossiz xotirjam bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Vaholanki, nutqiy faoliyatning to‘rtala turi ustida olib boriladigan ishlarning har biri o‘z maqsad va vazifalariga, o‘rgatish parametrlariga, egallanadigan kommunikativ layoqat darajasidagi talablarga ega<sup>1</sup>. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, nutq o‘stirish maqsadi o‘zbek tilini o‘qitishninggina asosiy maqsadlaridan biri, umumiy yo‘nalishi bo‘la oladi. Dars uchun nutq o‘stirish maqsadi tanlansa, ushbu maqsad bilan nutqiy faoliyatning to‘rtala turi uchun xos parametrlar bo‘yicha egallanadigan natijalarni ta‘minlash amri mahol, chunki har birida bir nechtdan kichik parametrlarni ajratish mumkin. Har biriga oid parametrlarning hammasi bir dars uchun ko‘rsatilishi esa erishish mumkin bo‘lmagan, egallashning iloji yo‘q marraga aylanadi. Xullas, nutqiy faoliyat turlarini bir yo‘la o‘stirish u yoqda tursin, bu ishni alohida olingan bir turi doirasida ham yaxlit tarzda amalga oshirib bo‘lmaydi.

Nutqiy faoliyatning har bir turi orqa miya yarim sharlar po‘stlog‘idagi alohida-alohida markaz va zonalarda joylashganligi, ularning biri shakllantirilsa, bu bilan ikkinchisi ham shakllanib qolmasligi ruhshunoslar tomonidan aniq ma‘lumot va xulosalar asosida tushuntirib berilgan<sup>2</sup>. Shunday bo‘lgach, darsda

<sup>1</sup> Йўлдошев Р. "Ўзбек тили" давлат таълим стандартини жорий этишга доир методик тавсиялар (таълим бoshqa тилларда олиб бориладиган мактаблар учун). – Т.: РТМ, 2002. – 13 бет.

<sup>2</sup> Бу haqda qarang: Йўлдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини уларни кўп гапиртириш орқали ўстириш методикаси: Монография. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2012. – Б. 28–29.



ulardan birini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish, darsning maqsadini nutq o‘stirish deb umumiy va mavhum qilib belgilamasdan, nutqiy faoliyatning bir turini ajratish, qaysi bir-ikki parametr ustida ish olib borilishini ta’kidlash joiz.

Qaysi sinfdagi o‘zbek tili darsida nutqiy faoliyatning to‘rt turidan qay biri o‘stiriladigan bo‘lsa, shu turi bo‘yicha rusiyzabon o‘quvchilar erishgan daraja – start holatiga nisbat beriladi, tabiiyki, har bir dars, har bir ish turi ularni ushbu darajadan miqdor va sifat jihatdan bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga qarab asta-sekinlik bilan yuqori ko‘tarishi kerak. Bunday qilish esa rivojlantiruvchi ta’lim prinsipi talabidir: o‘quvchining bilimi, ko‘nikma va malakasi bugun kechagidan balandroq bo‘lishi lozim. O‘qituvchiga ma’lumki, nutqiy faoliyat turlari bo‘yicha rivojlanganlik, kommunikativ layoqat darajasi bir emas, bir necha parametrga ko‘ra hisobga olinadi. So‘zlash (gapirish), fikrni og‘zaki bayon qilishni o‘rgatish, ya’ni o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish nuqtayi nazaridan quyidagi parametrlar ajratilgani ma’qul:

1) o‘quvchilarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, yanada ravonroq gapirishlariga erishish, ifodaliligining sayqal topib borishini ta’minlash;

2) so‘zlash paytida tez yodga keladigan leksik va grammatik vositalar boyligini izchil oshira borish;

3) mustaqil ravishda tuziladigan gaplarning sintaktik jihatdan rang-baranglashuvini rejali suratda amalga oshirish;

4) monologik shakldagi bayonning og‘zaki hikoyalashga monand asta-sekin murakkablashib borishi, fikrning izchil yoritilishi, shuningdek, mustaqil gaplarning o‘zaro bog‘lanish vositalari jihatidan boyib borishini ta’minlash;

5) dialog shaklidagi o‘zaro so‘zlashuvning qolip-gaplar hisobiga boyib, kommunikativ layoqat darajasining ortib borishiga erishish.

Og‘zaki nutq o‘stirish maqsad qilib olinadigan darslar yuqorida sanalgan parametrlardan qay biri yoki qaysilari ustida ish olib boriladigan bo‘lsa, shular tashkil etilayotgan darsgagina xos maqsadlar sifatida ajratiladi, ya’ni ***dars uchun belgilangan asosiy maqsad dars bosqichlarida bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda detallashtiriladi. Gapirishni o‘rgatishda bo‘lganidek, nutqni tinglab tushunish, o‘qish va fikrni yozma ifodalashni o‘rgatishda o‘ziga xos parametrlar ajratilib, darsning har bir bosqichidan ko‘zlanadigan maqsadlar belgilab chiqilishi zarur.*** Masalan, yozuv va yozma nutq o‘stirish yuzasidan quyidagi yo‘nalishlardagi parametrlar ajratiladi:

– yozma harflarni (husnixatni) o‘rgatish;

– imlo qoidalari ustida ishlash;

– ta’limiy va nazorat yozma ishlarini (diktant, savollarga javob berish, bayon, insho) o‘tkazish;

– matn tuzilishini o‘rganish.

Darsning maqsad va vazifalari parametrlar bo‘yicha yana ham detallashtirilib borishi tabiiy. Zero, yuqorida aytganimizdek, har bir parametr yuzasidan rejalashtiriladigan ish turlari ko‘p. Masalan, o‘quvchilarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga, yanada ravonroq gapirishlariga erishish, ifodaliligining sayqal topib borishini ta’minlash parametrini olaylik. O‘quvchilarning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishlariga erishish uchun birinchi

navbatda o'zbek tilidagi nutq tovushlari talaffuzini puxta o'rgatish, so'ngra so'zlar talaffuzi, so'z urg'usi ustida muntazam ish olib borish talab etiladi. Gapishtdagi ravonlik esa gapda so'zlarni sintagmalarga to'g'ri birlashtira olish, bir sintagmaga kiruvchi so'zlarni ular orasida to'xtam qilmagan holda bir so'zday ayta bilish orqali ta'minlanadi, shu yo'llar bilan gapirish sur'ati til egalarining gapirish sur'atiga yaqinlashtiriladi. So'zlashdagi ifodalilik gaplar orqali ifoda maqsadlarini tegishli ohang yordamida bildirish mashqlarini taqozo qiladi.

Har bir parametr alohida o'rganiladigan ta'limiy birlik sifatida ajratilib, darsdan-darsga, sinfdan sinfga qarab rejalashtiriladi. Masalan, ikki, uch, to'rt va undan ortiq so'zlarni sintagmaga birlashtirib, orasida to'xtamsiz aytishni o'rgatish shunday birliklar sirasiga kiradigan parametr sanaladi. Xuddi shuningdek, gapirish sur'atini oshirish darslarining ham ajratilishi og'zaki nutq o'stirish maqsadiga ega bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, na nutqni tinglab tushunish, na matnni o'qish va na fikrni yozma ifodalash davlat tilini o'rganish yo'lida gapirishni o'rganishchalik ko'p mashq qilishni talab etmaydi. Chunki ravon so'zlash uchun nutqiy mashqlarning uzluksizligini va mo'l-ko'lligini ta'minlagan holda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zni tez eslash, to'g'ri tanlash, uni grammatik vositalar bilan shakllantirish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, oxir-oqibatda o'quvchining sozlash ko'nikmalarini ushbu jarayonda faqat fikr ifodalash haqidagina o'ylaydigan darajaga yetkazish kerak bo'ladi. Og'zaki nutq o'stirish mashqlariga qancha ko'p vaqt ajratilsa, og'zaki nutqiy ko'nikma va malakalar sifati shuncha yuqorilashadi. Yashash joyida qo'ni-qo'shnilari, o'rtoqlari bilan muloqot orqali o'zbek tilida gaplashishni o'rganib olgan rus bolalarining nutq sifati jihatdan yanada yaxshilanadi.

Yuqoridagi mushohadalardan ayon bo'ladiki, nutq o'stirish g'oyatda keng tushuncha bo'lib, u o'zbek tilini o'qitishning umumiy yo'nalishini belgilash uchun ishlatiladi. Darsning asosiy maqsadi yoki maqsadlari sifatida nutqiy faoliyat turlari ko'rsatiladi. Har bir nutqiy faoliyat turi majmua sifatida darslar va sinflar bo'yicha rejalashtiriladigan torroq maqsad hamda vazifalar, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishni ta'minlovchi ish turlari orqali ifoda etiladi.

### **1.1. O'quvchilarga o'zbekcha to'g'ri talaffuzni o'rgatish metodikasi**

O'zbek tili darslarida nutqiy faoliyatning qaysi bir turi bilan bog'liq ishlar bajarilmasin, hammasida o'qituvchi o'quvchilarga o'zbekcha to'g'ri talaffuzni, so'z urg'usini, so'zlarni sintagmalarga birlashtirib aytishni o'rgatish, shuningdek, bu borada erishilgan darajani tiklab turish mashaqqatiga duch kelayotgani ma'lum. Bunday holatlar darslarda amalga oshiriladigan ta'limiy tadbirlar bilan shartlanuvchi quyidagi jiddiy sabablarga ko'ra sodir bo'lyapti:

– ba'zan o'quvchilar o'zbek tilida og'zaki ravishda gap tuzayotgan, hikoya qilayotgan, matnni o'qib berayotgan paytda, ayniqsa, tarjimali o'qish chog'ida yo'l qo'yadigan talaffuz xatolariga o'qituvchining e'tiborsizligi;

– o‘zbek tili darslarining katta qismini matn ustidagi yumushlar tashkil etayotgani tufayli ayrim o‘quvchilarda so‘z va so‘z shakllarini xato talaffuz qilish, so‘z urg‘usini noto‘g‘ri qo‘yish, so‘zlarni sintagmalarga birlashtirib aytmaslik odat tusiga kirib ulgurayotgani,

– o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish samaradorligi o‘ta murakkab o‘qish jarayoniga bog‘lanib qolayotgani;

– «qiyin» tovushlar talaffuzini o‘rgatishga qaratiladigan mashqlarning tegishli malaka hosil qilish darajasiga yetkazib bajarilmasligidir.

Odatda, aksariyat o‘qituvchilar yangi so‘zlar, shu so‘zlar tarkibida biror tovush talaffuziga doir qisqa mashqdan so‘ng, ya‘ni nihoyatda oz vaqt ajratiladigan mo‘jaz og‘zaki mashqdan keyin daf‘atan matnni o‘qish va mazmunini o‘zlashtirish talab etilgan dars bosqichiga o‘tib ketadilar. Ba‘zan yangi so‘zlar ustida mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan tartibda ish boshlaydilar: o‘quvchilarga avval ularni ichdan o‘qishni, shundan keyin ovoz chiqarib talaffuz qilishni topshiradilar. Matnni o‘qish paytida namunali talaffuz tinglansin uchun esa muallimlar ko‘proq tilni amaliy biladigan, yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilar bilan ishlaydilar. Sinfdagi o‘quvchilarni to‘liq yoki ayrim bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham qamrab oladigan aylanma o‘qishni kamdankam tashkil etadilar. Matnning qay darajada o‘zlashtirilgani yuzasidan nazorat ishi o‘tkazish bosqichida yoki darsida ham rusiyzabon o‘quvchilar matndagi so‘z va so‘z shakllarini talaffuz xatolari bilan o‘qiydilar, ba‘zi tovushlar talaffuzida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. O‘qituvchi bu holatdan xulosa chiqarib, darhol o‘qish texnikasini o‘rgatish yumushlarini qayta o‘tkazmaydi, bunga dars vaqti ham imkon bermaydi. O‘quvchilar nutqiga singib ketgan talaffuz xatolarini keyinchalik tuzatish uchun katta kuch sarflashga to‘g‘ri keladi.

Talaffuz xatolari ayrim tovushlar talaffuzi ustida yetarli ish olib borilmasligi tufayli barqarorlashadi. Chunki o‘zbek tili darslarida, odatda, yangi tovush o‘quvchilarga 3-4 marta o‘qituvchiga taqlidan talaffuz qildiriladi va o‘qitiladi, shu tovush qatnashgan so‘zlar bir sidra aytiriladi, xolos. Lekin oz miqdorda va qisqa fursatda bajariladigan bunday mashqlar bilan o‘quvchilarda tegishli BKMLarni hosil qilish mumkin emas, o‘z talaffuzini nazorat qilish malakasini shakllantirish haqida gapirish esa ortiqcha. Shu bois yangi so‘zlar o‘quvchilar tomonidan ularning o‘zlari anglamagan, sezmagan holda, aniqrog‘i, bilmagani tufayli ko‘pincha buzib talaffuz etiladi. O‘quvchilardan so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish talab qilinganda, ular topshiriqni uddalay olmaydilar. Bundan ularda tegishli BKMLar shakllanmaganligini bilish mumkin.

Bugina emas, o‘zbek tili darslarida matnni o‘qish jarayonida so‘z va so‘z shakllarini, asosan, yozilganidek talaffuz qilish ustida ish olib boriladi, ammo og‘zaki nutqqa xos aytilishi (orfoepik talaffuz) deyarli o‘rganilmaydi. Bu holat davlat tili ta‘limida bir yoqlamalilikdan iborat kamchilikka sabab bo‘ladi: so‘z va so‘z shakllarining ikki xil talaffuzidan faqat bittasi – yozilganidek o‘qish va nutqda ishlatish asos qilib olingan bo‘ladi. Natijada o‘quvchi orfoepiya qoidalariga amal qilib so‘zlangan nutqni tushunish qiyinchiligiga uchramoqda yoki uzuq-yuluq anglamoqda.

Qisqa tahlildan ko'rinib turibdiki, *o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtirish, bir-ikki talaffuz mashqidan keyin matnni o'qishga o'tish tartibidagi ta'limiy tadbirlarda o'zbekcha to'g'ri talaffuzni o'rgatish natijalarini yo'qqa chiqaradigan, samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi metod va usullar qo'llangan bo'ladi.*

So'z va so'z shakllarini noto'g'ri talaffuz qilish holatlari nutqni tinglab tushunish, so'zlash, fikrni yozma ifodalash sifatiga ham salbiy ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Xato talaffuz qilingan so'zning ma'nosini anglash qiyin bo'ladi. Ma'lumki, so'z talaffuzini bilmaslik uni nutqda ishlatishdan iymanishni yuzaga keltiradi, yozuvdagi ikkilanishlarda o'z ifodasini topadi. Xullas, yangi so'zlarni tushuntirish va matn ustida ishlash borasida amaliyotda qaror topgan izchillik, bunda foydalanilayotgan an'anaviy metod va usullar o'zbekcha to'g'ri talaffuzni o'rgatish muammolarining yechimi bo'la olmaydi. Chunki, birinchidan, yangi so'zni bir yoki bir necha mara aytib ko'rish uning (ayniqsa, yangi tovushning) talaffuzini egallash, talaffuz ko'nikma va malakalarini, shuningdek, o'z talaffuzini nazorat qilish ko'nikmalarini hosil qilish uchun mutlaqo yetarli emas. Ikkinchidan, so'zning to'g'ri talaffuzini yaxshi o'zlashtirmaganlik o'quvchini o'zbek tilida gapirishdan to'xtatib turadi. Uchinchidan, o'qish paytidagi pala-partish talaffuz qilish mashqi o'quvchini og'zaki nutqdagi talaffuzga har taraflama, ya'ni ham to'g'rilik jihatidan, ham ko'nikmaning hosil bo'lishi jihatidan keragicha tayyorlamaydi. Buning ustiga og'zaki nutqda ko'proq orfoepiya me'yorlariga amal qilinadi. Demak, o'quvchilarga monologik va dialogik nutqni, o'zbekcha to'g'ri talaffuzni, matni undagi so'z va so'z shakllari talaffuziga e'tibor bergan holda o'qishni o'rgatish, ayni paytda yoshlarni og'zaki nutqqa tayyorlash masalalarida ishlarni notugal bajarish, muammoga bir tomonlama yondashishdan iborat jiddiy metodik kamchiliklar mavjud.

Rusiyzabon o'quvchilarga o'zbekcha to'g'ri talaffuzni samarali tarzda o'rgatish uchun ta'lim mazmuniga, uni o'rganish izchilligi hamda yo'nalishiga aniqlik kiritishdan tortib to natijalarni tashhislash va nazorat qilishgacha bo'lgan tadbirlarni yangi pedagogik texnologiya darajasida ishlab chiqish, ushbu jarayonga axborot texnologiyalarini joriy etish zarur. Zero yangi (ilg'or) pedagogik texnologiya zamirida har bir ta'limiy qadamni ilmiy-metodik jihatdan asoslash yotadi. Talaffuzni o'rgatish natijalari shunday bo'lishi zarurki, bu bilan og'zaki nutq ko'nikmalarining hosil qilinishi, ushbu ko'nikmalarning matni o'qishga ijobiy ta'siri ta'minlansin. Demak, o'zbekcha tovushlar, shu tovushlar ishtirok etgan so'z va so'z shakllari talaffuzini, o'zbek tilining orfoepik me'yorlarini puxta va samarali o'rgatish ushbu o'quv fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning eng mas'uliyatli, eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Islah qilinajak ta'limiy tadbirlarni qayta belgilab chiqish uchun keng ko'lamdagi ish turlarini amalga oshirish taqozo etiladi. Til muhiti mavjud bo'lgan sharoitda ta'lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda so'zlar va so'z shakllarini ham jonli muloqotga xos tarzda, ham yozilganidek talaffuz qilishni o'rgatish kerak va shart.

Metodik adabiyotlarda til o'qitishdagi og'zaki asos, og'zaki kurs, og'zaki boshlov haqida bir qator tavsiyalar mavjud. O'quvchi o'zbekcha tovushni to'g'ri talaffuz qilib gapira boshlashi mumkin. Lekin harflar bilan tanishib, o'qishni o'rganishga kirishgan paytda ona tilidagi tovushlar talaffuzi ko'pincha o'zbekcha talaffuzga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Buni til egalarining o'qishni dastlabki o'rganish davridagi qiyinchiliklaridan ham bilsa bo'ladi: gapirishni bilgan odam o'qishda yozma nutqning salbiy ta'sirini namoyon etadi, ya'ni so'zlar qanday yozilgan bo'lsa, shunday talaffuz qiladi. Bu hol metodikada *orfografik o'qish* deb yuritiladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, o'zbek tilidagi leksik birliklarning hammasi ham talaffuzda fonetik o'zgarishlarga uchrayvermaydi, birday qiyinchilik tug'diravermaydi. Qiyinchilik so'z va so'z shakllarining tovush tarkibiga, ayrim talaffuzi «qiyin» egallanadigan tovushlarga, ba'zi holatlarda tovushlarning pozitsion o'zgarishiga bog'liq. Talaffuzi mashaqqat bilan o'zlashtiriladigan, goho rusiyzabon o'quvchilar nutqida yuqori sinflarda ham talaffuz xatolariga sabab bo'ladigan tovushlar (o, q, g', o', i va boshqalar) tufayli ko'plab so'zlar «qiyin»ga aylanib qoladi. Aslida shu tovushlar talaffuzi avval boshdanoq puxta o'rgatilsa, shu tovushlar yuzasidan talaffuz ko'nikma va malakalari shakllantirilsa, eshituv nazorati malaka darajasiga yetkazilsa, tarkibida shu tovushlar bo'lgan so'zlarni og'zaki nutqda to'g'ri ishlatish ta'minlanishi mumkin. Bunday natijalarni amaliyot ham to'la tasdiqlaydi. *Demak, ayrim so'zlarning to'g'ri talaffuz qilinishi birinchi galda o'zbekcha nutq tovushlari talaffuzining quyi bosqichda samarali o'rgatilishiga bog'liq. So'zlar talaffuzidagi xatolar esa o'zbekcha tovushlar talaffuzini o'rgatish davrida yo'l qo'yilgan jiddiy metodik kamchiliklar oqibati deb qaralishi to'g'ri bo'ladi.*

Nutq tovushlarini «to'g'ri talaffuz qilish» deganda so'z yoki so'z shaklini o'rganilganidek (yo yozilganidek, yoki adabiy til me'yorlariga rioya etib) ayta olish tushuniladi. Masalan, o'zbek tilining orfoepiya me'yoriga ko'ra *muomala* so'zi yozilganidek va *muomila* tarzida, *maqsad* so'zi *maqsad* yoki *maxsad* kabi pozitsion o'zgarishsiz va o'zgarishlar bilan aytiladi.

Rusiyzabon o'quvchilarga «o'zbekcha to'g'ri talaffuzni o'rgatish» deganda rus tilidagi unli va undosh tovushlardan biror jihati bilan farq qiladigan o'zbekcha tovushlar talaffuzini; o'zbek tilining ayrim orfoepiya me'yorlarini o'rgatish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, urg'usini to'g'ri qo'yish ko'nikmalarini hosil qilish, o'z talaffuzini nazorat qilib bora olish ko'nikmalarini shakllantirish tushuniladi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayon o'quvchilarni unli va undosh tovushlarning o'zbekcha to'g'ri talaffuzi bilan tanishtirish va yengil-yelpi mustahkamlashdan iborat bo'la olmaydi.

O'zbek va rus tillarida unli hamda undosh tovushlar tizimidagi mushtarak va tafovutli tomonlarga ko'ra o'zbekcha tovushlar talaffuzini o'rganish ishlarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishda quyidagi ta'lim mazmuni va didaktik materiallarni hisobga olish zarur:

- 1) o'zbekcha to'g'ri talaffuzga doir egallanadigan BKMLar;
- 2) tovushlarni va tovush birikmalarini dastlabki o'rganish izchilligi;

3) dastlabki darsda o'rganiladigan ayni bir tovushni taqdim etish uchun xizmat qiluvchi miqdori ko'paytirilgan so'zlar.

1. O'zbekcha to'g'ri talaffuzga doir egallanadigan BKMLarni quyidagilardan iborat etib belgilash ma'qul:

**Bilimlar:** o'zbek tilidagi nutq tovushlari; ularning soni va nomlarini; o'zbek tiliga xos tovushlarni; o'rganilayotgan ba'zi so'zlar, so'z shakllari misolida ayrim orfoepiya me'yorlarini bilish.

**Ko'nikmalar:** o'zbek tilidagi nutq tovushlarini, ayniqsa, rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos tovushlarni namunaga taqlidan to'g'ri talaffuz qila olish, o'tilgan so'z va so'z shakllarini o'qituvchi tushuntirgani va talab etganiga qarab ham yozilganidek, ham orfoepiya me'yorlariga rioya qilib aytib bilish; o'qituvchining ogohlantirishidan keyin o'z xatosini topa olish va tuzata bilish.

**Malakalar:** o'zbek tilidagi nutq tovushlarini, ayniqsa, rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos tovushlarni, so'z va so'z shakllarini nutq oqimida to'g'ri talaffuz qilish, ayrim orfoepiya qoidalariga avtomatik tarzda rioya etish; o'z nutqini talaffuz jihatdan nazorat qila olish, xatoni mustaqil aniqlab tuzatish.

2. O'qituvchi yangi tovush ustidagi ishlar avvalida ushbu o'zbekcha tovushning rus tilidagi qaysi tovushga mos yoki undan qisman farqli yoki uning o'zbek tiliga xos tovush ekanligini, ya'ni rus tilida bunday nutq tovushining yo'qligini ma'lum qiladi (bilim beradi), shundan so'ng uning talaffuzini o'rgatish ishlariga o'tadi. Avval tovushni talaffuz qilish mashqi bajariladi. Keyin shu tovush ishtirok etgan so'zlar ustida ishlanadi. Boshqacha aytganda, tovushga qarab so'zlar tanlanadi, og'zaki nutq o'stirish ehtiyoji bilan talaffuzi oson so'zlardan qiyin aytiladigan tovushli so'zlarga qarab boriladi.

Ilk bo' o'rganiladigan so'zlarning tarkibida o'zbek va rus tillarida o'miga qarab deyarli bir xil aytilishi mumkin bo'lgan unli (e, u) va undosh (b, p, /v/, f, /z/, s, m, n, p, sh, j, ts, k, ch, g, y) tovushlar ishtirok etishiga e'tibor beriladi<sup>1</sup>. Bunda o'zbek tilidagi b, p, /v/, f, /z/, s, m, n, p, sh, j, ts undosh tovushlari faqat qattiq talaffuz qilinishiga ko'ra rus tilidagi yumshoq fonemalari mavjud bo'lgan shunday undoshlarning qattiq fonemalariga mos kelishi; o'zbek tilidagi k, ch, g, y undoshlari faqat yumshoq talaffuz etilishiga ko'ra rus tilidagi qattiq fonemalari mavjud bo'lgan shunday undoshlarning yumshoq fonemalariga monand aytilishi nazarda tutiladi.

O'zbek va rus tillarida t, l, z undosh tovushlari o'miga qarab yumshoq va qattiq talaffuz qilinadi.

Bir dars uchun rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos tovushlardan bittasi ajratiladi va rejalashtiriladi.

2-sinfda birinchi darsdan boshlab o'quvchilar yangi so'zlar bilan tanishishga kirishadilar.

Didaktikaning osondan qiyinga, tanishdan notanishga qarab borish prinsiplariga amal qilib, o'zbek tili darslarida unli va undosh tovushlarni o'rganish izchilligi belgilanadi, bunda ularning amaliy ahamiyatidan ham kelib

---

<sup>1</sup> O'zbek va rus tillarida unli va undosh tovushlar, urg'u va orfoepik me'yorlardagi mos hamda farqli jihatlar haqidamazkur monografiyamizning I-bob 12-fasliga qarang.

chiqiladi. Chunonchi, ilk savol-javoblarda “q” undosh tovushini, shu tovushli qayerda? so‘roq so‘zini ishlatishga ehtiyoj kuchli. Keyingi navbatda “i” unli tovushli nima?, nimani? so‘roq so‘zlarini qo‘llab savol-javoblar tuzish zaruriyati tug‘iladi. 2-sinf «O‘zbek tili» darsligining<sup>1</sup> Alifbo davri materiallarida, «O‘zbek tilini o‘rganamiz» o‘quv qo‘llanmasining<sup>2</sup> dastlabki 10 darsida shu tartib joriy etilgan.

Ta‘lim va tarbiya rus tilida olib boriladigan maktabgacha ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili mashg‘ulotlari o‘tkazilgani, ushbu mashg‘ulotlarda bolalarga o‘zbekcha tovush, tovush birikmalari, so‘zlar talaffuzi o‘rgatilganiga qaramay, 2-sinfga qadar bo‘lgan oradagi bir yildan ortiq tanaffusdan so‘ng talaffuz ko‘nikmalarini tiklash, mashg‘ulotlarda talaffuzga e‘tibor berilmagan holatlarda bu ishlarni qaytadan uyushtirish, maktabgacha ta‘lim muassasasiga bormagan bolalarni ham nazarda tutish shart bo‘lganidan yuqoridagi kabi yo‘l tutish kerak.

3. Rus tilidan farqli yoki o‘zbek tiliga xos bo‘lgan tovushni dastlabki o‘rgatish darsida ayni shu tovush mavjud so‘zlar miqdorini ko‘paytirish ta‘lim samaradorligini ta‘minlovchi qudratli omil sanaladi. E‘tiborni yangi tovushga to‘liq qaratis, uning turli pozitsiyalardagi talaffuz xususiyatlarini singdirish, eng muhimi, ona tilidagi nutq tovushlarining talaffuziga ko‘nikkan nutq a‘zolarini o‘zbekcha nutq tovushi talaffuziga odatlantirish, o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuz malakasini hosil qilish uchun 10 ga yaqin so‘z tanlash lozim. Masalan, 2-sinfda “o” unlisini dastlabki o‘rgatish va mustahkamlash uchun quyidagi so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

*Oy, ot, osh, lola, non, olma, nok, olcha, olti, oyna, koptok, bola.*

So‘zning talaffuzini o‘rgatish chog‘ida ma‘lum tovush, ma‘lum orfoepik qoida ustida ish olib boriladi. Bunda taqlid, tahlil, chog‘ishtirish metodlaridan foydalaniladi.

“Q” tovushi uchun: *qalam, quduq, qafas, qand, qulf, taqa, qum, qurbaqa, qurt.*

“I” unlisi uchun: *ip, it, in, qiz, bo‘ri, tulki, ayiq, echki, sigir.*

“J” undoshi uchun: *jo‘ja, jo‘mrak, jo‘va, jo‘xori, jadval, jayron.*

“G” undoshi uchun: *g‘oz, g‘o‘za, g‘isht, g‘alvir, g‘altak, g‘ijjak, g‘uncha.*

Tovush birikmalari *yi, yo‘, yo* uchun: *yil, ayiq, yigirma, tiyin, qayin, yigit, yirt, o‘yin, qo‘yin; yo‘l, yo‘q, yo‘tal, yo‘lka, yogurt, yod, yo‘rg‘a, Yo‘ldosh; yosh, yot, yoq, yonida, tayoq, tuyoq, yov, quyon, yonma-yon, chayon.*

Nutq tovushlari va so‘zlar talaffuzini o‘rgatish ishlari 2-sinfda Alifbo davridan boshlanadi.

<sup>1</sup> Yo‘ldoshev R., Polvonova R. O‘zbek tili. O‘qish rus tilida olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun. Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 96 b.

<sup>2</sup> Юлдашев Р. Изучаем узбекский язык / Узбек тилини ўрганамиз. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993; 2-е изд., доп. – Ташкент: Ўқитувчи, 1996. – 264 с.

## Alifbo davrida nutq tovushlari talaffuzini o'rgatish

2-sinf o'zbek tili darslarida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, didaktikaning tanishdan notanishga, osondan qiyinga qarab borish prinsiplariga amal qilgan holda o'quvchilar dastlab ikki tilda bir-biriga yaqin unli va undosh tovushlar bilan tanishtiriladi, so'ngra shu tovushlar ishtirok etgan so'zlar, so'z shakllari talaffuzi ustida ish olib borilib, dars oralatib rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos bittadan tovush o'rganiladi. Asosiy e'tibor keyingilariga qaratiladi. Ushbu nutq tovushlari yuzasidan bajariladigan yumushlar quyidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Rus tilidan qisman farqli yoki o'zbek tiliga xos nutq tovushlari talaffuzini o'rgatish.

2. Og'zaki asosda so'z va so'z shakllari talaffuzini o'rgatish.

3. So'zlarni, gaplarni (yoki matnini) o'qish.

Ushbu har bir bosqichning o'z maqsad va vazifalari bor, barcha mashq hamda ish turlari shulardan kelib chiqib tanlanadi. Quyida ana shu mashqlar va ish turlarini ruhsunoslik ma'lumotlari, metodika ilmi xulosalari asosida yoritishga harakat qilamiz.

1. O'zbek tilidagi nutq tovushlarining belgilab olingan o'rganish izchilligini joriy etishda o'qituvchi ikki xil vaziyatga duch keladi: 1) o'quv materiali sirasida biror nutq tovushi ajratilmagan bo'lib, birinchi matndayoq 5-6 ta talaffuzi o'quvchilar uchun qiyin tovush (o, o', q, i va boshqa tovushlar) uchraydi; 2) aniq bir tovush ajratilib, o'quv materiali shu tovushni o'rgatishga mo'ljallab tanlangan bo'ladi. Shubhasiz, o'qituvchi ikkinchi holatga xos o'quv materiallarini afzal ko'radi. Aksincha, darslik bunday materiallarga ega bo'lmasa, birinchi holatga isloh kiritib, uni ikkinchi holat materiallari bilan boyitishi maqsadga muvofiqdir. Biz nutq tovushi talaffuzini o'rgatishga doir barcha tavsiyalarimizni ikkinchi holat tavsifida bayon qildik. Chunki birinchi vaziyatga ko'ra bir darsda bir necha talaffuzi qiyin o'zlashadigan nutq tovushlarini o'rgatish yaxshi natijalar bermasligi amaliyotda o'z isbotini topgan.

Nutq tovushini o'rgatishning birinchi bosqichida tovushning o'zi ustida ishlansa, ikkinchi bosqichida so'zlarni o'qituvchiga taqlidan talaffuz qilish; ular ishtirokida namuna asosida gaplar (savol-javoblar) tuzib aytish; shu so'zlarni qamrab ola oladigan biror mavzuda hikoyalash) kabi og'zaki kursga xos mashqlar bajariladi.

Taqlid metodi qo'llanganda o'quvchilar avval tovushni tinglaydilar, so'ng o'qituvchiga ergashib qayta-qayta takrorlaydilar.

Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida tovush talaffuziga doir artikulyatsiya qoidalari berish-bermaslik haqida baxslar ko'p bo'lgan. Bunday qoida (izoh) berish tarafdorlari uni ikkala tilda talaffuzida farqi bor bo'lgan tovushlarga nisbatan qo'llash lozim deb hisoblaydilar. Bizningcha, maktabda o'zbek tili ta'limida tovushlarni, ularning fiziologik tavsifiga asoslangan artikulyatsiyasi, ya'ni nutq a'zolarining holatini chizmalı tasvirlash usuli yaxshi samara bermaydi: o'quvchilar tushuntirish va tasvir asosida nutq a'zolarini kerakli holatga keltirib talab etilayotgan tovushni chiqara olmaydilar. Amaliy ishlar shuni ko'rsatadiki, quyi sinflarda ham, yuqori sinflarda ham taqlid metodini



qo'llab o'quvchilarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini muvaffaqiyat bilan shakllantirish mumkin: o'quvchi nutq a'zolari holatini taqlidga asoslangan talaffuz mashqlari jarayonida o'zi kashf eta oladi.

O'rganilayotgan tovushni nutq a'zolarini muayyan holatga keltirib chiqara olish uchun ushbu tovush o'quvchining qulog'i ostida jaranglab turishi kerak. Bunga zaruriyat bor: o'qituvchi aytgan tovushni o'quvchi unga taqlidan talaffuz qilar ekan, bir ozdan keyin andazani unuta boshlaydi, majburiyatdan aytgan tovushi o'xshamay qoladi. Bunday bo'lmasligi uchun mashqni barcha o'quvchilarning *tovush talaffuzini nutq a'zolarini muayyan holatga keltirib chiqarish bilan tavsiflanuvchi dastlabki ko'nikmalar shakllangunga qadar davom ettirish* darkor. Shu maqsadda mashq oxirrog'ida «Qaysi qator o'quvchilari o'rganilayotgan tovushni to'g'ri talaffuz qila oladi?» o'yini o'tkaziladi.

Qatordagi o'quvchilar birin-ketin tovushni aytadilar. Biror o'quvchisi xatoga yo'l qo'ymagan qator g'olib sanaladi. O'yindan o'qituvchi o'zi uchun kerakli xulosa chiqaradi: yo mashqni davom ettiradi, yoki to'xtatib navbatdagi bosqichga o'tadi. Shu tariqa o'quvchilarning ongida o'z talaffuzini nazorat qilib borishlari uchun xizmat qiladigan etalon paydo bo'ladi.


To'g'ri talaffuzni egallashda tinglash (idrok etish) ustuvorligi muhim rol o'ynaydi. Kishi biror o'zi uchun notanishroq tovushni aytish uchun avval uning talaffuzini eslab qolishga, buning uchun to'g'ri talaffuzni qayta-qayta eshitib turishga harakat qiladi va shunday talaffuzni chiqarmaguncha ayta boshlaydi. Demak, eshituv nazorati ko'nikmasining shakllanishiga tovushni eshitishning o'zi mutlaqo yetarli emas: faol talaffuz qilish jarayoni zarur.

Ruhshunoslar ta'kidlaganidek, nutq-eshituv analizatori bilan nutqni harakatga keltiruvchi analizator assotsiativ zanjirni hosil qiladi. Shunga ko'ra ham talaffuzni o'rgatishda birinchi navbatda to'g'ri eshituv idrokini ta'minlash kerak.

Nutqni harakatga keltiruvchi analizatorida qaydlanib, izi saqlanib qolgan tovush o'z navbatida talaffuzning to'g'ri yoki noto'g'riligini chog'ishtirib bilib borish uchun etalonlik vazifasini bajaradi. N.S.Trubetskoyning uqtirishicha, o'zga nutqni eshitayotgan kishi o'z ona tilining «fonol ogik elagi»ni qo'llab, o'zga til tovushlarini shu elakdan o'tkazadi, shunda bu tovushlar o'zgarishga uchraydi, natijada ularni ichki nutqda talaffuz qilib, o'z ovozi eshitishning iloji bo'lmay qoladi. Shu sababli o'zga tilga xos tovush nutq a'zolari odatlangan ona tilidagi tovush sifatida qabul qilinadi<sup>1</sup>. Demak, gap idrokdagina emas, balki nutq-eshituv analizatori bilan nutqni harakatga keltiruvchi analizator orasida aloqa va bog'lanishning hosil bo'lishidadir. Yangi tovush talaffuzini uzoq mashq natijasida ko'nikma va malakaga aylantirish zarur. So'z va so'z shakllarini talaffuz qilish mashqiga uni eslab qolish jarayoni kelib qo'shilishi darkor. N.I.Jininning ta'kidlashicha, «Talaffuzda hosil qilingan va nutqiy harakat izlari nutq-harakat analizatorida saqlanayotgan so'zgina idrok etilishi va tanilishi

<sup>1</sup> Трубетской Н.С. Основы физиологии. – М., 1960. – С. 59.

925136



mumkin. Notanish soʻz nutq-harakat analizatori orqali oldindan oʻzlashtirilgan eshituv nazoratidan oʻtib, tanilishi darkor»<sup>2</sup>.

Talaffuz jarayonida oʻquvchi oʻqituvchini ham, oʻzining ichki ovozi ham eshitadi. Demak, eshituv idroki yangi nutq tovushi va shu tovushli soʻzlarni tinglab tushunish jarayonini ifoda etadi. Odam har qanday nutq tovushini, hatto boshqacha tovushlarni ham idrok eta oladi. L.V.Sherba bu haqda shunday deydi: «... hattoki eng zukko bor narsalarni emas, balki faqat eshitib odatlangan narsanigina eshitadi»<sup>1</sup>. Lekin ularning hammasini talaffuz qila olmasligi aniq.

Oʻquvchilarda shunchaki tovushlarni, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish malakasigina emas, balki talaffuz va eshituv nazorati malakasi shakllanmogʻi lozim. Bunda «Mana bu tovushni toʻgʻri talaffuz qildim, mana bunisini xato aytdim» tarzidagi bir qadar ongli nazoratni vujudga keltirishdan borib-borib avtomatlashgan, deyarli oʻylamay bajariladigan nazorat hosil boʻlishi darkor.

*Aytilganlardan kelib chiqadigan xulosa shuki, soʻz yoki soʻz shakllarini toʻgʻri talaffuz qilish koʻnikmalarini, nazorat malakalarini nutqni tinglash ustuvorligida yetarli ogʻzaki nutqiy mashqlar jarayonida hosil qilish, shu yoʻl bilan koʻnikmalarni tiklab turgan holda oʻqish mashqlariga oʻtish zarur.*

Yangi soʻz va soʻz shakllarini oʻrgatishda ularning urgʻusiga ham eʼtibor beriladi. Yozuv orqali urgʻuning oʻrnini koʻrsatishda urgʻu belgisidan foydalanish maʼlum rol oʻynaydi. Bu belgiga urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmaydigan soʻzlar talaffuzini oʻrgatishda murojaat etgan maʼqul. Oʻqituvchi baʼzan urgʻuning oʻrnini taʼkidlab borishi foydalidir. Masalan: «lekin soʻzida urgʻu birinchi boʻgʻinga tushadi».

**II. Nutq tovushlari talaffuzini soʻzlar tarkibida oʻrgatish muhim bosqichlardan biri sanaladi.** Darsda oʻrganiladigan tovush va uni taqdim etish uchun xizmat qiladigan soʻzlar taʼlim mazmunining lingvistik asosini ifoda etadi. Ushbu mazmunni dolzarblashtirish, soʻz tarkibida tovush talaffuzini samarali oʻrgatishda davom etish, tegishli koʻnikma va malakalarni hosil qilish maqsadida quyidagi kabi mashq va ish turlari bajariladi: *soʻzlarni oʻqituvchiga taqlidan talaffuz qilish; rasmlar asosida soʻzlarni aytish, darslikdan (xattaxtdan yoki daftardan) oʻqish; qofiyadosh misralar asosida fonetik daqiqa oʻtkazish, ogʻzaki nutqiy mashqlar ado etish.*

Soʻzlarning koʻp boʻlishi oʻquvchini 1-2 soʻzni, shu soʻzlar ishtirokidagi 1-2 soʻz birikmasi yoki gapni zerikarli tarzda qayta-qayta takrorlash zaruriyatidan xalos etadi, ularning lugʻat boyligini oshirishga salmoqli hissa boʻlib qoʻshiladi, mashqqa shu manfaat bilan yondashish tuygʻusini uygʻotadi. Soʻzlar eshitib idrok qilinadi. Bunda dastlab ularni joʻrlukda aytish, soʻng yakka tartibda talaffuz qilish, sekin-asta talaffuzga eʼtiborni susaytirmasdan nutqiy mashqqa oʻtish (savol-javob uyushtirish, gaplar tuzdirish) izchilligidagi ish turlari amalga oshiriladi. *Bu orada oʻquvchilar yangi tovushni hosil qilish uchun nutq aʼzolari holatini qidirib topadilar, ushbu harakat izlari nutqni harakatga keltiruvchi analizatorida qaydlana boshlaydi, toʻgʻri talaffuz*

<sup>2</sup> Жинкин Н.И. Механизмы речи. – М., 1958. – С. 132.

<sup>1</sup> Шерба Л.В. Фонетика французского языка. Изд. 7-е. – М.: Высшая школа, 1963. – С. 4.

ko'nikmalari hosil bo'ladi. Og'zaki bajarilayotgan mashqlar davomida o'quvchilarning talaffuzidagi ijobiy o'zgarishlar o'qituvchi nazoratida bo'ladi.

Og'zaki tashkil etiladigan ish turlari (tovushni, shu tovushli so'zlarni eshitib turib talaffuz etish orqali talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, so'zlarni nutqda ishlatish) yo'li bilan ta'minlanadi. Bunda dastlab yozilishi bilan aytilishi mos kelmaydigan so'z va so'z shakllarini yozilganidek o'zgarishga uchratmagan holda, lekin adabiy til me'yorlariga rioya etib taqlidan va mustaqil talaffuz qilish so'raladigan mashqlar o'tkaziladi.

So'zlar talaffuzini o'rgatish rus tilining salbiy ta'sirini bartaraf etish, o'quvchilarda tug'iladigan ayrim savollarga javob berish maqsadini ko'zda tutadi. O'rganilayotgan tovush so'zning qaysi o'rinlarida kelishiga e'tibor qaratish joiz. Masalan, «o» tovushini talaffuz qildirish uchun ushbu fasl boshida keltirilgan misollardan (*oy, ot, osh, lola, non, olma, nok, olcha, olti, oyna, koptok, bola*) ko'rinib turganidek, uni uch xil pozitsiyada taqdim etish kerak: 1) bo'g'in boshida (*oy*), 2) ochiq bo'g'inda (*lo-la*), 3) yopiq bo'g'inda (*non*). Bundan tashqari, *koptok* so'zi orqali o'zbek tilida mazkur unli urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarda birday "o" tarzida, ya'ni rus tilida urg'usiz bo'g'inda bo'lgani kabi emas, balki boshqa tovushga aylanmagan holda talaffuz qilinishi haqida amaliy ravishda tushuncha beriladi, ya'ni ikki til hodisasini qiyoslash ishlari bajariladi. Bundan tashqari, keyinroq «o» tovush-harfi olinma so'zlarda uchray boshlaydi. Shu munosabat bilan «o» harfining asl o'zbekcha so'zlarda boshqacha, olinma (rus tilidan yoki rus tili orqali kirgan) so'zlarda rus tilidagi «o» unlisiga yaqin aytilishi o'rgatiladi: *oz, non, osh; stol, tonna, tok* kabi. O'qish paytida olinma so'zlarni asl o'zbekcha so'zlardan farqlay bilish ikki xil talaffuzga rioya etishning birdan-bir yo'lidir.

O'tilgan so'zlardan qofiyadosh misralar tuzib fonetik mashqlar o'tkaziladi. Masalan, "q" undosh tovushi mavjud so'zlardan quyidagi misralar hosil qilinishi mumkin:

Qalamdonda sariq qalam,  
Yumshoq qalam, qattiq qalam.

O'quvchilar bu kabi qofiyalangan gaplarni o'qituvchiga taqlidan bo'g'inlab yakka va ko'plashib qayta-qayta talaffuz qiladilar. Vaqti-vaqti bilan bir necha darsda shunday mashq o'tkazilgach, o'quvchilarning qiyin tovushlarni talaffuz etish malakasi o'sadi.

"G" undosh tovushini to'g'ri talaffuz etishni o'rgatish uchun quyidagi misralarga murojaat qilinadi:

G'oq, g'oq, g'oq, g'oz –  
Oppoq qog'oz.

"Yo" tovush birikmasini o'rgatish uchun:

Qizil chiroq – yo'l yo'q,  
Yashil chiroq – yo'l ochiq.

Shunday qilib, yangi nutq tovushini so'z va so'z shakllari tarkibida talaffuz qilib mustahkamlash jarayonida, bir tomondan, uni bo'g'in turlariga, so'zning asl o'zbekcha so'z yoki olinma ekanligiga, urg'usiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi, ularda tegishli tushunchalar hosil qilinadi.

III. «Alifbo» davrida soʻzlarni, gaplarni (yoki matnni) oʻqish, matn ustida ishlashning ahamiyati shundaki, rusiyzabon oʻquvchilar ogʻzaki ravishda oʻzlashtirilgan soʻz va soʻz shakllaridan ularning yozuvdagi ifodalarini talaffuz qilishga qarab boradilar.

Aytilishidan yozilishiga qarab borilsa, oʻquvchi tovush tarkibi asosida harf tarkibi shunga toʻgʻri keladigan soʻzni topib ovozlantiradi. Aks holat: harfga tayanib, yozma shakldagi soʻz asosida uning talaffuzini aytish esa hali koʻnikma darajasida ham egallanmagan bilim sanaladi.

Soʻzni toʻgʻri oʻqish uchun undagi harflarni taniy olish va tegishli tovushlarni ayta bilish muhim ahamiyatga ega. Harf toʻgʻri tanilmasa, oʻqishda quyidagi kabi xatolarga yoʻl qoʻyiladi:

1) oʻquvchilar oʻzbekcha tovushning yozma belgisi sanalmish harfni rus tilidagi boshqa harf bilan almashtirish natijasida oʻsha harfni ifodalovchi tovushni aytadilar; *kalam* (*qalam* oʻrniga), *un* (*oʻn* oʻrniga) kabi;

2) talaffuzdagi xatoni oʻqishga koʻchiradilar, masalan, *qilapti* (*qilyapti* oʻrniga), *kitobna* (*kitobni* oʻrniga);

3) oʻzbekcha harf orqali ifodalanadigan tovush unutiladi, masalan, "o" tovushini "u" deb qabul qiladilar.

Oʻqishdagi bunday xatolarni bartaraf etish uchun tushuntirish (qiyoslash, solishtirish) metodiga murojaat qilinib, tovushlarni oʻzaro farqlab talaffuz qilish mashqlari oʻtkaziladi<sup>1</sup>. Fonetik diktant ana shunday mashqlardan biri sanaladi.

Bir tovushning almashinuvi, harflarning oʻzgartirilishi tufayli soʻzlarning ham oʻzgarishi qiyoslab koʻrsatilgan mashqlardan amaliyotda koʻp foydalaniladi. Ular soʻzlarni tarjimasini bilan solishtirishga moʻljallangan. Masalan: *un* (*мука*), *oʻn* (*десять*) kabi.

Oʻzbekcha nutq tovushlarini rus tili taʼsirida talaffuz qila boshlashdan iborat xatoning ildizi shu tovushlarga nisbatan oʻquvchilar ongida paydo boʻlib ulgurmagan nerv bogʻlanishlari yoʻqolayotganida yashiringan boʻladi. Bir tovush oʻrnida ikkinchisini ishlatishda ham shu holat kuzatiladi. Oʻzbekcha harf ifodalagan tovushni yoddan chiqarish, tovushni mos harf bilan ifodalay olmaslik harf bilan tovush oʻrtasida bola ongida assotsiativ bogʻlanishning kuchsiz ekanligi tufaylidir.

Yuqoridagi holatlarda ham tovush va harf obrazlarining andazasi oʻquvchi ongida shakllanib ulgurmaganligi, fonetik va grafik nazorat malakasining sustligi kuzatiladi. Bunday paytda tovush va harflar ustidagi ishlarga bir oz vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir. Oʻqish jarayonini ham shunga qarata tashkil etgan maʼqul.

Quyidagi kabi mashq turlari bajariladi:

1. Oʻqituvchi soʻzni aytadi, oʻquvchilar unga taqlidan soʻzni takrorlaydilar, soʻng rasm ostida joylashtirilgan soʻzni oʻqiydilar.

<sup>1</sup> Qarang: Холькбердиев К. Ўқувчиларни ўзбекча тўғри талаффузга ўргатиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 10-бет.

2. O'qituvchi ayrim-ayrim gaplardan tashkil topgan matndagi biror so'zni aytadi, o'quvchilar avval shu so'zni takrorlab, keyin matndan uni topadilar va o'qiydilar.

3. O'qituvchi so'zni yoki gapni aytadi, o'quvchilar uni matndan topib o'qiydilar.

4. Matn avval jo'rlikda, keyin yakka tartibda o'qiladi.

2-sinfda matni o'qish dastlab o'qituvchi aytgan gaplarni kitobdan ko'rib turgan holda o'quvchilarning avval jo'rlikda, keyin yakka tartibda takrorlashlaridan boshlanadi. Bunda ular, bir tomondan, namunali nutqni tinglaydilar, ikkinchi tomondan, so'zlarning yozilishini ko'rib turadilar. Ma'lumki, o'quvchi so'zni eshitgan zahoti uning yozilishini ko'z oldiga keltiradi. Shu holat tufayli bolaning ichki nigohida yo'l qo'yilgan imlo xatosi ongida o'rnatilib qolishi mumkin.

Taqlidga asoslangan og'zaki nutqiy mashqdan foydalanish muhim: o'quvchi ifodali o'qishni ham o'rganadi. Zero, nutq jarayonida so'z talaffuziga his-tuyg'u o'ttenkasi qo'shiladi: *Viy, qanday olma!*

2-4-sinflarda so'zlar asosan yozilganidek talaffuz qildiriladi, chunki bu davrda bolalar hali o'zbek tilida so'zlashuvda juda kam ishtirok etadilar. Ularning so'z boyligi, til bilimi jonli muloqotda ishlatiladigan til hodisalarini oz bo'lsa-da, tushunish imkonini bermasligi aniq.

#### **Alifbodan keyingi davrda talaffuz ustida olib boriladigan ishlar**

Alifbo davrida nutq tovushlarining talaffuzi yuzasidan ma'lum darajada tegishli BKMlar shakllantirilgan bo'lishi kerakligini nazarda tutib keyingi ta'lim bosqichlarida nutq tovushlarini o'rgatish alohida mavzu unsuri sifatida ajratilmaydi: e'tibor so'zlar talaffuziga ko'chadi. Yangi so'zlar ustida quyidagi bosqichlarda ta'limiy tadbirlar o'tkaziladi:

1) so'zlar talaffuzi ustida olib boriladigan ishlar;

2) matn ustida ishlash;

3) og'zaki va yozma nutq o'stirishga qaratilgan mashqlar.

I. Alifbo davrida rusiyzabon o'quvchilarda o'zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish borasida hosil qilingan ko'nikmalar, shakllantirila boshlangan malakalar keyingi ta'lim bosqichlarida ham o'z samarasini ko'rsatmay qolmaydi. Sababi, «qiyin» tovushlar talaffuzi egallangach, «qiyin» aytiladigan so'zlar va so'z shakllari deyarli bo'lmaydi. Qiyinchilik so'zning tovush va harf tarkibini aniq tasavvur qila olmaslik tufayli yuzaga keladi.

2-sinfda Alifbo davridan keyin, 3-sinfdan e'tiboran yangi so'zlar va so'z shakllari talaffuzini o'rgatish, o'tilgan so'zlarning talaffuzi borasida erishilgan darajalarni tiklab borish maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish alohida ta'limiy tadbirlardan foydalanish sari undaydi.

Yangi so'zlar ko'pincha lug'at tarzida ham taqdim etiladi. Bunda avval o'zbekcha so'zlar qismini o'qituvchi o'qiydi, so'ngra o'quvchilar o'qiydilar. Matndan ajratilgan yangi so'zlarning talaffuzi og'zaki mashq yordamida

o'rgatilgan bo'lsa, o'qish ustida ish olib borilib, avval yaxshi o'zlashtiradigan, keyin bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarning o'qishi tashkil etiladi.

O'quvchilardan ularga so'zlarni qay tarzda talaffuz qilish o'rgatilgan bo'lsa, shunday talaffuzni yodda tutgan holda darslikda berilgan matnni o'qish talab qilingan taqdirdagina og'zaki nutqning o'qishga ijobiy ta'siri ta'minlanadi. O'quvchilarga osonlik tug'dirish uchun dastlabki o'quv matnlari yozilganidek aytiladigan so'zlardan iborat etib tuzilgani ma'qul. Chunki o'rgatmay turib so'z yoki so'z shakllarini birdaniga orfoepik me'yorga rioya qilib o'qish to'g'ri bo'lmaydi. Bu jarayonda o'quvchi yozma shaklni og'zakisi bilan taqqoslashi, so'z yoki so'z shaklining yozma shakliga qarab orfoepik talaffuzda o'zgarishga uchrashi bilan bog'liq amaliy berilgan qoidalarni xotirlashi taqozo etiladi.

Ba'zan o'quvchilar sheva ta'sirida so'zlaydilar. Suxandon tilida, sahnada aktyor nutqida so'z va so'z shakllari yozilganiga yaqin aytiladi. O'quvchi davlat tilini amaliy maqsadlarda o'rganar ekan, u bora-bora til egalarining orfoepiya me'yorlariga rioya qilib so'zlangan nutqini ham, radio va televidenie eshittirishlarini ham, sahna aktyorlari nutqini ham tinglab tushuna oladigan bo'lishi kerak. Shuningdek, u qaysi sheva vakillari yashayotgan hududda til o'rganayotgan bo'lsa, o'sha shevaga xos ayrim talaffuz xususiyatlarini ham bilishi zarur.

Ta'kidlash joizki, faqat yozilganidek gapirish va o'qish so'zni bexato tanish, uning lug'aviy ma'nosini anglash, matn mazmunini tushunib o'qish, shu maqsadda lug'atdan bexato qidirib topish imkoniyatini bergani uchun ta'limda yengillik tug'diradi. Ammo bunday so'zlash, o'qish ta'limiy tadbirlar pirovardida erishiladigan natijaga zid, chunki og'zaki nutq uchun orfoepik talaffuzni egallash muhimdir. O'zbek va rus tillarida muayyan so'zlardagi pozitsion tovush o'zgarishlari bir qadar orfoepiya me'yorlari orqali qoidalashtirilgan<sup>1</sup>. Yangi o'rganilayotgan so'zning orfoepik talaffuzida o'zgarish mavjud bo'lsa-yu, ta'lim jarayonida rusiyzabon o'quvchilarga ushbu o'zgarishlar amaliy yo'llar bilan (talaffuz mashqlari va izohlar orqali) tanishtirilmasa, ular jonli muloqotda so'zlovchining nutqini tinglab tushunishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar

Ayrim so'zlarda unli yoki undosh tovushlar o'zgarishga uchrasa, bu holatlarda orfoepiya me'yorlari ham ma'lum qilib boriladi. Masalan, *go'sht*, *daraxt* kabi so'zlar oxiridagi undosh tovush so'zlashuvda tushirib qoldirilishi kerak: *go'sh*, *darax* kabi. O'quvchilarga o'qish paytida ham oxiridagi undosh tushib qoladigan so'zlarni shu tarzda talaffuz qilish, yozuvda esa tiklash kerakligi eslatib turiladi. ***Demak, o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtirish jarayonida tovushlari o'zgarishga uchramaydigan so'z va so'z shakllarini ham, o'zgarishga uchraydiganlarini ham adabiy til orfoepiyasi me'yorlariga amal qilib aytish va o'qishga odatlantirish asosiy vazifa sanalmog'i darkor.***

<sup>1</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Лексикология, фонетика, морфология. Педагогика институтлари филология факультети студентлари учун қўлланма. Тўлдирилган 2-нашри. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б. 89-91; Современный русский язык. Часть 1. Лексика, фонетика, словообразование, морфология. – Изд. 2-е, испр. Под ред. Д.Э.Розенталя. – М.: Высшая школа, 1976. – С. 127-128.

Nihoyat, soʻzlar talaffuzini oʻrgatish haqida gapirganda soʻz urgʻusini tilga olmay boʻlmaydi. Soʻz urgʻusiga doir quyidagi kabi mashqlar bajariladi:

1. Soʻzlarni urgʻusiga eʼtibor berib toʻgʻri oʻqish.

Mashq uchun *bola, chunki, hamma, tinchlik, barcha* kabi urgʻusi har xil boʻgʻinga tushadigan soʻzlar tanlanadi.

2. Berilgan soʻzlarni oʻqib, urgʻusi oxirgi boʻgʻinga tushmaydigan soʻzlarni koʻchirish.

3. Urgʻusi oxirgi boʻgʻinga tushadigan soʻzlardan 5 ta, birinchi boʻgʻinga tushadigan soʻzlardan 5 ta aytish.

Ikkinchi va uchinchi darajali urgʻuning mavjudligi haqida yuqori sinflarda maʼlumot berish mumkin. Bu ishlarni gʻazalni oʻrganish munosabati bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

II. Rusiyzabon oʻquvchilar oʻzbek tilini oʻrganish pirovardida matndagi notanish soʻzlarni harf tarkibiga koʻra ovoz chiqarib oʻqiy oladigan boʻlishlari kerak. Chunki mehnat faoliyatida, uyda mutolaa paytida bunday soʻzlarning talaffuz namunasini hech kim koʻrsatmaydi. Taʼlimiy tadbirlar orqali esa ularga matnni undagi soʻz va soʻz shakllarining talaffuziga eʼtibor bergan holda mustaqil oʻqishni oʻrgatish koʻzda tutilmogʻi darkor.

Shuni ham eslatish kerakki, 2-sinfda nutq tovushlarini oʻrgatish sohasida erishilgan natijalar bir xil darajada turmaydi: talab susaytirilib, eʼtiborsizlikka yoʻl qoʻyilgan, oʻquvchilarning nutq tovushlarini talaffuz qilishlari oʻz holiga tashlab qoʻyilgan davrdan boshlab matnni oʻqish paytida talaffuz xatolari koʻpaygandan koʻpayib boradi. Oʻqishdagi talaffuz xatolari ogʻzaki nutqqa ham salbiy taʼsir koʻrsata boshlaydi. Bunday holatga yoʻl qoʻymaslik uchun, bir tomondan, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga doir talabni susaytirmaslik, ikkinchi tomondan, barcha taʼlim bosqichlarida ogʻzaki mashqlarning ustuvorligini taʼminlash kerak. Shunda ogʻzaki nutq koʻnikmalarining oʻqishga ijobiy taʼsiri taʼminlanadi. Oʻqish paytida talaffuz xatosi gapirgandagi talaffuzni eslatish yoʻli bilan tuzatilishi mumkin va bu narsa yaxshi odatlarni shakllantirish imkonini beradi: oʻquvchi matnni oʻqiyotgan paytda oʻzi soʻzlagandagi talaffuzini eslashga odatlanadi.

Z.I.Xodjava quyidagi mashq turlarini tavsiya etadi: a) koʻnikma hosil qilish hamda uni takomillashtirish imkonini beruvchi oʻquv mashqlari; b) hosil qilingan koʻnikmalarni saqlab turishga qaratilgan mashqlar<sup>1</sup>. Bunda oʻquvchilarning ogʻzaki nutqidagi talaffuzga doir xatolarni bartaraf etish ham koʻzda tutiladi, chunki bunday xatolar soʻzni tinglovchi uchun tushunarsiz qilib qoʻyadi, natijada fikr almashish jarayoni qiyinlashadi.

Oʻquvchilarda shakllanib kelayotgan koʻnikma va malakalar ogʻzaki va yozma nutq oʻstirishga doir mashqlar mobaynida yanada takomillashtiriladi.

Uchala bosqich mobaynida nutq tovushlari, soʻzlar va soʻz shakllarining talaffuzi yuzasidan hosil qilinayotgan bilim, koʻnikma va malakalarning darajasi nazorat qilib turiladi, yutuq va kamchiliklar aniqlanib, tegishli xulosalar chiqariladi. Nazorat bosqichida anʼanaviy usullar qatori fonetik tanlovlar

<sup>1</sup> Ходжава З.И. Проблема навыка в психологии. - Тбилиси, 1980. - С 3.

o'tkaziladi. Ayrim tahlil ishlari (so'zni tovushlarga ajrata olish, so'z urg'usini belgilash, aytilgan so'zdagi o'zgarishga uchragan tovushni ko'rsatish va b.) ham shunga yordam beradi. Umuman, har bir bosqichga dastlabki ko'nikmalar hosil qilish uchun yetarli vaqt ajratiladi. Navbatdagi ta'lim bosqichlarida avvalgi erishilgan natijalar tufayli rus tilidan farqli va o'zbek tiliga xos tovushli so'zlar talaffuzini o'rganish uncha ko'p vaqt talab etmaydi.

Kullas, o'quvchilarga o'zbek tilidagi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishda 2-sinfda ajratiladigan Alifbo davri alohida ahamiyat kasb etib, nutqni tinglash ustuvorligida o'qituvchiga, biror texnik vositadan eshittiriladigan yozuvga taqlidan nutq a'zolarini kerakli tovushni chiqara oladigan holatda qaydlab qolish ta'minlanadi, o'z talaffuzini nazorat qilib borish malakalari shakllantiriladi, shunga qaratilgan mashqlar va ish turlari bajariladi. Keyingi ta'lim bosqichlarida ushbu erishilgan natijalarni so'zlar talaffuzini o'rganish jarayonida tiklab borish yumushlari yordamida qat'iy lashtiriladi, ayni paytda biror bosqichda to'g'ri talaffuzga doir talablar bir zum bo'lsa-da susaytirilmaydi.

## 1.2. O'zbek va rus tillarida unli va undosh tovushlar; orfoepiya me'yorlari; urg'u

O'zbekcha tovushlar talaffuzini o'rgatish izchilligi, tartibi ikkala tildagi unli va undosh tovushlar tizimi qiyoslangan adabiyotlardagi ma'lumotlarga asoslanib ishlab chiqiladi. O'qituvchining o'zbek va rus tillaridagi unli va undosh tovushlardagi mushtaraklik va tafovutlarni yaqqolroq ko'rishlari va ajrata olishlari uchun ikkala tilda mavjud tasniflari bir-biriga qo'shilgan jadval tuzildi<sup>1</sup>.

### O'zbek tilidagi unli tovushlarning rus tilidagi mos va farqli jihatlar<sup>2</sup>

O'zbek tilida ham, rus tilida ham unli tovushlar uch jihatdan tasnif qilinadi:

- 1) tilning vertikal harakatiga ko'ra;
  - 2) tilning gorizontal harakatiga ko'ra;
  - 3) lablarning ishtirokiga ko'ra.
- Chunonchi:

1-jadval

### O'zbek va rus tillarida unli tovushlar tizimi

Tilning vertikal harakatiga ko'ra	tilning gorizontal harakatiga ko'ra			lablarning ishtirokiga ko'ra
	old qator	o'rta qator <sup>3</sup>	orqa qator	
yuqori (tor) unli	и (i) <sup>4</sup> / u	(ы)	y (u) / y	lablanmagan
				lablangan
o'rta (o'rta keng) unli	э (e) / э		ÿ (o') / o	lablanmagan
				lablangan
quyi (keng) unli	а (a)	а		lablanmagan
			о (o)	lablangan

<sup>1</sup> Biz keltirgan qiyosiy jadvallar va keyingi tahlillar maktabda o'zbek tili o'qitish sohasidagi amaliy kuzatish natijalari bo'lib, qiyosiy tilsbunoslikka da'vo qilmaydi.

<sup>2</sup> O'zbek va rus tillaridagi unli tovushlar qiyosini kirill va lotin yozuvidagi harflar asosida tasvirladik.

<sup>3</sup> Rus tiliga xos tasnif unsuri va unli tovushlar kursiv bilan ajratib ko'rsatildi.

<sup>4</sup> Lotin yozuviga asoslangan alifbo harflari qavs ichida taqdim etildi.



Jadvaldan ko'rinib turganidek, o'zbek tilida ham, rus tilida ham unlilar tilning vertikal harakatiga va lablarning ishtirokiga ko'ra bir xil tasnifga ega. Lekin unli tovushlar o'zbek tilida tilning gorizontaal harakatiga ko'ra ikkiga (old qator, orqa qator) ajratilsa, rus tilida uchga (old qator, o'rta qator, orqa qator) bo'linadi.

O'zbek tilidagi «i» unlisi ikki xil tovushni ifoda etadi: 1) asl «i» tovushini (*ip, in, tinch* kabi); 2) undoshdan keyin bilinar-bilinmas talaffuz qilinadigan «i» tovushini (*biz, bir, o'tin* kabi). Aniq talaffuz qilinadigan asl «i» unli tovushi quyidagi so'z turlarida ishlatiladi:

– bo'g'in boshida (*ip, ilm*), arabchadan o'tgan ba'zi so'zlarda;

– ismlarda (*Adiba, Aqida, Naima*);

– ba'zi undoshlardan, xususan, «ng» hamda «y» undoshlaridan, «nch» tovush birikmasidan oldin yopiq bo'g'inda (*qo'shning, sevinch, sinch, moviy, samoviy, oilaviy, oling* kabi).

Yuqoridagi pozitsiyalarda o'zbek tilidagi «i» unlisi rus tilidagi «i» unlisiga yaqin keladi. Rus tilidagi «и» yumshoq undoshdan keyin kelganda ham (*tixo, siniy* kabi), so'z yoki bo'g'in boshida ishlatilganda ham (*internat, interes* kabi) aniq talaffuz qilinadi, ya'ni “и” unlisining undoshdan so'ng kelib bilinar-bilinmas talaffuz qilinishi ayrim pozitsion o'zgarishlarni hisobga olmaganda rus tiliga xos emas. O'zbek tilida «i» unlisi chuqur til orqa undoshlaridan keyin ham bilinar-bilinmas, lekin bir oz qattiqroq aytiladi, ya'ni orqa qator unli sifatida talaffuz qilinadi<sup>1</sup>. Boshqacha aytganda rus tilidagi “ы” unlisiga moyillik sezilib, unga yaqin boradi. Rus tilida “ы” unlisi qattiq undoshlardan so'ng ishlatiladi.

**Ta'limiy maqsadlarda o'zbek tilidagi «i» unlisini dastlab aniq talaffuz etiladigan pozitsiyalarda o'rgatish, keyin ikkinchi xil aytilishiga o'tish metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.**

O'zbek tilida «e» unlisi so'z boshida ham (*erk, elak*), undoshdan keyin ham (*teng, ber*), so'z oxirida ham (*mavqe, tole*) bir xilda yumshoq undoshdan keyin kelganga o'xshab talaffuz qilinadi. Rus tilida esa ushbu unlining ikki xil talaffuz etilishi kuzatiladi: 1) faqat qattiq undoshlardan keyin kelganga o'xshab talaffuz qilinadi: a) o'zlashtirilgan so'zlarda: *стенд, тенор, дельта, кафе*; b) qisqartma so'zlarda (*нет, ВТЕК*); 2) yumshoq undoshdan keyin kelganga o'xshab aytiladi: *результат, необходимо, нет* kabi. Ikkinchi holat «э (e)» unlisining o'zbekcha talaffuziga monand keladi.

«E» unlisi so'zning boshida va ochiq bo'g'inlarda kelsa, ochiqroq talaffuz etiladi: *et, ehson, etik, sekin, meva, meros, zerikdi* kabi; yopiq bo'g'inda bir oz yopiqroq aytiladi; olinma so'zlarda “e” unlisi turli bo'g'inlarda keladi va keng aytiladi: *tenor, aerodrom* kabi<sup>2</sup>.

**Demak, «e» unli tovushini o'rgatishda rus tilidagi yumshoq undoshdan keyin kelganga o'xshab talaffuz qilinish holatiga qiyoslashdan boshlash maqsadga muvofiqdir.**

<sup>1</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Лексикология, фонетика, морфология. Педагогика институтлари филология факультети студентлари учун қўлланма. Тулдирилган 2-нашри. – Т.: Уқитувчи, 1973. – 81-бет.

<sup>2</sup> Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Номини кўрсатилган қўлланма, 82-бет.

O'zbek tilida «a» unlisi so'zdagi o'rniga, chuqur til orqa undoshlaridan keyin kelgan-kelmaganiga qarab ikki xil talaffuz etiladi: 1) *saroy, markaz, gap, katta* kabi so'zlarda asl til oldi «a» tovushi ishlatilib, yumshoq aytiladi; 2) *qani, G'ani* kabi so'zlarda «a» unlisi til orqaga biroz siljigan holda qattiqroq talaffuz etiladi. Rus tilida «a» unlisi o'rta qator (til o'rta) tovush ekanligi bilan o'zbek tilidagi «a» unlisining ikkinchi xil (qattiqroq) talaffuz qilinishiga o'xshash keladi. Qiyoslang: *Katya – qani, planeta – g'ayrat*. Ko'rinib turibdiki, o'zbek va rus tillaridagi «a» unlisining farqi tilning gorizontaal harakatida kuzatiladi.

Yonki, o'zbekcha «a» unlisini o'rgatishda dastlab uning chuqur til orqa undoshlaridan keyin ishlatilib, rus tilidagi o'rta qator «a» unlisiga yaqin talaffuz etilishini asos qilib olish metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

O'zbek tilida «u» unlisi so'z boshida ham (*un, uch*), yopiq va ochiq bo'g'inlarda ham (*kun, butun*), so'z oxirida ham (*orzu, inju*) bir xilda yumshoq undoshdan keyin kelganga o'xshab talaffuz qilinadi.

«U» unli tovushi «til oldi va sayoz til orqa undoshlar bilan kelganda old qatorga moyil bo'ladi»<sup>1</sup>: *gulshan, gumon, kunduz, buyrak* kabi. «...jarangsiz undoshlar orasida qisqa talaffuz qilinadi»<sup>2</sup>: *chuchuk, suyuq* kabi. «U» unlisi yopiq bo'g'inlarda jarangli undoshlardan, shuningdek, v, y undoshlaridan oldin kelsa, cho'ziqroq talaffuz qilinadi: *sud, suv, suz, uz, g'uj-g'uj, tub, uy* kabi.

Rus tilida «y» unlisi urg'usiz bo'ginlarda nisbatan cho'ziqroq, o'zbekcha «u» unlisi yopiq bo'g'inlarda jarangli undoshlardan, shuningdek, «v», «y» undoshlaridan oldin kelgandagi kabi aytiladi: *putyovka, ruletka* kabi. Ushbu unli urg'uli bo'g'inlarda kuchliroq talaffuz qilinadi: *kenguru, natura* kabi.

**Demak, o'zbekcha «u» unlisini o'rgatishda dastlab cho'ziqroq aytilish holatidan boshlash dardkor.**

«O'» unlisi so'zning barcha bo'g'inlarida kela oladi. Bu tovush *g, k, y, ch* undoshlaridan keyin yumshoq (*go'zal, go'sht, ko'cha, ko'ngil, yo'lak*), *g', q, x* tovushlaridan oldin va keyin qattiq (*to'siq, to'g'ri, qo'zi, g'o'za, xo'roz*) talaffuz qilinadi. «So'zning ochiq bo'g'inlarida kengroq (*ko'kat, ko'cha, do'kon*), undoshlar orasida, yopiq bo'g'inlarda torroq (*ko'klam, ko'lmak, so'qmoq, to'plam, cho'qqi, qo'chqor*) talaffuz etiladi»<sup>3</sup>.

O'zbek tilida «o» unli tovushi asl o'zbekcha so'zlarning barcha bo'g'inlarida kela oladi, bir xil aytiladi. Olinma so'zlarda urg'uli «o» unlisi asl o'zbekcha so'zlardagi «o'» tovushiga moyilroq, lekin kuchliroq, cho'ziqroq talaffuz etiladi: *tom, tok, orden, norma, rol* kabi<sup>4</sup>.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi «o'» unlisi rus tilidagi «o» unlisidan boshqa tovush deb tushuntirilsa, o'quvchilar uni «u» unlisiga o'xshata boshlaydilar. Aksincha, «o'» unlisi rus tilidagi «o» unlisiga ma'lum darajada o'xshash deb taqdim etilsa, ular o'zbekcha tovushni hech qiynalmay to'g'ri talaffuz qila boshlaydilar. **Demak, o'zbekcha «o'» ni ruscha «o» ga o'xshash deb tanishtirish tezroq samara beradi.**

<sup>1</sup> O'sha qo'llanma, 81-bet.

<sup>2</sup> O'sha qo'llanma, 82-bet.

<sup>3</sup> O'sha joyda.

<sup>4</sup> O'sha joyda.

O'zbek tilida barcha unlilar so'z boshida kela oladi. Rus tilida «Ы» unlisidan so'z boshlanmaydi. O'zbek tilida unilarning hammasi undoshlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra barcha turlaridan keyin ishlatila oladi: *biz, agar, ko'z; qiz, g'oz* kabi. Rus tilida "a", "o", "u", "e"(e) unililari yumshoq undoshlardan keyin ham, qattiq undoshlardan keying ham qo'llana oladi: *rad – ryad*,

O'zbek tilidagi unli tovushlardan "a", "e", "u" rus tilida ma'lum pozitsion mos talaffuz holatlariga ega. "E", "u" unililari o'zbek tilida qisqaroq va kuchsizroq talaffuz qilinsa-da, rus tilidagi urg'uli "э /e/, "y" unililaridan bir oz farqlanadi. Rus tilida "a", "o", "y", "э"(e) unililari qattiq undoshlardan keyin ham, yumshoq undoshlardan so'ng ham ishlatila oladi; unlilar yolg'iz qo'llangan va qattiq undoshdan keyin ("и" unlisi yumshoq undoshdan so'ng) kelib, urg'u olgan bo'lsa, o'zlarining asosiy sifatlarida qo'llanadi; urg'usiz bo'lganda ba'zan o'zgarishga uchraydi. Bu o'zgarishlar sifat yoki miqdoriy o'zgarishlar bo'lishi mumkin. "A", "o", "э" unililari urg'usiz holatlarda jiddiy sifat o'zgarishlariga uchrashi mumkin: sifatlari reduktsiya sodir bo'ladi. Boshqacha aytganda, rus tilida urg'usiz holatlarda "a", "o", "э" unililari aslicha ishlatilmaydi (asl tovushlar deb sanalmaydi)<sup>1</sup>. "И", "ы", "у" unililari esa urg'usiz holatlarda keskin o'zgarmaydi, faqat miqdoriy o'zgarishlarga (miqdoriy reduktsiyaga) uchraydi, ya'ni kuchsizroq va qisqaroq talaffuz qilinadi<sup>2</sup>.

### O'zbek tilidagi undosh tovushlarning rus tilidagi mos va farqli jihatlari

O'zbek tilida undosh tovushlar 25 ta bo'lib, kirill yozuvida 23 ta harf bilan ifodalangani. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda undoshlar 23 ta harf bilan, aniqrog'i, 20 ta harf (Bb, Dd, Ff, Gg, Hh, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Vv, Xx, Yy, Zz, G'g'); 3 ta harf birikmasi (Sh sh, Ch ch, Ng ng) bilan belgilanadi. Harf birikmalari sirasiga kirill yozuvidagi "и" undosh tovushini ifodalovchi ts qo'shiladi. Ushbu harf birikmasi so'z ichida bo'g'in boshida ishlatiladi, so'z boshida esa kirill yozuvidagi "и" undoshi "s" harfi bilan yoziladigan bo'ldi (*sex, sirk*). Boshqacha aytganda, "s" tovush-harfi кирилл ёзуви алифбосидаги 2 ta tovush-harf: с va и o'rnida qo'llanadi.

O'zbek tilida G'g' undosh tovushini ifodalovchi harf ko'chish belgisi (') bilan belgilanadi. Ch ch harf birikmasidagi birinchi belgi – с tovush bildirmaydi. Eslatish joizki, qoraqalpoch tilida lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda с harfi и tovushini ifodalash uchun olindi.

Rus tilida undosh tovushlarning soni 34 ta bo'lib, 20 harfda o'z ifodasini topadi. (Yumshoq undoshlar 2-jadvalda aks etganidek yumshatish belgisi bilan belgilanadi: *къ, гъ* kabi. Shu hisobdan harflar soni 34 taga yetgan.)

Rus adabiy tilida "ц" tovushi hamma vaqt qattiq undosh bo'lgani uchungina "и" unlisi o'rnida "ы" aytiladi: *лекция* (лекция o'rniga), *циркуль* (циркуль o'rniga). O'zbek tilida bunday emas: "и" unlisi "ts" (s) undoshidan keyin o'z sifatini yo'qotmaydi: *sirkul, sirk* kabi.

<sup>1</sup> Современный русский язык. Часть 1. Лексика, фонетика, словообразование, морфология. – Изд. 2-е, испр. Под ред. Д.Э.Розенталя. – М.: Высшая школа, 1976. – С. 128.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

Rus tilida jarangsiz *х, ц, ч, ж* undoshlarining jarangli jufti yo'q. *Й, л /ль/, м, /мь/, н /нь/, р, /рь/* undoshlarining jarangsiz jufti yo'q.

2-jadval

O'zbek va rus tillarida undosh tovushlar tizimi

Hosil bo'lish usuli <sup>1</sup>		Hosil bo'lish o'rni						Ovoz va shovqin ishti-rokiga ko'ra		
		Lab tovushlari		Til tovushlari					Bo'g'iz tovushi	
		lab-lab	lab-tish	til oldi lab-lab-tish <sup>2</sup>	old tanglay	til o'r-ta	til orqa			Chu-qur til orqa
Portlovchilar	oddiy portlovchilar	<i>б бь / b</i> <i>п нь / p</i>		<i>д дь / d</i> <i>т ть / t</i>			<i>з зь / g</i> <i>к кь / k</i>	q	jarangli jarangsiz	
	qorishiq portlovchilar (affrikatlar)			<i>ж</i>	<i>ч / ch</i>				jarangli Jarangsiz	
	Sirg'aluvchilar	<i>в</i>	<i>в</i>	<i>в, вь</i> <i>ф фь / f</i> <i>с сь / s</i>	<i>ж / j</i> <i>з зь / z</i>	<i>й</i>	<i>г</i>	<i>х хь / x</i>	x	
Portlovchi-sirg'pluvchilar	burun tovushlari	<i>м мь / m</i>	<i>н нь / n</i>			<i>нг / ng</i>				Sonorlar
	yon tovush		<i>л ль / l</i>							
	titroq tovush			<i>р</i>	<i>ррь</i>					

O'zbek tilidagi *q, g, h, j, ng* undosh tovushlariga o'xshash tovushlar rus tilida yo'q. Ushbu tovushlarni rus tilida ifodalash uchun *к, г, х, ж (дж), н, г* harflaridan foydalaniladi.

Rus tilida undoshlarning qattiq va yumshoq juftlaridan faqat 3 jufti (*г* va *гь, к* va *кь, х* va *хь*) so'zdagi ma'noni farqlash xususiyatiga ega emas, qolgan tovush juftlarining 12 tasi (*б – бь, в – вь, г – гь, д – дь* va boshqalar) ma'no o'zgartira oladi: *стол – столь, нос – нёс, вес – весь, лук – люк, томный – тёмный, сэр – сеп* kabi.

O'zbek tilida «*х*» undosh tovushi chuqur til orqada, rus tilida esa til orqada hosil bo'ladi. Rus tilidagi yumshoq «*хь*» undosh tovushida o'zbek tilidagi «*h*» tovushiga yumshoq;ik jihatidan yaqinlik bor. Lekin bu tovushlar rus tilida til orqa tovush, o'zbek tilida esa bo'g'iz tovushidir.

O'zbek tilida «*v*» undoshi lab-lab, rus tilida esa lab-tish tovushlarni ifoda etadi.

<sup>1</sup> O'zbek va rus tillarida mavjud tasnif unsurlari, undosh tovushlar quyuq harflar bilan kursiv qilib ko'rsatildi.

<sup>2</sup> Rus tiliga xos tasnif unsurlari kursivda ajratildi.

Rus tilida til oldi undoshlari lab-tish va old tanglay deb ikkiga bo'linadi. O'zbek tilida bunday bo'linish yo'q bo'lsa-da, hosil bo'lish o'rni rus tilidagiga mos keladi (r, g, j, sh undoshlari nazarda tutiladi).

O'zbek tilida undoshlarning yumshoq va qattiq bo'lishi fonetik hodisa sifatida deyarli ajratilmaydi. Lekin ruscha «x» undoshining o'zbek tilida fonetik jufti haqida gapiradigan bo'lsak, quyidagi holatga duch kelinadi:

1. Ruscha qattiq «x» undoshi o'zbek tilidagi til orqa «x» undoshiga monand talaffuz qilinadi. Qiyoslang: *xarakter, xalq, xislat, xabar: xalat, xata, xleb* va h.k.

2. Ruscha yumshoq «хъ» undoshi o'zining yumshoqligi bilan o'zbek tilidagi bo'g'iz tovushi «h»ga yaqin aytiladi. Qiyoslang: *hayot, ximiya, husn, tixiy* va sh.k.

Umuman, o'zbek tilidagi undoshlar yo yumshoq, yoki qattiq talaffuz qilinadi: Quyidagi undoshlar qattiq eshitaladi: **b, p, v, f, s, z, m, n**. Masalan: *bor, ber, top, parta, suv, fan, so'z, zo'r, so'm, kun* kabi.

Quyidagi undoshlar esa o'rniga qarab qattiq va yumshoq aytiladi: **t, l**. Masalan: *kel, pul, ket, tur* kabi.

Rus tilida **ш, ж, ц, к, г** undoshlari faqat qattiq, **ч, й** undoshlari yumshoq fonemalardir. Lekin «к» undoshi «и» unlisidan keyin kelganda yumshalishga moyillik seziladi: *хумик, сольник* kabi. O'zbek tilida esa «к», «г» undoshlari yumshoq fonemalarga monand talaffuz qilinadi: *katta, karam, gul, gilam* kabi. «Sh» undoshi qattiq, «ch», «y» undoshlari yumshoq aytiladi. Olinma so'zlarda ishlatilgan «j», «ts» undoshlari ikkala tilda bir xil aytiladi. O'zbekcha so'zlardagi «j» tovushi qattiq talaffuz etiladi: *gijda, sajda*.

Shunday qilib, o'zbek tilidagi undosh tovushlarning rus tilidagi analogik fonemalari quyidagicha:

1. O'zbek tilidagi **b, p, v, f, s, z, m, n, sh, ts** undosh tovushlari rus tilidagi yumshoq jufti mavjud qattiq undoshlarga, shuningdek, faqat qattiq fonemalarga yaqin talaffuz qilinadi.

2. O'zbek tilidagi **k, g, h, ch, y** undosh tovushlari rus tilidagi yumshoq va qattiq talaffuz etiladigan undoshlarning yumshoq fonemalariga, shuningdek, faqat yumshoq aytiladigan undoshlarga mos keladi.

3. O'zbek tilidagi ba'zi undoshlar (**t, l**) o'rniga qarab rus tilidagi ham qattiq, ham yumshoq fonemalarga yaqin keladi.

4. O'zbek tilidagi «x» va «h» undosh harflari rus tilida o'rniga qarab qattiq va yumshoq talaffuz qilinadigan bir undosh harf bilan ifodalanadi.

### *O'zbek va rus tillarida orfoepiya me'yorlari*

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» qo'llanmasida ta'riflanishicha, o r f o e p i y a (grekcha orphos – «to'g'ri», epos – «nutq») tildagi so'z va uning qismlarini adabiy talaffuz etish qoidalari to'plamidan iborat. Talaffuz me'yorlari so'zlashuv nutqiga xosdir. Orfoepiya me'yorlari so'zdagi tovushlarning ma'lum pozitsiyalardagi o'zgarishlari bilan bog'langan<sup>1</sup>. Maktabda tajriba-sinov o'tkazish uchun tayyorlangan lug'at ham ana shunday o'zgarishlarni aks ettiradi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Nomi ko'rsatilgan qo'llanma, 91-bet.

<sup>2</sup> Imlo va talaffuz lug'ati: Tajriba-sinov uchun. Tuzuvchi S.Rizayev. - Toshkent: O'zPFITI, 1995. - 64 bet.

So'zlashuv nutqida so'zlardagi unli tovushlar ba'zan o'zgarishlarga uchraydi. Chunonchi:

«Е» (е) unlisi ba'zan «i» tovushi bilan almashtiriladi: *zehn* – *zihn*, *hech* – *hich*, *meros* – *miros* kabi.

«А» (а) unlisi ba'zan «i» unlisi bilan almashtiriladi: *munozara* – *munozira*, *muomala* – *muomila* kabi.

«I» (i) unlisi «е» unlisi bilan almashtiriladi: *firuz* – *feruz*, *simurg'* – *semurg'*, *bihisht* – *behisht* kabi.

Yozuvda tushunishning tezligi va osonligini ta'minlash uchun yagona imlo (orfografiya) qoidalari qanchalik muhim bo'lsa, shunday maqsad uchun og'zaki nutqda yagona talaffuz me'yorlari shunchalik zarurdir. Har bir noto'g'ri yozilgan yoki xato aytilgan so'z o'quvchini (tinglovchini) fikr mazmunini anglashdan chalg'itadi.

Talaffuz uslublarini L.V.Sherba ikkiga bo'lib ko'rsatadi: to'liq va to'liq bo'lmagan talaffuz uslubi<sup>1</sup>. Masalan, *assalomu alaykum* – *salom*, *Gulchehra* – *Guli*.

Talaffuz uslublari: ko'tarinki uslub (*высокий стиль*), neytral uslub (*нейтральный*), so'zlashuv uslubi (*стиль разговорный*), oddiy so'zlashuv uslubi (*просторечный стиль*). Ko'tarinki uslubda so'z tovush o'zgarishlarisiz (yozilganidek) aytilsa, neytralda orfoepiya me'yorlariga amal qilib, so'zlashuvda to'liqsizlikka intilgan holda aytiladi: *когда* – *кагда* – *када*; *тушдим* – *туштим* – *чуштим* kabi. Ayonki, adabiy tildagi orfoepik me'yor boshqa, oddiy so'zlashuv uslubiga xos me'yorlar boshqa.

Rus tilida «о» unlisi urg'uli bo'g'indan oldin kelgan birinchi bo'g'inda qattiq undoshlardan keyin qisqa «а» talaffuz qilinadi: *вада* (*вода* o'r'niga), *нага* (*нога* o'r'niga); *забава* (za bo'g'inidagi a qisqa aytiladi). Bo'g'in yoki so'z boshida ham shunday holat kuzatiladi: *операция* (*операция* o'r'niga), *апекун* (*опекун* o'r'niga).

Boshqa o'rinlardagi urg'usiz bo'g'inlarda «о» unlisi urg'uli bo'g'indagiday aniq talaffuz qilinmaydi: «о» unlisidan oldin predlog kelganda: *в(а)блаках* (*в облаках* o'r'niga) kabi.

Urg'usiz bo'g'indan oldin kelgan «аа», «оо», «оа» harf birikmalari cho'ziq «а» unlisi tarzida talaffuz qilinadi. Cho'ziqlik unli tepasiga to'g'ri chiziq chizish bilan belgilansa, yuqoridagi harf birikmalari quyidagicha o'qiladi: *зәптеку* (*за аптеку* o'r'niga), *нәкне* (*на окне* o'r'niga), *пәдноһ* (*по одной* o'r'niga) kabi.

Qattiq «ш» va «ж» undoshlaridan keyin urg'uli bo'g'indan oldingi birinchi bo'g'inda «а» unlisi o'z sifatini yo'qotmaydi: *шалун*, *шалаш*, *жара*, *жалоба* kabi.

Ayrim urg'usiz bo'g'inlarda «а» unlisi qisqa «и» ga moyil tarzda talaffuz qilinadi: *ч(ъ)сы* (*часы* o'r'niga), *ш(ъ)велёк* (*шавелёк* o'r'niga).

Rus tilida «а» (я) unlisi urg'uli bo'g'indan oldingi birinchi bo'g'inda, yumshoq sirg'aluvchi «ч» va «ш» undoshlaridan keyin «а» o'r'nida «и» bilan «э» oralig'idagi «и<sup>3</sup>» tarzida aytiladi: *ч(и<sup>3</sup>)сы* (*часы* o'r'niga).

<sup>1</sup> «Современный русский язык» номли дарелик, 130-бет.

*Манёвр, наёмник, осётр* kabi soʻzlarda «o» unlisini «э» unlisi bilan almashtirish xato.

Rus tilida *ж, ш* va *ц* undoshlaridan keyin urgʻuli «и» unlisi «ь» aytiladi: *жыдкий (жидкий oʻrniga), шышка (шишка oʻrniga), цифра (цифра oʻrniga)*<sup>1</sup>.

### *Undosh tovushlar bilan bogʻliq orfoepiya meʼyorlari*

Oʻzbek tilida ham, rus tilida ham baʼzi soʻzlarda bir tovush boshqa bir tovush bilan almashish hodisasi mavjud. Masalan: *maxsad* (*q* oʻrnida *x* undoshi keladi), *keray* (*k* undoshi *y* bilan almashadi), *мякий, лехкий* (*г* oʻrnida *x* aytiladi), *ево, севодня* (*г* oʻrnida *в* undoshi ishlatiladi), *шuka* (*ш* oʻrnida choʻziq yumshoq *ш* aytiladi). Baʼzan «ш»dan keyin zaif «ч»ga oʻxshash tovush talaffuz qilinadi: *ш’uka* (*шuka* oʻrniga). Rus tilida «ш» harfi oʻrnida quyuma talaffuz qilinadigan «т» va «с» keladi. «Ч» tovushi oʻrnida «т» va «ш» tovush birikmasi aytilishi mumkin.

Oʻzbek tilida soʻz oxiridagi «k», «q» undoshlari oʻzgarishga moyil: *kerak – keray, sendek – senday, sariq – sarigʻ, oriq – origʻ*.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilganda ham tovush oʻzgarish hodisasi yuz beradi: *son – sana, sayla – saylov* singari.

Koʻmakchilar, koʻmakchi vazifasidagi bogʻlovchilar otlar bilan kelganda baʼzan tovush oʻzgarishlari sodir boʻladi: *bizga ham – bizgayam, men ham boraman – menam boraman; sen bilan – sen-la, sen uchun – sen-chun* kabi.

Feʼlning analitik formalarida *yoza ber – yozaver* tarzida «b» undoshi «v» ga almashadi.

Rus tili uchun undoshlarning quyidagi oʻzgarishlari xosdir: agar jarangli jarangsizga aylansa, assimilyatsiya, yaʼni jarangsizligiga koʻra assimilyatsiya deb ataladi. Agar jarangsiz jarangliga aylansa, assimilyatsiya, yaʼni jaranglashuv assimilyatsiyasi deb ataladi.

Rus tilida «в» va «вь» undoshi oʻziga xoslikka ega: soʻz oxirida va jarangsiz undoshlardan oldin kelganda jarangsizlashadi; *сеф (сев), любоф (любовь), фход (вход), фкус (вкус)*. Lekin boshqa jarangli undoshlardan farqli oʻlaroq oʻzidan oldin kelgan jarangsizni jaranglashtirmaydi: *твердый (двердый emas), свинец (звинец emas)*.

Oʻzbek tilida ham, rus tilida ham undoshlar nutq oqimida maʼlum oʻzgarishlarga uchraydi.

1. Undoshlarning jarangli jufti soʻz oxirida jarangsizlashadi, yaʼni jarangsiz undoshdek aytiladi. Masalan: *kitop (kitob oʻrniga), ozot (ozod oʻrniga), bark (barg oʻrniga), глать (гладь oʻrniga), шарш (шарж oʻrniga), спес (спез oʻrniga)* kabi.

Soʻz oxirida sonorlar jarangsizlashmaydi: *soʻm – soʻmi, burun – burni, qoʻl – qoʻlim, dutor – dutoring; пол – полы, дом – дома, сон – сны* soʻzlarida *м, н, л, г* tovushlari bir-biridan sifat jihatdan farq qilmaydi.

2. Jarangsiz undosh oldida turgan (soʻz boshida yoki oʻrtasida) jarangli undoshlar jarangsizlashadi. Masalan: *maskur (mazkur oʻrniga), soʻssiz (soʻzsiz*

<sup>1</sup> Oʻsha darslik, 135-bet

o'rniga); *фсё* (*всё* o'rniga), *реский* (*резкий* o'rniga), *струица* (*стружка* o'rniga), *редька* (*редька* o'rniga) va h.k.

Bu o'rinda ham sonorlar o'zgarishga duch kelmaydi: *gulsiz*, *tortiq*, *tantiq* *дубинка*, *булка*, *пта* va h.k.

3. O'zbek tilida jarangsiz undosh jarangli undoshdan oldin kelsa, jarangli undosh jarangsizlashib, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: *o'tti* (*o'tdi* o'rniga), *uqti* (*uqdi* o'rniga) kabi. Rus tilida esa jarangsiz undosh jarangli undoshdan oldin kelsa (so'z boshida yoki o'rtasida) jaranglashadi, ya'ni jarangli undoshdek talaffuz qilinadi: *збит* (*сбит* o'rniga), *молодьба* (*молотьба* o'rniga), *оддых* (*отдых* o'rniga) va h.k. Faqat «в», «й» undoshlaridan oldin keladigan jarangsiz undosh jaranglashmaydi: *свой* (звой emas), *съезд* (зъезд emas).

4. O'zbek tilida ham, rus tilida ham regressiv assimilyatsiya kuzatiladi: *yigichcha* (*yigitcha* o'rniga), *novvoy* (*потвой* o'rniga); *леччик* (*лётчик* o'rniga), *вижжать* (*визжать* o'rniga) kabi.

5. Rus tilida yumshoq undosh oldida turgan qattiq undosh yumshoq talaffuz etiladi: *гость* («с» undoshi yumshoq «тъ» undoshi ta'sirida «сь» tarzida yumshoq aytiladi).

O'zbek tilida so'z o'zagidagi qo'sh undoshlar, yonma-yon kelgan har xil undoshlar kamdan-kam holatlarda o'zgarishga uchraydi.

Rus tilida «чн» tovush birikmasi ayrim so'zlarda «шн» aytiladi (bu orfoepik me'yor): *стрелочник* (*стрелочник* o'rniga), *яичница* (*яичница* o'rniga). Ba'zi so'zlarda ikkala variant ham mumkin. *Пустячный*, *яичница* so'larida faqat «шн» aytiladi.

«Чт» tovush birikmasi faqat *что* so'zida «шт» aytiladi: *што?*

Rus tilida *дождь* kabi sanoqli so'zlarda «жд» o'rnida «ш», ba'zan «шт» talaffuz qilinadi. «Сч», «зч», «жч», «щч» o'zak-negiz bilan qo'shimcha tutashgan joyda cho'ziq yumshoq «ш» bo'lib aytiladi: *подпишчик* (*подписчик* o'rniga), *заказшчик* (*заказчик* o'rniga), *шёткой* (*с щёткой* o'rniga). Hozirgi rus tilida «зж», «жж» birikmalari o'zakda cho'ziq qattiq «ж» tarzida talaffuz qilinadi. O'zak va pristavka holatida ham shunday: *разжижена* (*разжижена* o'rniga).

Hozirgi rus tilida cheklangan miqdorda bo'lsa-da, ayrim qattiq undoshlarning yumshoqlashuvi kuzatiladi. Odatda, «с», «з», «н» undoshlari yumshoq undoshlardan oldin kelib, yumshoqlashadi: *сътена* (*стена* o'rniga), *путьтуть* (*пустуть* o'rniga), *здесь* (*здесь* o'rniga) kabi. «Н» undoshi «ч» va «ш» dan oldin kelganda ham yumshoqlashadi: *баньщик* (*баничик* o'rniga), *пончик* (*пончик* o'rniga).

Rus tilida т, д, с, з undoshlarini yumshoq undoshlardan oldin qattiq va yumshoq talaffuz qilishga yo'l qo'yiladi.

Hozirgi rus tilida б, п, м, в, ф undoshlari yumshoq undoshlardan oldin kelganda ham yumshatmasdan talaffuz qilish qabul qilingan.

Rus tilida old qo'shimcha oxiridagi undosh ayirish belgisidan oldin doim qattiq, yumshatish belgisidan avval doim yumshoq aytiladi.

So'z o'rtasida jarangsiz undoshdan oldin kelgan jarangli undosh jarangsizlashadi: *трупка* (*трубка* o'rniga).



Jarangli undoshlardan oldin kelgan jarangsiz undoshlar (в dan tashqari) jaranglashadi: *згорел* (*сгорел* oʻrniga), *воззал* (*вокзал* oʻrniga) kabi.

Rus tilida *pristavka* + oʻzak, oʻzak + qoʻshimcha tutashgan joyda ikki unli orasida qoʻsh undosh yoki har xil ikki undosh kelsa, bir choʻziq undosh kabi aytiladi: *ра́селить* (*расселить* oʻrniga). Ikki har xil undoshdan qay biri choʻziq aytila olsa, shu tovush talaffuz qilinadi.

Agar qoʻsh undosh yoki ketma-ket kelgan har xil undoshlar soʻzning oʻzagida boʻlsa, bir choʻziq undosh saqlab qolinadi yoki qoʻsh undosh aytiladi. Masalan: *ма́са* (*масса* oʻrniga), *ка́сса* (*касса* oʻrniga), *а́ссистент* (*ассисент* oʻrniga). Koʻpincha ikkala undosh talaffuz qilinadi: *гамма*, *ванна* kabi. Oʻzbek tilida tarkibida qoʻsh undosh boʻlgan olinma soʻzlarda (masalan, *passiv*, *agressiv*) ikkala undosh deyarli oʻz sifatini saqlagan holda aytiladi.

Bir undoshni ikki undoshga aylantirib talaffuz qilish joiz emas: *юный*, *песчаный* kabi soʻzlarda «н» undoshini qoʻsh undoshga aylantirib boʻlmaydi.

Rus tilida undoshlar ikkidan ortiq boʻlsa, biri (koʻproq oʻrtada turgani) talaffuzda tushib qoladi. «Стн» – «сн», «здн» – «зн», «стл» – «сл», «рдн» – «рд»: *обласной* (*областной* oʻrniga), *позний* (*поздний* oʻrniga). *Здравствуй* soʻzida esa «в» tushib qoladi.

### ***Baʼzi grammatik shakllar talaffuzi***

1. Nutq oqimida imenitelniy kelishik koʻplik shaklidagi otlarning urgʻusiz qoʻshimchasi – «а» unlisi qisqa «ъ» kabi talaffuz qilinadi: *галчатъ* (*галчата* oʻrniga), *окнь* (*окна* oʻrniga).

2. Yuqoridagi kabi ot shakllari *-ья* bilan tugasa, *жь* (*йь*) tarzida aytiladi: *крыльжь* (*крылья* oʻrniga), *колосжь* (*колосья* oʻrniga).

3. Sifat va ravishlarning *-ую*, *-юю* qoʻshimchalari yozilganidek talaffuz qilinadi: *скромную*, *синюю* kabi.

4. *-кий*, *-чий*, *-хий* qoʻshimchali sifatlarda **g**, **k**, **x** undoshlari hozirgi rus adabiy tilida yumshoq undoshlar sifatida aytiladi: *долгий*, *тихий* kabi.

5. Yuqoridagi undoshlar *-кавать*, *-гавать*, *-хавать* feʼl shakllarida ham yumshoq aytiladi<sup>1</sup>.

6. II tuslanish feʼllarining III shaxs koʻplik urgʻusiz qoʻshimchasida «а» unlisi qisqa (ъ tarzida) talaffuz qilinadi: *дышьт* (*дышат* oʻrniga), *держът* (*держат* oʻrniga) kabi.

Feʼl va ravishdoshning oʻzlik nisbati *начался* kabi yumshoq undosh bilan aytiladi<sup>2</sup>.

Koʻrinib turganidek, rus tilida soʻzlovchi oʻquvchi ona tilining orfoepik talaffuz meʼyorlari taʼsirida baʼzi oʻzbekcha soʻzlarni not oʻgʻri aytishga sabab boʻlishi mumkin holatlar mavjud.

### ***Oʻzbek va rus tillarida soʻz urgʻusi***

Oʻzbek tilida ham, rus tilida ham soʻzdagi urgʻuli boʻgʻin boshqalariga nisbatan kuchliroq ohangda aytiladi. Rus tilidagi urgʻuli boʻgʻin oʻzbek tilidagiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi: *сварка*, *баланд*.

<sup>1</sup> Oʻsha darslik, 143-bet.

<sup>2</sup> Oʻsha darslik, 144-bet.

Rus tilida urg'uli bo'g'in talaffuz kuchi hamda unlining cho'ziqligi, aniqligi bilan ajralib turadi. Bular orasida cho'ziqlik asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari, urg'uli bo'g'in balandroq aytiladi, binobarin, muskullar tarangligi, nafas chiqarish ortadi.

O'zbek tilida so'zdagi urg'uli bo'g'inning boshqa bo'g'inlarga ta'siri kuchsiz bo'lib, bir tovushning boshqa tovushga aylanmasligi bilan tavsiflanadi. Masalan, *dala* so'zida urg'uli *la* ta'sirida birinchi bo'g'in juda qisqa talaffuz etiladi, lekin bundagi qisqargan "a" o'z holicha (aslicha) qoladi. Rus tilida aksincha: *директор* – *директир*, *омоним* – *амоним* kabi tovush almashinishlari sodir bo'ladi.

O'zbek tilida aksariyat tub so'zlarda urg'u odatda so'zning so'nggi bo'g'iniga tushadi. Shuningdek, ba'zi qo'shimchalar urg'uli bo'ladi. Qo'shib yoziladigan qo'shma otlarda ham urg'u oxirgi bo'g'inida bo'ladi: *otboqar*, *Yangibozor* kabi. Urg'usi oxirgi bo'g'iniga tushmaydigan so'zlar bundan mustasno holat bo'lsa-da, ularga doir misollar ham oz emas.

Rus tilida urg'uning birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo bo'g'inga tushishi odatdagi hodisadir, ya'ni har bir so'z muayyan o'ringa qat'iydashgan urg'uga ega; bunday urg'u aniq bir ma'no uchun xizmat qiladi. Bir so'zda urg'uning ikki xil bo'g'inga tushishi ma'no farqlash xususiyatiga ega: *учится* – *стойть*, *стойть* – *стóит* kabi.

O'quvchilar ona tili talaffuzi ta'sirida o'zbekcha so'zlarda ham so'zdagi urg'uli bo'g'inni cho'ziq va kuchli aytishga intilishlari kuzatiladi. Masalan, *boradi* so'zida ikkinchi bo'g'inni urg'uli hisoblab, uni shunday talaffuz qiladilar. Bunday xatolarning oldini olish uchun bolalarga o'zbek tilida so'zdagi urg'uli bo'g'inni ko'rsatish, uning rus tilidagidan kuchsizroq va qisqaroq aytilishini ta'kidlab, shunday talaffuzni o'rgatib borish zarur.

O'zbek tilida ayni bir so'zda ma'no farqlashda urg'uning o'rni asosan olinma so'zlarda kuzatiladi: *физик* – *физик* kabi.

Rus tilida ham so'z turli grammatik shakllarda qo'llanganda ba'zan urg'u ko'chishi kuzatiladi: *кони* – *коней* kabi.

O'zbek tilida so'zdagi qo'shimchalar ortib borgan sayin urg'u so'nggi qo'shilgan urg'uli qo'shimchaga ko'chaveradi. Masalan: *onalar* – *onalarimiz* – *onalarimizga* kabi.

Rus tilida ayrim so'zlarda ikki xil o'ringa tushadigan urg'u qonunlashgan bo'lib, ma'noni o'zgartirmaydi: *мышление* – *мышление*, *казаки* – *казаки*, *одновременность* – *одновременность*, *баржа* – *баржа* kabi.

O'zbek tilida urg'uning ba'zan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmasligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- 1) so'zning boshqa tildan kirganligi;
- 2) uning tarkibi;
- 3) so'zning qaysi turkumga mansubligi.

O'quvchilar rus tilidan yoki rus tili orqali kirgan so'zlardagi urg'u haqida quyidagilarni bilishlari lozim:

1. 40-yillargacha rus tilidan kirgan ayrim so'zlar urg'usi o'zbek tiliga mos ravishda o'zgartirilgan: *лампочка* – *lampochka*, *ботинки* – *botinka* kabi.

2. 40-yillardan boshlab olinma soʻzlar urgʻusi oʻzgartirilmay talaffuz etiladigan boʻlgan: *ópera, tráktor, kinó, akadémiya* va hokazo.

Arab va fors-tojik tilidan kirgan ikki boʻgʻinli bogʻlovchilar, ravishlar, baʼzi olmoshlarda urgʻu birinchi boʻgʻinda boʻladi: *lékin* (arab), *hámma* (fors-tojik), *chúнки* (fors-tojik) kabi.

Oʻzbek tilida soʻzning tarkibi urgʻuning oʻrniga quyidagicha taʼsir etadi:

1. Buyruq maylining II va III shaxs shaxs-son qoʻshimchalari bir boʻgʻinli feʼl oʻzak-negiziga qoʻshilganda ushbu qoʻshimchalar urgʻusiz boʻladi, shu bois urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmaydi: *bórgin, kélsin* kabi. Oʻzak-negiz ikki va undan ortiq boʻgʻinli boʻlganda, shaxs-son qoʻshimchalari urgʻu oladi: *ishlagin, qidirsin* kabi.

2. Feʼlning boʻlishsizlik shakli bir boʻgʻinli oʻzak-negizga qoʻshilganda ushbu qoʻshimchalar urgʻusiz boʻladi: *ólma, kétma* kabi.

Buyruq maʼnosi oʻrmini iltimos egallaganda, oʻzak-negiz bir boʻgʻinli boʻlishiga qaramay, shaxs-son, boʻlishsizlik qoʻshimchalari urgʻuli boʻladi: *turgin, yozmá* kabi.

3. Ot-kesimga qoʻshiladigan shaxs-son qoʻshimchalari, **-dir** bogʻlamasi urgʻusiz boʻladi: *oshpázman, oshpázdir* kabi.

4. Soʻroq yuklamasi (-mi) ot va otlashgan soʻzlarga qoʻshilganda urgʻusiz, feʼllarga qoʻshilganda urgʻuli boʻladi: *gúlmi, xonámi, binómi, ketyaptimi, boradimi* kabi.

5. **-chi** soʻroq yuklamasi urgʻu olmaydi: *Sén-chi? Karím-chi?*

6. **-day, -gina** shakllari ham urgʻusiz boʻladi: *sénday, bolalárday, onámgina, bahordáguna* kabi. Agar egalik qoʻshimchasi **-gina** qoʻshimchasidan keyin qoʻshilsa, urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchadi: *onaginám* kabi.

7. Qoʻshma soʻz holatidagi belgilash va boʻlishsizlik olmoshlarida urgʻu birinchi komponentga tushadi: *hárbir, hárbir qaysi, hárbir qanday; héchbir, héchqanday* kabi.

8. Oʻzbek tilida juft qoʻllangan sifat va ravish, ravishdoshlarda urgʻu birinchi soʻzda boʻladi: *kátta-katta, balánd-baland, borá-bora, chopá-chopa* kabi.

9. Sifatning fonetik usul bilan hosil qilinadigan orttirma darajasida urgʻu birinchi komponentning birinchi boʻgʻiniga tushadi: *tóppa-toʻgʻri, táppa-tayyor* kabi.

10. Sifat va ravishlarning orttirma darajasida kuchli urgʻu shu darajani hosil qiluvchi soʻzlarda boʻladi: *éngqádrdon, gʻírt savodsiz* kabi.

11. Sanoq sonlar sanash paytida birinchi boʻgʻinga urgʻu qoʻyib talaffuz qilinadi: *ólti, yétti, sákkiz* kabi (uch boʻgʻinli son bundan mustasno). Ushbu sonlar miqdorni bildirsa, urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushadi: *ólti oʻquvchi, yetti kishi* kabi.

12. Ayrim soʻroq olmoshlarida urgʻu birinchi boʻgʻinda boʻladi: *qánday, qáncha, qáysi* kabi.

13. Oʻzbek tilida koʻmakchilar urgʻusiz boʻladi: *mén uchun, sén bilan* kabi. Aksariyat holatlarda koʻmakchi feʼllar ham urgʻu olmaydi: *tanqíd qildi, taklif etdi, borib keldi, koʻrib qoldi* kabi.

Rus tilida aksariyat qo'shma so'zlarda urg'u bitta bo'lib, u so'zning oxiriga yaqin joylashadi. Qo'shma so'z tarkibidagi birinchi so'z o'z urg'usini yo'qotib, ushbu urg'u kuchsizlanadi: *всеобъемлемый, зернобобовый* kabi.

Rus tilida qo'shma so'zlar ikki urg'uli ham bo'ladi: *высокоавторитетный, среднесуточные* kabi. Lekin birinchisi ikkinchisiga qaraganda kuchsizroq talaffuz qilinadi.

Rus tilida chiziqcha bilan yoziladigan qo'shma so'zlarning ikkala qismida kuchsiz urg'u bo'ladi: *бело-красный* kabi. Agar kuchsizroq urg'uni ikkinchi darajali deb hisoblaydigan bo'lsak, unlining tepasiga lotincha "u" unlisiga qo'yilgan (ü) ikki chiziqchali belgidan foydalanish mumkin.

Rus tilida predlog bilan qo'llangan so'zlar ba'zan urg'usiz bo'ladi: *за ухо, за нос, со дня на день* kabi.

O'zbek tilida so'zda bir emas, uchta urg'u bo'lishi ma'lum<sup>1</sup>. Uch bo'g'inli so'zlarda kuchli (yoki bosh, birinchi) va ikkinchi darajali urg'ular, to'rt va undan ortiq bo'g'inli so'zlarda uchinchi darajali urg'u ham bo'ladi. Bunday urg'ularni farqlash uchun kuchli urg'uni unlining tepasiga bir, ikkinchi darajali urg'uni ikki, uchinchi darajali urg'uni uch tikroq tushgan chiziqchadan foydalanib ko'rsatish mumkin. Urg'usiz bo'g'in (") belgisi yordamida ajratiladi.

Uch bo'g'inli so'zlarda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar quyidagi tartibda joylashadi:

"	'	'
xo	ti	ra
xur	ma	cha
cha	van	doz
chu	mo	li
eh	ti	rom

Bunday tartib uch bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inida a, e, o, o' unililari kelganda talaffuzda yaqqol ajralib turadi. I, u unililarida ikkinchi darajali urg'u unchalik sezilmaydi: *ishlamoq, ulamoq* kabi.

To'rt bo'g'inli so'zlarda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar quyidagi tartibda joylashadi:

'''	"	'	'
su	pur	di	lar
ish	chi	la	ri
shi	kast	lan	moq
qat	nash	chi	lar
ho	zir	ja	vob

Birinchi bo'g'inning urg'usi (su, ish, shi, qat, ho) ikkinchi bo'g'indan kuchsizroq ekanligi bilan farqlanayotganini ajratish qiyin emas.

Besh bo'g'inli so'zlarda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar quyidagi tartibda joylashadi:

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.: Изд-во АПН, 1960. – С. 53.

o	dam	gar	chi	lik
tas	vir	la	di	lar
ish	chi	la	ri	miz

Olti bo'g'inli so'zlarda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar quyidagi tartibda joylashadi:

ish	chi	la	ri	miz	da
-----	-----	----	----	-----	----

Ko'rinib turganidek, olti bo'g'inli so'zlarda ikkinchi darajali urg'u ko'pincha kuchli bo'g'indan oldingi uchinchi bo'g'inga tushadi.

Yetti bo'g'inli so'zlarda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar quyidagi tartibda joylashadi:

bil	dir	ma	gan	li	gi	dan
-----	-----	----	-----	----	----	-----

Ma'lum bo'ladiki, yetti bo'g'inli so'zlarda ikkinchi darajali urg'u olgan bo'g'inning har ikki tarafida ikkitadan urg'usiz bo'g'inlar joylashadi.

Olinma so'zlarga bir bo'g'inli qo'shimcha qo'shilsa, ikkinchi darajali urg'u shu qo'shimchaga tushadi. Masalan, operani, kinoga kabi so'zlarda -ni, -ga qo'shimchalari ikkinchi darajali urg'u bilan talaffuz qilinadi. Bunday so'zlarga ko'p bo'g'inli qo'shimcha yoki bir nechta talaffuz qo'shilsa, kuchli bo'g'in so'zning oxirgi bo'g'iniga tushib, asl kuchli urg'u qaysi bo'g'inda bo'lganligiga qarab ikkinchi yoki uchinchi darajali urg'u bilan aytiladi. Masalan:

o	pe	ra	miz	ni
ar	mi	ya	miz	da

*Opera, armiya* so'zlaridagi kuchli urg'uli birinchi bo'g'in uchinchi darajali urg'u olgan.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbekcha so'zlardagi urg'uni to'g'ri qo'yish uchun o'quvchilar ona tilidagi qonuniyatlarga tayanmasliklari kerak. O'zbek tilidagi so'z urg'usini o'rgatish alohida e'tiborni, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ustida ishlashni talab qiladi.

Xullas, o'zbek tilidagi nutq tovushlarini, so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishda o'zbek va rus tillaridagi unli va undosh tovushlar orasidagi, orfoepiya me'yorlaridagi, so'z urg'usining qo'yilish o'rnidagi yuqorida ko'rib chiqilgan mushtaraklik va farqlanish holatlari hisobga olinishi lozim. Ushbu holatlar ta'lim jarayonini osonlashtiradigan va, aksincha, qiyinlashtiradigan rus tili qonun-qoidalari ta'sirini ko'zda tutish va bu ta'sirni bartaraf etish choralarini qo'llash imkonini beradi.

### 1.3. O'zbek tili darstarida o'quvchilarning monologik nutqini o'stirish

O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarning monologik shakldagi og'zaki hamda yozma nutqini, shuningdek, dialogik shakldagi nutqini o'stirish

davlat tilini o'qitishning asosiy maqsadlaridan sanalar ekan, o'qituvchidan ushbu maqsadni amalga oshirish yo'llarini puxta bilish talab etiladi. Ma'lumki, monologik nutq shaklida bir kishi so'zlaydi, boshqalar faqat tinglaydilar. Bir kishining boshqalarga qarata fikr bayon qilib so'zlagan nutqi monologik nutq deb ataladi. Bunday nutqda so'zlovchi so'z tanlash va gap tuzib aytish orqali o'z muddaosini ifodalashda mutlaqo erkin bo'ladi. Ba'zi holatlardagina o'zgalari tomonidan aytilgan so'zlarni aynan yetkazadi.

Kitobimizning «Kirish»ida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchi rusiyzabon o'quvchilarning o'zbek tilida mutlaqo mustaqil ravishda gap tuzib aytishga doir BKMLarini shakllantirish yumushlarini bekam-u ko'st ado etish yo'lini tanlasa va amalga oshirsa, og'zaki nutqini o'stirishda hikoyalash usulidan foydalanishi yuqori samara keltiradi. Aks holda u o'tmishdan an'anaviy metodika sanalgan matn ustidagi ishlar iskanjasidan chiqa olmaydi.

Kuzatishlardan ma'lumki, ayrim yosh o'qituvchilar matn ustida ish ola borib, o'quvchilarga uni o'qitib, rus tiliga tarjima qildirib, mazmuni yuzasidan matndagi gaplardan foydalanib savolga javob qaytarish tarzida suhbat o'tkazadilar. Lekin kamdan-kam holatlarda ulardan matn mazmunini qayta hikoya qilishni talab etadilar. Shunday topshiriq berganlarida esa yoshlar matndagi gaplarni yod ola boshlaydilar, bir necha gapni eslab qolgach, ko'pincha shipga tikilgan ko'yi gaplarni emas, balki so'zlarni birma-bir aytib beradilar. Ba'zi o'quvchilargina qurilishi tanish, murakkab bo'lmagan gaplarni ixchamlab ayta biladilar, qiyinlarini esa darslikka bir qarab olib yoddan gapirishga harakat qiladilar. Bunday qayta hikoya qilishda so'zlash real voqelikdan uzilib qoladi va natijada bola nima to'g'risida gapirish kerakligini ko'z oldiga keltira olmaydi. Demak, yod olish asosida raven so'zlanmagan qayta hikoyalashda, birinchidan, matn mazmunini tinglovchiga yetkazish maqsadi bo'lmaydi, ikkinchidan, «qayta hikoyalash» jonli so'zlashuvdan yiroqligicha qoladi, uchinchidan, biror lingvistik va nutqiy birlikni faollashtirish niyati ko'zlanmaydi. Qayta hikoyalash nutqiy mashq tusini olmaydi, og'zaki nutq o'stirish ehtiyojlariga mutlaqo javob bermaydi. Bunday mashqlar o'quvchilarni qiziqitirmaydi, qanoatlantirmaydi, ularni yangi marralarni egallash sari ruhlantirmaydi, aksincha, toliqitiradi, oxir-oqibatda ularning til o'rganishga bo'lgan hafsalasini pir qiladi. Matn asosida og'zaki nutq o'stirish o'ta qiyin ta'limiy jarayon ekanligini yuqorida aytilganlardan ham bilsa bo'ladi.

Toshkent shahridagi bir qator (34-, 94- va boshqa) maktablarda o'zbek tili o'qituvchilari o'quvchilarga «Sen kecha kunni qanday o'tkazding?» kabi mavzularda hikoyalashni o'rgatib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritganliklari ma'lum. Lekin rusiyzabon o'quvchilar ko'pincha eng quyi darajada so'zlaydilar.

Affiksial o'zbek tilida hikoyalashning so'zni morfologik jihatdan murakkablashtirib borish bilan bog'liq darajalari mavjud. Chunonchi, ko'plik yoki egalik qo'shimchasini qabul qilmagan otlarning turlanishi, ko'plik qo'shimchali otlarning turlanishi, mos egalik qo'shimchasini olgan otlarning turlanishi, harakat nomining turlanishi va ko'makchilar bilan ishlatilishi va h.k. *Demak, berilgan mavzuda hikoya qilish mashqlari gapdagi so'zlarni ta'lim*

*bosqichtari mobaynida izchillik bilan murakkablashtira boradigan tarzda grammatik topshiriqlar asosida tashkil etilmog'i darkor.*

Yana bir masala: o'zbek tili darslarida o'qish bilan ko'p mashg'ul bo'lish og'zaki nutq o'stirish mashqlarida katta uzilishlarga sabab bo'lib, ta'lim natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ushbu ish turlarini parallel ravishda tashkil etib borgan ma'qul. Basharti matn og'zaki tuzilgan hikoyani kengaytirish asosida yaratilsa, o'quvchilar uning mazmunini og'zaki hikoya darajasiga yetkazib so'zlab berishlari mumkin. Og'zaki hikoyani kengaytirish asosida yaratilgan matn ustida olib boriladigan ishlar ko'p vaqt olmaydi.

Kerakli so'zni eslay olmaslik, aniqrog'i, bilmaslik rusiyzabon o'quvchini o'zbek tilida gapirishdan to'xtatib turadi. Metodist olimlar so'z bilmaslik, uni xato ishlatishdan qo'rqish tufayli duch kelinadigan qiyinchiliklarning sabablarini quyidagi ikki xil to'siqning paydo bo'lishi bilan izohlaydilar: a) psixologik to'siq, b) lingvistik to'siq (notanish so'z yoki o'rganilmagan, puxta o'zlashtirilmagan grammatik vositalar). Ikkala xildagi to'siq ham o'quvchida gapirishdan tortinish hissini uyg'otadi.

O'quvchilar gapirish jarayonida psixologik to'siqqa duch kelganda, uni chetlab o'tish yo'llarini izlab, so'zlashda davom etishga odatlanishlari lozim. Bunday paytda o'qituvchi o'quvchi gapirishdan to'xtab qolganda, nima demoqchi ekanini so'rab bilib, zarur so'zni aytishi muhim rol o'ynaydi.

Gapirish ijodiy jarayon bo'lib, so'zlovchining bayon qiladigan fikrlari ba'zan so'zlash paytida oydinlasha boradi, bu hol kutilmagan so'zlarni va grammatik shakllarni ishlatish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'qituvchi yuqorida aytilganlarni ko'zda tutib, o'quvchi gapirayotgan vaqtda uni diqqat bilan tinglab, psixologik yoki lingvistik to'siqqa duch kelganida, ishlatilishi zarur bo'lgan so'zni yoki grammatik shaklni aytib turgani ma'qul. Bu hol og'zaki nutqda yo'l qo'yiladigan tipik xatoni aniqlashga, navbatdagi darslarda qo'shimcha ravishda bajarish zarur bo'lgan leksik yoki grammatik mashqlarni belgilashga yordam beradi.

Shuni ham eslatish lozimki, matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar o'zbek tilida ko'p gapirmaydilar: 2-3 o'quvchigagina matn mazmuni so'zlatiladi, xolos. Natijada og'zaki nutq o'stirishda olg'a siljish talab darajasiga yetmaydi. O'quvchilarda o'zbek tilida gapirishdan iymanish kuchli bo'lib, og'zaki nutq o'stirishga jiddiy to'siqlik qiladi.

«Bu qalam», «Shifokor keldi», «Men maktabda o'qiyman» kabi erta-yu kech tilga olinadigan jumalarni mustasno etganda, mustaqil ravishda yoyiq sodda gaplarni tuza bilmaydigan o'quvchilardan biror mavzuda erkin hikoyalashni talab etishning foydasiz ekanligini bilgan o'qituvchilar umuman bunday topshiriq bermaydilar. Vaholanki, o'zbek tilida o'z fikrini izhor etmoqchi bo'lgan o'quvchi gap tuza bilishi, shu asosda hikoyalay olishi, matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qila bilishi darkor.

Nullas, o'zbek tilida o'zaro erkin so'zlashish va so'zlash uchun dialogik nutqqa xos yod olib o'rganiladigan qolip-gaplarni mustasno etganda, asosan, mutlaqo mustaqil ravishda gap tuza bilish shart. Bunday ko'nikmalar yangi so'zlarni ham, grammatik vositalarni ham gap tarkibida qo'llashni, shu yo'l bilan

faollashtirishni taqozo etadigan quyidagi nutqiy mashq turlari yordamida shakllantiriladi deb hisoblab, ularga ustuvor ahamiyat berish kerak:

- berilgan mavzuda erkin (gaplarni mustaqil ravishda tuzib) hikoya qilish;
- o‘qilgan matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilish.

Biz o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda ushbu nutqiy mashq turlarini samarali deb bilamiz. Shuni nazarda tutib, ushbu mashq turlariga batafsilroq to‘xtalamiz.

### 1.3.1. O‘quvchilarga hikoyalashni o‘rgatish

Kundalik muomalada so‘zlashuv ko‘proq dialog shaklida ro‘y beradi. Lekin fikr almashuvda monologning: xabar, tasvir, rivoyalarning ham o‘z o‘rni bor. Dialogik nutq tarkibida monolog unsurlari ishtirok etadi. Bunda savolga kengroq, ba‘zan hikoyalash yo‘li bilan javob qaytariladi. Aksincha, ayrim holatlarda monolog shaklida so‘zlayotgan kishi o‘zining boshqa bir kishi bilan nima haqda suhbatlashganini yoki boshqa kishilarning o‘zaro nima deb gaplashganini aytib o‘tadi, ya‘ni dialog shaklida so‘zlaydi. Ikkala nutq shaklida ham talaffuz malakalari va gap tuzish ko‘nikmalariga asoslangan holda hikoyalash (o‘z fikrlarini bayon qilish) va qayta hikoyalash (o‘zgalarning fikrlarini yetkazish) muddaosi mavjud bo‘ladi. Shu mulohazalar bilan kitobimizning mazkur faslida o‘quvchilarga monologik nutq shaklida hikoyalashni (o‘z fikrlarini o‘zi mustaqil ravishda tuzadigan gaplar bilan bayon qilishni) o‘rgatishning psixologik, ilmiy-metodik va amaliy asoslari, usullari xususida so‘z yuritamiz. (Og‘zaki nutqni o‘stirishda matn mazmunini qayta hikoya qilishni o‘rgatish muammolariga navbatdagi faslida to‘xtalamiz).

Hikoyalash jarayonida dastlab ayrim-ayrim, so‘ng mustaqil ravishda gap tuzish, matnni o‘qish, nutqni tinglash mashqlarida o‘rganib, mustahkamlangan til hodisalari (fonetik, leksik, grammatik) *endi jamlanib so‘zlash orqali, ya‘ni yuqori darajada – nutq oqimida bir yo‘la faollashtiriladi. Boshqacha aytganda leksik-grammatik mashq nutqiy mashq tusini oladi, bog‘lanishli nutq mahsulini yaratish darajasiga yetadi. Hikoyalash talab etilmagan darslarda esa bu ishlar nutqiy mashqqa yaqin turuvchi, oraliq bosqichni ifoda etuvchi gap tuzish mashqi darajasida yarim yo‘lda qolib ketadi.*

Ko‘rinadiki, hikoyalash bilan bog‘liq harakatlar gap tuzib aytish harakatlaridan o‘zining keng ko‘lami bilan ajralib turadi. Buni hikoyalash orqali og‘zaki nutq o‘stirish ta‘minlanadigan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘lamidan, shu ko‘lam bilan tavsiflanuvchi vazifalarni o‘z ichiga oladigan quyidagi parametrlardan bilish qiyin emas:

1. So‘z va qo‘shimchalar talaffuzini yodga keltirish va to‘g‘ri talaffuz qilish tezligi.

2. Mavzu taqozosi bilan hikoyalash paytida ishlatiladigan so‘zlarni tezroq eslash va to‘g‘ri qo‘llashni mashq qildirish.

3. Hikoyalashni grammatik jihatdan murakkablashtirib borish.

4. Gap tuzib aytish yo‘lida bajariladigan harakatlarni tezlashtirish.



5. Fikr bayon etishdagi to'liqlik va izchillik (sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar).

*Birinchi parametrga* doir topshiriqlar vaqti-vaqti bilan beriladi, borib-borib keyingi parametrlarga doir topshiriqlarni bajarish jarayonida hisobga olinadigan bo'ladi. Talaffuz xatolari ko'paygan paytdagina hikoyalash birinchi parametr asosida o'tkaziladi. Shuni ham inobatga olish lozimki, ko'p gapirish taqozo qilinadigan mashqlariga so'zlar va qo'shimchalar talaffuzidagi dadillikni oshiradi, to'g'ri talaffuz malakalarining hosil bo'lishini ta'minlaydi.

*Ikkinchi parametr* o'qituvchidan o'quvchilarga hikoyalashni o'rgatish mavzularini bilishni, ushbu mavzularni birida ishlatilgan so'zlarning katta bir qismidan ikkinchi mavzuda, bunisida qo'llangan leksikaning bir qismidan uchinchi mavzuda va hokazo foydalanish mumkin bo'ladigan qilib tartiblashni talab etadi. So'z tanlashda fe'llarning ko'proq bo'lishiga e'tibor berish, ularni dastlabki mashqlarda hikoyalash izchilligida joylashtirish muhim.

So'zlar hikoyalash mavzularining leksik ta'minoti vazifasini bajarmog'i lozim. Ular darslikning yaqin 5-10 darsida o'qilgan matnlardan tanlab olinadi. Lekin o'qituvchi og'zaki bayon ko'lamidan kelib chiqib, ilgari o'rganilmagan 3-4 so'zni oldindan tushuntirib o'tishi mumkin. Ba'zan erkin hikoyalash davomida kutilmagan tarzda o'quvchi so'ragan so'zni aytib, unga yordam berish zaruriyati ham tug'iladi. Nutqiy mashqqa qadar bajariladigan lug'at ishi o'quvchilarni og'zaki bayonga tayyorlash bosqichini ifoda etadi. Navbatdagi mashq esa ko'nikma darajasida o'zlashtirilgan leksikani faollashtirish, malaka darajasiga yetkazish muddaosiga ega bo'ladi.

Hikoyalash davomida bungacha bir qadar nofaol tanishilgan so'zlar gapda anglatadigan aniq bir ma'nosiga ko'ra inson faoliyati, shaxs va narsa-buyumlar o'rtasidagi real munosabatlarni nisbatlagan holda, shuningdek, konkret nutqiy vaziyatlarni nazarda tutish orqali faollashtiriladi, ularni assotsiativ bog'lanishlarga tayangan holda eslash va tanlab ishlatish sodir bo'ladi.

*Uchinchi parametrdan* hikoyalash orqali biror grammatik vositani faollashtirish maqsadi ko'zlanadi.

Gap tuzib aytishni o'rgatish muammolari ushbu kitob muallifidan boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham yoritilgan. Ularda rusiyzabon yoshlarga o'zbek va qoraqalpoq tilida gap tuzishni o'rgatish, bunday mashqlarning leksik va grammatik ta'minoti, gapirish paytida ishga tushadigan leksik va grammatik ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari ishlab chiqilgan<sup>1</sup>.

Grammatik topshiriq asosida tashkil etiladigan hikoyalash yaxshi o'zlashgan namuna mavzusida o'tkazilgani ma'qul. Shunda o'quvchilar nima haqda fikr bayon qilish kerakligini kamroq o'ylab, butun diqqat-e'tiborini so'zlarni grammatik jihatdan shakllantirishga, bu ishning sur'atini oshirishga qaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada gap tuzib aytish mashqlari orqali

---

<sup>1</sup> Qarang: Мирджалалова Л.Р. Ўзбек тили машгулотларида болаларни савол-жавобга ўргатишнинг назарий-методик асослари (таълим-тарбия рус тилида олиб бориладиган болалар боғчалари мисолида): Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 139 б.; Наурызбаева А.С. Методика обучения конструированию предложений на уроках каракалпакского языка в начальных классах школ с русским языком обучения: Автореф. дисс. ... канд. пед.наук. – Ташкент, 2002. – 22 с.

hosil qilingan dastlabki ko'nikmalar og'zaki bog'lanishli nutqda qat'iy lashtiriladi hamda ilk malakalarni shakllantirish uchun sharoit yaratiladi. O'quvchilar bir sirda hikoya qilganlaridan so'ng boshqa yaqin mavzularga ko'chiladi.

*To'rtinchi parametrdan* majmuaviy xarakterda bo'lib, bunda o'quvchilarga mustaqil ravishda gap tuzib aytishni o'rgatish jarayonida bajariladigan ish turlari o'zaro uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi.

*Beshinchi parametr*ga ko'ra monologik shakldagi og'zaki bayonning hajmi (necha gapdan iborat bo'lishi kerakligi), mavzu doirasida fikrning izchil bayon etilishi (bog'lanishli nutq), kommunikativ jihatlar ta'minlanmog'i, shunga qaratiladigan topshiriqlar berilmog'i lozim.

**Bog'lanishli nutq, aniqrog'i, matn tuzilishini o'rganishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ustida olib boriladigan ishlar** M.Rixsiyevaning tadqiqot ishida<sup>1</sup>, N.I.Bekniyazovanning monografiyasida<sup>2</sup> bayon etilgan. Metodist olima M.Rixsiyevaning «Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida tilshunos olimlarning matn sintaksisiga bag'ishlangan asarlariga tayangan holda murakkab sintaktik butunlik tushunchasi talqin qilingan, MSBning ichki tuzilishi, MSB va abzats munosabati aniq misollar asosida tushuntirilgan, MSBda mustaqil gaplarning o'zaro bog'lanish usullari rus tiliga qiyosan bayon etilgan, MSBlarni rusiyzabon o'quvchilarga o'rgatish, matn tuzilishini egallashga qaratilgan metodik tavsiyalar qismida mashq turlari guruhlarga ajratilgan, ushbu mashq turlarining ahamiyati, ulardan foydalanish yo'llari aniq namunalar tarzida keng yoritilgan. Metodist olima N.Bekniyazovanning «Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida)» nomli monografiyasida ilk bor ta'lim mazmuni matn tuzishni o'rganish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan, o'rgatishga doir metod va usullar ishlab chiqilgan.

Yuqorida tilga olingan ilmiy-metodik ishlar mavjudligini inobatga olib, matn tuzilishini o'rgatish masalalariga takror to'xtalmaymiz, hikoyalashni o'rgatishda nechanchi sinflarda qaysi janrlarga asoslanish lozimligini aytib o'tamiz, xolos.

Hikoyalash janriga ko'ra tasvir, rivoya, muhokamaga bo'linadi. 2-4-sinflarda asosan tasvir va rivoya ustida ishlanadi. Imkoniyatga qarab muhokama unsurlari qatnashtiriladi. Yuqori sinflarda muhokama unsurlari ortadi. Bundan tashqari, rasmlar asosida so'zlash mashqlarida ham ushbu janr turlariga yetarlicha e'tibor qaratiladi.

<sup>1</sup> Рихсиева М.М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дarsларида ўқувчиларни матн тuzишга ўргатиш: Пед.фан.номз. ... дисс. Тошкент, 1998. - 147 бет.

<sup>2</sup> Бекниязова Н. Бoshlang'ich sinflar она тили darsларида ўқувчиларга матн yaratishni ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қоракалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. - Тошкент: «Fan va texnologiya», 2012. - 160 б.

Tasvir tipidagi monologning eng oddiy ko‘rinishi *"Mana xona"*, *"Xona yorug"*, *"Xonada stol bor"*, *"Bir bola kitob o‘qiyapti"* kabi gap tuzilishlaridan iborat bo‘ladi<sup>1</sup>.

Tasvir tipida hikoyalashni o‘rgatish uchun mavzu tanlashda va o‘quvchilarni shu mavzuda so‘zlatish jarayonida quyidagilarni hisobga olish lozim bo‘ladi: 1) gap tuzilishlari o‘rgatib bo‘lingan bo‘lishi kerak; 2) tasvir tartibini tushuntirib, esga solib turish darkor; 3) navbatdagi tasvirning leksik jihatdan dastlabki (avvalgi) tasvirga yaqin kelishini ta‘minlash zarur; 4) o‘quvchilarning qiziqishlarini pasaytirmaslik, aksincha, oshirish uchun tasvirni til materiali bilan asta murakkablashtirishga erishish shart. Tasvir tipidagi monologning asta-sekinlik bilan rivojlanib borishini ta‘minlash zarur. Tasvirlash mavzulari bir-biridan keskin farq qilmagan «leksik-grammatik yaqinligi saqlangan» holda ketma-ket kelishi kerak.

Tasvir tipida hikoyalashni o‘rgatishda rasmlarning o‘z o‘rni bor. Rasmlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: barcha o‘quvchilarga detallarigacha yaxshi ko‘rinishi; buning uchun yetarli kattalikda bo‘lishi (24 X 30 sm dan kichik bo‘lmasligi); tasvir aniq bo‘lishi; ikkinchi darajali, keraksiz narsalar bilan to‘lib toshmasligi; to‘g‘ri yoritilishi; o‘quvchilar nimalar tasvirlanganini ajrata olishlari kerak.

Rivoya tipidagi monologni o‘rgatishning asosini, tayanch mavzusini kun tartibi haqida hikoyalash tashkil qiladi. O‘quvchi kun tartibi to‘g‘risida gapirib berishdan uning ayrim detallarini chuqurlashtirish va kengaytirishga o‘tadi. Ertalab hovlida yuz bergan voqea, maktabga borishda yo‘lda, bekatta, transport vositasida, maktab hovlisida, sinfda ro‘y bergan hodisa va boshqalar ertalabdan kechgacha qilinadigan ishlardan turtki oladi, shundan kelib chiqadi. Bu ishlar pirovardida o‘quvchilar badiiy asar qahramonlarining hayoti bilan bog‘liq voqea va hodisalarni oson tushunadigan hamda ular haqida gapirib bera oladigan layoqatga ega bo‘ladilar.

Shuni ham hisobga olish joizki, rusiyzabon o‘quvchilar so‘zlash chog‘ida fikrni izchil bayon qilish borasida o‘z ona tilida hosil qilgan malakalariga asoslanadilar, tipik xatolarni ham tildan tilga ko‘chiradilar. O‘qituvchi bu holatlardan ham to‘g‘ri xulosa chiqarishi darkor.

Ilgari bayon va inshoga doir metodik adabiyotlarda bog‘lanishlilik haqida ko‘proq mazkur yozma ish turlarining kompozitsion qurilishi bilan bog‘liq ravishda so‘z yuritilgan.

Eslatish lozimki, yuqorida sanab ko‘rsatilgan 5 parametr orqali ko‘zda tutiladigan ish turlarini, ayniqsa, bog‘lanishli nutq o‘stirish vazifalarini bir-ikki mashqdan keyin bajarishga kirishish, qisqa fursatda tegishli nutqiy ravonlik darajasini ta‘minlashga o‘tish natija bermaydi. Buning uchun qat‘iy reja asosida uzluksizlik tamoyiliga asoslangan holda leksik-grammatik va nutqiy mashqlar bajarish talab etiladi, ya‘ni pirovard natijaga qadam-baqadam erisha borish yo‘lini tatbiq qilish darkor. Ana shu oddiy haqiqatni bilmagan o‘qituvchi

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Йўлдошев Р. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ўстириш: III-VIII синф ўзбек тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 80 бет.

o'quvchilarni ulardan daf'atan yuqori ko'rsatkichlar darajasida hikoyalashni talab etib qiynab qo'yishi va bu xildagi topshiriqlardan bezdirib qo'yishi aniq.

O'qituvchi rusiyzabon o'quvchilar o'zbek tilida hikoyalay olmaydilar deb hisoblashi mumkin. Aksincha, biz ishlab chiqayotgan metodikaning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonini *yengillashtirishdir*. O'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganishning juda osonligi ham, o'ta murakkabligi ham uning affiksallik ekanligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, so'zga bitta qo'shimchani qo'shish orqali uni grammatik jihatdan shakllantirish flektiv tillardagi fleksiyalarga nisbatan oson bo'lsa, bir necha ma'noni boshqa-boshqa qo'shimchalar yordamida ifodalash o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi. Rusiyzabon o'quvchini o'zbek tilini o'rgana olmaymiz, degan kayfiyatga soladigan narsa uni til o'rganishning avvalidayoq so'zga birdan ortiq qo'shimcha qo'shish talab etiladigan vaziyatga tushirishdir. Basharti ma'lum muddat oralig'ida so'zga avval bitta qo'shimchani qo'shishni o'rganish tadbirlari amalga oshirilib, tegishli bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinsa, navbatdagi bosqichda so'zga ikki qo'shimcha qo'shish bilan bog'liq ta'limiy jarayon tashkil etilsa, shu tariqa so'z shakli sekin-asta darsdan-darsga, sinfdan-sinfga murakkablashtirib borilsa, ma'lum izchillikdagi leksik-grammatik va nutqiy mashqlar bajarilsa, barcha holatlarda o'zbek tilini o'rganishdagi osonlik yo'qolmaydi, barqaror saqlanib turadi. Buni o'qituvchi «O'zbek tilini o'rganamiz» o'quv qo'llanmasida<sup>1</sup> ishlab chiqilgan 80 dars, 2-, 4-, 5-, 6-, 8-sinf «O'zbek tili» darsliklarida<sup>2</sup> tavsiya etilgan darslarni o'tish tajribasidan esga olishi mumkin.

80 dars mobaynida gap qurilishlaridagi so'z shakllari ham, gaplarning turlari ham murakkablashib borsa-da, til o'rganuvchida qiyinlik hissini uyg'otmaydi. U nutqiy mashqlar orqali erishilayotgan yutuqlardan ruhlanib, til o'rganishdan charchamaydi, birday qiziqish namoyon etadi.

Affiksallik o'zbek tilida hikoyalash gap tuzish qoidalarini egallagan o'quvchi uchun shu jihati bilan osonlik tug'diradiki, fe'llarni ko'p bilgan, ularni talab etilgan bir shaklda qo'llay olgan so'zlovchi shu fe'llarga so'roq berish yo'li bilan otlarni kerakli kelishik qo'shimchasi yoki ko'makchi bilan ishlatib gaplar tuzish amalinii bajaradi, natijada u vazifani jo'ngina uddalaydi. Hikoyalashda matndan foydalanilmaydi, shuning uchun so'zlovchi fikr bayon etishda erkin bo'ladi. Bunday mashq og'zaki nutqni matnsiz o'stirish tarzida uyushtiriladigan nutqiy mashqlar usulini ifoda etadi. Tabiiyki, faqat qayta hikoyalash mashqlarigina matn asosida tashkil qilinadi. O'quvchilarga biror mavzuda hikoyalashni o'rgatmasdan, o'z so'zini shakllantirmasdan turib bajariladigan bunday mashq

<sup>1</sup> Юлдашев Р. Изучаем узбекский язык / Ўзбек тилини ўрганамиз. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. ; Тулдирилган 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 264 б.

<sup>2</sup> Yo'ldoshev R., Polvonova R. O'zbek tili. O'qish rus tilida olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun. Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 96 b.; Yuldoшев P.A., Saidnizéova A. Ўзбек тили. (Рус мактабларининг 5-синфи учун). - Т.: Ўқитувчи, 1992. – 145 б.; Юлдашев P., Рихсиева M., Усмонова B., Эргашева M. Ўзбек тили: (Рус мактабларининг 6-синфи учун). - Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.; Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. O'zbek tili. O'qish rus tilida olib boriladigan maktablarning 4-sinfi uchun. Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 96 b.; Yuldoшев P., Tuxtamirzэva M., Rixsiyeva M., Nibémetova P. Ўзбек тили: Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг 8-синфи учун дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 2000. – 110 б.; Gulomov A., Vo'ronov M., Yo'ldoshev R. O'zbek tili. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darслиk. – Nukus: Bilim, 2002. – 100 b.

o'ta qiyin bo'lib, til o'rganuvchini samarasi juda oz yumushga – matnni yod olishga undaydi.

Real voqelik so'zlovchining ichki nigohida bir-biri bilan bog'lanmagan gaplar tuzgandagidan kengroq, shaxs yoki narsa-buyumlar harakatda, ba'zan statik holatda, lekin o'zaro aloqadorlikda gavdalanadi, gap tuzganda esa ular asosan statik yoki biror harakatda qotib qolgan holatda ko'rinadi.

Hikoyalash jarayonida mavzu bilan qamrab olish mumkin bo'lgan lug'at, o'rganilgan aksariyat grammatik vositalar yaxlit faollashtiriladi. Ushbu til hodisalari bilan bog'liq gap tuzish harakatlari (amallari, operatsiyalari) avtomatlashadi. Bu esa o'zbek tilidan tasdiqlangan Davlat ta'lim standartida o'quvchilarning ayni monologik va dialogik nutqini o'stirish talabining amalga oshirilishini anglatadi. Standartda 9-sinfni bitiruvchi o'quvchilarning og'zaki nutqiga nisbatan quyidagi miqdoriy ko'rsatkich belgilangan: «O'rganilgan har bir mavzu doirasida va rasmga qarab 15-20 gap bilan izchil va bog'lanishli monologik nutq shaklida bayon qila olishlari» (260-bet). «O'rganilgan mavzular doirasida 7-10 luqma bilan, kerakli o'rinlarda qolip-gaplardan foydalanib (dialogik nutq shaklida) o'zbek tilida mustaqil ravishda o'z fikrlarini asoslangan, izohlangan, umumlashtirilgan tarzda turli nutqiy vaziyatlarda so'zlasha olishlari»<sup>1</sup>.

Masalaning pedagogik jihati shundaki, og'zaki va yozma nutqning ushbu darajasini egallagan o'quvchilarda o'zbek tilida muloqotda ishtirok etish istagi paydo bo'ladi, ya'ni ta'lim o'zining amaliy natijalarini bera boshlaydi. Og'zaki nutqi o'sayotgan o'quvchining o'qish sifati ham yaxshilanadi.

Xullas, hikoyalash jarayonida o'quvchilarning gap tuzish yo'lida egallay boshlagan ko'nikmalari malakaga aylanishdan tashqari, umumiy va bir qator xususiy (bevosita hikoyalashning o'ziga dahldor) bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Yosh o'qituvchi ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lmasa, darsda berilgan mavzuda ikki-uch o'quvchiga hikoya qildirgach, boshqa ish turlariga o'tib ketaveradi. Vaholanki, hikoyalash kuy chalish, qo'shiq aytishda bo'lganidek uzoq mashq qilishni talab etadi.

**Hikoyalashga doir xususiy bilim, ko'nikma va malakalar (BKMIlar):**

**B i l i m l a r:** qaysi sinfda bo'lishidan qat'i nazar har bir mavzuda eng kami 20 gap bilan so'zlash, izchillikka, mantiqiylikka e'tibor berish kerakligi, hikoyalash tezligi, ravonligi, kommunikativ nutq sifatlarini oshirib borish zarurligi.

**K o' n i k m a l a r:** mavzuni ochishdagi to'liqlik, izchillik, mantiqiylikni ta'minlay olish, hikoyalash tezligi, ravonligini oshira olish, kommunikativ nutq sifatleri, hikoyalashga doir miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini namoyon eta bilish.

Ko'nikma bir xil darajada turmaydi. Darsdan darsga, mashqdan mashqqa uning sifati yaxshilanib boradi, ba'zan malakaga yaqinlashadi. Ko'nikmaning shakllanish jarayoni olingan bilimlardan foydalanib nutqiy vazifalarni bajarish va

<sup>1</sup> Davlat ta'lim standartiga sharh: Ўзбек тили. Таълим бoshqa тилларда олиб бориладиган мактаблар учун // Таълим таракқиёти. Ўзбекистон Республикаси ХТВнинг ахборотномаси. 1-махус сон. - Тошкент: «Шарқ», 1999. – 260-бет.

shunga ko'nika boshlashda namoyon bo'ladi. Masalan, so'zni bilish bilim bo'lsa, uni gap tuzish yoki bog'lanishli tarzda fikr bayon qilish chog'ida yaqinda o'rganilgan lug'at yordamida eslab ishlatish ko'nikmaning dastlabki hosil bo'lish qadami sanaladi. So'zni uzoqroq o'ylab yodga tushirish ham ko'nikma hisoblanadi. Lekin ushbu xildagi ko'nikma so'zni lug'atni ko'z oldiga keltirib yoki unga qarab eslashdan sifat jihatdan farqlanadi. So'zni qisqa fursatda eslash ham rivojlangan ko'nikma sanaladi.

**M a l a k a l a r:** mavzuni ochishdagi to'liqlik, izchillik, mantiqiylikni ta'minlagan holda til egalariining so'zlash tezligiga yaqinlashtirib ravon hikoyalash, kommunikativ nutq sifatleri, hikoyalashga doir miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini bajarish.

So'zlash malakasi deganda fikrni avtomatik tarzda gaplar tuzib bayon qilish malakasi tushuniladi. Bunday malaka ayni bir mavzuda qayta-qayta gapirib beraverish natijasida shakllanadi. Lekin bayon mazmuniga o'zgarish kiritishga to'g'ri kelib so'z tanlash zaruriyati tug'ilishi bilanoq so'zlovchi ko'nikma darajasidagi nutqiy amallarni bajarishga majbur bo'ladi. Aytmoqchimizki, *hikoyalash malakasi erishilgan darajada turmaydi. Shuning uchun har gal yangi mavzuda gapirish kerak bo'lganda hikoyalash ko'nikma holatida amalga oshiriladi. Mashqni malaka darajasida bajarish uchun esa gap tuzish harakatlari ayrim yangi o'rganilgan so'zlar, biror grammatik vosita, yangi sintaktik qurilma asosida bajarilib, shu til hodisalari yuzasidan hosil bo'lgan ko'nikmalar malakaga aylantirilishi kerak. Shunday qilinsa, ya'ni o'quvchi shu tarzda dasturiy mavzular bo'yicha o'zbek tilida o'z fikrlarini erkin bayon qila olish layoqatini qo'lga kiritisa, u hayotida duch keladigan har qanday muloqot vaziyatiga tayyorlangan sanaladi.*

Y.I.Passovning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan jadvalga kiritilgan nutqiy ko'nikma sifatleri majmuasi<sup>1</sup> sirasida egiluvchanlik, ishga tushishga tayyorlik ko'nikmalariga, zo'riqmaslikka alohida e'tibor qaratish joiz. Egiluvchanlik bayon mavzusini vaziyatga qarab burib yubora olishda, o'z ifodasini topadi. O'quvchining o'qituvchi talab etgan yoki vaziyat taqozo qilgan paytda o'zbek tilida fikr bayon qila olishi ishga tushishga tayyor turganlik sifatini bildiradi. Nihoyat, gapirish paytida kishining asabi taranglashmasdan o'zini erkin tutishi zo'riqish bartaraf etilganligidan dalolat beradi.

Dastlabki hikoyalash mashqida nisbatan murakkablikdagi ko'nikmaning hosil bo'lishi ta'minlanishi kerak. O'quvchilardan biror yangi tovush-harfni, orfoepik qoidani, bir nechta yangi o'rganilgan so'zni, bir-ikki grammatik vositani, sintagmatik talaffuzni, ravonlik va tezlikni bir yo'la talab etish vazifani murakkab, qiyin qilib qo'yadi. Shu bois dastlabki faollashtiriladigan til hodisalarini cheklash, shu maqsadda ularning bir qismini ko'nikma, shuningdek, malaka shakllana boshlaganlari bilan almashtirish lozim bo'ladi.

Ko'nikma malakaga yaqinlashgan sayin sifati yaxshilanib boradi. Masalan, namunadan foydalanib 20dan ortiq savol berish va javob qaytarish talab etiladigan mashq avvalida o'quvchi namunaga qarayveradi. Bu holat dastlabki 5

<sup>1</sup> Пассов Е.И. Теоретические основы обучения иноязычному говорению в средней школе. I часть, главы I, II, III. Дисс. ...доктора педнаук – Липецк, 1980. – С. 48.

ta savol tuzish va javob qaytarishda kuzatiladi. Keyingi 5tasida u ko'zini namunadan hamda almashtirishda foydalanish uchun berilgan so'zlar ro'yxatidan uza boshlaydi. Savol-javoblar 15dan oshgandan keyin namunaga va lug'atga qaramay qo'yadi. Ko'nikma mashq avvalida quyi darajada bo'ladi, oxiriga yaqinlashgach, yuqori darajaga yetadi, malakaga o'tish chegarasida qoladi. Ilk nutqiy mashqda ham o'quvchilarning hikoyalashi har bir parametr bo'yicha dastlab quyi daraja bilan tavsiflanadi. Nutqiy ravonlik bir qator mashqlar so'ngidagina qo'lga kiritiladi. Eslatish zarurki, keyingi darslarda mashq davom ettirilmasa, hikoyalash ravonligi kamayib, tezlik pasayadi, dastlabki avtomatlashgan ko'nikma sifati orqaga qaytadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, gapirish tezligi hammada bir xil bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar ona tilida tez gapirsa, ba'zilar juda sekin so'zlaydi. Y.I.Passov ta'kidlaganidek, ikkinchi tilda rivojlangan nutq o'z sur'ati bilan ushbu individning ona tilidagi nutq sur'atiga yaqinlashishi kerak<sup>1</sup>

Hikoyalash mashqining boshida onglilik kuchli bo'ladi, ko'nikma shakllanishining oxiriga kelib, o'quvchi nutqiy vazifalarni ko'p o'ylamay bajarish darajasiga yaqin keladi.

Hikoyalash jarayonida o'quvchi bajaradigan amallar matn yaratish darajasidagi harakat va operatsiyalarni o'z ichiga oladi. K.B.Yesipovich ta'kidlaganidek, «Anglanish darajasi va harakat hamda operatsiyalarning bog'lanishidagi farqlarga ko'ra harakat deganda, so'z ishlatish amallari deganda, birinchidan, keyinchalik avtomatlashtirilishi va qisqartirilishi mumkin bo'lgan dolzarb anglanadigan harakatlarni, ikkinchidan, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida qisqartirilishi, lekin to'liq avtomatlashtirilmasligi mumkin bo'lgan harakatlarni tushunish imkonini beradi, chunki nutq aktida hattoki tilni egallashning eng yuqori pog'onasida ham lingvistik birliklar va sintaktik qurilmalarning fikr bayon qilish vazifalariga muvofiq tanlanishi ustidan nazorat saqlanib qoladi»<sup>2</sup>. Muallifning fikricha, barcha harakatlar va operatsiyalar shakllantirilayotgan faoliyatga mos topshiriqlar tizimini bajarish mobaynida hosil qilinadi<sup>3</sup>. Shuni ham eslatish joizki, faoliyat bilan bog'lab o'rganilgan so'z yoki grammatik vosita beixtiyor eslab qolinadi.

Hikoyalash ko'nikmalari malakaga yaqinlasha borgan sayin o'quvchida biror voqea-hodisa haqida o'zbek tilida gapirib berish, ya'ni nutqiy tashabbus ko'rsatish va shu orqali o'zining «Men»ini namoyon etish istagi paydo bo'la boshlaydi. O'qituvchining darsda tashabbus ko'rsatmoqchi bo'lgan o'quvchilarni rag'batlantirib turishi ushbu nutqiy sifatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Agar o'qituvchi o'quvchilarni nutqiy tashabbus ko'rsatishga undamoqchi va shunga odatlantirmoqchi bo'lsa, uning topshiriqlari quyidagi talablarga javob bermog'i lozim:

– ularning og'zaki nutq saviyasiga mos, kuchi yetadigan bo'lishi;

<sup>1</sup> Passov Y.I. Doktorlik dissertatsiyasi, 85-bet.

<sup>2</sup> Есипович К.В. Организация деятельности учащихся по использованию лексики немецкого языка в речи (На материале учебника немецкого языка для VIII класса) // Иностранные языки в школе. – 1974. – № 6. – С. 29.

<sup>3</sup> Yesipovich K.B. Nomi ko'rsatilgan maqola, 30-bet.

- hayot tajribasiga yaqin mavzu tanlanishi;
- aqliy faolligini uyg'ota oladigan vazifa qo'yishi kerak.

Berilgan mavzuda ravon hikoyalay olish ekspressiv nutq ko'rsatkichlaridan biri sanaladi. Shubha yo'qki, tashabbuskorlik erkin fikr bayon qila olish malakasi shakllana boshlagan davrda ko'proq namoyon bo'ladi. Rusiyzabon o'quvchi o'zidagi nutqiy layoqatning aniq natijalarini ko'rgach, o'zbek tilidagi nutqiy muloqotga dadil kirishadigan bo'ladi.

Hikoyalash malakasi shakllana boshlar ekan, o'quvchilar o'zbek tilida *fikrlay boshlaydilar*. Albatta, bu narsa biror fikrni bayon qilish motivi, fikrni qay tarzda, qanday so'zlar bilan ifodalash haqida o'ylash zamirida paydo bo'ladi.

Ta'limdan erishiladigan natijalar ko'p jihatdan o'qituvchining o'z oldiga qanday maqsad qo'yishiga bog'liq. Agar o'qituvchi hikoyalashni shunchaki nutqiy mashq turlaridan biri deb hisoblasa, bilim yoki dastlabki ko'nikmalar darajasida o'rganilgan leksik yoki grammatik materialni faollashtirib, uni qo'llash yuzasidan malaka hosil qilishni rejalashtirmasa, mashq og'zaki nutq o'stirish parametrlarida tayinli olg'a siljishni ta'minlamaydi, bemaqsad o'tkazilgan bo'lib qoladi.

O'qituvchi darsini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish uchun hikoyalash orqali egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni, 5 parametrdagi ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni bilishdan tashqari, so'zlashning *ruhijayrayonlari qanday kechishini, qanday fiziologik holatlar* yuz berishini aniq ko'z oldiga keltira olishi darkor.

Kishi real voqelikni ko'z oldiga keltirib gapiradi. Lekin voqelikning hammasi emas, ichki nigohidan kino lentaday o'tayotgan qismlari gavdalanadi. Kishining ko'z o'ngida real voqelikning qaysi o'rinlari namoyon bo'lsa, qay tartibda namoyon bo'lsa, u o'sha tartibda va izchillikda gapiradi.

O'quvchi ichki nigohida gavdalangan manzarani qanchalik aniq, chuqur ko'ra olsa, fikrlarini shunchalik keng, mufassal bayon qiladi. Bola tasvirni ko'z oldiga qanchalik xira, yuzaki keltirsa, shunchalik oz gapiradi.

I.A.Zimnyaya N.I.Jinning kishi ongida predmetli-sxemali kod mavjudligi, L.G.Chistyakovaning obyektarning o'zaro munosabatlari sxemasi haqidagi fikrlarini rivojlantirib, denotat kartasi degan tushunchaga to'xtaladi. Ushbu karta fikrning predmet mazmunini fokusga soladigan sxemadan iborat degan g'oyani ilgari suradi. Predmet asosidagi mazmuni tashqaridan reja, rasmlar seriyasi, diafilm va boshqalar ko'rinishida o'quvchilarga havola etish lozim degan xulosaga keladi. Olimaning fikricha, matritsa hisoblanmish matnni onga nusxa ko'chirganday ko'chirish mumkin emas, biroq predmetli sxemani esda saqlab qolish oson. Bundan tashqari, mehnat sarfi juda kam.

O'quvchi ko'pincha fikr bayon qilish predmetini juda tor tasavvur qiladi, jarayonni batafsil bayon etmaydi. Masalan, unga mashinaning baloni teshilsa, g'ildirakni almashtirish jarayonini tasvirlab berish topshirilsa, u mashinaning yukxonasidagi ehtiyot uchun olib yurilgan g'ildirakni olaman, baloni teshilgan g'ildirakni yechib, o'miga shuni qo'yaman, deb qisqagina gapirib qo'ya qoladi. Undan: «Mashinada turgan g'ildirakni qanday qilib yechasan?» – deb so'ralsa, u



demokratdan foydalanishini aytadi. Shu kabi savol-javoblar yordamida o'qituvchi teshilgan g'ildirakni almashtirish jarayonini o'quvchilarning ko'z o'ngida gavalantirishga erishadi.

Qisqa gapirishning o'z ruhiy asoslari ham bor. Chunonchi, so'zlovchi tinglovchining his-tuyg'usiga ta'sir etish, uning qiziqib eshitishiga erishish maqsadida tasavvuridagi voqea-hodisalarning o'zi keraksiz deb topgan ayrim o'rinlarini tashlab ketishga, tanlab gapirishga harakat qiladi. O'quvchining qisqa fikr bayon qilishiga shu zaruriyat ham sabab bo'lishi mumkin.

Fikmi bayon qilish gapirishga xos bo'lsa, fikr olish o'qishga xosdir. Gapirish chog'ida so'zlovchi real voqelikni yoki voqea-hodisani ko'z oldiga keltiradi va shu haqda so'z yuritadi, o'qish paytida esa matnda bayon qilinganlar asosida real voqelik, predmet, voqea-hodisa kitobxon ko'z oldida gavalana boshlaydi.

Fikr bayon qilishning real jarayonida leksik-grammatik operatsiyalar bir onda, bir vaqtda amalga oshiriladi. Lekin ta'lim jarayonida fikr bayon qilish o'ylash, eslash, to'xtab qolish tarzida kechib, bu holatlar o'quvchining nafas olish ravonligiga ta'sir qiladi.

Gapirish paytida odatdagi nafas olishdan farqli o'laroq nafas chiqarish fazasi nafas olish fazasiga qaraganda 5-8 marta uzoqroqdir. Nafas olish harakatlari esa minutiga 8-10 martaga teng, ya'ni odatdagi nafas olishga nisbatan 2 marta kam<sup>1</sup>. Gapirayotgan vaqtda chiqariladigan nafasning hajmi 1000-1500 sm<sup>3</sup> (odatdagi 500 sm<sup>3</sup> o'rniga). Nafas olish rejimining ikkinchi tilni o'rganish rejimiga o'zgarishi (moslashuvi) eshituv nazoratiga bog'liq (Ona tilidagi nutqiy nafas olish avtomatlashgan bo'ladi).

Ravshanki, o'quvchi o'zbek tilida gapirmas ekan, uning o'zbek tilidagi nutqiy nafas olishi avtomatlashmaydi, nafas olish gapirishga sezilarli to'g'anoq bo'laveradi.

Ma'lumki, mustaqil ravishda gap tuzish, shu yo'sinda yuzaga keltirilayotgan gaplar vositasida fikr bayon qilish avval ichki, keyin tashqi nutq tarzida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida fikrlash ichki nutqni bildiradi.

So'zni grammatik shakllantirish biror tayanchga qarab bajariladigan analiz bilan bog'lanadi: grammatik qo'shimcha o'zlashmagan, assotsiativ aloqalar hosil bo'lmagan bo'ladi, bunda tashqi, hali egallanmagan nutqning o'sishi kuzatiladi. Ikkinchi tilni o'qitish masalalari bilan shug'ullangan ruhshunoslar ham tashqi nutqning genetik jihatdan o'sishi ichki nutqning rivojlanishidan avvalroq sodir bo'ladi degan fikrni ilgari suradilar, boshqacha aytganda, ikkinchi tildagi nutqni egallash tashqi nutqdan ichki nutqqa qarab boradi.

O'quvchi o'zbek tilida fikrlay boshlagan bosqichga kelib nima demoqchiligini avval ichdan o'ylab, "gapirib" oladi, ya'ni ichki nutqdan foydalanadi.

Fikmi bir necha gap bilan ifodalash (biror mavzuda hikoyalash) jarayoni bajariladigan aqliy va nutqiy operatsiyalar paytida xabarni dasturlashtirish sodir bo'ladi, bunda motivlar – nutqiy harakatdan ko'zlanadigan muddao vazifalari

<sup>1</sup> Демьяненко М.Я., Лазаренко К.А., Мельник С.В. Основы общей методики обучения иностранным языкам Теоретический курс, изд. 2-е, доп. и перераб. – Киев: Вища школа, 1984. – С. 65.

aniqlanadi, xabar mazmuni obrazlar, sxemalar va tushunchalar orqali shakllantiriladi<sup>1</sup>; xabar dasturini ichki nutqda gaplar sifatida o'ylab olish yuz beradi; nihoyat, so'zlovchi hikoya qiladi yoki yozadi.

Gap tuzilishlari asosida o'zbekcha nutq ko'nikmalarini hosil qilish ishi mo'l-ko'l gapirish bilan bog'liq ta'lim jarayonini taqozo etuvchi shart-sharoitlar zamirida ro'yobga chiqadi. Bu shart-sharoitlar quyidagilardan iborat: *nutqiy namunalarning bir tipda bo'lishi; ularni berib borishning muntazamligi, vaqt jihatdan uzilishlarning bo'lmasligi, ijobiy madadlarning mavjudligi; dastlabki idrok etish, anglash, taqlid va analogiyadan foydalanish, BKMLarni shakllantirishning bosqichliligi, mashqlarning bir tildaligi, nutqiy topshiriqning mavjudligi, til hodisasini bir xildagi vaziyatlarda ko'p martalab qo'llashdan variativ vaziyatlarda foydalanishga o'tish, maqsad sari yo'nalganlik, trenirovka qilinayotgan operatsiya kiritilgan harakatni bajarishning umumiy tamoyilini anglab yetish, ilgari hosil qilingan ko'nikmalarining yangilariga ko'chirilishi va ikki til qomuniyatlari interferensiyasinning hisobga olinishi.*

**Darsda o'quvchilarning o'zbek tilida hikoyalashlari uch bosqichda tashkil qilinadi:**

- 1) sof leksik-grammatik va nutqiy leksik-grammatik mahqlar bajarish;
- 2) hikoyalash orqali leksik va grammatik materiallarni faollashtirish;
- 3) hikoyalash sur'atini va ravonligini oshirishga qaratilgan mashqlar bajarish.

Birinchi bosqichda dastlab sof leksik-grammatik mashqlar o'tkaziladi. Ushbu mashqlar sirasida lug'at ishi tashkil etiladi. Grammatik vosita ko'rsatilib, so'z birikmasi yoki gaplar tarkibi orqali ma'nosi va vazifasi tushuntiriladi. Shundan so'ng nutqiy leksik-grammatik mashqlarga o'tiladi.

O'quvchilarni yangi so'zlar va grammatik vositalar bilan tanishtirish asnosida nutqida faollashtirishga oid metodik tavsiyalarimiz 2012-yili chop etilgan monografiyamizning I-III boblarida aniq misollar keltirish orqali keng yoritilgan<sup>2</sup>. Shunday bo'lsa-da, birinchi bosqichda quyidagi ikki mashq turini albatta bajarish lozimligini eslatib o'tamiz:

- so'zlarni tez eslay olish malakasini hosil qilishga doir mashqlar;
- so'z shakllarini so'roq so'zlar yordamida rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish;
- fe'llar asosida gap tuzish.

O'qituvchi mavzu doirasida nutqda ishlatilishi mumkin bo'lgan so'zlarni 5-10 dars oldin taxminan (o'zi hikoyalab ko'rib) belgilab oladi va darsda lug'at ishini shu so'zlar bilan bog'lab olib boradi. Hikoyalash darsidan avval esa yangi so'zlar va grammatik vositani o'rgatish hamda nutqda ishlatishga qaratilgan mashqlar o'tkazadi.

Yuqoridagi mashq turlari o'quvchilarni hikoyalashga leksik va grammatik jihatdan tayyorlash imkonini beradi. Bu ishlar navbatdagi nutqiy mashqqa bir qadar yaqinlashgan holda tugallanmog'i darkor.

<sup>1</sup> O'sha joyda.

<sup>2</sup> Илдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини уларни кўп гапиртириш орқали ўстириш методикаси: Монография. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2012. – Б. 130-181.

Masalan, 2-sinfda dastlabki «Sen kecha ertalab nima qilding?» mavzusida hikoyalash uchun *turmoq, badan tarbiya qilmoq, yuvinmoq, kiyinmoq, ichmoq, yemoq, chiqmoq, bormoq, kutmoq, kirmoq, o'tirmoq* kabi fe'llarni bilish, ularni aniq o'tgan zamon I shaxs birlikda (*turdim*) qo'llay olish, shu fe'llar bilan bog'lanadigan otlarni *-ni, -ga, -da, -dan* qo'shimchalari bilan ishlata bilish talab etiladi.

Amaliyotda leksik-grammatik mashq turlari noto'g'ri tanlanadigan holatlar ham kuzatiladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtirgandan so'ng ularning ma'nosini o'zlashtirishga (so'z yoki gaplarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishga) qaratilgan mashqlar tavsiya etsa, bunday mashqlar o'quvchilarni matnini o'qib mazmunini tushunishga tayyorlaydi, ya'ni og'zaki nutq uchun zamin yaratmaydi. Bunday mashqlar o'qish paytida ishga tushadigan leksik malakalarni shakllantirish uchungina xizmat qiladi. Vaholanki, so'zlarni o'z xotirasidan tez topib eslashga, so'z va gaplarni ravon va erkin talaffuz qilishga yordam beradigan mashqlariga gapirishning leksik ko'nikma va malakalarini vujudga keltiradi. Grammatik vositalarni o'rgatish xususida ham shunday yondashuvni joriy etmoq lozim.

O'qituvchi ikkinchi bosqich avvalida hikoyalash darsini leksik-grammatik mashqdan boshlab, faollashtirish lozim bo'lgan so'z va grammatik vositalarni o'quvchilar yodiga soladi, xotirasida tiklashga harakat qiladi. Shu maqsadda fe'llar asosida «Kim ko'p so'z biladi?» o'yinini tashkil etadi.

Birinchi bosqichga qadar va bevosita ushbu bosqichda o'rganilib, bir qadar mustahkamlangan, ilk ko'nikmalar hosil qilingan leksik va grammatik materiallarni og'zaki nutqda faollashtirish ikkinchi bosqichdan ko'zlanadigan asosiy maqsad hisoblanadi.

Turli davrlarda rivoyalash tipida hikoyalash orqali faollashtiriladigan so'zlar va grammatik vositalar miqdori har xil bo'ladi. Masalan, 2-sinfda «Sen ertalab nima qilding?» mavzusida ilk so'zlash mashqida 10 dan ortiq fe'l, *-ni, -ga, -da, -dan, -dim* qo'shimchalarini nutqda qo'llash ustida ish olib boriladi. O'quvchi so'zlarni hamda ularni grammatik jihatdan shakllantirish uchun zarur bo'lgan qo'shimchalarni uzoqroq o'ylab tilga chiqaradilar. Sekin-asta bu harakatlar tezlasib boradi.

Keyinroq kelishik qo'shimchalari tez xotiraga kela boshlagach, hikoyalash yo'li bilan faollashtiriladigan yangi grammatik vositalar miqdori kamayib, 1-2 ta bo'ladi. So'zlar ham kamayadi. Masalan, 2-sinfda «Sen ertalab nima qilding?» mavzusida hikoyalash orqali kelishik shaklidagi otlarni egalik qo'shimchalari (*-m, -im*) bilan qo'llash mashq qilinadi, xolos. Chunki avvalgi hikoyalashlar jarayonida shu mavzu qamrab oladigan so'zlar ancha faollashib ulguradi. Bunday vaziyatda ikkinchi bosqich bilan uchinchi bosqich birlashib ketishi ham mumkin.

So'zni morfologik jihatdan murakkablashtirish bir xilda oson kechmaydi. Masalan, ot bilan kelishik shakli orasiga *-m* yoki *-im* egalik qo'shimchasini kiritish uchun o'quvchi uzoq o'ylab o'tirmaydi: so'zning unli yoki undoshga bitganini bilsa bo'ldi. Lekin fe'lni harakat nomi yoki sifat-dosh shaklida qo'llab, keyin ushbu hosil bo'lgan fe'l shakliga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shish uzoqroq o'ylash tarzida kechadigan jarayonni taqozo etadi.

Ozmi-ko'pmi o'yab ado etiladigan leksik-grammatik harakatlar nutqning sur'atini pasaytirib, ravon bo'lishiga imkon bermaydi. Shu boisdan hikoyalashni o'rgatishning ikkinchi bosqichi leksik-grammatik materiallarni faollashtirish mazmunidagina bo'ladi. Chunki o'quvchilar til hodisalarini qay tarzda ishlatish kerakligini o'ylar ekanlar, gapdagi so'zlarni sintagmalarga birlashtirmay, ayrim-ayrim talaffuz qiladilar.

**Hikoyalashning ikkinchi bosqichi o'quvchilar oldiga vazifa qo'yish va namuna berishdan boshlanadi.** Vazifalar quyidagicha bo'ladi: «Hozir namuna asosida hikoya qilasiz. Hikoyangizda otlarni I shaxs birlikda - m, -im egalik qo'shimchalari bilan qo'llaysiz».

Eslatish lozimki, hikoyalash maqsadsiz, ya'ni ta'limiy vazifasiz o'tkazilmasligi kerak. Agar o'qituvchi darslikning mashq shartida talab etilgani uchun berilgan mavzuda o'quvchilardan so'zlashni talab etsa, mashq oldiga biror maqsad va vazifa qo'yilmagan bo'ladi.

Hikoyalashning shu kungacha aniq belgilanmay kelayotgan o'z maqsad va vazifalari bor. Rusiyzabon o'quvchilarni o'zbek tilida biror mavzuda so'zlatishdan kuzatiladigan asosiy maqsad gap tuzib aytish jarayonini tezlashtirib, bog'lanishli nutqini rivojlantirish, ularning og'zaki nutq sur'ati va ravonligini til egalarning so'zlash sur'ati va ravonligiga yaqinlashtirishdan iborat. Bunga uzoq mashqlar natijasida erishish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga qaysi mavzuda («*Sen kecha ertalab nima qilding?*») hikoyalash kerakligini ma'lum qilib, namuna beradi.

*Men ertalab soat 7.00 da (yettida) turdim. Badan tarbiya qildim...*

Foydalanish uchun so'zlar: *yuvinyapti, kiyinyapti, ichyapti, yeyapti, olyapti, chiyapti va boshqalar.*

Birinchi namunaning 5-6 ta gapi xattaxtaga yoziladi. O'qituvchi yozilgan gaplarni o'qiydi. Gaplar yaxshi o'zlashgan bo'lishiga qaramay, o'quvchilardan qaysi gap tushunilmaganini so'raydi. So'ng hikoyalashni namunadagidek davom ettirishni topshiradi.

Darsda 10-15 o'quvchi so'zlatiladi. Har bir o'quvchi o'z kun tartibi bilan bog'lab gapirsa, mazmunda farqlar yuzaga keladi. Kimdir kun tartibiga o'zgartirish kiritadi, bu esa uni sinfdoshlarining qiziqish bilan tinglashlarini ta'minlaydi. Ayrim o'quvchilar o'z ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun qayta-qayta hikoyalashlari mumkin.

Hamma o'quvchilarning hikoyalashda ishtirok etishlari zarurligini, bir tomondan, standart talablari taqozo etadi, ikkinchi tomondan, bunday mashq bir o'quv yilida 10 tacha mavzuda o'tkaziladi, ya'ni uncha ko'p bo'lmaydi. Shuning uchun bu darsda gapimaganlar keyingi 5-6 dars mobaynida albatta hikoya qilishlari zarur. O'qituvchi navbatdagi darslarda o'quvchilar nimalarga e'tibor berishlari kerakligini tushuntiradi.

Ko'plab o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, qaysi sinfdaligidan qat'i nazar yangi grammatik materialni dastlabki faollashtirish mashqida aynan bir namuna – «*Mening kun tartibim*» mavzusida berilib, mazmuni, aytiladigan gaplari o'zlashib ketgan namunadan foydalanish til o'rganuvchilarni sira ham

zerikirmaydi, aksincha tez qo'lga kiritiladigan muvaffaqiyatlar behad ruhlantiradi.

Tayanch namunada so'z shakli orqali ifoda etilgan grammatik material quyidagi tarzda o'zgaradi:

*Men ertalab soat 7.00 da turaman. Badan tarbiya qilaman...*

*Men ertalab soat 7.00 da turmoqchiman. Badan tarbiya qilmoqchiman...*

*Men har kuni ertalab soat 7.00 da turar edim. Badan tarbiya qilar edim...*

*Men ertalab soat 7.00 da turishim kerak. Badan tarbiya qilishim kerak...*

*Men ertalab soat 7.00 da o'rindan turdim. Badan tarbiya qildim. Yuz yuvdim...*

*Men ertalab soat 7.00 da o'rnimdan turdim. Badan tarbiya qildim. Yuzimni yuvdim...*

Ushbu namunalardan biri asosidagi dastlabki hikoyalash mashqi o'z natijalarini bera boshlagach, mavzuni kun bo'yi qilingan ishlar asosida kengaytirish mumkin. Mavzuni bu xilda kengaytirish gorizontal sanaladi.

Tasvir tipidagi hikoyalash ot-ko'makchilar o'tilmagunga qadar grammatik vositalar bilan izchil boyiy olmaydi. Sababi bunday nutqda asosan o'rin-payt kelishigidagi so'z shakllari ishtirok etadi. Tasvir davomida kimlarning nima qilayotganligi haqida rivoyalash parallel bog'lanishdagi gaplardan iborat bo'ladi. Masalan: *Bir qiz kitob o'qiyapti. Ikki bola shaxmat o'ynayapti* va h.k.

O'rin ravishlari (chapda, o'ngda), ot-ko'makchilar ortiqcha so'z takroriga yo'l qo'ymagan holda tasvir doirasini kengaytirish imkonini beradi: *Deraza yonida kichkina stol turibdi. Stol ustida kitob yotibdi* va h.k.

Bunday tasvirlarda rasmlardan foydalangan ma'qul. Rasmlar asosida yozma ravishda gaplar tuzish o'quvchilarga ba'zi so'z va grammatik shakllarni eslariga tushirib olish imkonini beradi. Darslardan birida 110-maktabning o'zbek tili o'qituvchisi A.G'.Tursunxo'jayeva 9-sinfda syujetli rasmga qarab mazmunini yozma bayon qilishni topshirdi. O'quvchilar lug'atdan foydalanib, ayrim qoidalarni kitobdan topib vazifani bajarib bo'lganlaridan so'ng o'qituvchi ulardan og'zaki ravishda hikoyalashni talab qildi. Vazifa katta qiziqish bilan ado etildi. Ayrim bolalar yozganlaridan kengroq gapirishga ham erishdilar.

*Hikoyalashni o'rgatishning uchinchi bosqichida* o'quvchilardan gaplarni tezroq tuzib aytish talab etiladi. Buning uchun ular gaplarni sintagmalar asosida talaffuz qilishlari, shu yo'l bilan ravon gapirishga erishishlari kerak.

Dastlab mavzu ham, hikoyalash namunasi ham o'zgartirilmaydi. O'quvchilar yaqinda o'zlari so'zlab bera olgan mazmuni endi gaplardagi so'zlarni sintagmalarga birlashtirib hikoya qilishni o'rganadilar. Bunda gapdagi so'zlarni qay tarzda sintagmalarga birlashtirib aytish haqida o'qituvchidan olgan ko'rsatmalari asosida hikoyalashni mashq qiladilar. Bu ish katta qiyinchiliklar evaziga uddalanadi. Shuning uchun ushbu ta'limiy tadbirga alohida dars (aniqrog'i, navbatdagi darsning bir qismi) ajratiladi.

Takror hikoyalash mashqlari tashkil etiladigan darslarda mavzular yangi so'zlar hisobiga kengaytirib boriladi. Masalan, «Mening kun tartibim» mavzusi kun bo'yi qilingan ishlar asosida tarmoqlanib boradi. Keyinroq ushbu mavzular konkretlashish tavsifini kasb etadi. Chunonchi:

*Maktabda nima qilding? Kutubxonada nima qilding? Oshxonada nima qilding? Hovlida nima qilding? Uyda nima qilding? Ko'chada nima qilding?*

O'qituvchi bu kabi mavzular ro'yxatini tuzib olishda maishiy, madaniy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy mavzular, shuningdek, o'quv-biluv (o'lka bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan) hamda aniq fanlar materiallarini aks ettiruvchi mavzular doirasini nazarda tutadi.

Mavzular boshqacha ta'riflangan holda o'quvchilar hayotining biror qirrasini ochadigan qilib sinfdan-sinfga cheksiz ko'paytirib borilishi mumkin. Masalan:

*Men do'konga bordim. Men mehmonga bordim. Men hayvonot bog'ida bo'ldim. Vokzalda. Aeroportda. Muzeida.*

Mavzuning kengayib, tarmoqlanib borishi birdaniga emas, balki darsdan-darsga, sinfdan-sinfga qarab asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. O'qituvchi ana shu tarmoqlanishni oldindan ko'ra olishi va rejalashtirishda hisobga ola bilishi, tayanch namuna asosida ushbu mavzularga bog'lanish yo'llarini topa olishi kerak.

O'z navbatida, tarmoqlangan mavzular kengayib alohidalik kasb etgan mavzu bilan (masalan, «Sen darsdan keyin uyda nima qilasan?») mavzusi tarmoqlanib «Uyda», «Hovlida», «Ko'chada» kabi mavzular bilan) leksik va grammatik jihatdan yaqinlikka ega bo'lsa, tarmoqlangan mavzu uyasi boshqaboshqa bo'lgan mavzular bir-biridan leksik va grammatik jihatdan tafovuti ortib boradi. Masalan, «Kutubxonada», «Oshxonada» kabi mavzularda shunday farqlanish mavjud. Bunday paytlarda mavzularning leksik va grammatik jihati yaqin bo'lishiga e'tibor beriladi. Bunday mushkullik ikki mavzu qamrab oladigan leksikaning o'zlashgan qismiga ko'ra yaqinligi mavjud bo'lishiga erishishda ko'rinadi.

«Sen ertaga ertalab nima qilasan?», «Sen ertaga qayerga borasan?», «Sen bog'da (vokzalda, zavodda va h.k.) nima qilasan?» kabi mavzularning tarmoqlanishi odamning kun bo'yi o'qish, mehnat, madaniy hordiq chiqarish faoliyatini qamrab olish darajasiga yetadi. Natijada o'quvchi xalq og'zaki ijodi namunalari, nasriy badiiy asarlar (hikoya, qissa, roman) lavhalarini mazmunini so'zlash, mushohada yuritish layoqatiga ega bo'ladi.

Hikoyalash uchun tanlanadigan mavzular qisman o'zbek tili darslarida o'tiladigan mavzularga qarab, asosan, o'quvchilarning nimalar haqida so'zlay olishiga, shular to'g'risida gapiriladigan gaplarni kengaytirish imkoniyatiga qarab tanlanishi kerak. Boshqacha aytganda, ularda nima haqda hikoyalash bo'yicha ko'nikmalar shakllanib bo'lganligi, ya'ni start holatidan kelib chiqilishi to'g'ri bo'ladi. Masalan, kun tartibi bilan bog'liq mavzular insonning kundalik faoliyatidan biror lavha haqida hikoyalashni taqozo etishi lozim. Bunda «Sen kecha kunni qanday o'tkazding?» mavzusi start holati uchun namuna vazifasini o'taydi, «Darsdan keyin uyda nima qilding?», «Muzeiga bordim» kabi mavzular tarmoqlangan mavzuning start darajasini ifoda etadi. Birinchisi hikoyalash orqali faollashtiriladigan til hodisasiga ishora qilsa, ikkinchisi bayonni yangi so'zlar bilan to'yintirish mavzusini anglatadi. Birinchisida yangi grammatik materialni, ikkinchisida yangi leksik materiallarni yaqqol ajratish, ko'rish qulay. Bu xilda

mavzu tanlash osonlik tug'diradi. Lekin ushbu jarayonda hikoyalash mavzusining ko'pincha darsda o'tiladigan mavzu bilan to'qnash kelishi aniq.

Hikoyalash mavzusi bilan darsda o'tiladigan mavzu (ko'proq o'qish mavzusi) bir-biriga yaqin yoki bir-biridan uzoq bo'lishi mumkin. Quyi sinflarda o'tiladigan ba'zi mavzularda ana shunday yaqinlik bor, ya'ni og'zaki nutq va o'qishni o'rgatish uchun mo'ljallanadigan til materiali bir qadar teng keladigan holatlar mavjud bo'lsa, yuqori sinflarda tafovut ortib boradi. Bu narsa o'qish uchun berilgan matnlarda kitobiy so'zlar ulushining ko'payishi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, kitobiy so'zlarni og'zaki nutqda faollashtirishga harakat qilish dars vaqtini behuda isrof etish demakdir.

Agar o'qituvchi hikoyalash mavzusi bilan darsda o'tiladigan mavzuni yaqinlashtirish niyatida bo'lsa, og'zaki nutqqa singib ulgurgan leksika + 5-6 yangi tanishilgan so'z, ko'nikma va malaka darajasida o'zlashib ulgurgan grammatik materiallar + 1-2 yangi grammatik vosita chizmasiga amal qilgani, shunday yaqinlikni ta'minlashga harakat qilgani ma'qul. Shunda hikoyalashdagi osonlik saqlanib, kutilgan natijaga to'liq erishish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

Hikoyalash uchun mavzu tanlashning qiyinligi yana shundaki, o'zbek tilidan o'rganiladigan dars materiallari nutqiy faoliyatning to'rtala turini nazarda tutib belgilanishi kerak. Afsuski, aksariyat holatlarda o'quvchilarning nutqini to'rtala faoliyat turi bo'yicha o'stirish, shu maqsadda ularning so'z boyligini va til bilimini oshirish ishlari mavzuviylik prinsipi bilan chegaralab qo'yiladi. Vaholanki, og'zaki nutq o'stirish va o'qishni o'rgatish ta'limdagi o'ziga xos nisbatan mustaqil yo'nalishlar sanaladi. Shu bois, amalga oshirilgan tahlillardan ayonki, so'zlashni o'rgatish mavzusi bilan dars (asosan, o'qish) mavzusi ko'pincha mos kelmaydi.

Mavzu tanlashda biror o'quv fani bilan integrativlik ko'zda tutiladi. Masalan, o'zbek tilida hikoyalash mashqi rus adabiyotidan o'tilgan badiiy asarlar bilan integratsiyalashgan holda uyushtirilishi yaxshi natijalar beradi. Bunday hikoyalash orqali variativlikka erishish mumkin. Topshiriqlar quyidagi mazmunda bo'ladi:

a) Yevgeniy Onegin (Tatyana va b.) haqida gapirib bering;

b) asar qahramonining ijobiy axloqiy sifatleri va kamchiliklarini tavsiflab bering;

d) u yoki bu qahramonning portretini o'zingiz tasavvur qilganingizdek tasvirlab bering;

e) asar qahramoni ishlatgan «...» maqolini izohlab bering va b.

Hikoyalashni o'rgatishning yuqorida bayon qilingan uchala bosqichi o'z maqsad va vazifalariga ega bo'lib, birinchi bosqichda so'zlashning leksik hamda grammatik ta'minoti asosida tegishli bilim, dastlabki ko'nikmalar hosil qilinadi. Bunda sof leksik-grammatik va nutqiy leksik-grammatik mashqlar bajariladi. Ikkinchi bosqichda leksik-grammatik materiallarni nutqda faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi hikoyalash mashqlari bajarilib, gapdan katta birliklarni (bog'lanishli nutq mahsulini) vujudga keltirish asnosida birinchi bosqichda shakllana boshlagan ilk ko'nikmalar sifati oshirilib, malaka darajasiga yaqinlashtiriladi. Uchinchi bosqichda davomiylik, uzluksizlik tamoyillariga

asoslangan holda hikoyalashning pirovard sifat darajasi – gapirish sur’ati va ravonligi egallanadi.

*Demak, og‘zaki nutq o‘stirishga doir ishlar sirasi o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatishdan tashqari, o‘quvchilarning og‘zaki nutqqa xos so‘z boyligini vujudga keltira borish, grammatik vositalarni o‘rgatish asnosida gap tuzish, uch bosqich mobaynida leksik va grammatik materiallarni faollashtirish, jumalarni ravon aytishga, unga ifoda maqsadlarini tegishli ohang yordamida singdirishga, fikrni o‘zaro izchil gaplar orqali bayon etishga doir mashqlarni muntazam suratda bajarish kabilardan iborat bo‘ladi.*

### 1.3.2. Matn mazmunini qayta hikoya qilish

O‘quvchilarga matn mazmunini qayta hikoya qilishni o‘rgatishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad hikoyalashni yangi mazmun bilan boyitish, ayrim so‘zlarning o‘qish paytida tanishtirilgan yangi ma’no va qo‘llanish qirralarida faollashtirish, ba’zi sintaktik qurilmalarning tarkibini ko‘rsatish orqali og‘zaki nutqni davlat ta’lim standarti talablari, avvalgi qismda sanalgan parametrlar hajmida o‘stirishdan iborat.

Ta’kidlash zarurki, qayta hikoya qilishning hamma turlari ham og‘zaki nutq o‘stirish uchun birday xizmat qilavermaydi. Uning asosan matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilish turigina bu borada ahamiyatlidir. Ushbu g‘oyaning psixologik, nazariy, metodik va amaliy asoslari pedagogika fanlari nomzodi D.R.Toshxo‘jayeva tomonidan ilmiy dailangan va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan<sup>1</sup>. Tadqiqotchining «Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari (ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida lingvopsixologlarning fikr va xulosalariga tayangan holda o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda ularga o‘zbek tilidagi matnni yod oldirish, matn mazmunini dastlab to‘liq hikoya qildirishning samarasiz ish turlari ekanligi, quyi sinflardan boshlab matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan so‘zlab berish usulining afzalliklari har tomonlama asoslangan. Lingvopsixologlarning fikricha, matnni rus tiliga tarjima qilib o‘qish ham, uni yod olib qayta hikoya qilish ham o‘quvchilarni o‘rganilayotgan tilda fikrlash vaziyatiga solmaydi, matndagi gaplarni o‘zgartirish ko‘nikmalarini hosil qilmaydi. Vaholanki, matn mazmunini erkin qayta gapirib berish uchun o‘rganilayotgan tilda mutlaqo mustaqil ravishda gap tuza olish, uni istagancha o‘zgartira bilish, matndan fikr olib, ushbu fikr asosida real voqelikni ko‘z oldida gavdalantrish, shu asosda hikoyalash og‘zaki nutq o‘stirishning muhim omili sanaladi.

Odatda, til egalari (ayniqsa, talabalar) matn ko‘rinishidagi biror axborotni o‘zgalarga yetkazish (gapirib berish) uchun uni qayta-qayta o‘qiydilar, matnning ayrim o‘rinlarini yod olish harakatida bo‘ladilar. Bu harakat matndagi fikrlarni to‘liq o‘zlashtirib olish zaruriyatidan kelib chiqadi. Qayta hikoya qiluvchi biror

<sup>1</sup> Toshxўjасeva Д. Р. Матн ма змунини ўз сў злари б илан қайта хикоя қилншга ў ргатншннг м етоднк асослари (таълнм рус тнлнда олнб борнладнган мактаблар мнсолада): Пед. фанлари номз. ... днссертация. – Тошкент, 1999: Номзодлнк днсс. аторефератн. – Тошкент, 2000. – 20 б.



muhim fikrni tushirib qoldirishdan xavotirda bo'ladi. Ana shu xavotir yuqoridagi kabi yo'l tutishga undaydi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ayrim kishilar o'qilgan matn mazmunini bir o'qishdayoq o'zlashtirib, o'z fikrlarini bayon qilganday gapirib berishga moyil bo'ladilar.

O'zga tilni o'rganayotgan o'quvchilar ham ikki guruhga bo'linadi. G.V.Rogova yoshlarning qay tarzda qayta hikoyalashlarini o'rganib, ularni ikki guruhga ajratadi: 1) matnni yod olib gapirib beradigan o'quvchilar; 2) matn mazmunini o'z so'zlari bilan so'zlashga intiladigan o'quvchilar.

Ikkala holatda erishish mumkin bo'lgan natijalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun matn mazmunini qayta hikoya qilishning ikkinchi tilni o'qitish metodikasida keng yoritilgan turlarini ko'rib chiqaylik.

Matn hajmiga ko'ra qayta hikoyalash turlari:

- 1) matnni to'liq so'zlab berish;
- 2) uni qisqartirib so'zlab berish;
- 3) matnning biror qismi mazmunini so'zlab berish.

Matn mazmuniga ko'ra qayta hikoyalash turlari:

- 1) matnning mazmunini batafsil so'zlab berish;
- 2) matnning asosiy mazmunini so'zlab berish;
- 3) matnning mazmunini tanlab olib so'zlab berish.

Matnni to'liq yod olish qiyin va samarasiz ish. Nechta gapni yod olish o'quvchilarning xotira quvvatiga bog'liq: ayrim o'quvchilar bir darsda 10 ga yaqin gapni eslab qolsa, ayrimlari 5-6 ta, bo'sh o'zlashtiradigan bolalar 2-4 gapni yod olishi mumkin.

Matn mazmunini batafsil qayta so'zlab berish uchun o'quvchilar o'z so'zlari bilan ifodalashga doir, ya'ni mustaqil ravishda gap tuzishga oid BKM bilan qurollanishlari kerak.

Matnning biror qismini, mazmunining biror jihatini qayta so'zlash ko'pincha mexanik ravishda ajratilgan qismni yoki gaplarni yod olish tarzida amalga oshiriladi.

Ajratilgan qismni hajmiga ko'ra mazmuni to'liq so'zlatiladigan matnga tenglashtirish mumkin. Bu holatda ham o'quvchi matnni yod olishni ma'qul ko'radi.

Matnni, mazmunining asosiy fikrga aloqador bo'lmagan tomonlarini qayta hikoyalashga mos ravishda qisqartirish qiyin sanalib, bunda o'quvchi quyidagi kabi amallarni bajarishi kerak bo'ladi:

– muhim yoki nomuhimligiga qarab gaplarni tanlashlari, asosiy mazmuni ifoda etadigan gaplarni ajratishlari, ayrim gaplarni tushirib qoldirishlari kerak;

– ba'zi gaplarning shaklini o'zgartirishlari lozim;

– jumalarni o'zaro bog'lash uchun kerakli gaplarni qo'shishlari zarur.

Ma'lumki, o'quvchi matnni yod olib gapirib berish paytida gaplarni muhim va nomuhimga ajrata olmaydi, bunda asosiy mazmunga aloqadorligidan kelib chiqqan bilmaydi, ba'zilarini tushirib qoldirishning uddasidan chiqmaydi (xotirasidan ko'tarilib tushirib qoldirgan gaplar bundan mustasno). Bu ishlar

o'qituvchi rahbarligida matnni o'qish yoki qayta hikoyalashga tayyorgarlik ko'rish jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

Mustaqil ravishda gap tuza oladigan yoshlargina qayta hikoyalash davomida matnni o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qilgan holda qisqartirib so'zlashga muvaffaq bo'ladilar.

Matnni ixchamlashtirish quyidagi tarzda amalga oshadi:

– aniq axborotni (gapdagi) ajratish uchun formal ko'rsatkichlardan foydalanish;

– abzatsdagi mazmunga aniqlik kirituvchi yangi ma'lumotlarni ajratish;

– asosiy mazmunga aloqador yangi ma'lumotlarni mantiqiy izchillikda joylashtirish;

– gaplar va abzatslar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarning xilma-xil tiplarini aniqlash;

– matn qismlari orasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlash uchun bog'lovchi so'zlardan foydalanish;

– matnning mantiqiy bayoniga yorib kiradigan chekinish va izohlarning nimaga tegishli ekanligini aniqlash;

– voqealar, shaxslarni obrazli tasavvur qilish va tasvirlash;

– kichik mavzuda ifodalangan fikrni ta'riflash;

– dialogdagi asosiy fikrni o'zlashtirma gaplar shaklida ifodalash;

– fakt va ma'lumotlarni ularga tanqidiy munosabat bildirgan holda mantiqiy izchillikda bayon qilish;

– kitobxonning e'tiqodiga ta'sir ko'rsatishga qodir fakt va ma'lumotlarni ifodalash;

– baho beruvchi hissiy bo'yoqli so'zlarni almashtirgan holda o'qilganlarni gapirib berish;

– matnni o'z so'zlaridan foydalangan holda mumkin qadar qisqaroq bayon qilish;

– matndagi so'z va ifodalarni saqlashga harakat qilib bayon etish.

Matn mazmunini qisqartirib so'zlash kabi tanlab olib so'zlash ham o'quvchilarni o'z fikrini mustaqil bayon qilishga undaydi.

Matnning asosiy mazmunini qayta so'zlab berishda o'quvchi ayrim gaplarni boshqacha tuzadi, ba'zi gaplarni qo'shadi yoki tushirib qoldiradi. Buning uchun maxsus vaqt ajratish lozim bo'ladi. Biroq matnni bir-ikki marta o'qitib, o'quvchilardan mazmunini so'zlash talab etilsa, bu ish bo'lak tartibda sodir bo'ladi: ular matnning asosiy mazmunini ajratib olib, o'z so'zlari bilan qayta bayon qilishlari kerak. Boshqacha aytganda, ular "Asl nusxadagi so'z va iboralarni kitobxonga yaqinroq tushunchalar bilan almashtirish"<sup>1</sup> ishlarini ado etishlari darkor.

Xullas, matn mazmunini qayta hikoya qilish bilan bog'liq topshiriqni bajarishning sifat darajasi ta'minlanishi yoki ta'minlanmasligi ikki holat bilan

<sup>1</sup> Измайлов М.А. Обучение чтению на французском языке. К виду речевой деятельности в VIII классе: Дисс. ... канд. педнаук. – Горький, 1976. – С. 25.

xarakterlanadi: 1) o'quvchilar mustaqil ravishda gap tuzishni maxsus o'rganmaganlar; 2) ularda gap tuzishga doir dastlabki BKMLar shakllangan.

Qayta hikoya qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar quyidagilar:

**B i l i m l a r:** matndan fikr olish, mavzuni o'z so'zlari bilan yoritish kerakligi, gaplarning shaklini o'zgartirish, so'zlarni almashtirish mumkinligi.

**K o' n i k m a l a r:** matndan fikr ola bilish, mavzuni o'z so'zlari bilan yorita olish

**M a l a k a l a r:** matndagi fikrlarni o'zlashtirib olib, o'z so'zlari bilan ravon gapirib berish.

Shuni ta'kidlash kerakki, rusiyzabon o'quvchilar ayrim gap tuzilishlarini 2-sinfidan tez-tez uchrab turgani uchun ma'lum darajada o'zlashtirgan bo'ladilar. «Qayerda nima bor?» qurilishidagi gaplarni bemalol tuza oladilar. Biz tajriba sinfida «Hozirgi Toshkent» matnini o'qitgandan keyin «Toshkentda qanday institutlar (universitetlar, zavodlar, bog'lar va boshqalar) bor?» savoliga javob tariqasida matn mazmunini so'zlab berishni topshirganimizda, o'quvchilar faqat shu tipdagi gaplar bilan matni qisqartirib qayta hikoya qila bildilar. Bu yaxshi. Lekin nutq sintaktik qurilmalarga boy bo'lishi lozimligini ham unutmash kerak.

Xullas, hikoyalash ham, qayta hikoyalash ham o'quvchilarning mustaqil ravishda rang-barang sintaktik qurilishdagi gaplarni tuza olib aytish ko'nikma va malakalariga asoslangan taqdiridagina samara beradi.

Qayta hikoyalashning biror mavzuda hikoyalashdan qiyinroq tomoni shundaki, matnda so'zlar ko'pincha morfologik jihatdan shakllangan holda (*tashkil topganligi, quvonganidan* va *hokazo*) ishlatiladi. O'quvchilar ularni nutqda shakllantira bilish u yozqda tursin, o'qib ma'nosini tushunishga ham qiynaladilar.

Kishi o'z fikrlarini bayon qilishda erkin bo'ladi, lekin biror asar, ayniqsa, maqola mazmunini qayta hikoyalashda, birinchidan, mazmunini o'zlashtirish bilan bog'liq qiyinchilikka, ikkinchidan, o'sha maqolada yozilganidek qilib gapirish mushkulliklariga duch keladi.

Matnni uzoq o'ylab, qayta-qayta tuzatib yozgan kishi o'zi vujudga keltirgan ushbu matnni to'liq so'zlab berishda qiynaladi: qog'ozga tushirilgan fikrlar uning tilini ham, aqlini ham kishanlab, jilovlab tashlaydi. Ba'zan ma'ruzachi gapirayotib, o'zi yozganlaridan yoki yozilgan materillardan biror yeri qolib ketmayaptimikan degan hadikda bo'ladi.

Inson tafakkurining mahsuli bo'lmish matnlar turli yo'llar bilan to'plangan, jamlangan axborotlar hisobiga shu matn sohibining aql-idroki chegarasidan tashqari chiqib, undan ustun turuvchi bilim manbayiga aylanadi. Soha egasigina matndan yuqori ko'tarilgan daraja va holatda bo'ladi. Lekin aksariyat maktab o'quvchilari uchun matn bilim manbayi bo'lib qolaveradi.

Rusiyzabon o'quvchilarga o'z fikrlarini bayon qilishni o'rgatish ularga erkinlik baxsh etadi, matn iskanjasidan qutqaradi; o'zbek tilini egallash yo'llarini osonlashtiradi, qiziqishini oshiradi.

O'qilgan matn mazmunini qayta so'zlash undagi so'zlarning talaffuzi, gaplarning intonatsiyasi o'zlashgandan keyin o'tkaziladi. Chunki matnni ovoz

chiqarmay o'qish paytida so'z va gaplar ichda talaffuz qilib boriladi. Bunda ba'zan so'z va gaplarning noto'g'ri talaffuzi singib qolishi mumkin.

Matni bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham o'qib, mazmunini qayta so'zlash o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalarini tekshirib borish, matning mazmunini so'zlashga tayyorlash imkonini beradi.

Qayta so'zlash mashqini tashkil etishda matning oson-qiyinligi quyidagilarga ko'ra belgilanadi:

- 1) matning hajmi;
- 2) matnda yangi so'z, murakkab gap konstruksiyalarining oz-ko'pligi;
- 3) matning janr xususiyatlari.

Hajmi kattaroq matning mazmunini so'zlash o'quvchilarni uning ma'lum bir qismini ajratib olish yoki asosiy mazmunini ifoda etadigan gaplarni ajratishga undaydi.

Matnda uchraydigan yangi so'zlar miqdori 10-20 dan ortib ketsa, qayta hikoyalash ishlari shu so'zlar o'zlashtirilgandan keyin o'tkaziladi.

Qayta so'zlatiladigan matnlarda hikoyalashdan farqli o'laroq o'rganilmagan yoki puxta o'zlashmagan grammatik materiallar deyarli bo'lmasligi kerak.

Ma'lumki, til hodisalarini tavsiflash, tasvirlash tilni o'rganishga yordam beradi. Bunda shaklan taqqoslashlar amalga oshiriladi. Biroq og'zaki nutq jarayonida bu usuldan deyarli foydalanilmaydi, ya'ni nutq jarayonida gaplar so'zlarga ajratib tahlil qilinmaydi.

Rusiyzabon o'quvchilarga o'qilgan matn mazmunini qayta hikoya qilishni o'rgatish uchun dastlab *ular da darsdan darsga, sinfdan sinfga o'zbek tilida mustaqil ravishda gap tuzib aytishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qila borish shart.*

Tarkibida dialoglar bo'lgan matnlarning mazmunini so'zlash ham ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchilik ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish zarurligi bilan izohlanadi.

Dialogni monologik shaklda bayon qilishda, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirishdan tashqari, to'liqsiz gaplar ma'lum darajada to'liq gaplarga aylantirilib, bayon izchilligini ta'minlovchi leksik-grammatik materiallar bilan boyitiladi. Masalan: *O'zbekselmash zavodining masteri Komil aka ota-onalar majlisidan qaytib keldi. O'g'li Turg'un otasining oldiga kelib: "Dada, maktabga ota-onalar majlisiga bordingizmi?" - deb so'radi. Otasi borganligini aytdi. Keyin Turg'un sinf rahbari a'lochilar to'g'risida gapirgan-gapirmaganligini so'radi. Otasi sinf rahbarining bu to'g'rida gapirganligini, Turg'un va yana ikki o'rtog'i haqida so'zlaganini aytdi.*

IV-V sinflarda asosan tasvir va xabar mazmunidagi matnlar, VI sinfdan boshlab tavsif elementlarini o'z ichiga olgan matnlar tavsiya qilinadi.

Yuqori sinflarda xarakteristika, tarjimai hol, taqriz, hisobot, turli ish qog'ozlari asosida ham qayta hikoyalash tashkil etiladi.

Matn o'zbek bolalariga o'z nutqini o'stirishga qay tarzda xizmat qilsa, o'zbek tilida gapira oladigan rusiyzabonlarga shunchalik xizmat qila oladi. Chunonchi, o'quvchi matndan foydalanish orqali unda ishlatilgan ayrim notanish so'z va iboralarni o'z nutqida qo'llashni mashq qilsa, ayrim gap tuzilishlariga

e'tibor bersa va shu asosda o'z nutqini rivojlantirsa, matn amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero so'zlarni bilish boshqa, ishlata olish boshqa. Shuni ham eslatish lozimki, matn ustida olib boriladigan ishlarning o'z maqsad va vazifalari behad ko'p.

Qayta so'zlab berilgan matn tinglovchiga muhim, uning uchun yangi ma'lumotni (masalan, biror dorini ichish usuli haqidagi ko'rsatmani) yetkazish xarakterida bo'lsagina, kommunikativ sanalishi mumkin. Darslikdagi matn avval o'qilib, mazmuni o'zlashtirilgandan keyin qilinadigan qayta hikoya kommunikativ bo'la olmaydi.

To'g'ri, o'quvchilarga matnga doir yangi so'zlar lug'atini berib, talaffuzi mashq qildirilgach, matn mavzusida yoki shu mavzuga yaqin mavzularda hikoyalash talab etilsa, bu hikoyalash ularning hayoti bilan bog'lansa, axborot almashuvga o'xshash shartli-nutqiy muloqot vaziyati yuzaga keladi.

Matn mazmunini qayta hikoya qilish o'ziga xos amallarning bajarilishini ham taqozo etadi. Bu amallar asosan quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- morfologik jihatdan murakkablashgan so'z shakllarini soddalashtirish;
- gap bo'laklarini yoyiq holga keltirgan so'zlarni tushirib qoldirish yo'li bilan uzundan-uzun gaplarni ixchamlash;
- matndan asosiy fikrni ochishga xizmat qiluvchi gaplarni ajratish;
- bayonning kommunikativligini ta'minlash.

Og'zaki nutq o'stirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni matnni o'qishning oxirgi bosqichiga qoldirmasdan, avvalida ham oz vaqt ajratgan holda o'tkazish lozim. Shunda leksik-grammatik mashqdan og'zaki nutq o'stirishga, undan o'qishga o'tish va yana og'zaki nutqiy mashqqa qaytish ta'minlanadi. Natijada quyidagilarga erishiladi:

- o'quvchilar o'qish paytida talaffuz xatolariga kamroq yo'l qo'yadilar;
- matn mazmunini tushunib o'qishga zamin yaratiladi;
- o'quvchilar dastlabki hikoyalash mavzusi va mazmunini o'qilgan matn mavzusi hamda mazmuni bilan solishtiradilar, qayta hikoyalashda gaplarni qay tarzda ixchamlash mumkinligini o'ylab ko'radilar;
- matnda bayon qilingan asosiy fikrni ajratgan holda nimalarni tushirib qoldirish mumkinligini, asosiy fikrga ijodiy yondashgan holda uni kengaytirish imkoniyatlarini mushohadadan o'tkazadilar.

Matn o'qilgandan keyin unda bayon qilingan asosiy fikrni ajratish ustida ish olib boriladi, qisqartirish yoki kengaytirish imkoniyatlari aniqlanadi.

O'quvchilarda matn mazmunini o'zgartirish mumkin degan tushuncha hosil qilish maqsadida qayta hikoyalash mashqini bayondagi fikrlar o'rnini, kichik mavzular tartibini almashtirish va boshqa topshiriqlarni bajarish taklif qilinadi.

Ba'zi mashqlarda matnning janrini o'zgartirish talab qilinadi. Bunday mashqlar, masalan, she'r mazmunini, uning g'oyasini nasr orqali ifodalash mashqi ham o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin bayon etish mumkin degan tushunchani shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchi o'quvchilardan matn mazmunini gapirib berishlarini talab etishdan avval qayta hikoya qilishning qaysi turidan foydalanish kerakligini hal qilib olmog'i darkor. Albatta, tanlangan qayta hikoyalash turi (batafsil, asosiy

mazmunni, tanlab olib) matn mazmunini o'z so'zlari bilan so'zlashga undaydigan bo'lishi shart.

Qayta hikoyalashning qaysi turidan foydalanish kerakligi masalasini hal etishda matnning quyidagi jihatlariga qaraladi:

1) matnning til xususiyatlari:

- notanish (yangi) so'zlarning bor-yo'qligi, oz yoki ko'pligi;
- notanish grammatik materiallarning bor-yo'qligi;
- morfologik jihatdan murakkablashgan so'z shakllarining oz yoki ko'pligi;
- yoyiq gap bo'laklari hisobiga uzunlashgan gaplarning oz yoki ko'pligi;

2) matnning janr xususiyati:

- rivoya-matn;
- tasvir-matn;
- muhokama-matn.

3) matnning hajmi:

- hajmi kichik matn;
- 20-30 gapdan iborat o'rtacha kattalikdagi matn;
- hajmi bir bet va undan ortiq katta matn.

O'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalari darajasi hisobga olinadigan bo'lsa, quyidagi holatlar e'tibordan chetda qolmasligi lozim:

- mustaqil ravishda gap tuza olish ko'nikmalari holati;
- qaysi mavzularda hikoyalay bilishlari;
- matn mazmunini, unda bayon etilgan fikrlarni anglay bilganliklari.

Matn mavzusi bilan 5-7 dars oldin hikoyalash uchun tanlangan mavzular<sup>1</sup> orasida yaqinlik bo'lsa, qayta hikoyalash osonroq kechadi.

O'qituvchi o'quvchilarga matn mazmunini qayta hikoyalash namunasini ko'rsatadi. Avval bolalarga o'qituvchidan eshitganlarini qayta so'zlab berish topshiriladi. Bunday qayta hikoyalash gapirishning to'g'ri va ifodali bo'lishi, sur'atining tezlashuvi uchun zamin yaratadi.

Bir-ikki o'quvchi o'qituvchidan eshitganlarini gapirib bergach, hammaga 2-3 daqiqada matnni ichdan o'qib chiqish va mazmunini qayta hikoyalashga tayyorlanish vazifasi topshiriladi. Shubhasiz, o'qituvchi o'quvchilarga matn mazmunini qay tarzda so'zlab berish kerakligini ham ma'lum qiladi. Bu orada morfologik jihatdan murakkablashgan ayrim so'zlarni soddalashtirish, gaplarni ixchamlashga doir topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Boshqacha aytganda, analitik (tahliliy) o'qish o'tkaziladi.

Hikoyalash paytida bo'lganidek, qayta so'zlash chog'ida ham rusiyazon o'quvchilar o'zbek tilida fikrlay boshlaydilar. Zero fikrlash til shakllari bilan to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) bog'lanishda bo'ladi. Ikkala tilda gap tuzishdagi farqlanish fikrlashdagi farqlanishni belgilab beradi. Bu hol ayniqsa ikkala tildagi gapda so'z tartibidagi tafovutlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Fikr (matndagi) ongning tayyor mahsuli bo'lmay, nutq jarayonida yuzaga keladi. Gap tuzishda

<sup>1</sup> Илдошев Р. Ўзбек тили таълими мазмунини белгилашда мавзувийликнинг ўрни ҳақида // Йигирма биринчи асрда ўзбек тили таълими масалалари // «Ўзбек тили» доимий анжумани тўққизинчи йилнинг материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 180–181.

ong fikr mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Hikoyalash paytida o'quvchi tarjimaga ham murojaat etadi. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida bunday ongli *tarjima* – ongli diskursiv tarjima sanaladi; ko'p o'ylamay o'zbek tiliga o'girilgan gap – ongsiz yoki intuitiv tarjima bo'ladi.

Quyidagi topshiriqlar o'quvchilarni matn mazmunini ayrim o'zgarishlar bilan gapirib berishga undaydi.

a) voqeani o'zingiz ishtirokchisi (guvohi) bo'lganday qilib gapirib bering;

b) bu voqeaning mazmunini u haqda umumiy tarzda eshitgan do'stingizga xabar qiling;

d) qahramonning tarjimayi holini gapirib bering;

e) qahramonning biror xatti-harakatga munosabati haqida gapirib bering.

Matn mazmunini qayta hikoya qilish mashqlarini tashkil etishda muayyan izchillikka, o'ziga xos talablarga amal qilish, zaruriyat va imkoniyatga qarab ko'rsatmalilik hamda rejadan foydalanish kerak.

Qayta hikoyalashni uyushtirishda ko'rsatmalilikning ahamiyati katta. Bunda ko'rsatmalilik mo'ljaldagi nutq mahsuliga reja bo'lib xizmat qiluvchi, mazmuni va shart-sharoitlarini bir qadar belgilab beruvchi tayanch sifatida maydonga chiqadi. Ko'rsatmalilik obyektning mohiyatini so'z yordamida chuqurroq va to'laroq ochish imkonini beradi: til hodisalarining mantiqiy asosli tanlanishi, obyektlarning muhim belgilari va munosabatlarini tavsiflanishida o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan harakatlar (operatsiyalar) tizimiga ishora qiladi.

Rasmlar tashqi ko'rsatmalilik sanalsa, matnni o'qib unda tasvirlangan manzarani ko'z o'ngida gavdalantrirish ichki ko'rsatmalilikni ifoda etadi. Voqeahodisalar, videotasvirlar operativ plandagi ko'rsatmalilik deb yuritiladi.

So'zlash paytida o'quvchining qo'lida reja bo'lishi mumkin. Lekin matnlarning hajmi kichik bo'lgan quyi sinflarda savollardan iborat rejaqa zaruriyat sezilmaydi; umuman bu bosqichda ko'proq rejadan foydalanmay matn mazmunini so'zlashni talab etish ma'qul. Zarur bo'lganda tayanch so'zlardangina iborat reja qulay va samaralidir. Bunday reja ikki xil beriladi:

1. Matndagi so'zlardan olinib tuzilgan reja. Masalan, «Bog'» matnidagi quyidagi so'zlar reja vazifasini o'taydi: katta, daraxtlar, gullar, bolalar, ishlayapti, o'ynayapti, o'qiyapti.

2. So'roq so'zlardan iborat reja: qanday, nimalar, kimlar, nima qilyapti.

So'roq so'zlardan iborat rejaning afzalligi shundaki, narsa-buyumlar va harakatlarni bildiruvchi so'zlar umumlashtiriladi, lekin javobda ularni tiklash, bir necha predmet va harakat haqida fikr yuritish talab etiladi.

Darsda o'quvchi matn mazmunini ravon qayta hikoya qilib bergandan keyin qo'shimcha topshiriqlarni ham bajaradi: kartochkadagi 4-5 so'zni o'zbek tiliga tarjima qiladi, 2-3tasini (imlosini tekshirish ko'zda tutilgan so'zlarni) xattaxtaga yozadi. Xattaxtaga yozganda, xatolarga yo'l qo'ysa, matndagi so'zlarni, ularning imlosini eslab qolish uchun yana tayyorlanish topshiriladi. Qayta xattaxtaga chiqib, so'zlarni to'g'ri yozgandan so'ng, dars oxirida baho qo'yiladi.

Xullas, o'zbek tili darslarida o'quvchilarga o'tilgan mavzularda hikoyalash va o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishni o'rgatish leksik

hamda grammatik materiallar boyligini faollashtirish, gap tuzib aytish ko'nikmalarini malakaga aylantirish, so'zlash sur'atini til egalarining so'zlash sur'atiga yaqinlashtirishga qaratilgan holda tashkil etiladi.

#### 1.4. O'quvchilarning o'zbekcha dialogik nutqini o'stirish

Ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro so'zlashuvi dialog hisoblanadi. Bunday nutq so'zlashuvchilarning fikr almashishni davom ettirishga bo'lgan moyilligiga qarab rivojlanadi. Dialogda suhbatdoshlarning bir-biriga qarata aytgan so'zlari replika (luqma) deb yuritiladi. Luqma so'zi suhbatga uchinchi kishining beruxsat aralashuvi ma'nosini ham bildiradi, masalan: - *Suhbatlaringni buzdim, shekilli, salomatmisizlar?*

Dialogik nutq o'stirishdan ko'zlanadigan maqsad, bir tomondan, o'quvchilarga o'zbek tilida o'zaro so'zlashishni o'rgatish, ularni hayotdagi muloqotga tayyorlash, ikkinchidan, ularga muloqot odobi, madaniyatini singdirish, uchinchidan, nutqning ushbu shakli do'irasida qo'llanadigan leksik va grammatik materiallarni faollashtirishdan iborat.

O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilarga dialogik shaklda o'zaro so'zlashishni o'rgatish ishlari tayyor savol-javoblarni yod oldirishdan iborat bo'lmasligi kerak. Chunki turg'un iboraday bo'lib qolgan qolip-gaplarni mustasno etganda aksariyat luqmalar mustaqil ravishda gap tuzib aytish imkonini beradi. O'qituvchi ana shu imkoniyatdan unumli foydalanib, darsning ta'limiy jihatini oshirishi lozim. Yod olingan savol-javoblar asosida «suhbatlashish» bilan mustaqil ravishda gap tuzib suhbatlashish orasida juda katta farq bor. Tayyor savol, unga qaytarilgan javob suhbatdoshlarda fikr uyg'otmaydi, ularni munosabat bildirishga undamaydi. Shuning uchun suhbat bir xilda, his-tuyg'u, shaxsiy munosabat aralashmagan holda o'tadi. Vaholanki, darak gaplar xabar ohangidan tashqari, sevinch, tashvish, g'azab, kinoya kabi turli his-tuyg'u ifodalagan holda mos ohangi bilan ham aytiladi.

Mustaqil ravishda gap tuzib berilgan savol ham, unga qaytarilgan javob ham suhbatdoshlarning o'zlari tashabbus ko'rsatganliklari uchun ularda fikr uyg'otishi tabiiy. Bunga gapning his-tuyg'u bilan, biror fikr olish niyatida aytilishi ham sabab bo'ladi. Suhbatdoshining darak gap shaklida aytgan biror xabari ham, ta'kidi ham, taajjubi, kesatig'i, shubha-gumoni, noroziligi ham, ginalari ham, tashvishlari ham sherigida fikr paydo qiladi, uni munosabat bildirishga da'vat etadi. Bulardan tashqari, darak gaplar shaklida quyidagi nutqiy harakatlar ham amalga oshiriladi: mulohaza bildirish, natijani aytish, izoh, va'da, ishontirish, tuzatish, inkor, munozara, rad etish.

Dialogik luqma shaklida taqdim etilgan quyidagi ohangda aytiladigan gaplar, ular orqali ifodalangan ruhiy holatlar ham suhbatdoshni befarq qoldirmaydi: tashakkur, rag'batlantirish, xitob, hayratlanish, zavqlanish, shodlik, mamnunlik, orzu-umid, muhabbat, achinish, kinoya, g'azab, norozilik, nafrat.



Ta'kidlash joizki, dialogik nutqda shakl va mazmun birligi amal qiladi: suhbatdoshning nima maqsadda muloqotga kirishayotganligiga qarab muloqot tartibi yuzaga keladi. Demak, dialogik nutq o'stirishda ta'lim mazmuni so'zlashuv chog'ida ishlatiladigan gap turlari, ya'ni luqmalar (replikalar), shuningdek, qolip-gaplardan tashqari, muloqot tartibini ham o'z ichiga olishi kerak.

Tayyor berib qo'yilgan savol, uning javoblari yod olishdan iborat hozirlik ko'rishnigina taqozo etadi. Aslida dialogik nutq o'stirishda ham monologik nutq o'stirishda bo'lgani kabi muayyan leksik va grammatik materiallarni gap tuzib aytish mazmunidagi faollashtirish jarayoni kechishi kerak. Mustaqil ravishda gap tuzib o'zaro suhbatlashish mashqlari ana shunday imkoniyatlarni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

Eslatish lozimki, yod olish, biror manbadan o'qib aytish usuli ko'proq qisqa kurslarda qo'l keladi. Ammo uzluksiz ta'lim mobaynida (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va undan keyingi bosqichlarda) o'rganiladigan o'zbek tili fani turli sintaktik qurilmalarni ifoda etadigan gaplarni to'liq mustaqil ravishda shakllantirish layoqatini vujudga keltirish asosida o'qitilmog'i lozimligi shak-shubhasizdir.

Bir vaqtlar o'zbek tilini o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha so'zlashgichlar asosida o'rganishga intilish kuchaygan edi. So'zlashgichlardagi savol va javoblar – bildiriladigan istaklar o'qib berib yoki yod olib aytish tarzida muloqotda ishlatish uchun mo'ljallangan. Eng muhimi, tilni tor funksional doirada egallash («Gastronomda», «Vokzalda» va hokazo) bilan chegaralanilgan bo'ladi. Masalan: «Safaringiz bexatar bo'lsin!», «Oq yo'l, yaxshi boring!», «Sizga baxt yor bo'lsin!», «Yoshingiz nechada?», «Soat birdan qirq minut o'tdi» kabi gaplar qatori «Men stadionga (sport maydoniga) bormoqchi edim» (Ko'chada), «Siz qayerga bormoqchisiz?» (Taksi), «Bu tramvay (avtobus) qayerga boradi?» (Tramvay, avtobusda), «Menga bitta (ikkita, uchta) chipta bering» (Vokzalda), «Menga kaliini bering» (Mehmonxonada) kabi. So'zlashgichda tuzilishini o'rganish mumkin bo'lgan bunday gaplar ko'plab keltirilgan.

So'zlashgichni qo'lda ko'tarib yurib o'zbek tilida so'zlashuvchi kishilar bilan muloqot olib borish O'zbekistonga vaqtincha ish bilan kelganlarni qanoatlantirishi mumkin. Lekin respublikamizda muqim yashaydigan rusiyabon millat vakillari o'zbek tilini mukammal o'rganish istagidadirlar. Ular uchun kezi kelganda «Oting nima?», «Yoshing nechada?», «Vokzalga qanday boriladi?» kabi savollar yordamida havas uchun bir-ikki og'iz gaplashib qo'yish emas, keng, atroflicha, mukammal fikr bayon qilish, muloqotda bo'lish zarur. Muloqot ko'lamini ijtimoiy buyurtma belgilab beradi.

Muloqot doirasida ishlatilishi mumkin bo'lgan gaplarning hammasini yod olishning iloji yo'q, chunki ular behisobdir. Bu gaplarning aksariyat qismini tuzilishini modellashtirish orqali o'rganish to'g'ri bo'ladi. Tuzilishi gap konstruksiyalari orqali o'rganib bo'lmaydiganlarini esa (qolip-gaplarni) yod olish mumkin. Masalan, «Menga ikki kilo olma torting», «Hozir zalga to'planishimiz kerak ekan» va boshqa shu kabi gaplar dialogik mashqdan ancha avval o'xshash gaplar tuzdirish yo'li bilan o'rganilishi zarur.

Qolip-gaplarni egallash jarayonida gap tuzish operatsiyalari deyarli bajarilmaydi: ular o'quvchilarga yod oldiriladi, turg'un iboralar kabi o'quvchilar nutqiga yaxlit olib kiriladi. Masalan, bola «*Oting nima*» gapini va uni qachon aytish kerakligini bilib oladi, shunday vaziyat yuzaga kelishini kutadi.

«Savol-javob» tartibida so'zlashish o'quvchilarni hayotdagi jonli muloqotga tayyorlay olmaydi. Jonli muloqotda tartib o'zgarib turadi: javob qaytargan kishi aks savol berishi, muloqot bevosita savoldan emas, biror taklifdan boshlanishi, suhbatdoshlar bir-birlarining gaplarini ma'qullashi yoki rad etishi, o'zining turli munosabatlarini bildirishi mumkin. O'zbek tili ta'limi jarayonida esa eslab qolish va muloqot jarayonida foydalanish topshirig'i bilangina qolip-gaplar taqdim etiladi, lekin ushbu qolip-gaplarning aksariyat qismi qaysi vaziyatlarda ishlatilishi nuqtayi nazaridan izohlanmaydi, situativ mashqlar ham tizim holida emas.

Dialogik nutqni o'stirish jarayonida bolalarga avvalo savollarga javob qaytarishni o'rgatish, ularda suhbatni boshlab berish va davom ettirish malakasini hosil qilishga erishish lozim.

Dialogik nutqda so'zlovchining suhbatni boshlash va davom ettirishga mo'ljallab aytadigan gapi muhim rol o'ynaydi. Masalan, taklif luqmasi o'zidan keyin biror qaror yoki taklifni paydo qiladi: *Ana shuni olamiz. Endi so'zingizdan qaytmang, xo'pmi?* Natijada so'zlashuv davom etadi, to'xtab, uzilib qolmaydi.

Luqmalarni yuzaga keltirishda fe'lning zamon shakllari o'ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, hozirgi zamon shaklidagi fe'llar ishtirok etgan gaplardan darak-xabar mazmunini ifodalashda foydalanilsa, kelasi zamon maqsad fe'llari, *istamoq, tilamoq, orzu qilmoq* kabi so'zlar orzu-umidni anglatish imkonini beradi. Til materiallarining ana shu jihatlarni hisobga olinib, replikalar maqsadiga va tuzilishiga ko'ra sinflarga bo'lib chiqiladi. Dastlab bilish, aniqlash, iltimos-undash mazmunidagi luqmalar o'rgatilishi maqsadga muvofiq. Chunki bu luqmalar hozirgi zamon davom fe'llari, **-mi**, **-chi** so'roq yuklamalari yordamida hosil qilinadi. Bilish mazmunidagi luqmalar so'roq so'zli so'roq gaplar shaklida bo'ladi, masalan: *Bu nima?, Bu kim? Men nimani olyapman?*

Aniqlash mazmunidagi luqmalar **-mi** so'roq yuklamasi yordamida tuziladi, masalan: *Bu kitobmi? Navbatchi doskani artyaptimi?*

Iltimos-undash mazmunidagi luqmalarni tuzishda esa hurmat ma'nosidagi II shaxs buyruq fe'li (*Bering*) ishtirok etgan gaplardan foydalaniladi, masalan: *Bir stakan kofe bering. Bitta qalamdon bering. (Bering so'zi 2-sinfda dastlab yangi so'z sifatida tushuntiriladi).*

Taklif mazmunidagi luqmalarni tuzishda hozirgi-kelasi zamondagi fe'llar ishlatiladi: *Yur, kinoga boramiz. Yur, muzeyga boramiz.*

Xabar mazmunidagi luqmalarning kesimi o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe'llari bilan ifodalanadi: *Men xat oldim. Avtobus kelyapti. Bugun kinoga bormoqchiman.*

Ba'zan yuzaga kelgan nutqiy vaziyatda bir xil tuzilish va mazmundagi gaplar aytiladi. Shu sababli tuzilishi bir xil bo'lgan dialoglar (dialog-shablonlar<sup>1</sup>)

<sup>1</sup> Гурвич П.Б. Обучение ведению парного и группового диалога в школе // ИЯШ. – 1973. № 5. – С. 56.

yuzaga keladi. Bu holat luqmalarning sinflar bo'yicha taqsimlanishi o'quvchilarga dialogni izchil o'rgata borish uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek, har bir sinfdagi bolalarning so'zlashuvga doir oladigan bilimlari, hosil qiladigan ko'nikma va malakalari aniqlik kasb etadi.

So'roq mazmunidagi luqmalar quyidagicha tuzilishdagi dialoglarni vujudga keltiradi:

1. Suhbatdoshlardan biri bilish mazmunida savol beradi, ikkinchisi faqat javob qaytaradi:

2. Suhbatdoshlar bir-birlaridan ko'pincha u yoki bu to'g'rida so'raydilar, bunda savolga javob qaytargan suhbatdosh, o'z navbatida, shu savol-javobdan kelib chiqib savol beradi. Bunday dialog quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- Savol.

- Javob. Savol.

- Javob.

3. So'roq –mi so'roq yuklamasi yordamida hosil qilinib, aniqlash mazmunini ifodalaydi:

- *Ota, yetib keldikmi? - so'radi Gulasal choldan, Samarqand darvozanidan ancha o'tilgandan so'ng. (Oybek).*

Dialog savol-javob tarzida o'tadi:

- *Hulkar uydami? (Aniqlash)*

*Sanam xola birdan qovog'ini solib:*

- *Yo'q! - dedi.*

- *Qayoqqa ketdi?*

- *Bilmayman (P. Qodirov).*

Bunday so'zlashuv davom etib, dialog tuzilishi «- Savol. - Javob. Savol» shaklida o'zgarishi mumkin:

- Aniqlash.

- Inkor.

- Savol.

- Javob. Savol.

- Javob...

Chunki odatda javob berayotgan kishi so'roqlab kelgan kishiga «Nima uchun kerak edi?», «Nima ishingiz bor?» kabi savollar berishi tabiiydir. Ba'zan bunday savol aniqlash mazmunida bo'ladi, ya'ni u takrorlanishi mumkin:

- Aniqlash.

- Tasdiq yoki inkor. (Ba'zan taklif ham).

- Bilish.

- Xabar, aniqlash.

**Masalan:**

- *Zaynablarning uyi shumi?*

- *Ha, shu. Keling, amaki.*

*Tolibjon yengil tin oldi.*

- *Siz Zaynabxonning kimlari bo'lasiz? - dedi tutilib Tolibjon.*

- *Men nevaralari bo'laman. O'zingiz kim bo'lasiz? S.Ahmad.*

Bilish mazmunidagi luqmalar tinglovchini biror predmet yoki voqea haqida xabar berishga undaydi. Aniqlash mazmunidagi so'roq tinglovchini so'zlovchining fikrini tasdiqlash yoki inkor etishga undaydi.

-**chi** yuklamasi bilan tuzilgan luqmalar tinglovchini xabar berishga (tasdiqlash yoki inkor etishga) undaydi.

Darak-xabar mazmunidagi luqmalar suhbatdoshlardan birining xabari bilan boshlanib, bilish yoki aniqlash mazmunidagi luqmalarni taqozo etadi. So'zlashuvning davomi so'roq mazmunidagi luqmalar bilai boshlanadigan dialoglar tuzilishida bo'ladi:

- Xabar.
- So'roq.
- Javob. Savol.
- Javob.

Xabar luqmalari tinglovchini fikr bildirish, mulohaza yuritishga undaydi:

- *Uning yo'li - yo'l emas, - dedi yana Nafisa va o'ylanib qoldi.*
- *Bo'lmasa nima qilish kerak?*
- *Bilmadim.*
- *Menimcha, har kim o'zi noto'g'ri deb bilgan narsasiga qarshi, uning noto'g'riligini baland ovoz bilan aytib, dadil borishi kerak. (A.Muxtor).*

Taklif yoki undash mazmunidagi luqmalar inkor yoki tasdiq mazmunidagi xabarni taqozo etadi. Bunday luqmalar bilan boshlanadigan dialoglarning davomi xabar mazmunidagi luqma bilan boshlanadigan dialogdek bo'ladi:

- Taklif (yoki undash).
- Inkor (yoki xabar) .
- Savol.
- Javob.

Namuna:

- *...yur, hovliga chiqamiz.*
- *Yo'q, men navbatchiman...*
- *Sen kim bilan navbatchilik qilasan?*
- *... bilan. U kasal, bugun ham maktabga kelmadi.*

Xarid qilish paytida aniqlash, undash yoki iltimos mazmunidagi luqmalar ishlatiladi. Bunday dialoglar turli mazmundagi luqmalarni aralash qo'llashga o'rgatish uchun qulay:

- Aniqlash.
- Tasdiq (yoki inkor).
- Undash (yoki iltimos).
- Ko'rsatish.
- Bilish.
- Xabar.

Ma'lum bo'ladiki, taklif yoki undash mazmunidagi luqmalar xabarni, xabar mazmunidagi luqma so'roqni keltirib chiqaradi. Shuni nazarda tutib, avval so'roq, so'ng xabar, undan keyin taklif yoki undash mazmunidagi luqmalar bilan boshlanadigan dialog namunalarini o'rgatiladi. Bu namunalar keyingi sinflarda yangi luqma turlari hisobiga yanada boyitiladi.

Dialogda ishtirok etish tartibi va odobini bilish nutqda zarur luqmani ishlatib, mustaqil ravishda soʻzlashish malakasini hosil qilishga yordam beradi.

Dialogik nutq luqmalari mazmun jihatdan oʻz tasnifiga ega. Sahna asarlari tahlilidan maʼlumki, undash *luqmalari* ikki turli boʻladi: 1) informativ luqmalar, 2) ish-harakatga (jumladan, soʻzlashga) undovchi) luqmalar.

Axborot beruvchi luqmalar, oʻz navbatida, 4 ga boʻlinadi:

- 1) Voqea-hodisa yoki biror xatti-harakat haqidagi xabar;
- 2) Narsa-buyumlarni tasvirlash;
- 3) Faktlarga oʻz munosabatini bildirish;
- 4) His-tuygʻularini ifodalash.

Undovchi luqmalar:

- 1) ish-harakatga undash;
- 2) ish-harakatni toʻxtatish yoki uning oldini olishga intilishni ifodalash;
- 3) axborot berishga undash<sup>1</sup>.

Xabar quyidagi javob luqmalarini keltirib chiqaradi: 1) tasdiq, 2) niyatni maʼqullash, 3) toʻldirish, 4) xulosa (yakun).

Taklifga nisbatan yuzaga keladigan javob luqmalari: 1) rad etish, 2) tuzatib qoʻyish, 3) takliflarga qoʻshilmaslik, 4) mumkin emaslikni isbotlash.

Olingan xabar munosabati bilan shaxsiy munosabatini ifodalash:

- 1) minnatdorchilik, 2) hayrat, 3) quvonch, 4) yaxshi koʻrganlik, 5) qanoatlanish, 6) faxrlanish, 7) loqaydlik, 8) hayron boʻlish, 9) afsus, 10) norozilik, 11) gʻazab, 12) qoʻrquv, 13) nafrat, 14) jahl qilish.

Ish-harakatga undash: 1) iltimos, 2) maslahat, 3) taklif, 4) talab, 5) olingan axborot bilan bogʻliq ish-harakatga ruxsat.

Olingan axborot bilan bogʻliq ish-harakatni toʻxtatish yoki uning oldini olishga intilishni ifodalash: 1) taqiqlash, 2) biror narsadan ogoh qilish, 3) ijizat bermaslik, 4) dakkli.

Ish-harakatga munosabat ifodalash: 1) ishonch, 2) zarur ekanlik, 3) mumkinlik, 4) maqsadga muvofiqlik, 5) mumkin emaslik, 6) maqsadga muvofiq emaslik<sup>2</sup>.

Yuqorida bayon etilgan mazmundagi luqmalar maʼlum izchillikda, ayni paytda samarali usullardan foydalangan holda oʻrgatiladi. Mmatn namunasini rollar boʻyicha yod olib, oʻzaro soʻzlashishni tashkil etish oʻrgatishning eng kam samara beradigan, lekin amaliyotda koʻp tarqalgan usullaridan biridir. Bunda yangi dialogik matnni har gal quyidagi bosqichlar asosida oʻrgatishga toʻgʻri keladi: 1) koʻrsatish-tanishtirish; 2) dialogga doir materialni oʻzlashtirish bilan bogʻliq ishlar; 3) amalda qoʻllash.

Koʻrinadiki, taʼlimiy tadbirlar dialogik matnni oʻzlashtirib olishga qaratiladi, bu esa oʻquvchilarning erkinligini, tashabbuskorligini, boʻgʻib qoʻyadi, soʻzlashuvning variativ boʻlishiga yetarli imkon bermaydi.

«Qishda» mavzusidagi dialog asosida oʻquvchilardan biri «Hozir qaysi fasli?», «Qish yilning nechanchi fasli?» kabi savollarni beradi, ikkinchisi

<sup>1</sup> Балабайко М.С. Обучение моделированию диалогической речи // ИЯШ. – 1976, №1. – С. 27

<sup>2</sup> Balabayko M.S. Nomi koʻrsatilgan maqola, 28-bet

matndagi javoblarni aytadi. Dialogning bu shaklida ta'limiy jihatlar yo'q darajada.

Dialogik matnlar asosida o'zaro so'zlashish tarzida namoyon bo'lgan nutq ikkinchi tilni o'qitish metodikasida tayyorgarlik ko'rilgan nutq (подготовленная речь) deb nomlanadi.

O'quvchilarga matn namunasiga ayrim o'zgarishlar kiritgan holda o'zaro so'zlashishlarini uyushtirish dialogni o'rgatishning birmuncha samaraliroq usullaridan biridir. Masalan, «Tanishuv» dialogida o'quvchilardan biri «Oting nima?», «Yoshing nechada?» singari savollarni bersa, ikkinchisi namunadagi ism, yosh va boshqa so'ralgan narsani o'zgartirib, ya'ni o'zi bilan bog'lab javob qaytaradi. Natijada dialogik matn rollari yod bo'lib ketadi, shu namunada o'zaro so'zlashish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Dialog modeli – qurilishini o'zlashtirib, yuz bergan nutqiy vaziyatda o'quvchilarning nisbatan erkin so'zlashuvi qisman tayyorgarlik ko'rilmagan nutq deb nomlanadi.

Ayrim metodik adabiyotlarda mustaqil ravishda o'zaro so'zlashish malakasini hosil qiladigan ikki yo'l tavsiya etiladi: 1) dialog namunasiga yaqin mazmunda so'zlashish; 2) berilgan luqmadan kelib chiqib o'zaro so'zlashish.

O'qituvchi berilgan luqma yuzasidan dialog tuzishning kengaytirilgan loyihasini tuzib oladi: so'zlashuvning qanday vaziyatda yuzaga kelishi mumkinligi, suhbatdoshlarning muloqoti qanday mazmunda o'tishi, o'quvchilarga nima deb tushuntirishni rejalashtiradi.

O'qituvchi darsda luqma turini yoki luqmaning o'zini ma'lum qiladi va o'quvchilarning o'zaro suhbatini tashkil etadi. Dialog qayta yuzaga keltirilganda, unga ayrim o'zgartirishlar kiritiladi .

Jamoa bo'lib dialog tuzishning ta'limiy ahamiyati katta. Muallim ushbu yo'nalishda olib boriladigan ishlarni o'tkazishdan avval uning nima bilan boshlanib, nima bilan tugallanishini aniqlab, zarur bo'lsa, matnni ish daftariga yozish, ammo u bilan bolalarni tanishtirmaydi.

Dialogni boshlashda vaziyatli ekspozitsiyaning roli katta. Vaziyatli ekspozitsiya mazmunga doir tayanch faktlar, shart-sharoitlar, ijtimoiy munosabatlardir, masalan: *Xaridor bozorga keldi, u ikki kilogramm olma oladi.* Keyinroq tayanch faktlar berilmaydi, obyekt yoki maqsad ma'lum qilinadi: *Xaridor sabzavot do'koniga keldi.*

Jonli muloqot har bir insonga xos xususiyat. Til o'qitish ham jonli muloqotga yaqin bo'lishi kerak. So'zlashuv istagini uyg'otadigan voqelikni nutqiy vaziyat deb atash mumkin. Nutqiy vaziyatlar ikki turli bo'ladi: 1) tabiiy nutqiy vaziyatlar, 2) ta'limiy nutqiy vaziyatlar.

Ta'limiy nutqiy vaziyatlarni yuzaga keltirish maqsadida tuziladigan topshiriq shartlari o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi, ularning hayot tajribasini hisobga olishi, qisqa, ixcham bayon qilinishi, o'quvchilarning bilimlari nazarda tutilishi, iloji boricha o'zbek tilida tuzilishi zarur.

Basharti, ishlatish lozim bo'lgan luqma notanish, ya'ni dasturda ko'rsatilgan grammatik material yordamida ifodalansa, uning tuzilishi o'rganilib, tegishli mashq bilan mustahkamlanadi. Masalan, taajjub -ku yuklamasi yordamida bildiriladi. O'qituvchi uni bir-ikki misolda tushuntirgach,

taajjub mazmunini ifodalash uchun xattaxtaga darak gaplar yozib qo'yadi. O'quvchilar -ku yuklamasi yordamida taajjub ifodalashni mashq qiladilar, bunda gaplarning ohangiga ham e'tibor beradilar.

Y.V.Borzova dialogik mashqlarga doir quyidagi talablarni tilga oladi: 1) til materialini oldindan yaxshi ishlab chiqish; 2) mashqni bajarish texnikasini egallash; 3) aniq ko'rsatmalar yordamida o'quvchilar faoliyatini boshqarish; 4) mazmuniy va formal tayanchlar, bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun qo'shimcha tayanchlarning mavjudligi; 5) mashqni keyingi yalpi bajarish; 6) juftlarni to'g'ri tanlash<sup>1</sup>.

Gap tuzib ayta bilgan o'quvchi faqat qolip-gaplarnigina yod oladi. Bunday gaplar mavzu bilan bog'lab berilishi yoki qumlab taqdim etilishi, ularning ishlatilish holatlari izohlanishi zarur. O'quvchi tayyorlanmagan holda yuzaga keltiriladigan dialogda ulardan foydalanishni mashq qilishlari lozim. Mavzular esa ko'pincha yangi tanishiladigan mavzuviy so'zlar bilan bog'lanadi hamda ularni mustahkamlash darslariga to'g'ri keladi. Masalan, «Meva va sabzavotlar» leksikasi o'tilayotganda «Bozorda» mavzusidagi dialoglar yuzaga keltiriladi.

O'quvchilarga turmushda yuz berishi mumkin bo'lgan tipik muloqot variantlarini o'rgatishda so'zlashuv sohalaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. V.L.Skalkin og'zaki muomalani 8 sohaga bo'ladi: 1) sotsial-maishiy xizmat; 2) oila; 3) kasb-hunar, mehnat; 4) sotsial-maishiy hayot; 5) ijtimoiy faoliyat sohasi; 6) ma'muriy-huquq sohasi; 7) o'yin va mashg'ulotlar sohasi; 8) ommaviy sayl-tomosha sohasi<sup>2</sup>.

Bunday ko'lamda dialogik nutq o'stirish yuzasidan olib boriladigan ishlar o'quvchilarni o'zbek tilida har tomonlama fikr almashishga tayyorlashni ko'zda tutadi. Shunga ko'ra o'qituvchi yuqoridagi sohalarning har birida so'zlashuv yuz berishi mumkin bo'ladigan nutqiy vaziyatlarni hisobga olmog'i lozim.

Shunday qilib, o'quvchilarga o'zaro dialogik shaklda so'zlashishni o'rgatishda o'qituvchining oldida quyidagi ta'limiy vazifalar turadi:

1. O'quvchilarga o'zaro so'zlashish tartibini o'rgatish.
2. Quyi sinflarda o'quvchilarni dialog namunasi bilan tanishtirgach, uni o'z hayoti bilan bog'lab ayrim o'zgarishlar kiritgan holda ijro etish.
3. Qolip-gaplar bilan izchil tanishtira borish, ularning qay vaziyatlarda qo'llanishiga izoh bergan holda nutqiga singdirish.
4. Loyiha sifatida tayyorlab kelingan dialogni darsda yuzaga keltirish.
5. Nutqiy vaziyatlar yaratish yo'li bilan o'quvchilarning tipik muloqot mavzularida erkin so'zlashuvlarini tashkil etish.

*Dialogik luqmalarning ishlatilish tartibini o'rganish* muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilar savol-javob tartibida o'zaro «suhbatlashish»da tartib bilan bog'liq qiyinchilikni his etmasalar, savol – javob, aks savol tartibida so'zlashishda tartibni unutishdan iborat qiyinchilikka duch keladilar: ba'zan javobdan so'ng o'zlari savol berishlari kerakligini esdan chiqaradilar.

<sup>1</sup> Борзова Е.В. Развитие умений диалогической речи учащихся 5–6 классов средней школы на функциональной основе (на материале англ. яз.): Дисс. ... канд.педнаук – Ленинград, 1984. – С. 142.

<sup>2</sup> Скалкин В.Л. Сферы устногоязычного общения и обучение речи // Русский язык за рубежом. – 1973, – № 4.

2-sinfda dastlab juda jo'n gaplar asosida (*Bu kim? Bu nima?*) lug'at ishi tashkil etiladi. Shuning uchun o'quvchilarga aks savol berishni mashq qildirish mumkin. Masalan, narsa-buyumlarning o'zi yoki rasmlar asosida so'zlashish namunasi xattaxtaga yoziladi:

- Bu nima?
- Bu parta. Bu nima?
- Bu ruchka...

O'qituvchi savolga javob qaytargan o'quvchi aks savol berishi kerakligini uqtiradi, ikki o'quvchi misolida namuna ko'rsatadi. Bu tartibda suhbatlashishda javob qaytargan o'quvchi savol berishni unutganda, o'qituvchi «Endi sen so'ra», – deb eslatib turadi.

O'zaro so'zlashuvda unda ishtirok etish tartibidan tashqari, *mul oqotning jonliligini ta'minlash zarur*. Buning uchun o'quvchilardan o'z suhbatdoshiga qaragan holda (ba'zan ismini aytib) savol berish va javob qaytarishni talab etish ma'qul.

Dialog paytida savol bilan javob o'rtasida, umuman, luqmalar oralig'ida uzoq to'xtamlar, katta-katta uzilishlar bo'lmasligi lozim. O'qituvchi suhbat jarayonida javobning iloji boricha tez aytilishini talab qiladi, tez javob qaytarganlarni rag'batlantirib turadi.

*Luqma turlari asosida dialogni boshlay olish* suhbatdoshlar o'rtasidagi muloqotni yuzaga keltirish va davom ettirishning muhim omilidir.

Undash mazmunidagi luqma bilan boshlanadigan dialoglar o'quv qurollari, bufet mavzulari bilan bog'lab uyushtiriladi. So'zlashuvning bu turi og'zaki muomalaning maishiy xizmat sohasiga yaqinligi bilan ahamiyatlidir. U o'quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlaydi. Chunonchi:

- *Ikkita daftar, beshta qalam bering.*
- *Mana, oling.*
- *Necha so'm bo'ladi?*
- ... *so'm.*
- *Mana ...so'm. Rahmat.*
- *Marhamat.*

Shu matn asosida o'quvchilarning o'zaro so'zlashuvi tinglangach, bufet mavzusida dialog tuzish topshiriladi. Bolalarga nimalar sotib olish kerakligi aytib turiladi: bitta shirin kulcha, bir stakan sut, bitta keks kabi.

Dialog paytida sotuvchi-o'quvchi xaridor-o'quvchi nimani sotib olishiga qarab, yuqoridagi predmetlarni olib uzatish harakatini qiladi va hokazo. Bu esa o'quvchilarning darsga, so'zlashishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Bundan tashqari, dialogga sahna elementlari ham kiritiladi: eshikni taqillatish, ruxsat so'rash, salomlashish, xayrlashish va boshqalar. Bunda quyidagi kabi luqmalarni ham ishlatish lozim bo'ladi. Kim u? – Bu – men, Sashaman, Kirish mumkinmi? Kiring. Kechirasiz. Unda nima ishing bor?

«Meva va sabzavotlar» mavzusida o'quvchilarga meva sotib olishda dastlab *bering* deb emas, *torting* deb murojaat qilish kerakligi ta'kidlanadi. So'ngra xattaxtaga quyidagilar yozib qo'yiladi: a) ikki kilo olma; b) uch kilo shaftoli; d) bir kilo nok; g) ikki kilo anor; e) bir kilo olcha.



Masalan:

– *Menga ikki kilo olma torting.*

– *Mana oling.*

– *Qancha bo'ladi?*

– ... *so'm... (Pulni o'qituvchi aytib turadi.)*

– *Mana ... so'm ... Rahmat.*

– *Marhamat.*

O'quvchilarning yuz, ming bilan bog'liq sanoq sonlarni bilishlarini nazarda tutib, yuqoridagi kabi so'zlashuvni kengroq tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki meva sotib olishda, odatda, avval uning bir kilosi qancha turishi so'raladi. Bunda ellikdan ortiq sonlarni aytishga ham ehtiyoj seziladi:

#### **BOZORDA.**

– *Bir kilogramm olma necha so'm turadi?*

– ...*so'm.*

– ...*so'mdan berasizmi?*

– *Mayli. Necha kilo olasiz?*

Shundan so'ng bozordan uzum, olcha, shaftoli, nok sotib olish taklif qilinadi. O'quvchilar yuqoridagi kabi o'zaro so'zlashadilar. Sabzavot mavzusiga doir so'zlar o'rganilganda sabzi, kartoshka, pomidor, piyoz sotib olish misolida o'quvchilarning dialogik nutqi o'stiriladi. Poliz ekinlari mahsulotlarini sotib olishda o'quvchilar "Menga bitta shirin qovun tanlab bering", "Bu tarvuz necha kilogramm keladi?" kabi gaplarni ishlatishga o'rganishlari mumkin.

Xabar mazmunidagi luqma bilan boshlanadigan dialoglar tinglovchida turli savollar, shuningdek, munosabat uyg'otadi. Dialogning nima uchun mo'ljallangani, uning funksiyasi; qayerda, qachon, nima uchun undan foydalanilishi, uning yordamida qanday kommunikativ vazifalar hal qilinishi tushuntiriladi.

O'quvchi dialogik shaklda so'zlashuvga kirishar ekan, u o'zidagi to'planib kelayotgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanadi, biror manbadan foydalanadi, kimlardandir andaza o'radi. Shubhasiz, dialogda ishlatilishi lozim bo'lgan luqma turlari avvalgi darslarda o'rganilgan bo'lsa, o'quvchi ularni yangi yoki qisman yangi sharoitga moslashtira bilsa, u so'zlashuvda bir qadar erkin ishtirok etadi. U qiynalib qolgan paytda o'qituvchi yordamga keladi. Lekin uning yordami kerakli luqmani aytish tarzida bo'lmasligi lozim. Masalan, so'roq so'z eslatilishi, suhbatdoshining rejasi ma'lum qilinishi mumkin. Rasmlar muloqot tartibini ham, mazmunini ham yodga solish uchun xizmat qila oladi.

Y.I.Passov nutqiy muloqotning quyidagi asosiy qonuniyatlariga e'tiborni qaratadi:

- 1) muloqotning shaxsga xoslik tavsifi;
- 2) uning funkcionallik tavsifi;
- 3) muloqotning vaziyatlilik;
- 4) uning evristikligi (yangiligini)<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1985. – С. 6.

Suhbatdoshlarning har biri o'z shaxsiy fazilatlarini, bir-birlariga bo'lgan munosabatlari asosida so'zlashadi. Y.I.Passovning ta'kidlashicha, muloqot ishtirokchilari orasida hamma vaqt muayyan o'zaro munosabatlar mavjud bo'ladi (munosabatning yo'qligi ham munosabat, faqat nol munosabat). Ma'lum bir vaziyatlarda bunday kishilar o'rtasida aloqaga kirishish ehtiyoji paydo bo'ladi... Shunda muloqot o'z ehtiyoji obyektiga erishish imkonini beradigan yordamchi faoliyatday bo'lib qoladi<sup>1</sup>.

Suhbatdoshlarning o'zaro munosabatlari muloqot predmeti hisoblanadi. Ayni shu predmet faoliyat tavsifini belgilab beradi. Ayni shu predmetda ehtiyoj amalga oshadi, buning natijasida u faoliyat motiviga aylanadi<sup>2</sup>.

### Dialogik nutq o'stirishda nutqiy vaziyatlar yaratish yo'llari

Vaziyatli nutq turli tavsifidagi vaziyatlar bazasida amalga oshiriladigan kommunikatsiyadir. Vaziyat – bu voqelik shart-sharoitlaridir. Nutqiy vaziyat - nutqiy reaksiyani qo'zg'atadigan voqelik shart-sharoitlari, kommunikatsiya (muomala) sodir bo'ladigan hayotiy shart-sharoitlardir. Vaziyatdan tashqarida real muomala bo'lmaydi.

Nutqiy vaziyatlarning tasnifi A.G.Zavyalovanning tadqiqot ishida keng bayon etilgan<sup>3</sup>. Ikkinchi tilni o'qitishda ulardan bittasi – shartli nutqiy vaziyatlar alohida o'rin tutadi. Masalan, o'quvchilardan biri sotuvchi, ikkinchisi xaridor rolini ijro etsa, biri nimalardir sotsa, boshqasi sotib olsa va haq to'lasa, bularning hammasi shartli bo'ladi.

Agar darsga meva va sabzavotlarning mulyajlari, tarozi olib kirilsa, nutqiy vaziyat o'yin tusini oladi. Buni shartli o'yinli vaziyat deb atash mumkin.

Nutqiy vaziyatlar tasavvurda uyg'otiladi.

Yangi hayotiy voqea muhokama qilinsa, tabiiy nutqiy vaziyat yaratiladi.

Nutqiy vaziyatlar quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi:

- 1) rasmlar yordamida;
- 2) tushuntirish orqali;
- 3) topshiriq berish yo'li bilan.

Tabiiy nutqiy vaziyatlar qayta yaratilsa, u ta'limiyga aylanadi.

Nutqiy vaziyatlar ko'pincha so'z yordamida yaratiladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilardan biriga *nutqiy vaziyatni* ma'lum qiladi: «Сообщил классу о том, что ты идешь в магазин». U xabar beradi: «*Men do'konga ketayapman*». Sinfidagi boshqa o'quvchilarga shu xabar yuzasidan savollar berish topshiriladi.

Ba'zan nutqiy vaziyatni so'z bilan tushuntirmay pantomima tarzida hosil qilish mumkin.

Ayrim dialoglar sahna ko'rinishlarini ijro etish tarzida tashkil qilinadi. Ijrochilar qo'llarida nutqiy vaziyat va uning asosida suhbatlashish qay tartibda

<sup>1</sup> O'sha joyda.

<sup>2</sup> O'sha kitob, 7-bet.

<sup>3</sup> Завьялова А.Г. Ситуативное обучение устной речи на начальном этапе средней школы (на материале англ. яз.): Дисс. ... канд. пед. наук. - Л., 1983. - С. 90-91.

borishi tushuntirilgan topshiriqli kartochkalar bo'ladi. Bunday holatlarda real-kommunikativ o'yinli nutqiy vaziyat yaratilgan bo'ladi.

Ma'lum davrga kelib sahnalashtirilgan o'yinli nutqiy vaziyatlarga murojaat etish mumkin. Bunda o'quvchilarga yaxshi tanish asar qahramoni yoki qahramonlari qatnashadigan rollarni ijro etish taklif qilinadi.

«Maktab» mavzusida tashkil etiladigan dialog ikki notanish kishining tanishuvi mazmunida bo'lgani ma'qul. Bunda o'qituvchi xattaxta yoniga ikki o'quvchini chaqiradi. Biri o'zi qidirayotgan maktabni so'raydi. Ikkinchisi javob qaytargach, nima uchun kelganini aniqlaydi. So'ngra bir-biri bilan «tanishadilar». Bunday dialoglar, bir tomondan, real-kommunikativ, ikkinchi tomondan, shartli, o'yinli, sahnalashtirilgan nutqiy vaziyatga asoslanadi.

Nutqiy vaziyatni taxminan, noaniq tushuntirish mumkin yoki juda aniq ko'rsatish ham mumkin.

So'zlashuv davomida nutqiy vaziyatni o'zgartirish yangi fikrning vujudga kelishini taqozo qiladi, uni til vositalari yordamida ifodalashni talab etadi. Konkret vaziyatni anglab turib zarur nutqiy yechim qidirish o'z so'zi bilan gapirishga undovchi qudratli omildir. Masalan, «*Soat beshda men seni do'kon oldida kutaman*» degan gap aytilsa, suhbatdosh: «*Yaxshi, men roppa-rosa soat beshda yetib kelaman*», «*Kechirasan, men kela olmayman*», «*Yaxshi, lekin men u do'kon qayerdaligini bilmayman*» va boshqa xilma-xil javob luqmalari berilishi mumkin.

A.G.Zavyalova tanishtiruv-tayyorlov bosqichida bajariladigan vaziyatli mashqlarni bir necha turga ajratadi. Bular orasida harakatli nutqiy vaziyat, harakat tasvirlangan rasmlar alohida o'rin tutadi.

Aniq ta'riflangan vazifa fikr bildirish uchun rag'bat, «turtki» bo'ladi, u nutq shaklini ham belgilab beradi (monologik yoki dialogik nutq).

O'qituvchilar ta'lim jarayonida nutqiy vaziyatlarning ikki turidan ko'proq foydalanadilar:

1) sinfda yuzaga keladigan tabiiy (real) vaziyatlar;

2) og'zaki nutq o'stirish jarayonida o'qituvchi tomonidan yaratiladigan ta'limiy (o'quv) vaziyatlar.

O'quv mavzuviy vaziyatlar hamma vaqt o'qituvchi tomonidan rejalashtiriladi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) shartli-real vaziyatlar (masalan, navbatchilik muhokamasi);

2) eshituv-ko'ruv vositalar bazasida uyushtiriladigan vaziyatlar;

3) o'qilganlar bazasida yaratiladigan vaziyatlar.

Barcha holatlarda turtki so'z vositasida beriladi.

Metodik adabiyotlarda dialogik nutq ikki turga bo'linadi: kommunikativ dialog, nokommunikativ dialog<sup>1</sup>.

Kommunikativ dialog ko'proq faktik ma'lumotlar asosida o'tadi. Masalan, «*5-dorixonaga qayerda?*», «*Vokzalga nechanchi tramvay boradi?*» va boshqalar.

Nokommunikativ dialog til hodisasini o'rganishga qaratilgan mashqlar ko'rinishida bo'ladi. Masalan, fe'llar asosida o'tkaziladigan savol-javob shular

<sup>1</sup> Demyanenko M.Ya., Lazarenko K.A., Melnik S.V. Nomi ko'rsatilgan kitob, 33-bet.

jumlasiga kiradi: «*Qayerga ketyapsan?*», «*Qaerdan chiqyapsan?*» va hokazo. Bunda o'quvchi suhbatdoshining hech qayerga ketmayotgani, hech qayerdan chiqmayotgani va boshqalarni bilib turib yuqoridagi kabi savollar beradi. Fe'lning zamonini o'zgartirish orqali keyinroq shu savol-javoblarning o'zini kommunikativga aylantirish mumkin: «*Kim bilan gaplashmoqchisan?*», «*Qayerda dam olasan?*» kabi.

Real so'zlashuvda dialog *motiv*siz deyarli amalga oshmaydi. Ikki kishi soatlab yonma-yon o'tirib, bir-biriga aytish uchun bir og'iz gap topolmaydigan paytlar bo'ladi. O'zga tilni o'rganuvchilar esa savol o'ylab topishga ko'p kuch sarflaydilar, chunki uni gap shaklida ifodalash vazifasi ham ko'ndalang bo'lib turadi. Shunga ko'ra ham ona tilida monolog qiyinroq bo'lsa, ikkinchi tilni o'rganishda dialog qiyinroqdir<sup>1</sup>.

Dialogni o'rgatish bosqichida bajariladigan vaziyatli mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: yakka personajlardan foydalanib hosil qilinadigan o'yinli vaziyatlar asosidagi mashqlar (shartli-nutqiy vaziyatli mashqlar); rasm solish davomida harakatlarni fahmlab bilish, «pantomimalar» bilan bog'liq vaziyatli mashqlar; dialog-zanjirlar; «yashirib olgan» personajni topish; «quloqsiz» personajni tarbiyalash; asar qahramonining bajaradigan harakatlarini o'ylab topishga doir vaziyatli mashqlar. Bu mashqlar leksik yoki grammatik topshiriqlarga muvofiq o'tkaziladi.

Nutqiy vaziyatni o'zgartirib turish orqali o'quvchilarni erkin muloqotga tayyorlash dialogik nutq o'stirishning muhim omillaridan biridir. Bunda o'quvchi o'zgargan vaziyatga qarab, unga moslasha bilishi va tegishli luqma bilan dialogga qo'shila olishi zarur. Uni shunga o'rgatish uchun nutqiy vaziyat o'zgargan rasmlar seriyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bola sharoitga qarab luqma tashlashga odatlanadi.

Telefon orqali so'zlashuv suhbatdoshlarning bir-birini ko'rmasdan o'zaro gaplashishga o'rganishlarida muhim rol o'ynaydi. Suhbatdoshlar bir-birlarining qay vaziyatda gapirayotganliklarini gaplar ohangidan taxmin qilishlari talab etiladi.

Barcha o'quvchilarning ko'proq gaplashishlarini ta'minlash uchun juft-juft bo'lib past ovozda so'zlashishlari tashkil etiladi. Juftlarni tanlashda quyidagilarni hisobga olish lozim: 1) o'quvchilarning o'rganganlik saviyasi, 2) o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi, 3) o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar, 4) o'quv ishlari sur'ati, 5) ruhiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari, 6) o'quvchilarning o'zaro munosabatlari, 7) ularning qiziqishlari, 8) biror masala bo'yicha xabardorlik saviyasi, 9) ularning kommunikabelligi<sup>2</sup>.

Bizningcha, o'quvchi notanish vaziyatni yuzaga keltirib so'zlashsa, mustaqil deb aytish mumkin.

O'zbek tili darslari sharoitida muloqot motivi ma'lum darajada o'qituvchining topshirig'i va mavzu doirasidagi muloqot ko'lamini bilan tavsiflanadi.

<sup>1</sup> O'sha kitob, 41-bet

<sup>2</sup> O'sha diss., 141-bet

*Motivni* yuzaga keltirishda odamning shaxs sifatidagi ruhiy sohalarini hisobga olish lozim. Chunonchi: 1) motivatsiya sohasi; 2) qiziqishlar, ma'naviy ehtiyojlar sohasi; 3) emotsional-hissiy soha; 4) dunyoqarash; 5) hayotiy tajriba; 6) bilish jarayonlari sohasi<sup>1</sup>.

Odatda, darslarda ko'rsatmali qurollardan foydalanish deganda rasmlardan, diapozitiv tasvirlardan, bevosita narsa-buyumlardan foydalanish ko'z oldimizga keladi. Narsa-buyum haqida savol-javob qilish, rasmga qarab gap tuzish yoki mazmunini so'zlash, rasmga qarab insho yozish kabi ish turlari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda ma'lum rol o'ynab keldi. Lekin hozirgi davrdagi metodikaning yutuqlari bular bilan kifoyalanib bo'lmasligiga ishonch hosil qilyapti. Rasmlardan gap tuzishni mashq qilishda, mazmunini so'zlab berishdagina foydalanib qolmay, balki ularni nutqiy muloqotni yuzaga keltiradigan sabab va motivlarini ko'rsatishda, ya'ni nutqiy vaziyatlarni anglatishda ham qo'llash lozim.

Shu kunga qadar o'zbek tili o'qituvchilari to'plab kelgan rasmlarning aksariyat qismi narsa-buyum tasviri, shaxsning holati tasviri, o'rin-joy tasvirini ifoda etadi. O'quvchilar bunday rasmlarga qarab buyumning nomini, belgisini, bajarayotgan ish-harakatini, holatini atab kelganlar, savollarga javob qaytarganlar, o'zlari savollar berganlar, gap tuzganlar, o'rin-joyini tasvirlaganlar. Lekin bu tarzda tuzilayotgan savollar, qaytarilayotgan javoblar hamma vaqt ham bolalarni real muomalaga tayyorlayvermagan. Masalan, oddiygina «Bu kim?», «Bu nima?» savollari ma'lum nutqiy vaziyatlardagina ishlatiladi. Chunonchi, suhbatdoshi yonida tanishi bilan kelayotgan bo'lsin. Uning kimligini bilish uchun «Bu kim?» savoli beriladi. Shuningdek, telefon qo'ng'iroq'iga javob berayotgan kishi qo'ng'iroq qilgan odamni tanimasa, «Bu kim?» yoki «Kimsiz?» deb so'raydi.

Xullas, o'rganilayotgan har bir gap tuzilishi ma'lum nutqiy vaziyatlarda tilga keladi. O'quvchini dialogik shaklda fikr almashishga undashda an'anaviy rasmlardan ko'ra vaziyatli rasmlar ko'proq ahamiyatga ega. Masalan, «Ur, to'qmoq» ertagiga ishlangan rasmlar nutqiy vaziyatlar yaratishga to'la imkon beradi. Cholning otlarni boqayotgan cho'ponga bu otlarning kimniki ekanligini, laylakning qayerda yashashini bilish-bilmasligini so'rab murojaat qilib turgani ana shunday tasvirlardan sirasiga kiradi. Bunda quyidagi mazmunda so'zlashuv kelib chiqishi taxmin qilinadi:

- *Assalomu alaykum.*
- *Vaalaykum assalom.*
- *Bu otlar kimniki?*
- *Bu otlar laylakniki.*
- *Bilmaysanmi, laylak qayerda yashaydi?*
- *Mana bu tomonda. Siz laylaknikiga ketyapsizmi?*
- *Ha. Laylak menga sovg'a va'la qildi. Ayt-chi, men nimani undan so'ray?*
- *«Qayna, xumcha»ni so'rang.*

---

<sup>1</sup> Passov Y..I. Doktorlik dissertatsiyasi, 85-87-betlar.

Nutqiy vaziyatlarni aks ettiruvchi rasmlar qancha ko'p bo'lsa, o'quvchilarning qolip-gaplardan foydalanish malakasini rivoj toptirishga shunchalik ko'p muvaffaq bo'linadi. Shunday ekan, o'qituvchilar bu ishga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Nutqiy vaziyatlar tushuntirish orqali ham yuzaga keltiriladi. Chunonchi:

*Siz o'zingizni yomon his qilyapsiz. Shu haqda o'qituvchingiz bilan gaplashing.*

*Bugun shanba. Siz do'stingiz bilan yakshanbani qanday o'tkazish haqida kelishib olmoqchisiz.*

*Ahmad kasal bo'lib qoldi. Uning isitmasi baland. Ahmad maktabga bormoqchi. Onasi unga nima deydi?*

Bunday nutqiy vaziyatlarni ko'plab keltirish mumkin.

*Vova ko'chada Vadimni ko'rib qoldi. Vadimning qo'lida xalta. Ular nima haqda so'zlashadilar?*

*Siz muzeyga ketyapsiz. Bir bino oldida to'xtadingiz. Eshik oldida bir kishi turibdi. Undan nimani so'raysiz?*

Albatta, dastlabki paytlarda o'quvchilar tortinishlari, nima deb gaplashishni bilmasliklari mumkin. Bolalarga so'zlashuv yuz beradigan nutqiy vaziyatlarni eslatib borishda tarkibida dialogi bo'lgan bog'lanishli matnlar muhim rol o'ynaydi. Gap shundaki, bunday matnlarda, odatda, dialogni kiritishdan oldin nutqiy vaziyat izohlanadi. Masalan:

#### *Tog'da.*

*Karimning dadasi yo'lga otlana boshladi.*

*– Qayerga ketyapsiz? – so'radi Karim.*

*– Tog'ga, – dedi dadasi.*

*– Men ham boray, – iltimos qildi Karim.*

*G'ulom aka Karimga qaradi, bir oz o'ylab turdi va:*

*– Mayli, kiyin, – dedi.*

*Karim dadasi bilan avval zavodga bordi. Dadasining o'rtoqlariga salom berdi.*

*– Bu sizning o'g'lingizmi? – so'radi bir kishi G'ulom akadan.*

*– Ha, mening o'g'lim, – dedi G'ulom aka.*

*– Oting nima? – so'radi boshqa kishi.*

*– Karim, – javob berdi u.*

*– ...*

*Avtobusda Karim Tolib bilan yonma-yon o'tirdi. U bilan tanishdi.*

*– ...*

*Ikki soatdan keyin avtobus tog' tagida choyxona oldida to'xtadi.*

*– Keldik, – dedi Karim.*

*– Ana tog'! – dedi Tolib.*

*– Men birinchi marta keldim, – dedi Karim.*

*Ular avtobusdan tushdilar va tog'ga ko'tarila boshladilar. Bir joyda dam oldilar. Tolib bir daraxt yoniga bordi va Karimni chaqirdi:*

*– ...*

*– Nima? – so'radi Karim.*

– Hozir ko‘rasan, – dedi Tolib.

Tolib bir toshni ko‘tardi va chuqurchadan bir tuxum oldi:

– Ko‘rdingmi?

– Ie, tovuqnikimi?

– Yo‘q. Lekin o‘xshaydi. Toshbaqaniki, – dedi Tolib.

Jonli so‘zlashuvda ba‘zan nutqiy vaziyatdan tashqari ham savol-javoblar bo‘ladi. Bu hol suhbatdoshlar nima haqda so‘zlashishni bilmay qolganlarida ko‘zga tashlanadi. Suhbatdoshlardan biri jimlikni bo‘lish uchun biror savol beradi. Bunda ko‘pincha ob-havo, manzara, ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari va boshqa narsalar haqida so‘rab ko‘riladi. Nihoyat, suhbatdoshida fikr almashish istagi tug‘iladi. Shunday ekan, u yoki bu mavzudan shablon savollar bera olishni o‘rgatish ham ta‘lim birligi sanalishi lozim. O‘qituvchi shu maqsadda topshiriqlar asosida nutqiy vaziyat yaratish usulidan foydalanadi. Chunonchi: «Oila mavzusida savollar ber», «Bir-biringiz bilan tanishing» va hokazo.

O‘qish uchun mo‘ljallangan matnlarda nutqiy vaziyatlar kengayib boradi, lekin bu vaziyatlar ko‘pincha og‘zaki nutq bilan bog‘lanmaydi.

Gapga doir dinamik stereotip shakllanishi uchun struktura ko‘p marotaba og‘zaki va yozma nutqda takrorlanar ekan, bunda bayon mazmun (mavzu) bilan u ifodalanishi lozim bo‘lgan shakl o‘rtasida kerakli mustahkam vaqtli aloqalarning o‘rnatilishiga olib keladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, mavzular deyarli sof holda amal qilmaydi. Ularning tavsifli xususiyatlari, bir tomondan, leksik va grammatik materiallarga, ikkinchi tomondan, ijtimoiy hayot tajribasining qaysi jihatlarini aks ettirishga bog‘liqdir.

Mavzularni tanlash hamda ularni darslar, sinflar bo‘yicha taqsimlash ishi og‘zaki nutq o‘stirishdagi eng qiyin muammodir. Mavzular ketma-ketligi og‘zaki nutqni leksik va grammatik materiallarga izchil boyitib borish, nutqning darsdan darsga haqiqiy rivojlanishini ta‘minlash imkonini beradi.

Mavzuning salmog‘i va mazmuni ta‘lim bosqichiga qarab turlicha bo‘ladi. Quyi bosqichda mavzu chegaralanadigan holda olingani ma‘qul.

Ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida mavzu tanlashga doir bir qator mezonlar ilgari surilgan. Biz quyidagi ikki mezonni muhim deb hisoblaymiz:

**Mavzuning qamrovliligi**, ya‘ni boshqa mavzu elementlarini sig‘dirishga qodirligi. Masalan, «Yozgi ta‘tilda» mavzusi ana shunday xususiyatga ega. Qamrovlilikning mohiyati shundaki, bir nechta mavzuning elementlari boshqa mavzuga kiritiladi. Bunday ko‘chirish ma‘lum darajada so‘z boyligiga bog‘liqdir. Bir mavzu ikkinchisiga so‘zlari bilan o‘tadi.

**Mavzuning to‘yinganligi** yangi so‘zlari va grammatik vositalari hisobiga emas, balki ilgari o‘rganilgan leksik va grammatik materiallarning maksimal qamrab olinishida o‘z ifodasini topadi.

Dialogik nutq o‘stirish uchun mo‘ljallanadigan mavzular keng qamrovli bo‘la borishi, ularda real muloqotga chiqish salmog‘i yuqori bo‘lishi, o‘zaro so‘zlashuvni o‘rgatish ustuvorlik qilishi, hayot bilan qalin bog‘lanishi, dialogga

undaydigan tarzda ta'riflanishi, muammoli vaziyatlar yaratishga qodir bo'lishi kerak.

Nutqiy harakat hamisha ma'lum maqsad bilan sodir etiladi: kishi o'zi aytadigan gapning suhbatdoshiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ko'zda tutadi. Suhbatdoshlar o'rtasida real hayotiy munosabatlarga yaqin muloqotni yuzaga keltirish uchun til hodisasi amal qiladigan munosabat vaziyati modellashtirish orqali yuzaga keltiriladi. Nutqiy vaziyat asosan mavzuviylik orqali rejalashtiriladi. Mavzu so'zlashuv ehtiyojini ham, motivini ham, so'zlashuvchilarning o'zaro munosabatlarini ham, foydalaniladigan til hodisalarini ham shartli ravishda belgilab beradi. Shunga ko'ra ham ikkinchi tilni o'qitishda mavzularni tayin etishning muvaffaqiyati darsda dialogik nutq o'stirish samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Mavzular nihoyatda ko'p, rang-barangdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ba'zi mavzularga maktab yoshidagi o'quvchilarning aqli yetmasligi ham mumkin. Bu xususda quyidagi fikr e'tiborga loyiqdir: «...hech bir kishi, hatto ona tilida, barcha-barcha mavzulardagi axborotlar bilan muloqotga kirisha va fikr almasha olmaydi. Muloqot sohalarining kengligi, ya'ni kishi muloqotda bo'la oladigan mavzular miqdori uning hayot tajribasiga, ma'lumotiga va boshqa jihatlariga bog'liqdir»<sup>1</sup>. Binobarin, muloqot mavzusini tanlash chog'ida o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, qiziqishlari va faoliyatini hisobga olish lozim.

Mavzu tanlashda faollashtirilishi zarur bo'lgan grammatik vositalarning o'rganilgan-o'rganilmaganligi, sinf o'quvchilarining yoshiga mosligi e'tiborda bo'lishi kerak. «O'quv quroli» mavzusiga o'quv qurollariga doir so'zlar hamda «ruchka bilan yozdi» kabi bilan ko'makchili birikmalar ishlatilishi darkor. Mazkur ko'makchili konstruksiya o'rganilmagunga qadar muloqot ko'lami o'quv qurollari bilan bog'liq faoliyatdan yiroqligicha, torligicha qolib ketadi.

Mavzular seriyasi bo'lishi lozim. Bunda har bir so'z, har bir grammatik vositaning bir qator mavzulardagi nutqda qo'llanishi ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Shuningdek, til hodisalarini o'rgatish maqsadi bilan rejalashtirishda dialogik nutq o'stirishdagi mavzularning o'ziga xoslik tamoyili asos sifatida qabul qilinmogi zarur.

Mavzuning to'g'ri tanlanishi nutqiy mashqning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, shu jihati bilan o'quvchilar faolligini oshiradi.

Muloqot jarayonida masalaning tarbiyaviy tomoni qamrab olinmaydigan mavzu deyarli yo'q. Masalan, «Mening kun tartibim» mavzusida hikoya qilayotgan o'quvchi: «*Men ertalab soat 7 da turaman. Keyin choy ichaman*», – deyishi bilan unga savollar yog'iladi; «*Badantarbiya qilmaysanmi?*», «*Yuvinmaysanmi?*» va boshqalar.

Ko'rinib turibdiki, mavzu insonning o'z faoliyati, qolaversa, ijtimoiy faoliyat sohalari va ular haqidagi bilimlariga asoslanadigan, shu bilimlarini tartibga soladigan, kengaytiradigan, faollashtiradigan muloqotni uyg'otuvchi

<sup>1</sup> Примерный ситуативно-тематический минимум для развития русской речи учащихся IV-V классов национальной школы. Проект для обсуждения. Авторы-составители Н.Н.Рахманниа, И.Т.Чистякова. – М.,1976. - С. 1-6.



metodik birlik sanaladi. Xullas, mavzuni leksik va grammatik materiallarni uyushtiruvchi, faollashtiruvchi, o'quvchining ijtimoiy faoliyat tajribasini boyituvchi omil deb tushunish kerak. Mavzu, birinchidan, biror nutqiy vaziyatda muloqot predmetiga aylanadi, ikkinchidan, o'zi muloqot o'tadigan vaziyatlarni keltirib chiqaradi, uchinchidan, nutqiy vaziyat ba'zan mavzulararo sodir bo'ladi, bir emas, bir necha mavzu qamrab olinadi, muloqot mavzulararo o'tadi.

Mavzu yangi til hodisalarini ishlatish zaruriyatini tug'dirmasa, o'quvchi o'zaro muloqot jarayonida o'zbek tilida gapirishnigina mashq qiladi. Bunday gapirish ehtiyojini tug'diradigan, uni motivlaydigan narsa muloqot predmetidir. Masalan, o'quvchining odatda ertalab nima qilishi aniq. Lekin ana shu qilinadigan ishlar muhokama obyektiga aylanganda, harakatlar izchilligi, sifati yoki boshqa xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Bunda faqat tanish so'zlar, grammatik vositalardan foydalaniladi. Real nutqiy muloqot bir maromda kechadi.

Ayrim mavzular murakkabroq til hodisalarini ishlatishga undaydi, ularni faollashtirishning qudratli omili bo'lib maydonga chiqadi. Masalan, kishi a'zolari, qarindoshlik haqidagi mavzular egalik qo'shimchali so'zlarni kelishik qo'shimchalari bilan qo'llashni taqozo etadi: *ko'zingni och, otangni chaqir* kabi. «Avtobusda», «Tramvayda» kabi mavzular o'quvchini «o'tkazvoring», «to'xtatvoring» kabi analitik fe'l shaklining qo'shib aytiladigan va yoziladigan holatini ishlatishni mashq qildiradi.

Madaniy-maishiy mavzular o'quvchiga juda yaqin. Uning faoliyati bilan bog'lanadigan ijtimoiy-siyosiy mavzular ham ma'lum darajada suhbatlar o'tkazish imkonini beradi. Keyingilarida bu narsa qiyinroq kechadi.

Har bir mavzu bo'yicha istiqbolli nutqiy vazifalarning ma'lum miqdori aniqlanishi mumkin. Masalan, «Kitob o'qish»: 1) kundalik o'qish haqida savollar bera olish va javob qaytara bilish; 2) kitobga qisqacha annotatsiya bera olish; 3) yozuvchi to'g'risida savollar bera olish va javob qaytara bilish; 4) o'qilgan kitobga baho bera bilish; 5) uy kutubxonasi haqida surishtira bilish va hikoyalay olish.

Tarmoqlanishi mumkin bo'lgan mavzularni umumiy ro'yxat tarzida sanab o'tish mumkin:

1. Bizning Vatan. 2. Bayramlar. 3. Yillar. 4. Milliy armiyamiz. 5. Fazogirlar. 6. Ta'tillar. 7. Oromgohlarda. 8. Bizning maktab. 9. Bizning sinf. 10. O'zbek tili darsi. Darsda. 11. Oiladagi hayot, ota-onamizga yordam beramiz. 12. Men kunni qanday o'tkazaman? 13. Mehnat. Kim bo'laman? 14. Mening do'stlarim va o'rtoqlarim. 15. Men yaxshi ko'rgan hayvonlar. 16. Sport – bu qiziqarli. 17. Yil fasllari. 18. Shaharda. Qishloqda. Magazinda<sup>1</sup>.

Aynan bir xil mavzularning sinfdan sinfga takror o'rganib borilishi mutlaqo samarasiz sanaladi. Murakkablashish xarakteri ochilishi kerak.

<sup>1</sup> Примерный ситуативно-тематический минимум для развития русской речи учащихся 1У-У классов национальной школы. Проект для обсуждения. Авторы-составители Н.Н.Рахманина, И.Т.Чистякова. – М., 1976. – С. 1-6.

Metodik adabiyotlarda o'quvchining o'zi, hayoti haqidagi mavzu tanlash ishlari amalga oshirilgan: Bu mavzular quyidagilar:

- tanqid va o'z-o'zini tanqid;
- xato va kamchiliklarni aniqlash;
- o'z kamchiliklarini tuzatish;
- o'rtog'iga bo'lgan munosabatini ifodalash;
- o'zining jamoadagi o'rini belgilash;
- halollik va rostgo'ylikni namoyon etish;
- o'zining mehnatga, ijtimoiy vazifalarga munosabatini ifodalash;
- o'quvchining shaxsiga nisbatan ijtimoiy fikrga javobni namoyon etish;
- mehnatda, o'qishda, sportda, badiiy havaskorlikda va boshqa sohalardagi

muvaffaqiyatlar.

Shu ro'yxatdan kelib chiqib boshlang'ich bosqichda bolalarning dialogik nutqini o'stirishda ularning yaqin qurshoviga taalluqli quyidagi dolzarb mavzularni ajratish mumkin:

I. O'qish:

- muvaffaqiyatlar;
- kamchiliklar;
- baholar;
- o'qishda qoloqlik;
- yordam va boshqalar.

2. Xulq-atvor:

- maktabda, darsda, ...;
- jamoat joylarida, ko'chada, transportda va b.

3. Tashqi ko'rinish:

- ozodalik, isqirtlik, pala-partishlik;
- did, kiyinish manerasi va odati;

4. Xarakter va axloqiy sifatlar:

- halollik;
- qat'iylik, tirishqoqlik;
- vijdonlilik, vazminlik;
- tarbiya ko'rganlik;
- saxiylik;
- o'ziga va boshqalarga talabchanlik;
- o'qimishlilik va b.

5. Jamoatchilik:

- do'stlik;
- bir-biriga yordam qo'lini cho'zish, bir-birini qo'llab-quvvatlash;
- tanqid va o'z-o'zini tanqid va b.

6. Ijtimoiy hayot:

- sinf majlislari va b.
- marshrutlarda ishtirok etish;
- badiiy havaskorlik;
- sport;

– ekskursiya va sayohatlar.

7. Mehnat tarbiyasi:

– maktab yer uchastkasidagi ishlar;

– sinf va maktabni yig'ishtirish hamda toza saqlash;

– shanbaliklar (maktab hududini yig'ishtirish, makulatura va metallom to'plash);

– tabiatni muhofaza qilish va b.

Xullas, o'zbek tili darslarida o'quvchilarga dialogik shaklda so'zlashishni o'rgatish ishlari ularning mustaqil ravishda gap tuzib aytish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida tashkil etilib, shu orqali ta'limiylik ta'milanadi. Qolip-gaplarga yod oldiriladi. Bundan tashqari yoshlarga nutqiy vaziyatlar yaratish yo'li bilan muloqot madaniyatiga oid bilimlar singdirib boriladi, bunda mavzuviylikka ham alohida e'tibor beriladi..

### 1.5. O'zbek tili darslarifa o'quvchilar bilan yalpi suhbat o'tkazish

Sinfda yaratiladigan muloqotning real vaziyatlari dialogik nutqni o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Dars boshida o'qituvchining o'quvchilar bilan tabiiy muloqoti uchun kun, sana haqida, darsga tayyorlik, darsga kelmagan o'quvchilar va buning sabablari, sinf hayotida ro'y bergan ayrim qiziqarli hodisalar to'g'risida, o'quvchilardan birining tashqi ko'rinishi xususida (yangi kiyim kiygani, soch oldirganligi, ruhiy ezilganlik yoki hayajonlanganlik va b.) sharoit tug'iladi.

Dars boshidagi tabiiy muloqotni uyushtirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

a) suhbat o'qituvchi - sinf o'quvchilari sxemasida olib borilishi kerak;

b) bu suhbatni cho'zib yuborish maqsadga muvofiq emas (5 daqiqadan oshirmaslik), 1-2 masaladan ortig'ini olmaslik lozim;

d) kirish suhbatda ijobiy tuyg'ular uyg'otish muhim;

e) suhbat «tayyorlanmaganlik» tavsifiga ega bo'lishi zarur<sup>1</sup>.

Og'zaki nutq o'stirishni darsning barcha bosqichlariga uyg'un holda qo'shib olib borish ham o'quvchilarning ko'p gapirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, og'zaki tashkil etiladigan mashqlar dars materialini o'quvchilar nutqiga singdiradigan qilib o'zgartirishda osonlik tug'diradi. Matnni o'qish bunday imkoniyat bera olmaydi.

Odatda, suhbat biror mavzu yuzasidan o'tkaziladi, lekin uning jonli so'zlashuv vaziyatiga yaqin kelmaslik jihatlar ustun turadi: o'qituvchi yoki o'quvchi savol beradi, bolalardan biri javob qaytaradi. Bunday savol-javoblar fikr almashuv ehtiyoji bilan quvvatlanib turishi kerak.

Tajriba shuni tasdiqlaydiki, o'qituvchi savolni o'rtaga tashlagach, ko'pincha tilni amaliy bilandigan bolalar qo'l ko'taradilar. Gap tuzib aytishni o'rgatish yaxshi yo'lga qo'yilmagan sharoitda rusiyzabon o'quvchilar savol-javobda faol

<sup>1</sup> Методические рекомендации по обучению учащихса ситуативному говорению на уроках иностранного языка. — Черкассы, 1980.

qatnasha olmay qoladilar. Vaholanki ayni shu o'quvchilar nutgini o'stirish dars (suhbat o'tkazish) maqsadi sanaladi. Demak, savol-javobda shular faollashtirilishi kerak. (Tilni amaliy biladigan o'quvchilarga biror mustaqil ish topshirish mumkin.)

O'zbek tili darslarida o'quvchilar bilan o'tkaziladigan yalpi (frontal) suhbatga katta e'tibor beriladi. Bunday suhbatlar quyidagi maqcadlarda tashkil etiladi:

1. Uy vazifasi – oldingi darsda o'tilgan matnning yoki 5-6 dars davomida o'rganilgan matnlarning o'qib-o'zlashtirilish saviyasini, o'quvchilarning darsga hozirlik darajasini tekshirish.

2. O'quvchilarni shu darsda o'qiladigan yangi matnning mazmunini tushunishga tayyorlash.

3. Quyi sinflarda tanishilgan mavzularni, ular bilan bog'liq ravishda leksik materiallarni, axborotni takrorlash.

4. O'quvchilarni hayotni kuzatib borishga odatlantirish, atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga faol munosabatni tarbiyalash.

5. Til hodisalarining qo'llanish xususiyatlarini esga olish.

6. Monologik va dialogik nutqqa doir ayrim tushunchalarni xotirada tiklash.

7. Tarbiyaviy tadbirni amalga oshirish.

Oldingi darsda o'tilgan matni o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirib kelganliklarini tekshirishda yalpi suhbat katta qulayliklar tug'diradi. Zero, o'qituvchi o'quvchilarga savollar berar ekan, ularning biri durust javob qaytaradi, biri qiyinaladi, yana biri javob qaytara olmaydi. O'qituvchi darsga hozirligi bo'sh o'quvchilardan: «Nima uchun savolga javob bera olmayapsan?», «Sen uyda matni o'qidingmi?» – deb so'raydi. Shu tariqa kimlar darsga shay bo'lib kelgan, kimlar (ayniqsa, so'rab baholash ko'zda tutilganlar) tayyor emasligi ma'lum bo'ladi. Bu hol keyingi ish turlarini o'tkazishga isloh kiritish va darsni shu vaziyatda ham samarali uyushtirish imkonini beradi.

Odatda, o'qituvchi darsga hozirlik ko'rayotgan paytda kimlardan so'rab baho qo'yish zarurligini belgilab qo'yadi. Yalpi suhbat chog'ida bu masalaga ham aniqlik kiritiladi: matni o'qimay yoki yaxshi o'zlashtirmay kelgan bolalardan uy vazifasini so'rashga hojat qolmaydi.

Tajribada shuni ham kuzatish mumkinki, ayrim o'qituvchilar tegishli taraddudsiz darsga kirgan o'quvchilarga qo'shimcha savollar berib, baholash payida bo'ladilar. Bu narsa ta'lim-tarbiya ishiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Matn mazmuni yuzasidan o'tkaziladigan suhbatning yana bir ahamiyati rang-barang savollar orqali o'quvchilarga matnning asosiy mazmunidan kelib chiqqan holda qay tarzda va nimalarga e'tibor berib ixcham va lo'nda, so'zlashuv nutqiga yaqinlashtirib savollar tuzish kerakligini ko'rsatishdir. Muallim parchadan o'zlashtirib olish shart bo'lgan o'rinlarga urg'u beradi. Bolalar matn yuzasidan olib boriladigan navbatdagi ishlarda ana shu o'rinlarga ko'proq to'xtalish lozimligini uqib olmay qolmaydilar.

O'tilgan matn yoki matnlar bo'yicha yalpi suhbat o'tkazishda o'quvchilarning bilim va og'zaki nutq ko'nikmalari to'liq hisobga olinmog'i darkor. O'zlashmagan gap tuzilishlari asosida berilgan savollarga, tabiiyki,

bolalar javob qaytara bilmaydilar yoki katta qiyinchiliklar bilan javob qaytaradilar (ko'pincha o'qituvchining yordami bilan). Shunga ko'ra ham muallimning dars konspektida o'quvchilarga beriladigan savollar puxta tuzib chiqilgan bo'lishi shart.

5-7 daqiqa sarflanadigan suhbatning tashkilotchisi bo'lgan o'qituvchi savollarni suhbatga qadar aniqlab qo'yadi. Bunda u quyidagi qoidalardan kelib chiqadi: savollarning tushunarli va izchil, mantiqiy jihatdan o'zaro bog'langan bo'lishi, jumalalar sodda qilib tuzilishi, lekin ular o'quvchilardan ma'lum darajada aqliy mehnatni talab etadigan mazmunga ega bo'lishi kerak.

Savol-javob haqida so'z yuritganda, uning murakkab tomonlari e'tiborga olinishi lozim. Chunonchi, ikkinchi tilda beriladigan savolga javob qaytarish uchun o'quvchi quyidagilarni hal qiladi: a) savolning mazmunini tushunishga harakat qiladi; b) javob qidiradi; d) javobni ifodalash uchun zarur bo'ladigan shakllarni tanlaydi.

Ba'zan o'qituvchi bir gap yuzasidan ketma-ket bir necha xil savol beradi. Bu bir jihatdan yaxshi. Lekin o'quvchi har gal bir javobni takrorlayverishi yomon. Bir gap yuzasidan o'quvchi har xil savollar tuzganda boshqa gap. Shunga ko'ra ham suhbat mashqida bir gap yuzasidan asosan bitta ijodiy savol tuzilgani ma'qul. O'quvchilarning savolni tushungan-tushunmaganligiga ishonch hosil qilish uchungina variativlikka murojaat etish mumkin.

Savolda yangi so'z yoki grammatik shakl bo'lsa, u kontekst orqali tushunilmasa, o'quvchi savolga javob qaytara olmaydi. U o'zi tushunmagan so'zning ma'nosini eslashga harakat qiladi, lug'atga qaraydi. Shunda ham so'zni tayanch shakli orqali lug'atdan topish malakasi bo'lsa, uning tarjimasini topadi, aks holda urinishi behuda ketadi. Shularni o'ylagan o'qituvchi o'quvchilar ma'nosini unutgan so'zni tushuntirish yo'lini tanlashi kerakki, bu narsa vaqtni tejash maqsadi bilan amalga oshiriladi. Albatta, matn ustida ishlash jarayonida lug'at ishi maromida bajarilsa, bunga xojat ham qolmasligi lozim.

Suhbat jarayonida uyda bo'sh tayyorgarlik ko'rib kelgan o'quvchilar ham aniqlanadi. O'qituvchi ulardan ham savollarga javob berishni talab etadi. O'quvchi javobni uzoq o'ylab turishi, shu bilan vaqtni cho'zishi mumkin, xolos.

Ayrim o'qituvchilar matn o'qilgach, uning mazmunini hayot bilan bog'lash niyatida o'rta o'quvchilarning o'zlari haqida savollar tashlaydilar. Avval matn mazmuniga doir savol-javob o'tkazmasdan turib bunday yo'l tutish o'quvchilar diqqatini matndan chetga tortadi. O'quvchining o'zi haqidagi savollar matn o'qishdan oldin yoki matn mazmuni o'zlashgandan keyin berilgani ma'qul.

Matn o'qishdan suhbatga o'tishda ba'zan oraliq mashqlar zarur bo'ladi. Chunki matn bir marta o'qish bilan mazmunini esda saqlab qolish qiyin, bundan tashqari, uni to'liq va chuqur tushunish uchun ayrim so'zlarning ma'nosini lug'atdan foydalanib eslash kerak bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilardan tobora tezroq javob berishni talab qila boshlaydi.

Savolga ko'p o'ylamay to'g'ri javob bergan, ijodiy savolga ijodiy javob qaytargan o'quvchilar rag'batlantiriladi, matndagi gap bilan javob qaytargan o'quvchining dars yuzasidan oladigan bahosi pasaytiriladi. .

O'qituvchi shuni ham o'zi uchun qoida qilib olishi lozimki, gap aytganda yoki savol berganda uni har gal o'zgartirib takrorlayvermaslik kerak. Bu narsa o'quvchini chalkashtirib yuboradi: u qaysi savol shakliga javob qaytarishni bilmay kalovlanib qoladi.

O'quvchilarni shu darsda o'qiladigan matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadi bilan o'tkaziluvchi yalpi suhbatga ham yuqoridagi talablarni asosida hozirlik ko'riladi. Bunda o'quvchilarning matndagi yangi ma'lumotlardan xabardor yoki xabardor emasliklariga ham ahamiyat beriladi. Bolaning eshitmagan yoki ko'rmagan narsasi haqida undan so'rab-surishtirish darsda vaqtini behuda sarflashga olib keladi. Masalan, «Bionika nima?» matni shunday ma'lumotlarga ega. Suhbatning behuda bo'lib chiqmasligi uchun uni bunday matn yuzasidan tashkil etmaslik lozim. Bunday suhbatni o'quvchilarning hayot tajribasiga yaqin mavzulardagi parchalar bo'yicha uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda tanish jumlar, tanish so'zlar bir sidra xotiraga tushiriladi, shu yo'l bilan matn mazmunini tushunib o'qish uchun sharoit yaratiladi.

O'tilgan mavzularni, ular bilan bog'liq ravishda leksik materiallarni takrorlash ma'lum va qat'iy reja bilan amalga oshirilmog'i lozim. Bu ish dastlab dars rejasida hal etilmog'i, so'ngra xotiraga tushirish ko'zda tutilgan so'zlar chegarasi belgilanmog'i darkor. Yalpi suhbat uchun o'ndan ortiq savollar tanlanadi yoki ajratiladi. Buning boisi shundaki, o'quvchilar har darsda ko'proq so'zlarni tez eslay olishni o'rganadilar. Yalpi suhbat paytida o'qituvchi quyi sinflarda o'tilgan mavzularni bolalarning bilim saviyasiga qarab kengaytirib takrorlashi to'g'ri bo'ladi.

O'quvchilar bilan o'tkaziladigan yalpi suhbatning to'rtinchi maqsadi ularning erkin nutqini o'stirish mazmunidagi ishlar asosida amalga oshiriladi. Lekin amalda o'qituvchilar bunday yalpi suhbatga rasmiyatchilik bilan yondashadilar: yil, oy, hafta, kun, ob-havo, dars bilan bog'liq savollar darsdandarsga, yildan-yilga bolalarga berilaveradi, ularning aksariyati javob qaytarishga qiynalib, talaffuz hamda leksik-grammatik xatolarga yo'l qo'yaveradilar. «Bugun haftaning nechanchi kuni?», «Hozir nechanchi dars?», «Noyabr nechanchi oy?» kabi savollar yalpi suhbatlarda chaynalib siyqasi chiqib ketadi. Suhbatda rejaliikka erishish lozim, buning uchun esa dars bayonida berilajak savollarni aks ettirish, hayot bilan bog'lash, darsdan-darsga farqlantirib borish darkor.

O'quvchilar bilan yalpi suhbatni uyushtirib turishning muvaffaqiyati mazkur ish turining o'quvchilarning gap tuzib aytish malakalarini hisobga olgan holda tashkil etilishiga bog'liqdir. Ravshanki, gap tuza olmaydigan bola savolga erkin javob qaytara olmaydi. Majburiyatdan o'tkaziladigan savol-javoblar o'quvchilarning ixlosini susaytiradi.

Yalpi suhbat darsni boyitadi, bosqichlarini xilma-xil qiladi. O'zbek tili darslarida yalpi suhbat o'tkazish deganda o'qituvchi bilan o'quvchi yoki o'quvchilar, o'quvchi yoki o'quvchilar bilan o'quvchi yoxud o'quvchilarning o'zaro savol-javoblari tushuniladi. Ya'ni:

- 1) o'qituvchi o'quvchilarga savol beradi;
- 2) o'tirganlar uy vazifasi bo'yicha javob berayotgan o'quvchiga savollar beradilar;

3) o'quvchilar o'qituvchiga savollar beradilar.

Yalpi suhbat yordamida darsda muloqot vaziyati vujudga keltiriladi, o'quvchilarni dialogik nutq o'stirishga tayyorlash mumkin bo'ladi; to'liq javoblar qatori qisqa javoblarni (to'liqsiz gaplarni) o'rgatish; ijodiy savollar tuzish, ijodiy javob qaytarish kabi grammatik topshiriqlar bajariladi.

Savol berishda juda oz qatnashadigan o'quvchi darslarda o'zbek tilida savol berish ko'nikmasini egallamaydi. Bunday o'quvchi hatto savolga javob qaytarishda ham katta qiyinchiliklarga uchraydi.

Umuman, o'quvchi qachon erkin savol bera oladi? Qachon erkin javob qaytara oladi? Qachonki u:

- 1) so'zlarni eslay oladigan darajada puxta o'zlashtirib borsa;
- 2) gap turini erkin ayta bilsa;
- 3) savol tuzish texnikasini anglab yetgan bo'lsa;
- 4) javob berishdagi leksik va grammatik qoidalarni bilsa.

O'zbek tili darslarida bajariladigan leksik-grammatik mashqlar o'quvchilarni savol tuzish, unga javob qaytarish bilan bog'liq bilimlarni egallash va malakalar shakllantirish uchun yo'naltiradi. Boshqacha aytganda, savol-javobni o'rgatish uchun ma'lum tizimdagi leksik va grammatik mashqlar bajarib borilish kerak. Shunday ishlar amalga oshirilmagan sinflarda o'quvchilar savollarni ham, ularga qaytariladigan javoblarni ham yod oladilar.

Dars bosqichlaridan biri bo'lmish savol-javoblarning samaradorligi, to'g'ri uyushtirilganligi quyidagi mezonlarga ko'ra baholanadi:

1) so'z va gaplarning to'g'ri talaffuz qilinishi, sintagma va ohangga e'tibor berilgani;

- 2) savollar berish va javob qaytarish tezligining ortib borishi;
- 3) savollarning mavzuviy kengayib borishi;
- 4) savol-javoblarning tobora dialogga yaqinlashishi;
- 5) gap turlarining kengroq qamrab olinishi;
- 6) javoblarning savollarga mos tarzda tuzilishi; kitobiy bo'lmisligi;
- 7) o'quvchilar so'z boyligining, imlo savodxonligining oshuvi;
- 8) muloqot madaniyatini rivojlantirish sari yo'nalishi.

O'quvchilarni dialogik nutqqa tayyorlash quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: 1) savol va javoblarni ravon ayta olish; 2) savol tuzish malakasini egallash; 3) savolga dastlab to'liq, keyin qisqa javob qaytarish.

Oldingi darsda o'rganilgan matn yuzasidan uyushtiriladigan suhbat o'quvchilarning bilim va malakalarini to'liq hisobga olmog'i, shularga tayanmog'i lozim. O'quvchi gapni ravon ayta olmasa, u savolga javob qaytara bilmaydi. Savol tuzilishi jihatidan yangi bo'lsa, unga o'quvchi tayyorgarliksiz, ya'ni uni mexanik yod olmasdan javob berish qo'lidan kelmaydi.

Xullas, savolning oson-qiyinligi quyidagilarga bog'liq:

1. Savolning o'quvchiga yaxshi tanish hayotiy faktga asoslangani.
2. Savolning bolalar erkin ayta oladigan gap qurilmasi asosida tuzilgani.
3. Savol orqali o'quvchining bilish-bilmasligi tekshirilayotgan axborot o'zlashtirilgani (eslab qolingani).

Savollarni o'qituvchining o'zi tuzadimi yoki darslikdan oladimi, baribir ularning matnga yaqinlik-uzoqlik darajasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Savollar matn mazmuniga aloqadorligi jihatidan ikki xil bo'ladi:

1) matn mazmuni yuzasidan berilgan savollar;

2) matn haqidagi savollar.

Agar «Siz o'tgan darsda qaysi matnni o'qigan edingiz?» degan savol berilsa, bu savol matn haqida bo'ladi. Matnga doir savollar o'z navbatida ikki xil tuziladi:

1) matndagi gaplar yuzasidan;

2) matn mazmuni yuzasidan unda bo'lmagan gaplar bilan.

Avvalo, suhbatlar o'quvchilarni o'zbek tilida olib boriladigan darsni tushunib qatnashishga tayyorlaydi. Ayniqsa, matn haqidagi savollar shu niyatda beriladi. Lekin ayrim o'qituvchilar o'zlari aytgan har bir topshiriqni, tushuntirish va izohlarni, ba'zan yalpi suhbat chog'ida bergan savollarni ham rus tiliga tarjima qilib boradilar. Bunday ish usuli biror durustroq natija keltirmaydi, chunki o'quvchilar ko'proq faqat ruscha gapirilgan savol va topshiriqlarni eshitishga harakat qiladilar. Bunday usulda nutqiy vaziyatlar yaxshi anglanmaydi, kommunikativlikka putur etadi.

Matn mazmuni yuzasidan unda bo'lmagan gaplar bilan tuzilgan savollardan o'quvchilarning nutqi oz bo'lsa-da o'sa boshlagan davrda foydalanish mumkin. Notanish so'z va gap turlarini ishlatish to'g'ri keladigan paytlardagina tushuntirish va izoh rus tilida beriladi va bu ish tashkiliy zaruriyat bilan qilinadi.

Ba'zan matn mazmuni yuzasidan kartochka yordamida savol-javob o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga bittadan savol yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Kartochka olgan o'quvchi savolga javob hozirlaydi va navbati kelganda javobini aytadi. Bunday savol-javob shakli tashqi muvaffaqiyatdan dalolat beradi. Lekin bu ish turi vaqtini ko'p olgani tufayli oz samarali bo'lib, bolalarga barcha savollarni o'rganish kerak degan mas'uliyatini yuklamaydi.

Shuni ham eslatish joizki, o'qituvchi bolalar bilan savol-javob o'tkazar ekan, savollarni hech vaqt o'qib turib bermasligi kerak. Biz o'quvchilardan savollarni eslab qolishni talab etar ekanmiz, bu talabga birinchi galda o'zimiz rioya qilishimiz zarur. Buning ustiga o'quvchi savolni kitobdan o'qimay bergan bir paytda o'qituvchining uni daftaridan yoki kitobdan o'qib berishi yaxshi taassurot qoldirmaydi.

Matn mazmuni yuzasidan o'quvchilarning o'zaro savol-javoblari ham nutq o'stirish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Dastlabki paytlarda o'quvchilarga savol berish uchun darslikdan foydalanishga ruxsat berish mumkin. O'quvchi savolni kitobdan ko'rib oladi, so'ngra darslikka qaramay suhbatdoshiga savol beradi.

Darsda yozma mashqlar ham bajariladi. Bular leksik materiallarni mustahkamlashga, o'quvchilarning savol tuzish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Ba'zan esa savollarga mustaqil ravishda yozma



javob qaytarish mazmunida beriladigan topshiriqlardan foydalanish ham katta naf keltiradi.

Uy vazifasini tekshirish uchun matndagi gaplar yuzasidan tuzilgan, o'tgan darsda ishlatilgan savollardan foydalanish qo'l keladi. Lekin ushbu ish turi uy vazifasining bajarilishi to'g'risida hukm chiqarish uchun asos bo'la olmaydi.

Ba'zan darslikda dars boshida keltirilgan savollar yalpi suhbat o'tkazish orqali o'quvchilarning darsga hozirligini aniqlash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu bois o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda o'zi savollarni o'rganmog'i, ehtiyojga qarab savollar tuzib chiqmog'i lozim.

O'quvchilarni darsda o'tiladigan yangi matnni tushunishga tayyorlovchi savollar mazmuniga ko'ra bolalarni matnni o'qishga ikki tomonlama hozirlashi kerak: 1) matn mavzusi yuzasidan o'tilganlar bo'yicha, ya'ni bilvosita; 2) bevosita.

Ba'zi savollar o'quvchilarni yangi matn mazmuniga emas, mavzuga tayyorlaydi. Bunday savollar bolalarni matnni o'qib mazmunini tushunishga bavosita shaylantiradi.

Darsliklarda oz bo'lsa-da, yangi matn mazmunini tushunishga tayyorlaydigan suhbat uchun savollarni ham uchratish mumkin. Bunday savollar o'quvchilarni yangi matn mazmuniga bavosita hozirlaydi, ya'ni ularga umumiy mavzuni eslatadi, yangi mavzuni idrok etish uchun ruhiy yo'nalish beradi.

Metodika nuqtayi nazaridan yuqoridagi ikkala holat bir yoqlama bo'lgani uchun bizni qanoatlantirishi mumkin emas: suhbatda foydalaniladigan savollar o'quvchilarni mavzuga ham, yangi matn mazmuniga ham tayyorlashi maqsadga muvofiqdir. Bu degan so'z, o'qituvchi dars boshida o'tkaziladigan suhbatni darslikdan foydalanib o'tkazishni rejalashtirar ekan, suhbat uchun berilgan savollarni tanqidiy ko'rib chiqadi. Bunda uch xil maqsadni ko'zda tutadi: 1) o'quvchilarni yangi mavzuga ruhan tayyorlash; 2) ilgari o'rganilgan so'z va gap qurilmalarini xotirada qayta tiklash, faollashtirish; 3) o'quvchilarning mavzu yuzasidan bilganlariga tayangan holda so'zlashuv malakalarini o'stirish.

Yangi matn mazmuni bilan bog'liq suhbatni qachon o'tkazish ma'qul? Bizningcha, dars boshida emas, balki bevosita matnni o'qishdan oldin tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Leksik materiallarni takrorlash uchun mo'ljallangan savollarga nisbatan quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) savollar kontekst vazifasini bajara olishi kerak;
- 2) o'zlashtirilgan gap qurilmalari asosida tuzilgan bo'lishi lozim;
- 3) bir savol orqali asosan bir yoki ikki so'zni takrorlash zarur.

Suhbat paytida o'quvchining so'zlarni xotiraga tushirganligini nazorat qilish, bu so'zlar anglangan-anglanmaganligidan qat'i nazar lug'at-kartochkalar yoki boshqa xil ko'rsatmalilik yordamida yana bir bor yodga oldirih darkor.

O'quvchilarni hayotni kuzatib borishga odatlantirish maqsadida o'tkaziladigan yalpi suhbat quyidagi holatlarda samarali bo'ladi:

- 1) savollar o'zlashgan so'zlardan tuzilsa;
- 2) savollar o'quvchilarning hayoti bilan bog'lansa;
- 3) savollar puxta o'zlashgan gap qurilmalarini ifoda etsa.

Ba'zi o'qituvchilar dars boshida savollardan eshitish mashqi sifatida foydalanadilar (buni ularning o'zlari shunday deb ataydilar). Ammo bu eshitish mashqi emas. Agar yil, oy, kun, ob-havo haqida 5-6 ta gap aytib, shu gaplar yuzasidan chaynalib ketgan savollar berilsa, bunday eshitish mashqidan ko'ra to'g'ridan-to'g'ri savol-davob o'tkazilgani ma'qul. Bu bilan darsning qimmatli vaqti tejraladi. Masalan, «*Bugun yettinchi mart*» deyilsa, «*Bugun nechanchi mart*» deb savol berishga zaruriyat sezilmaydi. Qolaversa, shunday gaplardan tuziladigan eshitish mashqining o'zi ortiqcha.

Suhbat uchun berilgan savollarni va javoblarni o'quvchilarga rus tiliga tarjima qildirish noto'g'ri. Mumkin, agar savol-javob paytida bir o'quvchi tarjimon qilib belgilansa.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash zarurki, o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida qisqa muddatda o'tadigan yalpi suhbat dars bo'yicha loyihalangan masalalarga tashkiliy hamda ta'limiy jihatdan tuzatishlar kiritish, ko'zlangan ish turlarining samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

### 1.6. O'quvchilarning o'zaro savol-javoblarini tashkil etish yo'llari

O'zbek tili darstarida ba'zan so'zlashuvga xos luqmalarni, matnlardagi axborotni muntazam ravishda o'quvchilar yodiga solib turiish uchun ularning bir-birlariga savollar berib, javob olishlari talab etiladi. Ushbu jarayondan ko'zlanadigan maqsadlar ham ayni shulardir. Savol-javoblar (suhbat) og'zaki nutq o'stirish yo'lida bajariladigan bir mashq turi sanaladi, lekin asl nutqiy mashqlarning o'rnini bosa olmaydi. Ular axborotni mustahkamlab borishda beqiyos katta ahamiyatga ega.

Savol-javoblar ikki xil shaklda tashkil etiladi:

- 1) o'qituvchining darslikdagi matnga doir savollariga javob berish;
- 2) o'quvchilarning o'zaro savol-javoblari.

I. Agar o'qituvchi matnni o'qish jarayonida o'quvchilarning murakkabroq jumlar mazmunini tushunishlariga erishish uchun bir gapga bir necha xil savol berish usulini qo'llagan bo'lsa, o'qilgan matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazish chog'ida asosiy e'tiborni yangi axborotni o'zida aks ettirgan jumalarga qaratib, shu axborotni mustahkamlash uchun xizmat qiluvchi savol tuzish usulidan foydalanadi. Tabiiyki, yangi axborotga (faktik ma'lumotlarga) ega bo'lmagan matn yuzasidan bunday savollar tuzilmaydi, suhbat tashkil etilmaydi.

Amaliyotda ba'zan savollarni konvertlarga solib, o'quvchilarga mustaqil ish sifatida topshirish va konvertni olgan o'quvchilarni birma-bir turg'izib, savolga tayyorlagan javobini tinglash holatlari ham uchraydi. Savollardan bu tarzda dars vaqtini isrof qilib foydalanishni ilg'or ish tajribasi deb sira ham atab bo'lmaydi. Bundan ham ko'proq isrofgarchilik konvertga solingan savolni o'quvchiga berishdan avval u bilan «kimoshdi» savdosini o'tkazishdir.

Matn mazmuni asosida o'tkaziladigan suhbat dialogik nutq o'stirishga qaratilgan mashq bo'la olmaydi, chunki suhbat vaziyatlilik xususiyatiga ega bo'lmay, sun'iyligi, ta'limiy xarakteri bilinib turadi. Shuning uchun ayrim savollar kitobiy bo'lib qoladi, jonli so'zlashuvda bunday deb so'ralmaydi. Biz

kitobiy savollarni ma'qullamaymiz, chunki suhbatlar dialog bo'lmagani holda o'quvchilar ularni ta'limiy tadbir deb bilishlari, sun'iyiligini sezmasliklari zarur, qolaversa, esda olib qolingani ba'zi savollardan dialogik nutqda foydalanishlari mumkin.

Suhbatlarning muvaffaqiyati savollarning nechog'lik puxta tayyorlanishiga bog'liq. Savol tuzish texnikasi haqida gapirar ekanmiz, -mi, -chi so'roq yuklamalari yordamida hosil qilingan so'roq gapni suhbat nuqtayi nazaridan eng yomon tuzilgan savol deb hisoblash lozim. Negaki, o'quvchilar «Ha», «Yo'q» deb yoki savolga teng gapni takrorlash yo'li bilan javob qaytaradilar. Aksincha, savol o'quvchilarni darslikdagi gapni to'rtiday takrorlashga emas, balki fikrlashga, ijodiy javob qaytarishga undashi darkor. Bunday suhbat o'quvchilarni izlanishga da'vat etadi, ularda katta qiziqish uyg'otadi.

Barcha sinflarda o'quvchilarning savolga ko'pincha bir gap bilan javob berishlari mo'ljallanadi. Yuqori sinflarda javoblarning bir necha gapdan iborat bo'lishiga harakat qilinadi. Bu ish ko'pincha dialog-bahs, dialog-muhokamada (munozarada) amalga oshiriladi. O'quvchilar bahs yoki munozara paytida o'z fikrlarini faktlar (dalillar) bilan isbotlaydilar.

K.V.Malseva suhbatning ahamiyatini yana quyidagilardan iborat deb ko'rsatadi: «Ixtiyoriy dialog jarayonida bolalar jamoasi jipslashadi, chunki qiziqarli suhbat ushbu sinfning jamoa bo'lib fikrlash, do'stona o'zaro yordam berish, birgalikdagi til ijodining mahsulidir»<sup>1</sup>.

Ustalik bilan tashkil etiladigan savol-javoblar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi, tilni his etish malakasini hosil qiladi. Suhbat davomida ifodalar silliqlanadi, noaniq va sodda javoblar (zaruriy bo'laklaridan ba'zilari tushib qolganligi seziladigan gaplar) tuzatiladi, mazmunli, bir nechta gap bilan qaytarilgan javoblar rag'batlantiriladi.

Matn mazmuni yuzasidan fikr bildirishni talab etadigan savollar ham o'quvchilarni bir necha gap bilan javob qaytarishga undaydi. Yuqori sinflarda savollar matnning asosiy mazmunini ajratishga yordam beradigan qilib tuzilgani maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan savol-javobi shaklida uyushtiriladigan suhbat dars vaqtini tejash asnosida o'tishi kerak. Amaliyotda shunday bo'ladiki, matnni, savol-javoblarni o'qib mazmunini tushunish ishlariga ko'p vaqt ajratiladi. Vaholanki, ushbu tadbir o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish ishlariga yetarli darajada tayyorlamaydi. K.V.Malseva o'qishning retseptiv mashq ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: «Nutqni retseptiv idrok etish hattoki eng yaxshi ijro namunalari ham reproduktiv va mahsuldor nutqiy faoliyat shakllarini rivojlantirishga, ya'ni nutq o'stirish vazifalarini hal etishga o'quvchilarning o'z nutqiy tajribasi yordam berganchalik ta'sir ko'rsatmaydi»<sup>2</sup>. Shunga ko'ra ham suhbat paytida iloji boricha o'quvchilarning mustaqilligini oshirib borish kerak.

<sup>1</sup> Мальцева К.В. Развитие устной речи учащихся национальной школы на уроках русской литературы (4-7 классы). - Ленинград: Просвещение, Ленинградское отделение, 1983. - С. 32.

<sup>2</sup> O'sha joyda

Savollarga javob qaytarish mashqini yozma ravishda bajarilmagani ma'qul. Bu ham dars vaqtini isrof qilishga sabab bo'ladi. Savollarga yozma javob qaytarish topshirilsa, o'quvchilar «А что, весь текст переписывать будем?» deb e'tiroz bildiradilar. Matnni o'zgartirmasdan ko'chirish mashqi imlo savodxonligini oshirishga ko'proq yordam berar, savolga o'xshash gaplarni topishga ham ko'maklashar, lekin bundan ortiq natijani kutmasa ham bo'ladi..

Savollarni o'quvchilardan uyda yozma ravishda tuzib, suhbatga tayyorlanib kelishni talab etish mumkin. Lekin o'qituvchi avval daftarlarni yig'ib olib, tekshirib chiqishi, ayrim tuzatishlar kiritishi, ma'qul kelmaydigan savollarga biror belgi qo'yishi maqsadga muvofiqdir. Aks holda o'quvchi savol berib bo'lgandan keyin uning xato ekanligini aytish sinf o'quvchilarining jonli fikr almashuvga bo'lgan shashtini qaytaradi, savol-javob o'xshamay qoladi.

II. O'quvchilarning o'zaro savol-javoblari o'qilgan matn mazmunini teranroq anglash, axborotni puxta o'zlashtirish, matn yuzasidan kutilmagan narsalarni so'rash, ijodiy savollar tuzib, ijodiy javob qaytarishga intilish paydo qiladi.

O'quvchi savollarni «Ruscha-o'zbekcha so'zlashuv kitobi»dan, shuningdek, «O'zbekcha-ruscha so'zlashuv kitobi»dan olishi mumkin. Lekin hozircha ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab uchun o'zbek tilidan maxsus so'zlashuv kitobi nashr qilinmagan. O'qituvchi o'quvchilarning daftariga so'zlashuvga xoslarini mavzularga bo'lmagan holda ketma-ket, axborotga (jumladan, matnlarga) doirlarini matn sarlavhasidan keyin yozdirib borishni ma'qul ko'rdik.

O'tkazilgan tajribalardan shu narsa ma'lumki, o'tirgan o'quvchilardan javob berayotgan bolaga savollar berish talab etilganda, ular uch-to'rt savoldan keyin nimani so'rashni bilmay qoladilar. Lekin ko'p o'tmay 5-10 ta savolni shablon tariqasida eslab qolib, savol berish talab etilganda shu savollardan foydalanaveradilar. Bu holat bizni har darsda bir nechtdan savol yozib boradigan daftar tuttirish kerak degan xulosaga olib keldi.

«O'zbekcha-ruscha so'zlashuv daftari» ikki qismdan iborat bo'ladi. 1-qismda axborot almashishga qaratilgan savollar aks ettiriladi. Bu qism «Axborotga doir savollar» deb yuritiladi. 2-katta bo'lmagan qismiga so'zlashuvga xos savollar yozdirib boriladi, bu qism «So'zlashuvga xos savollar» deb ataladi.

#### O'zbekcha-ruscha so'zlashuv daftari

I qism. Axborotga doir savollar	Qisqa javob-so'zlar
...	...

II qism. So'zlashuvga xos savollar	Ayrim savollarning javoblari
1. Oting nima?	...
2. Yoshing nechada?...	

Axborot almashishga qaratilgan savollar ikki turli bo'ladi:

1) o'zbek tili darslarida o'rganilgan o'quv matnlaridagi axborot yuzasidan;

2) o'quv fanlari bilan bog'lanish maqsadida shu fanlar darslarida o'rganilgan ayrim muhim ma'lumotlar yuzasidan.

Milliy ma'naviyatga oid savollar darsliklardagi o'quv matnlarida tegishli ma'lumot borlari matn sarlavhasi ostida, matndan tashqari ma'lumotlar sifatida tanishilganlari sarlavha bilan ajratilmagan holda bir qator tashlab yozdiriladi. O'quvchi o'zi mazmunini tushuna olmagan savolning ruscha tarjimasini o'zbekcha savoldan keyin oq qavs ichida yozib qo'yishi mumkin.

Har darsda axborotga doir yoki so'zlashuvga xos 2-3 tadan savol o'quvchilarning so'zlashuv daftariga yozdirib boriladi. Savollar qat'iy raqamlab tartiblanib yoziladi. Savollarning tartib raqami o'qituvchining daftaridagi yozuvlar bilan bir xil bo'lishi kerak. Bunday usul nazorat uchun ham, o'zaro so'zlashuvni muayyan savollar asosida uyushtirish uchun ham qulay sanaladi. Masalan: 20–40-savollardan foydalaning. Bir-biringizga ...matnlarga oid savollarni bering. Va hokazo.

So'zlashuvga xos savollar uch turli bo'ladi:

- 1) mavzuviy savollar;
- 2) nutqiy vaziyatga doir savollar;
- 3) mavzulararo savollar.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, so'zlashuvga xos savollar ko'p emas. Quyidagi kabi savollar sanoqli:

- Qoyil, bopladimmi seni?
- Qanday shamollar uchirdi?
- Tuzukmisiz?
- Bezovta qilmadimmi?
- Tinchmisiz?
- Senga nima bo'ldi?

O'quvchilarga daftarga yozilgan savollarni eslab qolishga harakat qilish topshirig'i beriladi. Bunday tadbir, birinchidan, dialogik nutq o'stirish mashqlarida ulardan foydalanish imkonini bersa, ikkinchidan, o'quvchini o'tilgan matnlarga beixtiyor tez-tez murojaat qilib turishga da'vat etadi.

Daftardagi savollardan foydalanish yo'llari quyidagicha:

1. O'quvchilar o'zlari istagan savollarni beradilar.
2. U yoki bu mavzudagi savollardan foydalanish topshiriladi (mavzular ko'rsatiladi).
3. Savollar daftarga yozilgan tartibda beriladi (tartib raqamlari ...dan ...gacha tarzida ko'rsatiladi).

Daftardagi savollar asosida o'quvchilarning o'zaro savol-javoblari (10 ta savol berish va shuncha savolga javob qaytarish mashqi) quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

1. Partada yonma-yon o'tirgan o'quvchilar xattaxta yoniga kelib yoki o'rnidan turib o'zaro savol-javob qiladilar. Bunda bir o'quvchi mustaqil ravishda yoki daftardan savolni ko'rib olib savol beradi, ikkinchisi mustaqil ravishda javob qaytaradi. Savol-javobdagi tezkorlik rag'batlantiriladi.

2. O'quvchilardan biri stol yoniga keladi, boshqa o'quvchilar o'qituvchining ruxsati bilan unga savol beradilar. Dastlabki paytlarda savollar daftarga qay tartibda yozilgan bo'lsa, shu tartibda, keyinroq aralash holda berilishi mumkin.

3. O'quvchilardan biri stol yoniga kelib, savol bera boshlaydi, o'qituvchining ruxsati bilan o'quvchilardan biri javob qaytaradi. Ba'zan savol bergan o'quvchi sinfdoshlariga ismini aytib murojaat qilishi foydalidir. Bunda suhbat yanada jonlanadi.

4. Koptok o'yini tashkil etiladi. Koptokli o'quvchi uni sinfdoshlaridan biriga otib savol beradi, u koptokni ilib olib, savolga javob qaytaradi. So'ng o'zi savol berib, koptokni boshqa bir sinfdoshiga otadi.

Savol bilan javob orasida to'xtam uzayib ketsa, sinf jamoasi faollashtiriladi. B.G.Skobin bu haqda shunday yozadi: «...tushunish, aytish va mustaqil fikr bildirishning vaqt jihatdan bo'linishi maqsadga muvofiq emas. Bunday bo'linish qiziqishning pasayishiga olib keladi, natijada yangi narsani anglash va eslab qolish o'quvchilarning nutqini ijobiy ravishda o'stirishga xalal bera boshlaydi»<sup>1</sup>.

Kullas, savol-javobning normal sur'atda o'tishi, javob reaksiyasining kutilgan muddatda yuzaga kelishini ta'minlash uchun leksik va grammatik qiyinchiliklar suhbatga qadar bartaraf etilishi kerak. Shunga ko'ra ham suhbatni o'quvchilar avvalgi darslarda ravon ayta olgan gaplar doirasidagi savollardan foydalanib boshlash, ehtiyotlik bilan mavzuni kengaytirib borish, shu orqali og'zaki nutq ravonligini oshirish zarur.

O'quvchining o'qituvchiga savol berishi sinfdoshlarida javob qaytarishga hozirlik kam bo'lgan paytda qo'l keladi.

Darsda o'quvchilar bir-birlariga qancha ko'p savol berishsa, o'quv materialini shunchalik puxta o'zlashadi. O'qituvchi kim qancha savol berib, javob qaytarayotganini ish daftoriga belgilab boradi. Birorta savol bermagan, birorta savolga javob qaytarmagan o'quvchilarga darsda qo'yiladigan umumiy baho pasaytiriladi, ballar kamaytiriladi, bunday o'quvchiga a'lo baho qo'yilmasligini o'qituvchi ta'kidlab boradi. Bunday chora bolalarda suhbatda faol ishtirok etish kerak ekan degan fikr paydo qiladi. Suhbatda qatnashdimi, demak, bolaning o'zlashtirishi yaxshilanadi.

Stol yoniga uy vazifasini so'rash uchun chaqirilgan o'quvchiga o'quvchilarning savol berishlari odat tusiga aylantirilishi darkor. O'qituvchi 1-2 o'quvchi bilan individual so'rash o'tkazadi, doskaga chiqqan o'quvchidan uy vazifasini so'rab bo'lgach, o'tirganlardan unga savol berishlarini talab etadi. O'zi kim qancha va qanday savol berayotganini qayd qilib boradi.

-Savol-javoblarda rasmlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilar rasmga (buyumga, buyum belgisiga, ish-harakat tasviriga) qarab o'zlari savol beradilar.

Ba'zan o'quvchilardan savolga jo'rlikda javob qaytarish usuli qo'llanishi mumkin. Masalan, o'quvchi sinfga savol beradi, o'tirganlar jo'rlikda javob qaytaradilar.

<sup>1</sup> Скобин Б.Г. Приемы развития диалогической речи в VI классе / Вопросы обучения устной речи и чтению на иностранном языке: Сб.н.ст. - М.: Просвещение, 1965 - С. 125

Suhbat mavzuvij bo'lishi mumkin. Masalan, mavzu ma'lum qilinadi, ikki o'quvchi biror sinfdoshi haqida o'zaro suhbatlashadi.

Xullas, o'zbek tili darslarida o'qituvchining yangi o'rganilgan matn yuzasidan savollar tuzib, suhbat tashkil etishi o'quvchilarda savollar tuzishda matnning qaysi jihatlariga e'tibor berish kerakligi, ijodiy savollar qay tarzda tuzilishi, ijodiy javoblar qay tarzda qaytarilishi haqida tushuncha hosil qiladi, o'qilgan matnlar, shuningdek, so'zlashuvga xos savollardan iborat «O'zbekcharuscha so'zlashuv daftari» tuttirilishi axborotni o'quv yili va sinflar mobaynida yodga keltirib turish, ulardan foydalanib o'zaro savol-javobda faol ishtirok etish dasturiy materiallarni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi, darslar samaradorligini yuksaltiradi, o'quvchilarda o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish oshiradi.

## 2-BOB

### O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA O'QISHNI O'RGATISH

#### 2.1. O'qish ustida olib boriladigan ishlardan ko'zlanadigan maqsadlar

O'zbek tilini shu tilda gapirib o'rganish bilan uni o'qib o'rganishning bir-biriga o'xshash tomonlari bor: ikkalasida tovushlar talaffuzi, yangi so'zlar, grammatik materiallar ustida ishlanadi. Tashqaridan qaraganda shunday deb o'xshatish mumkin. Lekin masalaning tub negiziga boqadigan bo'lsak, bular butunlay boshqa-boshqa narsalar ekanligining guvohi bo'lish mumkin.

Gapirish chog'ida ham, o'qish mahalida ham fikr almashish istagi tug'ilishi mumkin. Fikr almashinish real voqelikni, predmetni, voqea-hodisani yaqqolroq ko'z oldiga keltirish, tushuncha yoki g'oyani anglab yetish uchun noma'lun (bayondan bilib bo'lmagan) narsa haqida ma'lumot olish istagini ifoda etadi. Chunonchi, "Karim Farg'onaga boradi" degan xabar tinglovchidan qachon, kim bilan, nimada, nimaga, necha kunga va boshqa bir qator savollarni uyg'otadi. Bunday paytlarda so'zlar fikr almashuv vositasi bo'lib maydonga chiqadi.

O'qish inson hayoti va kamolotida muhim o'rin tutadi: u turli sabablar bilan mutolaa qiladi, bilim oladi. Boshqacha aytganda, odam kitobxonlik bilan bog'liq faoliyat turidan bir necha maqsadda foydalanadi. «Методика преподавания русского языка» kitobida quyidagi uch xil maqsad ko'rsatiladi: bilish uchun o'qiyman, qila (bajara) olish uchun o'qiyman, ko'ngil ochish uchun o'qiyman<sup>1</sup>.

Matn biror narsani bilish uchun o'qilganda olam, faktlar va voqelik hodisalari, odamlar haqida axborot olish jarayoni kechadi. Shu boisdan bugungi kunda o'zbek tili darslarida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash, kitobxonga axborot olish madaniyatini singdirish masalalariga alohida e'tibor bilan qaralmoqda.

Matn biror ishni qila (bajara) olish yo'l-yo'riqlari haqida ma'lumot olish maqsadi bilan o'qilganda o'quvchilar o'z kundalik amaliy ish faoliyatini boshqarishga, tajribalarini rivojlantirishga doir yangi bilimlarni qidiradilar. Kasbiy ko'rsatmalar, tibbiy va boshqa sohadagi yo'riqnomalar (retseptlar) ham shu siraga kiradi.

Matnni o'qish uning quyidagi turlariga ko'ra farqlab tashkil etiladi va o'tkaziladi:

- 1) ilmiy maqola (xabar) tipidagi matnlar;
- 2) badiiy asarlar.

Ilmiy maqola (xabar) tipidagi matnni o'qishni o'rgatish ikki yo'nalishda olib boriladigan ishlarni: 1) o'qish texnikasini o'rgatish; 2) o'quvchilarga matn mazmunini tushunish va undan axborot olishni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Badiiy asarni o'qish ustidagi ishlar esa alohida yo'nalishni ifoda etadi: ekspressiv

---

<sup>1</sup> Методика преподавания русского языка. – Под ред. профессора М.Т.Баранова. – М.: Просвещение, 1973. – С. 11.



til hodisalari, badiiy tasvir vositalari, timsollarni idrok etishni o'rgatish ustuvorlik kasb etadi.

Badiiy matn asosan ko'ngil ochish, vaqtni xushnud o'tkazish uchun o'qilganda asar kitobxonning his-tuyg'usiga ta'sir qiladi, buning natijasida uning shaxsi kamol topadi, madaniy saviyasi yuksaladi. Badiiy asar o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini, udumlari, milliy ma'naviyatidan kengroq ma'lumot berish, yoshlarni axloqiy tarbiyalash maqsadini ham ko'zda tutadi.

O'quvchi badiiy matnni o'qir ekan, o'zbek tilining boy emotsional-ekspressiv so'z va so'z shakllari, sintaktik qurilmalari bilan tanishadi, asar qahramonlarining ruhiy holatlari, xatti-harakatlari, ular duch kelgan voqea-hodisalar orqali o'quvchilarning his-tuyg'ulari sayqal topadi. Zero, kitobxon asar qahramoniga qo'shilib quvonadi, qayg'usiga sherik bo'ladi, hayajonlanadi, ba'zan ajablanadi, uning o'zi erishmoqcxhi bo'lgan marralarga yetish sari ishonchi ortadi. . Asar unda yomonlikdan g'azablanish, ba'zi odamlarning qilmishlaridan nafratlanish, pastkashlikdan jirkanish tuyg'ularini, shakllantiradi, yoshlar sevgi, sadoqat, vafodorlik qanday bo'lishini bilib oladilar, loqaydlik, yomonlik, yovuzlik kabi illatlardan voqif bo'ladilar, qo'rquvni yengishni o'rganadilar. O'quvchilar mehmondo'stlik, sahiylik singari yaxshi xislatlarni o'zlariga singdirib oladilar, eng muhimi, ulardagi vatanparvarlik hissi yanada kamol topadi.

O'zga tilni o'rganishda yuqorida ta'kidlangan maqsadlar o'rgatish maqsadlari sifatida ajratilmay, ular ta'lim natijalari sifatida maydonga chiqadi. Bu vaziyatda o'quvchilarga matnni to'g'ri o'qish, mazmunini to'g'ri tushunishni o'rgatish, shu asosda o'zbek tilidagi leksik va grammatik materiallarni gap tarkibi orqali anglatish maqsadi asosiy maqsadga aylanadi. Chunonchi, matn ustida olib boriladigan ishlar, avvalo, ma'lum til hodisalari asosida yangiliklardan xabar topish, pirovardida o'z mazmuni bilan yoshlarga «adab» berish qatori, ularni mustaqil hayotga tayyorlashi, imkon qadar kitobxon sifatida shakllantirishi zarur. Shuningdek, bu ishlar o'quvchilarning adabiy tayyorgarliklariga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishi darkor.

O.A.Rozov o'qishning roli nimada, degan savolga M.Uestdan quyidagi javobni topadi: ikki tilni biladigan bola boshqa tilda gapirishdan ko'ra ko'proq o'qishga qiziqadi.

Demak, o'qish, bir tomondan, o'quvchilarning o'zga tildagi nutqni tushunish, ikkinchi tomondan, axborot olish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek tili darslarida o'qishni afzal ko'rishning boshqa sabablari ham bor. Chunonchi, qiyinchilikni yoqirtmagan ayrim o'qituvchilar nazarida og'zaki nutqiy mashqni tashkil etishga qaraganda o'quv matni ustida ishlash oson va qulay sanaladi. Bunda dars materiallari taxt, ya'ni ular o'quvchilarning ham, o'qituvchining ham qo'lida bo'ladi.

O'zga tilni yaqinda o'rgana boshlaganlar uchun tayyor gapni o'qib, talaffuz qilish, tanish so'zlardangina iborat gap mazmunini tushuna olish, bu ishdagi osonlik qisqa fursatda erishilayotgan muvaffaqiyatlardan dalolat berib turadi va muayyan qanoat hosil qiladi. Darhaqiqat, o'quvchi matn asosida og'zaki nutq

o'stirishdan ko'zlangan «olis» maqsadlarning amalga oshuviga emas, o'qish orqali tezkor qo'lga kiritiladigan natijalarga ko'proq qiziqadi. Zero, og'zaki nutq o'stirish boshqa, o'qishni o'rgatish boshqa. Bu masalada o'qishning ruhiyat bilan bog'liq xususiyatlarini chuqur tadqiq etgan olim Z.I.Klichnikovaning quyidagi fikrini asosli deb bilamiz: «Chet tilda o'qish og'zaki nutq o'stirish vazifalariga bo'ysundirilgan emas, balki muxtor o'rin egallagan bo'lmog'i lozim»<sup>1</sup>.

Xullas, kishi ikkinchi tilni o'rganayotganda, bir tomondan, o'qish texnikasini egallash harakatida bo'lsa, ikkinchi tomondan, matn mazmunini tushunish yo'llarini (tarjima texnikasini, gap mazmunini anglash yo'riqlarini) o'rganadi. Demak, o'zbek tili darslarida o'qishni tashkil etishdan ko'zlanadigan maqsad va vazifalarga odatdagidan kengroq yondashilishi kerak. O'zbek tili o'qitish amaliyotida o'qituvchi o'qishdan ko'proq til hodisalarini (leksik va grammatik materiallarni) o'rgatish, og'zaki va yozma nutqni o'stirish maqsadini ko'zlaydi. Nutq o'stirish zarur yumush. Lekin axborot olishning ham ahamiyati kam emas. Zero, kadrlarning doimiy kasbiy kamoloti axborot olish madaniyatining qay darajada rivoj topib borayotganiga bog'liq.

Eslatish joizki, hayotda matndan foydalanib nutq o'stirish ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullana boshlagan kishilar faoliyatida kuzatiladi. Slidida nutq o'stirish o'qishni o'rgatishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad bo'la olmaydi. Buni ruhshunoslar ham tasdiqlab berganlar.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirish asosida aniq qilib ayta olamizki, o'zbek tili darslarining o'quvchilarga o'qishni o'rgatish bosqichidan quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

- o'qish texnikasini o'rgatish;
- matn mazmunini tushunishni o'rgatish;
- matndan axborot olish madaniyatini shakllantirish;
- o'quvchilarni badiiy matnni o'qib, undan ta'sirlanishga tayyorlash.

Har bir darsda o'quvchilarga o'qish texnikasini singdirishdan tortib to matndagi axborotlarni tushunish va o'zlashtirishgacha bo'lgan ish turlari bajariladi. Bu ish turlaridan ayrimlariga ba'zan ko'p, ba'zan esa kam vaqt ajratiladi. O'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirishda, shubhasiz, birinchi navbatda darslarning matn ustida ishlash bosqichidan ko'zlanadigan maqsadlarni to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin darslarda matnni o'qish texnikasi, xususan, to'g'ri talaffuzni, parchaning mazmunini tushunib mutolaa qilish texnikasini o'rgatish ustidagi ishlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishning ham g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligi ayon haqiqat.

## **2.2. O'zbek tili darslarida alifbo harflarini o'rgatish va o'qish texnikasi ustidagi ishlar**

Birinchi marta matn o'qilganda uni to'g'ri ovozlantirish haqida o'ylanadi. O'quvchilar o'zbek tilidagi matnni to'g'ri o'qishlari uning mazmunini tushunishlariga bevosita ta'sir etadi. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni

<sup>1</sup> Клычникова З.И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. – М.: Просвещение, 1973. – С 11.

to'g'ri ayta olish, urg'usini to'g'ri qo'yish, matnni zarur tezlikda o'qish tushunishni ta'minlaydigan muhim texnik omillar sirasiga kiradi.

Bola dastlabki darslardan o'zlar orqali birinchi navbatda o'zbekcha tovushlar bilan tanishadi. Harf bilan tanishish oldinma-keyin sodir bo'ladi (Shunday bo'lishi kerak).

Kirill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi ŷ, κ, ϑ, χ dan boshqa hamma harflar o'zbek tilida ham, rus tilida ham mavjud edi. Lekin ular bildiradigan tovushlarda farqlar kuzatiladigan holatlarda ona tilining salbiy ta'siri o'qishda kuchli namoyon bo'lib, ushbu ta'sirni bartaraf qilish ishlari uzoq davom etadigan davrni o'z ichiga olar edi. Tovushni to'g'ri talaffuz qila boshlagan o'quvchi harfni ovozlantirganda tegishli tovushni (o'zbek tiliga xos tovushni) tez xotiraga keltira olmasligi mumkin. Buni uddalash uchun o'quvchi ongida harf bilan o'zbekcha tovush o'rtasida assotsiativ bog'lanish hosil qilish kerak.

Kirill yozuvi sharoitida o'zbek alifbosi bilan o'quvchilarni tanishtirish davri jarayonida dastlab chizilishi (surati) ikkala til uchun umumiy bo'lgan harflarga, so'ngra talaffuzidagi yaqinlik, farqlanish tomonlariga e'tiborni qarata borib, ona tilining salbiy ta'siri yuzaga chiqadigan holatlarni ko'zda tutgan holda harflarni, harf birikmalarini, so'zlarni o'qitish yuzasidan maxsus mashqlar o'tkazish talab etilar edi. Masalan:

1) Quyidagi harflarning nomini ayting.

А, б, в, г, д, е, з, и, к, л, м, н.

2) Quyidagi harf birikmalarini (bo'g'inlarni) o'qing.

Ба, бу, бе, ви, ва, ве, ку,...

3) Quyidagi so'zlarni o'qing.

Мен, сен, биз, бир, ун, тан, ...

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi o'quvchilar uchun mutlaqo yangi, notanish harflar bilan tanishish, ularni ko'rib tez taniy olish, husnixat qoidalarini egallash vaziyati hamda shu vaziyat bilan shartlanadigan zaruriyatni vujudga keltiradi. ...

1997-o'quv yilidan O'zbekistondagi ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 2-sinf o'quvchilari davlat tilini lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida o'rgana boshladilar. O'quv yilining birinchi yarmi yangi alifbo harflari bilan tanishishga bag'ishlanib, «Alifbo» davri sifatida ajratiladi. Yangi o'zbek alifbosi harflarini husnixat qoidalari asosida yozish, ularning nomlarini eslab qolish, ushbu harflarni o'qish, alfavitni yod olish kabi yumushlar ana shu davrda amalga oshiriladi.

Yangi alifbo bilan tanishtirishga qaratilgan birinchi dars kirill yozuvidagi alifbo xarflari bilan bir xil bo'lgan harflarni ko'rsatish, bolalarda umumiy tushuncha hosil qilish maqsadini ko'zda tutadi. Lotin yozuvidagi va kirill alifbolaridagi mos va farqli bosma harflarni ajratib ko'rsatamiz<sup>1</sup>

Ikkala alifbodagi bir xil tovushni bildirib, bir xil yoziladigan bosh va kichik bosma harflar quyidagilar: Aa – Aa, K – K, M – M, Oo – Oo, Xx – Xx, T – T.

<sup>1</sup> Илудшоёв Р. «Рус мактабларида лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини ўргатиш ҳақида // Таълим жараёнида ўзбек янги алифбоси ва имлосининг муҳим муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани биринчи йиғинининг маърузалар туплами. - Тошкент, 1996. - Б. 22-23.

Surati bir xil, lekin boshqa-boshqa tovushlarni bildiradigan bosma harflar quyidagilar: B – B, Ee – Ee, H – H, n – n, Pp – Pp, y – y.

Yozilishida qisman tafovuti mavjud bo'lgan, boshqa-boshqa tovushlarni bildiradigan bosma harflar quyidagilar: k, p.

Yangi alifboga xos bosma harflar va harf birikmalari: b, Dd, Ff, Gg, Ii, Ll, Y, Qq, Rr, Ss, t, U, N, O'o', G'g', h, Sh, sh, Ch, ch, Ng, ng, ts.

O'zbekcha talaffuzni o'rgatishda bo'lganidek o'qishni o'rgatishda ham o'zbek va rus tillaridagi unli va undosh tovushlar qiyos qilingan ma'lumotlardan foydalanish taqozo etiladi<sup>1</sup>.

Ovoz chiqarib o'qish fonetik materialni harflar va harf birikmalarining o'zbekcha o'qilish xususiyatlariga e'tibor bergan holda puxta ishlab chiqish zamiridagina to'g'ri amalga oshadi.

Matnda harflarning o'qilishi, so'zlar talaffuzi (orfoepik me'yorlar, urg'u), gapning to'xtamlari, ohangi (intonatsiyasi) bir qator o'rgatiladigan ta'limiy birliklar mujassam bo'ladi. Albatta, ularning hammasini matn asosida bir yo'la o'quvchilar ongiga, nutqiga singdirish mumkin emas. Avval harflarni, ayrim so'zlarni, keyin kichik (2-3 so'zli) gaplarni o'qishni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

To'g'ri o'qishni o'rganish uchun baland ovoz chiqarib o'qish kerak. Bunda nutq a'zolarining harakati ro'y-rost amalga oshadi. Nutq a'zolarining harakati harflarni ko'rish va eshitish harakatlari bilan o'zaro aloqadorlikda sodir bo'ladi. Z.I.Klichnikovaning uqitirishicha, eshituv timsollari nutqiy harakatning to'g'riligini va ularning ko'ruv timsollariga muvofiqligini nazorat qiladi<sup>2</sup>. Baland ovoz chiqarib o'qish jarayonida harflarning ham talaffuzi, ham eshituv, ham ko'ruv timsollari shakllanadiki, bunga o'qish paytida kitobxonning o'zini-o'zi eshitib borishi yordam beradi.

Grafika va orfografiya bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalaregallanishi lozim:

**Bilimlar:** lotin yozuviga asoslangan harflar, harf birikmalari, imlo qoidalari.

**Ko'nikmalar:** lotin yozuviga asoslangan harflarni jadvaldan foydalanib eslab yozish, imlo qoidalarini esga olgan holda so'z shakllarini to'g'ri yozish.

**Malakalar:** lotin yozuviga asoslangan harflarni ko'p o'ylanmasdan bir tekisda ravon yozish, imlo qoidalariga avtomatik tarzda amal qilgan holda so'z shakllarini to'g'ri yozish.

Nazorat va baholash.

– harfni taniy va ovozlantira bilish;

– so'zni taniy olish va imlosi hamda orfoepiya me'yoridagi farqni yodga tushirgan holda to'g'ri talaffuz qilish;

Ovoz chiqarib o'qishning qiyinligi harflarni tez taniy olishda ko'rinadi.

Kuzatishlar shuni tasdiqladiki, Z.I.Klichnikova ta'kidlagan fikr – o'quvchilarning og'zaki nutqi o'ssa, matnni to'g'ri o'qiy oladilar deb umid qilmaslik zarurligi – o'qish texnikasi ustida ish olib borilmaydigan davrga nisbatan to'g'ri. Lekin o'qish texnikasi to'g'ri shakllana boshlagan davrdan

<sup>1</sup> Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Изд. 2-е. – Ташкент: Учитель, 1965.

<sup>2</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan kitob, 11-bet...

e'tiboran og'zaki nutqdagi o'zbekcha tovushlarning to'g'ri talaffuzi o'qishdagi talaffuzga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. E'tirof etish kerakki, o'quvchi qaysi sinfda o'zbek tilida fikr bayon etishda rus tili ta'sirida talaffuz qilishga qaytsa, shu sinfda o'qish texnikasiga ham putur yetadi. Quyi sinflarda matnni to'g'ri o'qigan bolalarning yuqori sinflarda talaffuzi buzilishi ana shundandir.

1-sinfda o'quvchi ko'pincha matndagi so'zlarni bo'g'inlab o'qiydi va shu yo'l bilan gaplar mazmunini tushunishga intiladi. «Alifbe» kitobida bolaga yordam bo'lsin uchun ayrim ko'p bo'g'inli so'zlar bo'g'inlarga ajratib beriladi. Lekin bu sinfda so'zlarni butunicha o'qiy oladigan, shunga moyil o'quvchilar ham bo'ladi. 2-sinfdan boshlab o'qish va tushunish to'liq so'zlar bo'yicha amalga oshadi. O'quvchi gapni qismlarga ajrata boshlaydi, sintagmatik o'qishga o'ta boradi. Ana shu davrdan matn mazmunini to'liq gaplar asosida tushuna boshlaydi.

Harflar anglatadigan tovushlarni bilib olish, harfni ko'rib uning tovush timsolini, andazasini, etalonini tez xotiraga tushira bilish shu etalonga solishtirib ko'rish, o'xshatish asosida ro'yobga chiqadigan talaffuz malakalari shakllangach, ana shu saviyani saqlab turadigan ishlar bajarib boriladiki, buning pirovardida o'qish mexanizmi yuzaga keladi.

O'quvchi ikkinchi tilda matnni o'qiyotganda ba'zan ona tilida o'qiyotgandagi kabi xatolarga yo'l qo'yadi. Chunonchi: 1) so'zdan tovush yoki bo'g'inni, gapdan so'zni tushirib qoldiradi; 2) bo'g'in yoki so'zni ikki-uch takrorlaydi; 3) so'zlarni buzib talaffuz qiladi; bunga yonma-yon kelgan tovushlarni yoki bo'g'inlarni biri o'rniga ikkinchisini keltirib o'qish, bir tovush o'rniga-boshqa bir tovushni aytish ham sababchi bo'ladi; 4) so'zga tovush, bo'g'in, gapga so'z qo'shadi; 5) so'z oxirini «yeb qo'yadi»; 6) aytilishi yozilishidan farqlanuvchi so'zlarni yozilishiga moslashtirib o'qiydi; 7) urg'uni noto'g'ri qo'yadi; 8) adabiy talaffuzga zid talaffuz qiladi. Bulardan tashqari, bolaning ikkinchi tilda o'qishiga ona tili talaffuz me'yorlarining ma'lum ta'siri bo'ladi.

Mazkur xato turlarining hammasi ham matn mazmunini tushunishga bir xilda salbiy ta'sir etavermaydi. Masalan, o'quvchi so'zdan tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirib o'qisa, bo'g'in yoki so'zni takrorlansa, so'zga tovush yoki bo'g'in qo'shsa, gapning mazmunini to'g'ri tushunaveradi. Bunda ko'ruv sezgilari muhim rol o'ynaydi: o'quvchi so'z va gaplarni yozilishiga qarab to'g'ri anglaydi, lekin talaffuzida xato qiladi.

O'quvchi so'zni noto'g'ri talaffuz etganda, uni takroran o'qiydi, shu yo'l bilan o'z xatosini tuzatadi va fikrni anglashga muvaffaq bo'ladi. Biroq so'zning oxirini, ya'ni qo'shimchasini tushirib qoldirganda, uni boshqa qo'shimcha bilan almashtirganda, gap mazmunini ba'zan aniq tushunib yetmaydi.

Kuzatishlardan ma'lumki, bolalar «o» unlisi bo'lgan ayrim olinma so'zlarni o'zbekcha so'zlar sifatida qabul qiladilar. Masalan, darslardan birida o'quvchi matnni o'qiganda, *flotining*, *portiga* so'zlaridagi «o» unlisini asl o'zbekcha so'zlarga xos ravishda talaffuz qilib aytgani uchun ularni tushuna olmay, tarjimasini lug'atdan topmagach, o'qituvchidan so'rashga majbur bo'ldi.

Soʻzlarni boʻgʻinlarga toʻgʻri ajrata olmaslik ham uni anglamaslikka sabab boʻlishi mumkin. Bu hol ayniqsa quyi sinflarda koʻp uchraydi. Masalan, *daraxt* soʻzini *dar-axt* tarzida oʻqish uni notanish soʻzga aylantiradi. Bu oʻrinda soʻzlarni baʼzan boʻgʻinlab talaffuz qilishni oʻrgatish zarur degan xulosaga kelish qiyin emas.

5-6 tadan ortiq soʻzli gapni mantiqiy qismlarga – sintagmalarga notoʻgʻri ajratish undagi fikrni tushunishning noaniq boʻlishiga olib keladi. Chunonchi, oʻquvchilar koʻpincha gaplarni soʻzma-soʻz oʻqiydilar. Bunday oʻqishda eʼtibor soʻzlarning maʼnosiga qaratilib, mazmun munosabatiga boʻlgan diqqat kamayadi. Binobarin, matn mazmuni haqida yetarli darajada tushuncha hosil boʻlmaydi.

Xullas, soʻz va gaplarni toʻgʻri talaffuz qilish maʼlum oʻrinlarda soʻz maʼnosini, gapning mazmunini tushunishning zaruriy sharti hisoblanib, oʻqishni oʻrgatishda bu borada ham izchillik bilan ish olib borish taqozo etiladi.

Oʻqish mexanizmi shakllanganining yuksak darajasi «nutqiy fikrlash jarayonlarining avtomatlashuvi va qisqarishini koʻzda tutadiki, bu narsa koʻruv orqali idrok etilayotgan grafemalarni deyarli bir onda tovushsiz talaffuz qilinadigan (ichki) nutqqa koʻchirishni mumkin qilib qoʻyadi»<sup>1</sup>.

Matnni toʻgʻri oʻqib, mazmunini toʻgʻri tushunishda oʻqish texnikasi koʻrsatkichlaridan yana biri – soʻz maʼnosini tushuna olish malakasi muhim rol oʻynaydi.

Soʻzni tanib olish harflar boʻyicha emas, balki yaxlit soʻz asosida amalga oshadi. Bir marta koʻrishda (koʻz tikilganda) bir harfni tanish uchun qancha vaqt ketsa, bir soʻzni koʻrib tanish uchun ham shuncha vaqt ketadi. Ikkita harfni ayrim-ayrim oʻqish ham ikkita soʻzni oʻqishga yaqin vaqtni oladi. Albatta, soʻzni taniy olish uchun koʻz qadalganda (fiksatsiyada) uch harf chegarasini aniq koʻradi. Lekin xiraroq boʻlsa ham, atrofidagi harflar baribir koʻrinib turadi. Z.I.Klichnikova keltirgan raqamlarga qaraganda, katta yoshdagi kishi bir fiksatsiyada 2 tadan 4 tagacha soʻzni (6 tadan 13 tagacha harfni) idrok eta oladi<sup>2</sup>.

Ruhshunoslar tomonidan shu narsa aniqlanganki, ona tilida oʻqish paytida tajribali kitobxonning koʻzi standart uzunlikdagi bir qatorda (misrada, satrda) oʻrtacha olti marta toʻxtab oʻtadi (fiksatsiya qiladi). Ikkinchi tildagi matnni oʻqish chogʻida fiksatsiyalar miqdori ortadi. Buning sabablari xilma-xildir. Bu sabablardan biri oʻqish texnikasi bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchisi matn mazmunini tushunishdagi qiyinchiliklar bilan belgilanadi.

Ichki nutqda notoʻgʻri ovozlantirilgan yoki maʼnosi yodga kelmagan soʻz, anglanmagan grammatik vosita koʻzni orqaga qaytishga majbur etadi. Bu oʻrinda ham anglash, matn mazmunini tushunish asosiy rol oʻynaydi.

Shu narsa aniqlanganki, koʻz oʻqish maydoni boʻylab ilgari lab borish chogʻida operativ xotirada qoʻzgʻalgan birikuv sxemasi «yaroqsiz» chiqib qolsa, boshqa sxemani tanlash maqsadida koʻzning orqaga qaytish harakati sodir

<sup>1</sup> Соколов А.Н. Электрографический анализ внутренней речи и проблема нейродинамики мышления // Мышление и речь. Сб. н. ст. М. – 1963. – С. 203.

<sup>2</sup> Klichnikova Z.I. Nomi koʻrsatilgan kitob, 15-bet.

bo'lad i yoki jumla tahlil obyektiga aylanadi, diskursiv-mantiqiy harakatlar jalb etiladi<sup>1</sup>.

O'qish chog'ida ko'zning odatdagi harakatlarida bo'ladigan chetlanishlar (ko'zni chetga olib qochish) ikki omilga ko'ra yuz beradi: matnning murakkabligi va biror maxsus topshiriqning mavjudligi.

Shuni ham unutmashlik kerakki, qiyinroq so'zlar kelganda, so'z birikmasini tushunish qiyin bo'lganda o'quvchi avval «pichirlab» o'qiydi. O'qituvchi buni xatoga yo'yimasligi zarur. O'qishni o'rganish jarayonida buni tabiiy bir hol deb angalamoq joiz.

Ruhshunoslarda ko'zning regressiv harakati chog'ida kitobxon oladigan axborot buzilmaydi degan qat'iy fikr mavjud. Ko'zning satr bo'yicha orqaga qaytishi munosabati bilan yuzaga keladigan to'xtam uzoqroq davom etsa, bu hol tinglayotganlar uchungina salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

«Qiyin» grammatik hodisani belgilash tamoyillari:

- 1) grammatik hodisaning kuchli ichki til interferensiyasini qo'zg'ata olishi;
- 2) oraliq qayta shifrovkani uyg'otishga qodirligi;
- 3) tushuncha tuzilishi tizimligining buzilishiga olib kela bilishi<sup>2</sup>.

Puxta o'zlashgan so'zlar matndan tezda tanib olinadi. Notanish, ma'nosi unutilgan so'z kishini unga tikilib qarashga undaydi, barcha harflarini aniq ko'rishga majbur etadi. Ba'zan ayrim so'zlar, ko'pincha paronim so'zlar tahlilni ham taqozo qiladi. Notanish so'zlar talaffuzi o'qishni bir muddat sekinlashtirsa, ma'nosini eslay olmaslik esa o'qish sur'atini umuman pasaytirib yuboradi. Ba'zan so'zni noto'g'ri talaffuz qilish ham uni notanish qilib qo'yadi. Masalan, o'quvchi *adib* so'zidagi «i» unlisini bilinar-bilinmas (undoshni cho'zibroq talaffuz qilib) aytasa, uni tanib bo'lmay qoladi.

O'qish paytida o'quvchi ba'zan so'zni oxirigacha ko'rib ulgurmasdan aytishi ham mumkin. Shu tufayli xatolar ham yuzaga keladi. Bunday xatolarning oldini olish uchun bolaning e'tiborini so'zning harf va tovush tarkibiga qaratish imkonini beradigan mashqlar o'tkaziladi. Ana shunday mashqlardan biri – so'zdagi bir tovushni boshqa bir tovush bilan almashtirib o'qish talab etiladigan mashq bo'lib, u o'quvchilarga tovush o'zgarishlari ba'zan bir so'zni boshqa so'zga aylantirib yuborishi, ba'zan hech qanday ma'no anglashilmaydigan tovushlar yig'indisini keltirib chiqarishini ko'rsatishga, ular ongiga singdirishga yordam beradi. Masalan: *qo'l – qul, ko'l, kul; ko'z – kuz, qo'z (ma'no yo'q), quz (ma'no yo'q)*.

So'zni teskari (orqadan oldinga qarab) o'qish ham o'quvchining diqqatini so'z tarkibiga qaratadi.

So'zga (oldiga yoki orqasiga) tovush qo'shib o'qish talab etiladigan mashqlar o'quvchilarda shu kabi salbiy odatlarning zararli ekanligi haqida tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Masalan: *zum – uzum, dum – udum, taxt – taxta*.

<sup>1</sup> Векшина Т.Ф. Формирование грамматических действий, необходимых для понимания английского текста (в старших классах средней школы). – Дисс. ... канд.педнаук – Л., 1974. – С. 15.

<sup>2</sup> Vekshina T.F. Nomi ko'rsatilgan dissertatsiya, 27-bet..

Bunday mashqlar baʼzan soʻzning ichiga tovush qoʻshish tarzida tashkil etilishi mumkin: *asl – asil, amr – amir, asr – asir, azm – azim* kabi.

Toʻgʻri oʻqish va savodli yozishni taʼminlaydigan kuchli mashq turlaridan biri boʻgʻinlab oʻqish va koʻchirishdir. Soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib oʻqish va yozish chogʻida ularning harf tarkibiga, tovushlariga oʻta sinchkovlik bilan eʼtibor beriladi.

Umuman, soʻzni tez taniy olish uchun uni oʻqib, shakli va maʼnosini tez xotirga tushira oladigan darajada oʻzlashtirish lozim. Bunga erishish maqsadida leksik mashqlarga keng oʻrin ajratiladi. Yalpi tarjima shunday mashqlardan biri hisoblanadi.

Oʻquvchilarni baʼzi orfoepiya qoidalari, soʻzlarning boʻgʻinlarga ajratilishi, gaplarning sintagmalarga boʻlinish tartibi bilan tanishtirib borish talaffuz yuzasidan amalga oshiriladigan choralar sirasiga kiradi.

Oʻqish texnikasini egallashda oʻqituvchining namunasi va oʻquvchilarning unga taqlidan oʻqishlari katta oʻrin tutadi. Bu ish yakka va joʻrlikda oʻqish tarzida uyushtiriladi. Chunonchi, soʻz yoki sintagma aytiladi, oʻquvchilar takrorlaydilar; gapni oʻqish namunasi koʻrsatiladi, bolalar uni namunadagidek oʻqiydilar.

Oʻqish ravonligi bir nuqtada turmaydi, maxsus eʼtibor berilgan vaqtda yuqori saviyaga koʻtariladi, eʼtibordan chetda qoldirilganda, talab darajasidan ancha pastlab ketadi.

Oʻqish texnikasining eng murakkab jihati – bu gaplarni sintagmalariga rioya qilib oʻqishdir. Gapni maʼnoli qismlarga ajratib, ikki va undan ortiq soʻzni bir soʻzday qoʻshib, orada toʻxtam qilmay aytish malakasi juda sekinlik bilan shakllanadi. Umuman, matn tanlashda undagi gaplarning dashtab bir yoki ikki soʻzli sintagmalardan iborat boʻlishiga alohida eʼtibor beriladi. Ikki soʻzli sintagma puxta egallanganidan keyingina uch soʻzli sintagma oʻtiladi. Toʻrt va undan ortiq soʻzli sintagmalarga yuqori sinflardagina oʻtish mumkin.

Oʻqituvchi sintagmatik oʻqish namunasi koʻrsatishdan, yaʼni matnni oʻqib berishdan oldin oʻquvchilarning diqqatini qaysi soʻzlar qoʻshib bir soʻzday oʻqilayotganiga tortadi, ulardan shunday oʻqish zarurligini talab etadi.

Oʻquvchilar bilan joʻr ovoqlikda matnni sintagmalarga boʻlib oʻqishning ahamiyati ham katta. Bunda matndagi gaplar sintagmalar boʻyicha oʻqiladi, bolalar qoʻshib aytilgan soʻzlarni oʻqituvchiga taqlidan takrorlab boradilar. Masalan, «*Toshkentdan 85 km narida Chimyon togʻlari atrofida juda chiroyli joylar bor*» gapi uch sintagma boʻlib oʻqiladi:

1-sintagma: *Toshkentdan 85 km narida*

2-sintagma: *Chimyon togʻlari atrofida*

3-sintagma: *Juda chiroyli joylar bor*

Oʻquvchilar matnni oʻqiganda, odatda, avval har bir gapdagi soʻzlarni alohida-alohida ajratib, har bir soʻzdan keyin toʻxtam qiladilar, shu tufayli sekin oʻqiydilar, natijada ravonlik taʼminlanmaydi.

Sintagmalarda soʻzlar miqdori asta ortib borishi lozim. Uchdan ortiq soʻzni sintagma birlashtirib, bu soʻzlar orasida toʻxtamlar qilmay oʻqishni oʻrgatishda



soʻzlarini koʻpaytirib borish asosida tuzilgan gaplardan foydalanish katta naf keltiradi. Masalan:

*Hovlida qip-qizil lolalar ochilib yotibdi.*

*Hovlida yuztacha qip-qizil lola ochilib yotibdi.*

*Hovlida bultur ekilgan qip-qizil lolalar ochilib yotibdi.*

Gapdagi soʻzlar sintagmalarga birlashtirilmay, ayrim-ayrim oʻqilganda, ularning har biri maʼno urgʻusi bilan aytilganday boʻladi, har biridan keyin toʻxtam qilinadi. Soʻzlar sintagmaga birlashtirilganda, oxirgi soʻzidan tashqari qolgan barcha soʻzlardagi maʼno urgʻusi, birinchi darajali (kuchli) soʻz urgʻusi yoʻqoladi. Taqqoslang: *Menga / tarixiy voqealarni / tasvirlagan / asarlar / yoqadi.* – *Menga / tarixiy voqealarni tasvirlagan asarlar yoqadi.*

Har bir soʻzdagi nooʻrin qoʻyilayotgan maʼno urgʻusini bartaraf etish, ortiqcha bemavrid toʻxtamlarga barham berish orqali oʻqish surʼatini oshirishga muvaffaq boʻlinadi.

Oʻquvchilarga oʻzbek tilida toʻgʻri, tushunib oʻqishni oʻrgatish birinchi navbatda oʻqish texnikasini yaxshilash, bolalar yoʻl qoʻyadigan turgʻun xatolarni tuzatib borishga qaratilmogʻi lozim. Bir qator adabiyotlarda taʼkidlanishicha, soʻz notoʻgʻri talaffuz qilinsa, shu soʻzning oʻzigina emas, balki butun jumla, gap notoʻgʻri oʻqilganda esa, butun matn qayta oʻqitilishi kerak degan fikr bor. Keyingisini dars sharoitida amalga oshirish qiyin, albatta. Bu ish ifodali oʻqishga oʻrgatish bilan bogʻlab tashkil etilsa, yuqori samara berishi aniq koʻrinadi. Bir fikrga qoʻshilish zarurki, oʻqishdagi xato oʻqitib tuzatilishi kerak.

T.V.Muxayevaning fikricha, soʻzlarning tovush, grafik, orfografik va semantik «timsoʻl»lari har tomonlama oʻzlashtirilmasa, oʻqishda xatolar kelib chiqaveradi<sup>1</sup>. Bizningcha, buning matn mazmunini tushunishga ham taʼsiri boʻladi.

Oʻquvchilarning oʻqish texnikasini durustlashda badiiy pishiq matnlardan parcha yod oldirish usulini qoʻllash yaxshi samara beradi. Bu ish oʻqituvchi rahbarligida, nazorati ostida amalga oshiriladi.

Xullas, oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarga matnni toʻgʻri oʻqishni oʻrgatishda nazorat uchun qulay boʻlgan baland ovoz chiqarib oʻqishga, qiyinroq aytiladigan soʻzlarni boʻgʻinlab talaffuz qilishga, gaplarni sintagmalar asosida oʻqishga, shular orqali ravonlikni taʼminlashga katta ahamiyat beriladi.

<sup>1</sup> Мухаева Т.В. Методика проведения синтетического чтения на английском языке в V классе. Автор дисс. ... кандпеднаук. – М., 1975. – С. 124.

### 3-BOB

## O‘ZBEK TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA MATN MAZMUNINI TUSHUNIB O‘QISHNI O‘RGATISH VA O‘QISH TURLARI USTIDAGI ISHLAR

O‘zbek tili darslarida matn mazmunini tushunib o‘qish asosiy maqsadlardan biridir. Ushbu maqsadga erishishning dastlabki qadami o‘qish texnikasini yaxshilash bo‘lsa, notanish (yangi, shuningdek, ilgari o‘rganilgan, lekin ma‘nosi unutilgan) so‘zlar ma‘nosi ustida ishlash navbatdagi qadamidir. Shu narsa ma‘lumki, bunday so‘zlar yarim betlik matnda 20-25 atrofida yoki undan ko‘p bo‘lsa, mazmunni tushunish mushkullashadi.

Darslikda til hodisalarini o‘rganish uchun asosiy o‘quv materiali sifatida matn berilsa, yangi so‘zlar va grammatik vositalar shu matn doirasidan kelib chiqib belgilansa, tashkil etiladigan dars matnini o‘qish va mazmunini tushunish ustidagi ishlarga bag‘ishlanadi. Leksik va grammatik mashqlar zimmasiga ham oquvchilarni matndagi yangi so‘zlar va so‘z shakllarini anglash orqali gaplar mazmunini tushinishga tayyorlash vazifasi yuklanadi. Bunday vaziyatda nutqiy faoliyatning to‘rtala turini oqilona nisbatda parallel rivojlantirib borish ishlari qiyinlashadigan vaziyat yuzaga keltiriladi. Aslida darslikda yangi leksik va grammatik materiallar matnlardan ajratish yo‘li bilan emas, balki har bir sinf uchun ilmiy asosda belgilab olingan lug‘at minimumi, grammatik vositalar asosida ishlab chiqilishi shart. Bu qiyin ish. Darsliklar tezkorlik bilan emas, yillar mobaynida olib boriladigan izlanishlar natijasi sifatida yaratilishi kerak. Xalqimizning «Yig‘lab-yig‘lab ariq olsang, o‘ynab-o‘ynab sug‘orasan» degan naqli bejiz aytilmagan. Metodik jihatdan puxta tuzilgan darslik o‘qituvchining dars berishini ham, o‘quvchilarning tilni maroq bilan o‘rganishini ham ta‘minlaydi, ta‘lim jarayonini osonlashtiradi.

Rejasiz tanlangan matnlarda rusiyzabon o‘quvchilar ma‘nosini qiyinchiliklar bilan anglaydigan so‘z shakllari ko‘p uchraydi. Agar parchada 3 va undan ortiq qo‘shimchali so‘z shakllari, qaralmishi shu shakldagi so‘zlar bilan ifodalangan qaratqichli birikmalar bisyor bo‘lsa, gap mazmunini tushunish vazifasi uddalanmasligi o‘tkazilgan tajribalardan ma‘lum.

O‘quv matnida yangi grammatik vositalar miqdoriy chegaraga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida bu miqdor bitta matnda bitta yangi grammatik shakl bo‘lishi mumkin degan fikrlar mavjud.

Matnning janr xususiyatlari uning mazmunini tushunishga turlicha ta‘sir qiladi. Ilmiy maqola tipidagi matnda notanish so‘zlar ham, tuzilishi murakkab gaplar ham ko‘p bo‘ladi. Bunday matnlar mazmunini tushunish nihoyatda og‘ir. Leksik va grammatik materiali so‘zlashuv nutqiga yaqin rivoya-matn mazmunini tushunish osonroq, qiziqarliroq. Fabula qiziqarli bo‘lsa, yana ham yaxshi. Lekin fabulasi qiziqarli matnda leksik qiyinchiliklar tasvir-matnlarga qaraganda ikki baravar ortiq bo‘ladi.

Badiiy matnlarda mazmunini anglashda bir qator o‘ziga xos mushkulliklar mavjud. Bu mushkulliklar badiiy tasvir vositalari, emotsional-ekspressiv til hodisalari, ko‘chma ma‘no asosida yaratilgan ramzlar bilan bog‘liqdir. Ayniqsa,

hissiy-intellektual ta'sir vositalari, baho beruvchi, ruhiy holatlarni ifodalovchi so'zlar qiyin anglanadi.

Yangi matn ba'zan kutilmagan axborotga ega bo'ladi. Bu borada kitobxonni haydovchiga o'xshatish mumkin: kitobxon ham, haydovchi ham o'zini oldinda nima kutayotganini bilmaydi.

Matnlarda ma'no-mazmunini tushunishni maxsus o'rgatish taqozo etiladigan til hodisalari ko'p bo'lishiga qaramay, ayrim o'qituvchilar matn ustida ishlashning ta'limiy jihatiga emas, afsuslar bo'lsinki, asosan o'quvchilarning matn mazmunini qanday anglaganini nazorat qilishga ko'p vaqt sarflaydilar.

Ayrim matnlardan o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish maqsadida foydalanish ko'zda tutiladi. Bunday matnlarda faollashtiriladigan leksik va grammatik materiallar ajratilgan bo'lishi kerak. Bu materiallar yaqin orada o'rganilganligi uchun ular ishtirok etgan gaplarni ham o'qib, rus tiliga tarjima qilishni talab etish zaruriyati sezilmaydi.

Matnlar hajman kattalashib borishi lozim. Ularning hajmi kichikligicha qolaversa, leksik-grammatik qiyinchiliklar yo'qolmaydi, chunki so'z va so'z shakllarining ishlatilish chastotasi eng past darajada bo'lib, bunday chastota o'qish paytida ishga tushadigan leksik va grammatik malakalarning shakllanishini ta'minlay olmaydi: o'quv yili mobaynida 1-2 matndagina uchragan til hodisalari unutiladi, natijada ularni har gal yangidan o'rganishga va mustahkamlash mashqlarini qayta o'tkazishga to'g'ri keladi. Aksincha, har bir yangi matn avvalgi matn va matnlarda o'rganilgan leksik va grammatik materiallar hisobiga hajman kattalashib borsa, uni o'qib mazmunini tushunish osonlashadi. Bunga so'z va so'z shakllarining ishlatilish chastotasining yuqori bo'lishi ortgani orqali erishiladi. Binobarin, o'qish oson bo'lsa, o'quvchi hajman kattalashib borayotgan matnlar misolida ko'p o'qiy olsa, unda mutolaaga qiziqish paydo bo'ladi.

Darslik tuzish amaliyotida keng tarqalgan usulga qaytadigan bo'lsak, matn orqali yangi leksik va grammatik materiallarni mustahkamlash degan maqsadning qo'yilishi unchalik to'g'ri emas. Ushbu materiallar ustida nutqiy faoliyatning to'rtala turini ikki guruhga ajratgan holda yondashmoq darkor: 1) og'zaki va yozma nutqni o'stirish; 2) matnni o'qish va nutqni tinglab tushunish. Og'zaki nutq bilan yozma nutqni birlashtirib turadigan jihat shundaki, ikkalasida til hodisalari tez xotiraga tushirilishi va gap tarkibida qo'llanishi lozim. Farqlantiradigan tomoni shundaki, og'zaki nutqda uning talaffuzi, yozma nutqda esa imlosi avtomatlashgan darajada tez yodga kelishi zarur.

Matnni o'qish bilan nutqni tinglab tushunish tayyor taqdim etilgan til hodisalarining ma'no-mazmunini (birida o'qib, ikkinchisida eshitib) tez eslay olish malakasi birlashtirib tursa, birida ovozlantirilgan shaklda idrok etish, ikkinchisida ovozlantirish zaruriyati ularni farqlantiradi. O'qituvchi matnni o'qib mazmunini tushunishni o'rgatar ekan, nutqiy faoliyatning shu turiga xos maqsadlarni alohida-alohida qilib ajratib olmog'i darkor. *Aytmoqchimizki,*

---

<sup>1</sup> Qarang: Йўлдошев Р. Ўқув текстлари, уларда сўзларнинг ишлатилиши. / Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикасини такомиллаштириш масалалари (тўғлам). - Тошкент: ЎзПИФТИ, 1985. - Б. 40-47.

*matnни o'qish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar ustida bir yo'la nutqiy faoliyatning to'rtala turi uchun umumiy tarzda ish olib borilishi mumkin emas.*

O'zbek tili darslarida matn mazmunini tushunib mutolaa qilish o'qish texnikasidan keyin turadigan muhim sifat ko'rsatkichlaridan sanaladi. Zero, ushbu faoliyat turi kommunikatsiya aktining maqsadi va amalga oshuvidir. Matn mazmunining tushunilish darajasi hamda sifati quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishiga bog'liqdir:

– matndagi so'zlar, grammatik vositalarni bilish-bilmaslik (o'quvchilarning so'z boyligi va til bilimi qay saviyada ekanligi);

– so'zlar, so'z shakllarining ma'nosini tez xotirlash, so'z birikmasi va gap mazmunini tez hamda to'g'ri anglay olish;

– matnning asosiy mazmunini (yangi axborotni) ajrata bilish.

Matnda ishlatilgan so'zlarni bilish-bilmaslikning matn mazmunini tushunishga ta'siri juda katta. Ko'p so'zlarni bilmaslik matn mazmunini umuman tushunmaslikka sabab bo'lsa, ayrim so'zlarning ma'nosini anglamaslik ba'zi gaplar mazmunini to'g'ri va aniq anglamaslik, ba'zan xato tushunish singari qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday vaziyatda matndan olinayotgan axborot uzuq-yuluq bo'ladi.

Ba'zan matnda nofaol leksika ko'p bo'ladi. Bunday so'zlarni o'rganish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ularni faol leksika qanday o'rgatilsa, shu tarzda o'rgatish ma'qul emas. Chunki ular o'qilayotgan matn munosabati bilan uchraydi, xolos.

O'qituvchilar o'quvchilarning matn mazmunini tushuna olmayotganliklarini sezgan hamonoq tarjimali o'qish usulini qo'llaydilar. Ushbu usulning ijobiy va salbiy tomonlari, samarasi yo'q darajada ekanligini 2012-yili nashr qilingan monografiyamizda asoslab berganmiz<sup>1</sup>.

Grammatik materiallarga ham ikki xil yondashish zarur: ularning aksariyat qismi og'zaki nutqda faol ishlatilsa, ayrim grammatik vositalar kitobiy nutqqa xos bo'lib, ularni nofaol darajada o'rganish ko'zda tutilishi kerak. Lug'atda so'z shaklining tarjimasini ko'rsatish ana shunday usullardan biridir. Ayon bo'ladiki, matndagi ayrim so'z shakllari ma'nosini, so'z birikmalari va gaplar mazmunini tushunmaslik bevosita grammatik materiallarni o'rganish natijalari talabga javob bermasligi bilan izohlanishi mumkin.

***Xullas, matndagi notanish leksik va grammatik materiallar uning mazmunini tushunishdagi qiyinchiliklarga sabab bo'ladi; ushbu qiyinchiliklarning asosiy sabablarini, qo'llash lozim bo'lgan ta'limiy tadbirlar xarakterini belgilab beradi, shu yo'l bilan o'qishga qadar va o'qish paytida ularni bartaraf etish imkonini yaratadigan choralar ko'riladi.***

<sup>1</sup> Yo'ldoshev R.A. Nomi ko'rsatilgan monografiya, 22–38-betlar.

### 3.1. O'qish turlarining matn mazmunini tushunib o'qishga ta'siri

O'qishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad matn mazmunini tushunib, undan axborot olishdir. Tushunganlik o'qishning ravonligini (keraksiz to'xtamlarning bo'lmasligini, sintagmatik o'qishni) belgilab beradi. Ma'lumki, noaniq so'z to'xtashga, noaniqlik qayta o'qishga, har bir so'zni alohida-alohida talaffuz qilishga sabab bo'ladi. Gaplardagi ma'nosi anglanmagan so'zlar hijjalab o'qilsa, notanish so'z va so'z shakllari tufayli ravon o'qish ko'nikmalari pastlab ketadi.

Ilgarigi dasturlarda matn ustida ishlashdagi asosiy e'tibor uch o'qish turiga: tushunib o'qish, ichda o'qish, tez o'qishga qaratilgan edi. O'qish birinchi navbatda ravon bo'lishi kerak. Ravonlik tushunish tezligiga bevosita bog'liqdir. Matn mazmunini anglashdagi qiyinchiliklar sekin o'qishga sabab bo'ladi. Sekin o'qish paytida matn mazmunini tushunishga bo'lgan e'tibor kuchayadi. Demak, o'qish ravonligi tushunish sifatini ham belgilab beradi. Shu boisdan ta'kidlash joizki, o'qish tezligi tushunish tezligi bilan baravar rivojlanishi kerak.

O'quvchilarning o'qish texnikasini yaxshilash haqida gapirganda, o'qish sur'atini nazardan qochirmaslik lozim. So'zma-so'z o'qish tushunishni bir qadar qiyinlashtiradi. Gapning kattaligi ortgan sayin uni sekin o'qish jarayonida anglash ishi ham mushkullashib boradi. Bu holat ko'proq gapning kattaligi 7-8 so'z va undan orta boshlaganda sodir bo'ladi. Uzunroq gaplar so'zlar tizmasiday qabul qilinadi, natijada ulardan fikr keltirib chiqarish qiyinlashadi.

Tezligiga ko'ra o'qish uch turga ajratiladi: sekin o'qish, o'rtacha (normal) o'qish, tez o'qish. O'qish malakasi normal o'qish sur'atini ifoda etadi. Ayrim manbalarda o'qishning sur'atiga ko'ra to'rtinchi turi ham ajratiladi: ko'z yugurtirib (vizual) o'qish.

1 daqiqada 60 dan 90 gacha so'zni o'qish sekin o'qish sanaladi. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, bola ko'pincha uzunroq so'zni ikkiga bo'lib o'qiydi. Demak, bunday harf-tovushlar miqdori 12 dan ziyod bo'lgan so'zlarni ikkita so'z deb hisoblash lozim.

O'rtacha (normal) sur'atda o'qishda 1 daqiqada 90–120 so'z, tez o'qishda esa 130 va undan ortiq so'z aytiladi.

O'qish tezligining sekinlashuviga har bir so'zdan keyin to'xtam qilish sabab bo'ladi. Tinglovchi so'lari bu tarzda aytilgan uzunroq gaplar mazmunini tushuna olmasligi mumkin. Ba'zan sekin o'qigan bolaning o'zi ham gap mazmunini anglashga qiyinaladi.

Juda tez o'qiganda tinglovchi ham, o'qiyotgan kishining o'zi ham matn mazmunini yaxshi anglay olmaydi. Demak, bunday o'qishda gaplar mazmunini tushunish tezligi o'qish tezligidan orqada qolayotgan bo'ladi. Ayrim o'quvchilarda nutqni tinglab idrok etish tezligi sekinga moslashgan bo'ladi.

Ovozlantirish nuqtayi nazaridan quyidagi o'qish turlari ajratiladi: baland ovoz chiqarib o'qish, past ovoz chiqarib (ichdan, pichirlab) o'qish, ovoz chiqarmay, ko'z yugurtirib o'qish.

Baland ovoz chiqarib o'qish o'zgalarning tinglashi uchun mo'ljallanadi. O'qituvchi o'qishning bu turidan bolalarning o'qish texnikasini tekshirish maqsadida ham foydalanadi. Bunday nazorat asosan quyi sinflarda tashkil

qilinadi. Yuqori sinflarda baland ovoz chiqarib o'qish nazorat uchun o'qishdan tashqari, ifodali o'qish niyatiga ega bo'ladi.

Baland ovoz chiqarib o'qish chog'ida matn mazmuniga e'tibor kamayadi. Shuning uchun baland ovoz chiqarib o'qigan o'quvchidan matn mazmunini qayta hikoyalashni talab etish o'rinsiz. Baland ovoz chiqarib o'qish paytida kitobxon ko'proq to'g'ri o'qish haqida qayg'uradi, matn mazmunini tushunish shu birinchi vazifaga qo'shimcha rol o'ynaydi

Kishi matn mazmunini to'liq tushunishni maqsad qilib qo'ysa, uni ichdan o'qiydi. Bunday o'qish ko'pincha tez o'qish bilan tavsiflanadi. Buning uchun o'quvchi past ovoz chiqarib ham tez o'qiy olishi darkor.

Ayrim metodistlarning fikricha, ma'lum bosqichda ichdan o'qish tezligi baland ovoz chiqarib o'qish bilan teng bo'ladi. Faqat darsda ichdan o'qish tezligini nazorat qilib bo'lmaydi: unga baland ovoz chiqarib o'qish sur'atiga qarab baho berish mumkin.

Ko'z yugurtirib o'qishda ichdan ovoz chiqarib o'qish jarayoni kechmaydi. Matn ko'z bilan o'qiladi. Ko'z yugurtirib o'qish tezligi bir daqiqada 180-190 so'zdan tortib 350 so'z gacha yetadi (S.F.Folomkina).

O'quvchilarda ravon o'qish malakasini hosil qilishda qayta-qayta o'qishning ahamiyati katta. Lekin uni uyushtirish alohida shart-sharoitlarni taqozo etadi. Bu shart-sharoit qiziqish bilan bog'liq. Masalan, qayta-qayta o'qishni aylanma tarzda tashkil qilganda, avvalo, o'qib bo'lganlar, qolaversa, o'qiyotgan o'quvchidan boshqa barcha bolalar zo'r-bazo'r kuzatib boradilar. Umuman, o'qish shunchaki oddiy bir jarayon bo'lmay, u irodani, qiziqishni talab etadigan jarayondir, bu ruhiy holatni chetlab o'tish mumkin emas.

Darsning baland ovoz chiqarib o'qish bosqichi aylanma o'qish tarzida tashkil etilishi mumkin. Aylanma o'qishda bolalarning diqqatini ushlab turish uchun kuzatib borishni ta'minlash, o'qishni davom ettirish uchun tayyor turishlariga erishish lozim. O'qiyotgan o'quvchi hamma aniq eshitadigan qilib baland ovoz bilan o'qish talabiga rioya qilishi kerak. U past ovoz bilan o'qisa, o'qituvchi uzoqroq joyga borib turishi va balandroq o'qishni talab etishi yoki ogohlantirishi zarur. O'quvchi baland ovoz chiqarib o'qish zarurligini his qilib, shunga intiladi.

Baland ovoz chiqarib o'qish paytida o'quvchi notanish so'z yoki qiyinroq gap turi uchraganda, to'xtab-to'xtab o'qiydi, so'zni buzib talaffuz qiladi, gapni sintagmalarga noto'g'ri ajratadi, badiiy asardan olingan parchani o'qishda ifodalilik bo'lmaydi.

Ichdan o'qish kishi o'zi uchun o'qiganda qo'llanadi. Ovoz chiqarib o'qish ichdan o'qishning sifat ko'rsatkichlarini aniqlab, nazorat qilib, to'g'ri yo'naltirib borish uchun xizmat qiladi.

Ko'pincha so'zni o'qib tushunish tezligi o'qish tezligini belgilab beradi. Shunga ko'ra ham, so'z ma'nosini tez tushunish malakasini oshirishga imkon beruvchi, so'ngra gapning melodikasini tez ilg'ab olish ko'nikmasini shakllantiruvchi mashqlar bajarish ayni muddaodir.

Matnni ma'lum vaqt ichida o'qib chiqish yuzasidan o'tkaziladigan mashqlar ham bolalarning o'qish malakasini yaxshilashga yordam qiladi. Bir o'quv yilida

1-2 matni yod oldirish o'qish tezligini oshirishga sezilarli ko'maklashadigan chora-tadbirlardan biridir. O'qituvchi matni yod olishni topshirib, bolalardan avval bittadan, keyin ikkittadan, so'ng uchtadan, nihoyat, to'rt yoki beshtadan gapni yoddan aytishni talab etadi. Ushbu jarayonda sintagmalarga amal qilib o'qish yuzasidan tegishli maslahatlar berib boradi. Mashq yakunida o'quvchilarning o'qish sur'ati tekshirib ko'riladi.

Baland ovoz chiqarib o'qish qanchalik yaxshilansa, ichdan o'qish usullari ham shunchalik takomillashib boradi, ya'ni bular bir xil saviyada qotib turmaydi.

Tajribasiz kitobxonning o'qishi, avvalambor, zukkolikning yo'qligi, ya'ni konkret sharoitlarga qarab o'qish usullarini tanlab olish malakasining shakllanmagani bilan tavsiflanadi, shuning uchun uning o'qishiga odatda na topshiriqning o'zgartirish, na o'quv materiallarining (tili yoki mazmuni jihatidan) murakkablashuvi ta'sir etolmaydi.

Ma'lum bo'ladiki, ovoz chiqarib o'qish amaliy maqsadlar, ya'ni o'quvchilarga to'g'ri o'qishni o'rgatish uchun xizmat qiladi. Ichdan o'qishning kommunikativ funksiyasi boshqa: u muayyan axborot olish usuli sanaladi.

Talaffuz va ifodalilikka, sur'at hamda ravonlikka e'tiborning kuchli yoki kuchsiz namoyon bo'lishiga qarab o'qishning uch turi ajratiladi: ta'limiy o'qish, nazorat uchun o'qish, informativ o'qish.

Umuman, o'qish texnikasiga doir vazifalar qo'yilmasa, kitobxonning o'qishi yangilik bilan tanishish, ya'ni informativ tavsifda bo'ladi. Buni odatdagi (kundalik) o'qish deb ham atashadi.

Informativ o'qish, ya'ni kitobxonning yangilik bilan tanishish niyatidagi o'qishidan bir necha xil maqsad ko'zlanishi mumkin: biror faktni topish uchun o'qish, matni ko'zdan kechirish (sharhlash) uchun o'qish, matn mazmuni bilan tanishish, matni mufassal o'rganish uchun o'qish, shunchaki o'qish, tanqidiy tahlil uchun o'qish.

Ko'rinib turibdiki, informativ o'qishning maqsad va vazifalari matn mazmuni bilan tanishish, yangi bilim olish sari yo'naltiriladi. Ta'limiy o'qish ham shu maqsadga qaratiladi. Lekin o'qishning bu turida asosiy e'tibor matn mazmunini tushunishga safarbar etiladi, leksik va grammatik qiyinchiliklarni yengish yo'llarini egallash niyati ustun turadi.

O'quv faoliyatida tutgan o'rni va maqsadiga ko'ra ta'limiy o'qish, odatdagi o'qish, nazorat uchun o'qish o'zaro farqlanadi. Ta'limiy o'qish bilan nazorat uchun o'qishning farqi shundaki, birinчисida bolalarning o'qish texnikasidan tortib leksik va grammatik tahlilgacha bo'lgan malakalarni rivojlantirish yuzasidan mashqlar o'tkaziladi. Bu mashqlar o'qituvchi rahbarligida bajariladigan amaliy ishlardan iborat bo'ladi.

Nazorat chog'ida o'quvchilarning o'qish texnikasi, matn mazmunini qanchalik tushunganliklari, yangi axborotni o'zlashtirganliklari tekshiriladi xolos. Odatda, o'qituvchilar ta'limiy o'qishga oz vaqt ajratib, nazorat uchun o'qish bilan ko'p shug'ullanadilar. Tekshirishni asosan matn mazmunini rus tilida ifodalash tarzida tashkil etadilar. Ba'zi paytlardagina matn bolalarning talaffuz malakalarini aniqlash niyatida ham o'qitiladi.

Ta'limiy o'qish o'qishdan kuzatiladigan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, ya'ni o'quvchilarda matn mazmunini tushunish, undan yangi bilimlar olish malakasini hosil qilish yo'llarini ifoda etadi. Shunga ko'ra ham u bolalarni matn mazmunini tushunib o'qishga tayyorlovchi jamiki ish turlarini qamrab olishi kerak.

O'qituvchi har bir sinfda o'quvchilarning o'rtacha o'qish tezligini yil davomida 2-3 marta tekshirib turmog'i, matnни o'qib berayotganda sinf o'quvchilarining o'rtacha o'qish tezligiga yaqin o'qib bermog'i lozim. Aks holda bola o'qituvchining o'qiyotganlarini ichdan takrorlashga ulgurolmay, orqada qola boshlaydi. Ichdan takrorlab ulgurolmagan joylarini tashlab ketadi, oqibatda matn mazmuni uzuq-yuluq anglanadi.

Malaka hosil bo'lmasdan turib tez o'qish talaffuzning pala-partish bo'lishiga olib keladi, shuningdek, o'qishning bu turida yosh kitobxon bayon qilinayotgan voqea va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va eslab qolishga o'zlik qiladi.

Ayrim ona tili o'qituvchilari o'quvchilardan badiiy matnlarni ham ovoz chiqarib tez o'qishni talab etadilar. Bu mutlaqo noto'g'ri talab. Badiiy matn ovoz chiqarib o'qilsa, u ifodali o'qiladi. Ifodali o'qish chog'ida so'zlar, sintagmalar alohida ovoz jilolari bilan aytiladi, natijada so'z ustasi matnни 1 daqiqada 60-80 so'z tezligida mutolaa qiladi. 1 daqiqada 60-80 so'z tezligi sekin o'qish tezligiga teng kelsa-da, sifat jihatdan undan farqlanadi. Badiiy matn ifodasiz o'qilgan taqdirdagina tezlik daqiqasiga 130 va undan ortiq so'z darajasida bo'lishi mumkin. Ba'zan kitobxon asarni ko'z yugurtirib mutolaa qiladi. Bu holatda u satrlardan bahra olishni emas, tasvirlanayotgan voqealarning borishidan tezroq xabar topish istagida bo'ladi.

O'quvchilarda talaffuz malakalarining hosil bo'lishi, ya'ni o'qish texniksining shakllanishi, o'qish tezligining normal sur'atga yetishuvi o'qish ravonligini keltirib chiqaradi. O'qishning ravonligi so'zning harf tarkibini tez ilg'ab olish va ularni tovushlarga aylantirish ko'nikmasini o'z ichiga oladi. O'qishdagi normal tezlik onglikni ta'minlaydi, o'quvchining matn qismlaridagi mantiqiy markazlarni oson ajratib olishiga yordam beradi.

Matnda ishlatilgan tanish so'zlar o'qish ravonligini oshiradi. Yuqori sinflarda ham talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarni ajratish, o'qishga qadar aytilishini mashq qildirish shunga xizmat qiladi.

Z.I.Klichnikova ajratgan o'qish turlari orasida quyidagi ikki turi leksik va grammatik materiallarni o'qishgacha og'zaki ishlab chiqish mashqlarining bajarilishini ko'zda tutadi.:

- o'qituvchining oldindan olib boradigan ishlariga ko'ra: tushuntirilgan, tushuntirilmagan, qisman tushuntirilgan o'qish;

- materialning sifatiga ko'ra: qiyinchiligi olinmagan, qiyinchiligi qisman olingan, qiyinchiligi to'liq olingan o'qish.

Tayyorlangan (qisman tayyorlangan) o'qish deganda matnda ishlatilgan yangi so'zlar, matndagi gaplar bir-ikki dars oldin tanishtirilishi, ya'ni shu darslarda bajariladigan mashq materiallariga, kichik bog'lanishli matnlarga



kiritilishi tushuniladi. O'quvchi yangi so'zlarini va ayrim gaplarni o'qishni mashq qilgan holda asosiy matnni o'rganishga kirishadi.

Matnda ishlatilgan yangi leksik va grammatik materiallar bir-ikki dars oldin tushuntirilishi kerak. Shu yo'l bilan matnni o'qish paytida tug'iladigan qiyinchiliklar oldindan bartaraf etiladi. O'qish turi ham shunga monand nomlanadi.

Ruhshunoslarning izlanish natijalari shundan dalolat beradiki, so'zni anglash ikki ketma-ket bajariladigan aqliy jarayonni ifoda etadi:

– so'zning ko'ruv timsoli va ichki talaffuzi (eshituv timsoli) o'xshatish yo'li bilan tushuniladi;

– lug'aviy ma'nosi anglangan so'zning grammatik ma'nosini, so'zlar o'rtasidagi ma'no munosabatlarini aniqlashga o'tiladi (o'zakkdosh so'zlar ham shunday aqliy harakatlarni taqozo etadi).

T.F.Vekshina ong o'qilayotgan matnning mazmuniga qaratilgan paytda miyada grammatik axborotni taqqoslash va tanib olish yuzasidan bajariladigan avtomatlashgan harakatlarni o'qishning grammatik ko'nikmalari deb ataydi<sup>1</sup>.

O'qib tushunish jarayoni leksik va grammatik bashorat bilan tez-tez almashinib turadi. Kitobxon dastlab ilg'ab olingan so'zdan keyingilarini bashorat qila boshlaydi. Masalan: *Bugun havo ... (ochiq yoki bulut)*.

So'zlarni bashorat qilish xayolan bajarilib, o'qishdan ilgariylash tarzida kechadi. O'quvchi xayolidagi so'zlardan birini aytib xato qilmaslik uchun vaqtni cho'zadi. Natijada talaffuzda to'xtam yuzaga keladi. Shu orada ko'zning navbatdagi fiksatsiya harakatini keyingi so'zga yetkazib oladi, shu yo'l bilan to'g'ri o'qishga erishadi. Bunda so'zlarni (gapning davomini) bashorat qilish ichki jarayon bo'lib qolaveradi.

Shuningdek, o'quvchilarda bashorat qobiliyatini o'stirishga yordam beradigan mashqlar ado etiladi. Biror harfi yoki qo'shimchasi tushirib qoldirilgan so'zni o'qish, biror so'zi (aniqrog'i, ko'zning gapni ikkinchi bor ilg'ashga to'g'ri keladigan qismi) o'rmiga nuqta yoki uch nuqta qo'yilgan gaplarni tez o'qish ana shunday mashqlar jumlasiga kiradi.

Z.I.Klichnikova gap chegarasida sodir bo'ladigan bashorat qilishlar haqida gapirar ekan, uni quyidagilar bilan bog'laydi: 1) bashorat qilinayotgan so'z bilan assotsiativ aloqaga kiradigan boshqa so'zlarning barqarorligi va bir ma'noda qo'llanishi; 2) so'zning o'ziga bog'langan aniqlovchisi va boshqa tobe so'zlari mavjudligi; 3) so'zning pozitsiyasi; 4) gapning chuqurligi va 5) kontekst orqali anglanib o'qiladigan so'zlardan tarkib topishi<sup>2</sup>.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, o'quvchilar e'tiborini leksik materiallarga kuchli tarzda qaratish matn mazmunini tushunishga, uni o'zlashtirishga muayyan ziyon yetkazadi. Ayrim lingvopsixologlarning (masalan, P.I.Zinchenkning) e'tirof etishicha, so'zma-so'z tarjima operativ xotiraning cheklangan hajmda bo'lishi tufayli tormozlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra ham lug'at ishini faqat o'qish bilan bog'lab tashkil etish mumkin emas. Og'zaki nutqiy mashqlar jarayonida so'zlar ixtiyorsiz suratda esda olib qolinadi. Umuman,

<sup>1</sup> Vekshina T.F. Nomzodlik dissertatsiyasi, 22-bet

<sup>2</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan kitob, 32-bet

nutqiy faoliyatning to'rtala turida (tinglash, o'qish, so'zlash va yozish) leksik mashqlar uchun o'rin bor.

O'quvchilar o'qiladigan matnning mazmuni bilan oldindan tanishtirilsa, o'qish turi tanishtirilgan o'qish yoki qisman tanishtirilgan o'qish deb nomlanadi.

O.A.Rozov amaliyotda ta'limiy o'qishning asosiy uch turidan: tayyorlangan o'qish, tayyorlanmagan o'qish, izohli o'qishdan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Z.I.Klichnikovaning fikricha, quyi (boshlang'ich) bosqichda qiyinchiligi olingan holda ovoz chiqarib o'qishning tubandagi turlari g'oyatda foydalidir: tayyorlangan o'qish, mashq qiluvchi o'qish, sinfdagi o'qish, yakka va jo'r ovozlikda o'qish, tarjimasiz o'qish, sintetik o'qish. Yuqori bosqichda oldindan tayyorlanmagan materialni qiyinchiligi olinmagan holda tanlab olib ovoz chiqarib o'qigan yaxshi. Shuningdek, laborator o'qish, dasturlashtirilgan holda ovoz chiqarib o'qish ma'qul<sup>2</sup>.

O.A.Rozov tayyorlanmagan o'qish deganda o'quvchilarning 100 so'zdan tuzilgan, 8-10 notanish so'zi bo'lgan matnni lug'at yordamida o'qib tushunishni nazarda tutadi<sup>3</sup>.

Z.I.Klichnikova oldindan ishlab chiqilgan o'qish turini ajratadi<sup>4</sup>. Bunda matndan oldin undagi ayrim gaplar savollar tarzida bir mashqda, javoblar tariqasida keyingi mashqda keltiriladi. O'quvchilar bu mashqlarni bajarar ekanlar, matnning ma'lum bir qismini o'qigan bo'ladilar. O'zbek tilini o'qitishda ushbu usul o'zini oqlagani yo'q. Chunki matn mazmunini savol-javoblar orqali o'zlashtirish o'qish jarayonini yengillashtirsa-da, keyingi o'qish ishlariga o'quvchilarning qiziqishlarini birmuncha pasaytirib yuboradi.

Statar o'qish davomida o'quvchi tez-tez to'xtashga majbur bo'ladi<sup>5</sup>. Ana shu qisqa to'xtash paytida kitobxon o'qilayotgan matn mazmuni haqida o'ylaydi: uni o'zlashtirishga harakat qiladi. Bunday o'qish turi shoshmay (bafurja) o'qish deb nomlanadi. U tahliliy o'qish deb ham ataladi.

Kursor o'qishda matnning umumiy mazmuni tushuniladi. Jadal o'qishda, ko'z yugurtirib o'qishda bo'lgani kabi tushunilmagan joylar tashlab ketiladi.

Metodikada ekstensiv va intensiv o'qish turlari ajratiladi. Ekstensiv o'qish mo'l-ko'l o'qish ma'nosini ham ifoda etadi. Bunda tushunilmaydigan o'rinlarni (tushunmaslik «orolchalari») «sakrab o'tish», «qiyinchiliklarni aylanib o'tish» kabilar kuzatiladi. Mutolaaga ko'p vaqt ajratib, shu fursat ichida bir qancha matnlarni ko'zdan kechirish, katta-katta parchalarni o'qish intensiv o'qish sanaladi. O'zbek tili darslarida matnlardan biror faktni topish topshirig'i berilganda, bolalar shunday o'qishni namoyon etadilar.

O'qituvchi o'qishning quyidagi turlaridan ham xabardor:

- tashkil etilishiga ko'ra: yakka tartibda, guruhli, jo'r ovozlikda o'qish;
- o'qish faoliyati uchun ahamiyatligiga ko'ra: asosiy, qo'shimcha o'qish;

<sup>1</sup> Rozov O.A. Nomzodlik dissertatsiyasi, 105-bet.

<sup>2</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan kitob, 70-bet.

<sup>3</sup> Rozov O.A. Nomzodlik dissertatsiyasi, 107-bet.

<sup>4</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan kitob, 76-77-betlar.

<sup>5</sup> Muxayeva T.V. Nomzodlik dissertatsiyasi, 13-bet.

– o‘qitilayotgan matndan foydalanilishiga ko‘ra: tanishuv, takrorlash niyatida o‘qish;

– ifodaliligiga ko‘ra; impressiv, ekspressiv o‘qish<sup>1</sup>.

Matndagi fikrni anglash uchun izohlashga doir quyidagi malakalar shakllanishi kerak:

– asosiy fikrni izohlovchi o‘rinlarni topish;

– o‘quv-biluv axborotga munosabat bildirish;

– kichik mavzuni izohlovchi o‘rinlarni topish;

– badiiy tasvir vositalarini topish;

– asosiy fikrni yetkazuvchi til hodisalarini topish;

– asosiy fikrni yetkazuvchi tayanch til hodisalarini topish, muallif bahosini aytish;

– kitobxon uchun muhimroq detallarni bayon etuvchi til hodisalarini izohlash;

– voqea-hodisalar haqidagi o‘z munosabatini, bahosini bildirish;

– o‘quv-biluv axborotiga baho berish;

– o‘z tuyg‘ularini ifodalash;

– kitobxonning e‘tiqodiga ta’sir ko‘rsatib o‘zgartirgan axborotni aniqlash;

– kichik sarlavhalar o‘ylab topish;

– faqat fikr predmetlari asosida sarlavhalar topish.

Kursor va diskursiv o‘qish, ekstensiv va jadal (intensiv) o‘qish atamaları analitik va sintetik o‘qishga sinonim sifatida qo‘llanadi. Kursor o‘qishning vazifasi, O.A.Rozovning uqtirishicha, notanish matnning tarkibiy qismlarini mufassal grammatik va leksik tahlilga murojaat etmagan holda mazmunini tushunishni o‘rgatishdan iborat<sup>2</sup>.

Ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida o‘qish turlari yigirmadan ortiq nomda tasnif etiladi. O‘qish turini atashda ba‘zan olinma so‘zlar ishlatiladi: ekstensiv o‘qish, kursor o‘qish va boshqalar. Maktab tajribasida esa o‘qish bunday nomlar bilan atalmaydi. Masalan, o‘qituvchi: «Bugun ekstensiv o‘qish o‘tkazamiz», «Bugun ta’limiy o‘qish o‘tkazaman», - deb o‘qish turini ajratmaydi, albatta. U darsning ushbu bosqichini: «Hozir biz mana bu matnни o‘qiyimiz», – deb vazifani tushuntiraveradi.

O‘qish turlarini nomlash metodika ilmida o‘qituvchining nazariy tayyorgarligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi, ya’ni o‘qish turlari o‘z nomi bilan nomlanadi. O‘qish turlari bir jihatdan matnning leksik va grammatik materiallari hisobiga oson-qiyinligi, hajmining katta-kichikligi, axborot miqdori kabilarga ko‘ra bir-biridan farqlansa, ikkinchi jihati o‘qishni o‘rgatishdan ko‘zlanadigan maqsad va vazifalarga borib taqaladi.

O‘qish turi sifatida ajratilmasa-da, mazmuniga o‘quvchilar diqqatini qaratish maqsadida matnни o‘qishdan avval unga doir savollarni berib qo‘yish (xattaxtaga yozish) usuli ham qo‘llanadi. Lekin matn mazmunini tushunish yo‘lida undagi asosiy fikrni ajratish bolalar uchun bir xilda oson ish emas.

<sup>1</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko‘rsatilgan kitob, 68-69-betlar

<sup>2</sup> Rozov O.A. Nomzodlik dissertatsiyasi, 36-bet.

A.S.Yegorovanning ta'kidlashicha, ikkinchi sinf o'quvchilari asosiy fikrni ajrata va uni ochib bera olmaydilar'. Biror ish usulini qo'llashda shu kabi holatlar ko'zda tutilishi kerak.

Matnni o'qishdan oldin berib qo'yiladigan yoki mutolaa paytida beriladigan savollarning tushunishga qanday ta'sir eta olishi borasida J.I.Manuelyanning olib borgan tajribalari e'tiborga loyiqdir. Murakkab bo'lmagan ilmiy-ommabop matnga doir o'qishdan oldin keltirilgan savollar tushunishga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan. Murakkabroq matnlar tanlanganda ham, savollar ijobiy rol o'ynamagan. Badiiy matnlarga doir berilgan savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, tuyg'ularini ifodalashga undagan taqdirdagina tushunishni yaxshilashga xizmat qilgan. Boshqacha aytganda, o'qishdan oldin beriladigan savollar tavsifi o'quvchilarni fikrlashga undashi, ularning diqqatini bir joyga to'plashi, matn mazmuniga qaratishi kerak.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqi o'sa boshlagan, mutolaa madaniyati shakllanish bosqichiga yaqinlashgan o'quvchilar o'z ixtiyorlari bilan uyda 1-2 betlik materiallarni o'qib kelganliklarini aytadilar. Z.I.Klichnikovanning bergan ma'lumotlariga qaraganda, bir soat o'qish uchun 25-35 betlik material uyga o'qishga topshirilishi mumkin<sup>2</sup>. O'zbek tili darslarida tilni amaliy egallay boshlagan o'quvchilarga 5-7 betlik hikoyalarni darsda mustaqil ish tarzida o'qishni boshlab, qolganini uyda davom ettirish topshirilganda, ushbu topshiriqni uddalaganlar bo'lgan. Lekin ushbu ish turi hamma uchun majburiy bo'lmisligi darkor.

Matn ustida ishlash bosqichining samaradorligini ta'minlash deganda, qaysi o'qish turidan foydalanilmasin, o'quvchilarning so'z boyligini va til bilimini oshirish bilan bir vaqtda kommunikatsiya aktining sodir bo'lishi, nutqni (uning o'qish turini) bir pog'ona yuksaltirish tushunilmog'i darkor. Boshqacha aytganda, quyidagi maqsad va vazifalarni hal etish sifatiga erishish ko'zda tutiladi:

1) matn mazmunini tushunish uchun sarflanadigan vaqtning qisqa bo'lishi, tushunishning to'g'riligi, to'liqligi va chuqurligi;

2) o'quvchilar o'qish texnikasining yaxshilanib borishi;

3) yangi so'zlarni tushuntirish va mustahkamlash, ma'nosi unutilgan so'zlarni xotiraga tushirish va takrorlash ishining dars davomida to'xtamasligi, muntazamligi;

4) o'quvchilarda savol tuzish malakasining o'sib borishi;

5) matn ustida ishlash bosqichida og'zaki nutq o'stirish mashqini amalga oshirish imkoniyatining yuzaga kelishi;

6) zarur axborot materiallarining o'zlashtirilishi.

Matn ustida ishlash samaradorligi ko'p jihatdan vaqtdan oqilona foydalanganlik bilan o'lchanadi. Bu ishga qancha vaqt sarflash kerakligi o'quvchilarning so'z boyligi va til bilimi saviyasiga ko'ra belgilanadi. Matnda notanish so'zlar, grammatik shakllar bo'lmasa, tushunish qisqa muddatda amalga

<sup>1</sup> Егорова А.С. Развитие устной русской речи на уроках чтения в чукотский начальной школе /на материале второго класса/: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1977 – С. 6.

<sup>2</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan ish. 74-bet.

oshadi. Parcha murakkab bo'lsa, har qanday sharoitda o'qish, lug'atdan foydalanish, savol-javob va boshqa ish turlariga ajratiladigan vaqt, ikkinchi tilni o'qitish metodikasiga doir adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ko'pi bilan 30 daqiqadan omasligi zarur. Axborotlarni o'zlashtirish ham shu vaqt ichida sodir bo'lishi lozim.

Qisqa muddat ichida ham matn mazmunini to'g'ri va to'liq tushunish, ham axborot olish uchun zamin hozirlash katta mahorat talab etadi. Buning uchun matn ustida olib boriladigan ish usullarini bilib tatbiq etish kerak.

Kitobxon matnga bir necha xil maqsad bilan murojaat etadi. Chunonchi, u biror axborotni izlaydi, biror narsani izohlash uchun asoslar qidiradi, sharhlar tayyorlaydi, biror fikrga aniqlik kiritadi: uni detallashtiradi, vaqtni ko'ngilli o'tkazadi, tanqidiy nuqtayi nazar bilan qayta o'qib chiqadi.

O'qish paytida foydalaniladigan lug'atlar, grammatik jadvallar, lingvistik matnlar yordamchi vositalar sanaladi. O'quvchi ularga murojaat etishi yoki murojaat etmasligi o'qish xarakteriga ta'sir etadi.

Bugungi kunda matnni taqdim etish usullari ham boyib bormoqda. Chunonchi, dars jarayoniga elektron darsliklar ham jalb qilinmoqda. Ularda matn dasturlashtirilgan holda ham taqdim etilmoqda.

### 3.2. Tarjimali o'qish xususida

Matnni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilib o'qish amaliyotda keng qo'llanadigan usul sanaladi. O'qituvchilar ikkinchi tilni o'qitish deganda birinchi navbatda tarjimali o'qishni tushunadilar. Lekin uning noto'g'ri qo'llanganda eng samarasiz usulga aylanishini hamma ham bilavermaydi. Bu haqda 2012-yili nashr qilingan monografiyamizda atroflicha to'xtalganmiz.

O'qituvchilar ko'pincha mufassal tarjimali o'qish turini qo'llaydilar. Lekin matnlarda oson tushuniladigan gaplar bo'ladi. Ba'zida bunday gaplar kamroq, ba'zida esa ko'proq uchraydi. Mazmunini tushunish qiyin bo'lgan gaplar kam bo'lsa, u holda saylanma tarjimali o'qish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Matnlar mazmuni oson anglanadigan gaplardan iborat bo'lsa tarjimasiz o'qitilgani ma'qul.

Nazorat chog'ida esa matndagi 2-3 ta murakkabroq gapni saylab tarjima qildirgan afzal. Bir nechta qiyinroq gapni rus tiliga o'girtirish asosida matn mazmunining tushunilgan-tushunilmaganligini tekshirish darsning qimmatli vaqtini tejash imkonini beradi. Aksincha, o'quvchilardan ular bilgan narsalarni so'rayverish esa vaqtni behuda sarflashga olib keladi.

Tarjimali va tarjimasiz o'qish o'quvchilarning fikrlash faoliyatini ifoda etadi<sup>1</sup>. O'zga tilda erkin gapira boshlagan kishi shu tilda tarjimasiz fikrlay boshlaydi. Lekin u gapirishni o'rgangunga qadar tarjimaga murojaat etib turadi. Tarjima texnikasi esa o'zidan-o'zi egallanib qolmaydi. Agar mazmunini tushunish qiyin bo'lgan gapni o'qituvchi tarjima qilib bersa, o'quvchilar tarjima texnikasini egallamay qolaveradilar, natijada tarjimali o'qishning oxiri

<sup>1</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan kitob, 28–29-betlar

ko'rinmaydi. Basharti o'qituvchi tahlillar o'tkazish yo'li bilan «qiyin» gaplarni anglash yo'lini o'rgatsa, matnlardagi bunday gaplar kamaya boradi va tarjimalarga ehtiyoj qolmaydi. Metodikada tilni tarjima yo'li bilan o'rganish va egallash cheksiz davom etishi mumkin emasligi haqida fikrlar ham mavjud<sup>1</sup>.

Eng yomoni tarjimali o'qishni leksik va grammatik materiallarni mustahkamlash va takrorlash mashqiga aylantirib yuborishdir. Odatda, o'qituvchi tarjimali o'qish usulini tatbiq etganda, doim o'zbek tilini amaliy biladigan bolalarning faollashib ketganini, asosan shular bilan ish olib borayotganini o'zi ham sezmay qoladi, sezgan taqdirda ham ulardan voz kecha olmaydi. Dars o'tishdagi tezkorlik uni shunga majbur qiladi: tilni maktabga kelib o'rganayotgan o'quvchi notanish so'zning ruscha tarjimasini lug'atdan topish uchun ko'p vaqt sarf qiladi. O'qituvchi esa kutib o'tira olmaydi, qo'l ko'tarib shay turgan bolalardan so'ray qoladi.

Bir qarashda tarjimali o'qishdan iborat etib o'tilayotgan dars maqsadga muvofiq o'tayotganday bo'ladi. Bu yuzaki muvaffaqiyatdir, xolos. Aslida bunday emas: uni samarasiz dars deb hisoblash to'g'ridir. Tarjimali o'qish nutq o'stirish uchun sarflanadigan vaqtning o'g'iriydi, demak, og'zaki nutq o'stirish mashqlari bajarilmaydi; o'quvchilarning so'z boyligi ham, til bilimi ham o'zgarmay qoladi; ayrim gaplar mazmuni mustaqil tahlil qilish malakasini egallash yo'li bilan anglanmaydi, ya'ni o'quvchi gap mazmunini tahlil yo'li bilan tushunishga oid bilim va malakalarni egallamaydi. O'qituvchining til bilgan o'quvchilar bilan «ishlashi» tom ma'noda til o'qitishga monelik ko'rsatadi, ya'ni asosiy maqsad amalga oshmaydi. Tilni maktabga kelib o'rganayotganlar uchun mo'ljallangan ta'limiy jarayonlar ro'yobga chiqmaydi.

Aslida tilni biladigan bolalar bilan o'ziga xos va mos ishlar tashkil etilishi kerak. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktabda o'qiyotganligi uchun rusiyazbon o'quvchilar saviyasida tahsil olish jiddiy mehnatdan qochish alomatidir, xolos. Bu saviya o'zbek bolalariga o'qimay a'lo baho olish imkonini beradi, lekin ularni rivojlantirmaydi.

Shahar sharoitida ishlovchi ilg'or o'qituvchilar ba'zan tarjimali o'qish paytida tilni amaliy biladigan bolalarga mustaqil ish topshirib, ularni ma'lum darajada neytrallashga muvaffaq bo'ladilar. Albatta, bunga erishish oson emas. Birinchidan, tarjimada ishtirok etishga odatlanganlik, ikkinchidan, jo'ngina baho olish istagi o'quvchini ona tilini o'rganishga yaqin, ya'ni o'ziga munosib topshiriqlarni bajarishdan bosh tortishga undaydi. Faqatgina mustaqil ishning tayinli bo'lishi, muntazamligi, salmog'i bolani matnni tarjima qilib darsdagi barcha vazifalardan ozod bo'lishdek erish tuyiluvchi niyatdan uni qaytarishi mumkin. Shubhasiz, bunday paytda o'qituvchining darsga tayyorgarligi ikki hissa ortadi. Ham asosiy darsga aloqador ish turlarini rejalashtirish, ham qo'shimcha materiallarni jalb etish ijodiy izlanishni taqozo etadi. Eng muhimi, o'qituvchi shunday yo'l tutishni ma'qul topishi kerak.

<sup>1</sup> Rozov O.A. Nomzodlik dissertatsiyasi, 70-bet

Qishloq sharoitida bo‘lak manzara. Bu yerda aksariyat o‘quvchilar o‘zbek tilini amaliy biladilar. Lekin bu maktablarda ham o‘qituvchilar tarjimali o‘qishga tez-tez murojaat qilib turadilar.

Tarjima o‘quvchining o‘zbek tilidagi o‘quv matnini qanchalik tushunganligini belgilab beruvchi yagona o‘lchov bo‘la olmaydi. Matn yoki gap mazmunini tushunib turish mumkin, lekin fikrni rus tilida ifodalashda qiyinchilik sezish ham mumkin. Ayrim gaplarni rus tiliga o‘gira olish tarjimonlik mahoratini talab qiladi. Ba‘zan tarjimonlar ham sintaktik qurilishi murakkabroq bo‘lgan jumalarni ag‘darishda mushkul vaziyatlarga tushishlari turgan gap.

Biz kuzatgan darslarning birida o‘quvchining matn mazmunini to‘la tushunganligi sezilib turdi, lekin u ayrim gaplarni rus tilida ifodalashda ancha qiynaldi. Anjella ismli qiz «Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida proza janrining rivojlanishiga barakali hissa qo‘shgan yozuvchilardandir» gapini umuman tarjima qila olmadi. Bu o‘rinda o‘quvchining o‘zbek tilidagi bilimi emas, balki tarjimonlik mahorati yetishmasligi pand berdi. Shunday deb komil ishonch bilan aytilish uchun yana bir misolga murojaat etamiz.

Xorazm viloyatiga qilingan safar chog‘ida tajribali bir o‘qituvchi (O.Nurmatova) bolalarga «Ko‘k konvert» hikoyasi yuzasidan berilgan yangi so‘zlar ishtirokida gap tuzishni taklif qildi. O‘zbek bolalaridan biri «Jang maydonida yarador bo‘lganlar gospitalda tez davolanib chiqadilar» deb gap tuzdi. O‘quvchi o‘zi tuzgan gapning mazmunini tushunmasligi mumkin emas (agar u biror yod olingan gapni aytgan bo‘lmasa). Lekin o‘qituvchi odat bo‘yicha undan ushbu gapni rus tilida ifodalashni talab qilganda, bola buning uddasidan chiqa olmadi.

O‘zbek bolalari ba‘zan tarjimada rus bolalari kabi oqsaydilar. (E‘tirof etish kerakki, badiiy matn rus tiliga tarjima qilishda o‘qituvchining o‘zi ham no‘noqlik qiladi, chunki yozuvchigina badiiy tarjimani mahorat bilan uddalay oladi.) Tilni amaliy biladigan bolalarning tarjimada qiynalishi o‘qituvchi tutgan yo‘lni oqlaganday bo‘ladi. Vaholanki, bunday paytda shunchaki tarjima qilishni emas, balki tarjimonlik mahoratini o‘rgatish darsning bosh maqsadi bo‘lishi mumkin.

Shuni ham eslatish zarurki, matndagi ayrim so‘z va sintaktik qurilishi murakkabroq jumalarni o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qila olmaslik matn mazmunini tushunmaslikdan dalolat bera olmaydi. So‘zni anglab turgan holda ruscha ekvivalentini ba‘zan eslay olmaslik yoki umuman bilmaslik tabiiy bir holdir. Masalaning bu tomonini nazardan qochirgan o‘qituvchi o‘zbek bolalari bilan ishlashda ham tarjimali o‘qishdan foydalanish kerak degan yangilish xulosaga keladi. Umuman, o‘qituvchi darslikdagi o‘quv materiallariga ijodiy yondashib, o‘zbek bolalari uchun o‘ta oson topshiriqlarni boshqa ijodiyroq (lekin tarjima emas) mashq va topshiriqlar bilan almashtirishi, bu bolalar uchun til o‘rganish jarayonini ona tili darslariga yaqinlashtirishga intilishi maqsadga muvofiqdir.

Xullas, tarjimali o‘qishga berilib ketgan o‘qituvchi darsni hech vaqt samarali o‘ta olmaydi, sinfda zararli odatlarning hukm surishi bilan bog‘liq murakkab munosabatlar iskanjasida qoladi.

Matnni o'zbek tilidan rus tiliga tarjma qilish ba'zan oson, ba'zida esa qiyin kechadi. Qiyinroq qilinadigan tarjimalar tarjima texnikasi egallanmaganligi tufayli sodir bo'ladi. Bu esa sintetik va analitik o'qish ko'nikmalari egallanmaganidan dalolat beradi.

Tanish so'zlardan va grammatik materiallardan tuzilgan gaplarning mazmuni sintez orqali (bo'lakni butunga birlashtirish) tushuniladi. Aksincha, gapda ayrim murakkabroq vaziyatda ishlatilgan til hodisalari bo'lsa, ular tahlilni talab etadi, bunda butundan bo'lakka qarab boriladi. Shunga ko'ra ham ikki xil o'qish turi ajratiladi: 1) *sintetik o'qish*, 2) *analitik o'qish*.

O'quvchi matn mazmunini tushunishni asosiy maqsad deb bilib, o'zini shunga ruhan tayyorlamog'i, qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llari bilan qurollanmog'i lozim. Amalda shunday bo'ladiki, o'quvchi dastlabki uchragan, arzimagan 1-2 so'z tufayli ham o'zini bilmaganga chiqarib o'tiradi. O'qishni o'rgatish jarayonida o'quvchida o'z kuchiga ishonchni ham tarbiyalash talab etiladi. O.A.Rozovning e'tirof etishicha, o'qishning ruhiy tomoni diqqatning o'qilganlar mazmunini tushunish sari kuchli safarbar etilishida namoyon bo'lib, yozma nutqni idrok etishning tavsifli xususiyatlaridan biri sanaladi<sup>1</sup>. Matn mazmunini tushunish nutq mexanizmi bilan bog'liq bo'lib, murakkab jarayonni ifoda etadi: garchi qayta kodlashtirish, shifrini ochish jarayoni sof yordamchi rol o'ynasa-da, bu jarayonda mazmun shifrini ochish malaka va ko'nikmalari hal qiluvchi ahamiyatga egadir, chunki o'qish jarayonida operativ tafakkur bir vaqtning o'zida ham matnni qayta kodlashtirish, ham olinayotgan axborotni esda saqlab qolish va unga ishlov berish bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli yecha olmaydi. Bu borada Z.I.Klichnikovaning quyidagi fikrini keltirish o'rinlidir: «... matnning kishi ongida shakllanadigan idroki sahifada paydo bo'ladigan so'zlar ketma-ketligining aniq nusxasi emas. Kitobxon ko'z o'ngida gavalanayotganlar asosida nimani idrok etayotgan bo'lsa, shu narsa o'qilayotgan materialning rekonstruksiyasi bo'ladi<sup>2</sup>. Kitobxon matn bayonidan ichki nigohi bilan real voqelikni ko'z oldiga keltiradi, shu voqelikni esda saqlab turadi. O'qigan sayin ichki nigohida ko'rayotganlari tiniqlashib, aniqlik kasb eta boradi. Aytilganlar matn mazmunini tushunishning nechog'lik murakkab jarayon ekanligini yana bir bor isbotlab beradi.

Matn mazmunini tushunish haqida gapirganda kitobxonning real voqelikni, tushuncha yoki jarayonni ko'z oldiga keltira olishda bayon imkoniyatlari nazarda tutiladi. Mahorat bilan tuzilgan matn tushunishni osonlashtiradi.

Real voqelikni ko'z oldiga keltirishda o'quvchining idrok, xotira, tafakkur va tasavvur xususiyatlari, shuningdek, yosh xususiyatlari bilan bog'liq hayot tajribasi ham muhim rol o'ynaydi.

O.A.Rozovning fikricha, o'qish paytida kitobxon so'zni bir butunlikday ko'radigan birlamchi sintez bilan tahlilni, ya'ni so'zning ayrim tarkibiy unsurlarini ajratishni hamda ikkilamchi «ma'naviy» (смысловой) sintezni o'zaro farqlash lozim (55-bet). Ma'lumki, so'zning ma'nosi shu so'zning inson hayotida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Bu degani, so'z yoki so'z shakli real voqelikni

<sup>1</sup> Rozov O.A. Nomzodlik dissertatsiyasi, 64-bet.

<sup>2</sup> Klichnikova Z.I. Nomi ko'rsatilgan kitob. 17-bet



ko'z oldiga keltirish xususiyati bilan tavsiflanadi. Masalan, olma deyilganda, ichki nigohga yo qandaydir olma daraxti va undagi olmalar, yoki bozordagi peshtaxtalarga terib qo'yilgan olmalar va hokazolar ko'ringanday bo'ladi. Olma so'zining boshqa so'zlar bilan birikuvi ana shu tasavvurga aniqlik kirita boshlaydi. Z.I.Klichnikova ham shularni nazarda tutib o'qish jarayonidagi idrok etishni uch fazaga bo'lib ko'rsatadi: birlamchi sintez, analiz, ikkilamchi sintez. Sintez va analiz aqliy jarayon bo'lib, o'qishga nisbatan aytilganda, idrok etish xususiyatlarini ifoda etadi. Shunga ko'ra ham analitik hamda sintetik faoliyat o'zaro farqlanadi. Z.I.Klichnikova aslida bu ikki faoliyat turini, jarayonni bir-biridan keskin ajratmaydi. Uning fikricha, analiz sintezdan ajratilgan holda mavjud emas. Lekin mazmunni idrok etish jarayoni tahlildan boshlanadi (18-bet). Demak, nutqiy idrok qilishning 1-bosqichi dastlabki to'liq bo'lmagan sintezni, 2-bosqichi tahlilni, 3-bosqichi yakuniy ikkilamchi sintezni ifoda etadi..

Sintetik o'qish bosqichida matn mazmunini tushunish bilan uni idrok etish jarayonlari qo'shilib, yaxlit bir nutq aktiga birlashadi. Ko'z, ovoz va til hodisalari ma'nolari murakkab o'zaro aloqadorlikka ega bo'ladi.

O'quvchi ikkinchi tildagi matnni o'qir ekan, uni fikran ona tiliga tarjima qiladi. Fikran tarjima bir onda amalga oshadi: so'z, hatto tovushni talaffuz qilganchalik vaqt ketmaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, agar o'quvchining ko'z oldida matnga doir lug'at tursa, u nutq o'stirish ishlari davomida so'zlarni fikran tarjima orqali eslab boradi. O'qishdagi yoki so'zlashdagi to'xtashlar so'zlarni eslash bilan bog'liq bo'ladi. Fikran tarjima ikkinchi tilni o'rganayotgan o'quvchilarning fikrlash xususiyatlaridan biridir. To'xtamlar ana shu faoliyatning qanday kechayotganligini ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi matnga oid istagan miqdordagi lug'atni xattaxtada muhayyo qilish imkonini beradi. O'quvchi istagan so'zni topish mumkin bo'lgan ushbu matnga doir lug'atdan foydalanib tarjimasiz o'qishning uddasidan chiqa oladi. O'qish nihoyasida lug'atni ish daftariga ko'chirib oladi.

Xullas, sintetik o'qish matn mazmunini tushunishdan tortib, uni o'zlashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi.

*O'quvchilarni sintetik o'qishga tayyorlash* sintetik o'qish bosqichiga qadar va bevosita shu bosqich avvalida o'tkaziladigan metodik tadbir sanaladi..

Ba'zan kitoblarda matndan keyin lug'at joy oladi. Bunday lug'atning mavjudligi matnni tarjimasiz tushunib o'qish jarayoniga xalaqit bermaydi, aksincha, unga yordam qiladi. Lekin bunday lug'at o'quvchilarda yangi so'zlarni kontekst orqali tushunish malakalarini hosil qilishga qaratiladigan mashqlarni o'tkazishga imkoniyat qoldirmaydi, xolos. Shunga qaramay, matnda ma'nosi unutilgan so'zlar mavjud ekan. ularni kontekstga tayanib eslashga doir mashqlarning o'zi shunday malakalarni shakllantira oladi.

O'quvchining o'zbek tilida so'zlashuv malakasi hosil bo'lishiga qarab fikran tarjima o'rni tarjimasiz o'qish egallay boradi. Albatta, bunga ko'p o'qishni joriy qilish orqali erishish mumkin. Chunki intensiv o'qish o'tilgan barcha leksik va grammatik materiallarni passiv bo'lsa-da, muntazam eslab va

takrorlab borishning eng samarali vositasidir deb bilamiz. Bunday o'qishni tashkil etish uchun hajmi kattaroq matnlar tanlash maqsadga muvofiqdir. O'quv materiallari hajmini orttirishning O.A.Rozov qayd qilgan yana bir ahamiyatli tomoni bor: hajmi kattaroq matnlar, ayniqsa, badiiy asarlardan parchalar o'z-o'zidan tarjimali o'qishga o'rin qoldirmaydi (78-bet).

O'qish texnikasini egallash, matn mazmunini tushunishga monelik ko'rsatadigan omillarni bartaraf qilish, grafik, leksik-semantik va grammatik qiyinchiliklarning oldini olish ishlari bajarilgan holatlarda o'quvchi matn mazmunini tushunib o'qishga tayyorgarlik ko'rgan bo'ladi. Zero, bola o'qish paytida leksik va grammatik qiyinchiliklarni deb chalg'iyvermasligi, matn mazmunini tushunish haqidagina o'ylashi lozim bo'ladi.

### 3.3. Matnni analitik o'qishni o'rgatish

O'quvchilar tuzilishi murakkabroq gaplar mazmunini, ba'zi so'zlar ma'nosini tushunishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazmunini anglash qiyin bo'lgan jumlar, ma'nosini tushunish qiyin so'zlar matnni tarjimali o'qishga undaydi. Bu o'rinda mufassal tarjimali o'qishdan ko'ra tejamkor saylanma izohli tarjimali o'qish usulini qo'llash ko'proq o'zini oqlaydi. Saylanma tarjimali o'qishni leksik va grammatik tahlil bilan qo'shib olib borgan ma'qul. Bugun tahlil yo'li bilan anglangan qiyin til hodisasi yana shunday bir necha mashqdan so'ng o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda tushuniladi, ya'ni tahlil ichdan bajariladi. Natijada tarjimali o'qish o'z o'rnini tarjimasiz o'qishga bo'shatib beradi.

Analitik o'qish jarayonida o'quvchilar muayyan leksik va grammatik materiallarni fikran tahlil qilish yo'llari bilan qurollantiruvchi izohli o'qish qollanadi. Z.I.Klichnikova grammatik materiallarning anglanishini o'rgana borib, ona tilidagi o'qishni nazarda tutgan holda diqqatning grammatik shakl sari yo'nalganligi paydo bo'lishining quyidagi holatlarini ko'rsatadi: 1) belgilangan til me'yoridan chetga chiqish mavjud bo'lganda; 2) grammatik vositani ajratishga doir ma'lum topshiriq berilganda; 3) til xususiyatlarining fikriy mazmunga mos kelmasligi mavjud bo'lganda<sup>1</sup>.

Matnda ishlatilgan so'zlarning, grammatik materiallarning hammasi ham tushunishda qiyinchilik tug'diravermaydi. Shunday holatlar kuzatiladiki, gapdagi so'zlarning hammasi tanish, so'z shakllari, ayrim so'z birikmalari ham tanish, lekin gapdan mazmun chiqarish qiyin bo'ladi. So'zni bilmaslik lug'atdan foydalanish va leksik tahlilga undaydi, tanish so'zlardan gapning mazmunini tushuna olmaslik grammatik tahlilni talab qiladi<sup>2</sup>.

Tahlilga (analitik o'qishga) gapning, matnning mazmunini, undagi so'z ma'nosini, so'z shakllari va so'z birikmalarini tushunish vositasi deb qaraladi.

<sup>1</sup> Vekshina T.F. Nomzodlik dissertatsiyasi, 19-bet

<sup>2</sup> Иўлдошев Р.А. Ўзбек гади дарсларида ўқинш пайтида грамматик анализга ўргатиш. / "Ўзбек тили ўқитиш масалалари" тўпламида. Тошкент: ЎзПФТИ, 1979. – Б. 78-84; Иўлдошев Р. Ўзбек тили дарсларида ўқинш пайтида лексик анализга ўргатиш // "Мақтабда ўзбек тили ва адабиёт ўқитишни тақомиллаштириш масалалари" тўпламида. Тошкент: ЎзПФТИ, 1982. – Б. 88-97.

Analitik o'qish chog'ida o'tkaziladigan tahlil shu o'qish turiga xos xususiy tahlildir.

Quyidagi so'z turlari gap tarkibida qiyin taniladi va anglanadi:

1. Ko'p ma'noli so'zlar; omonim so'zlar.

2. Ko'makchi fe'llar.

3. Gap boshida kelgan atoqli otlar.

Ko'p ma'noli so'zlarni, omonimlarni gapda ko'zda tutilgan ma'nosida darslikdagi lug'atdan topish imkoniyati ikki xil:

1. Ko'p ma'noli o'zbekcha so'zlarning o'rganilgan ma'nolari, omonimlarning ruscha tarjimalari lig'atda o'z ifodasini topgan.

2. Mazkur so'zlarning kontekstda qo'llangan ma'nosiga mos ruscha ifodfalari lug'atda o'z aksini topmagan.

Birinchi holatda o'quvchi o'zbekcha so'zning lug'atdagi 2-3 xil ruscha tarjimasidan kontekst talab etganini tanlashi zarur bo'ladi.

6-sinf «O'zbek tili» darsligidagi<sup>1</sup> «Ustozlarni hurmatlash haqida» matnida «Jaholatdan olib chiqadilar» birikmasini o'qigan o'quvchi jaholat so'zining ikki xil tarjimasiga duch keladi: *темнота, невежество*. Bola *темнота* so'zini tanlashi kerak. Muallim jaholat so'zining ruscha tarjima variantini to'g'ri tanlashga qaratilgan leksik tahlilda ziyo (nur) tarqatish ma'nosiga ishora qiladi.

Ko'p ma'noli so'zlarning kontekstda qo'llangan ma'nosiga mos ruscha ifodfalari lug'atda o'z aksini topmaganda o'quvchi umuman nochor ahvolda qoladi. Agar unga «Onam o'zbek tilida yaxshi gapirishga harakat qiladi» gapi berilsa-yu, lug'atda *harakat* so'zi *действие*, *harakat qilmoq* so'zi *действовать* deb ko'rsatilgan bo'lsa, u kontekstdan kelib chiqib, *harakat* so'zini *старание*, *harakat qilmoq* so'zini *стараться* deb tushuna olmaydi, natijada tarjima o'xshamaydi.

Masalan, *bo'ldi* fe'li ba'zan fikrga munosabat ma'nosini ham anglatadi. Fikrga munosabat ma'nosini ifodalaganda u rus tiliga «довольно» (*достаточно, хватит*) deb tarjima qilinadi. O'quvchilar *bo'ldi* fe'lining bu ma'nosi bilan o'qituvchining savol va topshiriqlari orqali tanishadilar. Lekin matnni o'qib, *bo'ldi* fe'li ba'zan fikrga munosabat ma'nosini ajrata olishlari uchun tarjima mashqi o'tkazilishi kerak. Shu maqsadda tarjima uchun quyidagi gaplar beriladi: 1. *Bugun to'rt dars bo'ldi*. 2. *Bo'ldi, Hamid, kitobni yop*.

*Bo'ldi* fe'li *majlis, konsert* so'zlari bilan birikib kelganda (*majlis bo'ldi, konsert bo'ldi*) rus tilida *состоялся* deb ifodalanaadi. Bunday birikmalar tahlil qilinganda, o'qituvchi *bo'ldi* fe'li qaysi so'zlar bilan birikmada ishlatilishiga ham alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlab turmog'i lozim.

Ot va sifatning rus tilida turlicha ifodalanishi ko'proq ular omonim bo'lganda, ma'no kengayganda yoki torayganda, ma'no ko'chganda yuz beradi. Masalan, *bosh* (*голова; главный; начало*), *havo* (*воздух; погода*), *ko'k* (*небо; синий*), *toza* (*чистый; свежий*); *yer* (*земля; место*) kabi.

*Shaftoli, olma, nok, olcha, anor, uzum* va boshqa mevali daraxtlar hamda ularning mevalar nomini bildiradigan so'zlar alohida e'tiborni talab etadi.

<sup>1</sup> Иўлдошев Р., Рўхсиева М., Усмонова В., Эргашева М. Ўзбек тили. Рус мактабларининг 6-синфи учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

O'qituvchi 4-sinfda o'quvchilarga meva nomini bildiruvchi so'zlar mevali daraxtning nomini ham anglatishini ma'lum qilib, kuzatish va izohlash uchun quyidagi kabi, ikkita gap beradi: 1. *Matluba olma yeyapti.* 2. *Bu olma yaxshi o'syapti.*

O'qituvchi bolalardan yuqoridagi ikki gapdan qaysi birida meva, qay birida mevali daraxt haqida so'z yuritilayotganini so'raydi va ikkala gapdagi *olma* so'zini rus tiliga tarjima qildiradi. Bir-ikki mashq asosida o'quvchilar *nok, olcha, anor, uzum* va boshqa so'zlarni rus tilida to'g'ri ifodalash ko'nikmasini egallaganlaridan so'ng ularni rus tiliga tarjima qilishni talab etish shart emas.

Ba'zi otlar ikki va undan ortiq tushunchani ifodalaydi, shu tufayli rus tilida bir necha so'z bilan beriladi: *davlat* (*государство; богатство*), *yer yuzi* (*земля; мир, свет*), *kecha* (*ночь; вечер*), *kon* (*рудник; шахта; источник*), *xotin* (*женщина; жена*), *el* (*народ; страна*), *o'rin* (*место; постель*) kabi. Bunday so'zlarning kontekstga mos ma'nosini ajratishda ularning qaysi tushunchani (predmetni) anglatayotganini aniqlash muhim rol o'ynaydi. Masalan, «davlat» so'zining qaysi tushunchani bildirayotganini farqlash uchun xattaxtaga ikkita gap yoziladi: 1. *Davlatimiz yildan-yilga rivojlanib boryapti.* 2. *Paxta – bizning davlatimiz.*

O'qituvchi o'quvchilardan shu ikki gapning qaysi biridda *davlat* so'zi boylik tushunchasini anglatayotganini so'raydi. Ikkinchi gapda kontekst, ya'ni *paxta* so'zi boylik tushunchasini eslatib turadi. O'quvchilar leksik tahlil yordamida 2-gapni ko'rsatadilar.

Shunday qilib, o'quvchilarni o'zaro aloqaga kirgan so'zlarning birikishidan hosil bo'ladigan ma'no munosabatlarini aniqlashga odatlantirish o'qish paytidagi leksik tahlilga o'rgatish yollaridan biri sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish zarurki, o'zbek tili darslarida o'qish paytida leksik tahlil matnlarda ko'p ma'noli so'zlar, omonimlar, ko'makchi fe'l o'z ma'nosida qo'llanmagan qo'shma fe'llar bor bo'lganda amalga oshiriladi. Tahlil qila olish uchun quyidagilar ta'minlanishi kerak:

1. O'quvchilarning qo'lida mukammal o'zbekcha-ruscha lug'at bo'lmog'i lozim. Bunday lug'atda so'zning matnlarda uchragan barcha ma'nolari ko'rsatilishi zarur.

2. Matnlarni o'qish paytida rus tilida goh ot, goh sifat, goh ravish shaklida ifodalanadigan so'zlar, ko'makchi fe'li o'z ma'nosida qo'llanmaydigan qo'shma fe'llar, ko'p ma'noli so'zlar leksik tahlil qilinadi.

3. Ko'p ma'noli fe'llarni leksik tahlil qilishni o'rgatishda ularni ish-harakatining bajarilishidagi vosita, holat, usulga ko'ra tahlil qilib tushuntirish, shunga qarab metodik usullar tanlash maqsadga muvofiqdir. Har bir guruh ko'p ma'noli so'zlarning kontekstga mos tarjimasini – ma'nosini aniqlashga o'rgatish o'qituvchinig izohi bilan boshlanadi. So'ngra bu ishga o'quvchilarning o'zlari jalb etiladi.

4. Ko'p ma'noli otlarni, omonim so'zlarni leksik tahlil qilishni o'rgatishda ularning qanday tushunchani anglatayotganiga o'quvchilarning e'tibori tortiladi. Ayrim ko'p ma'noli so'zlarning turli tushunchalarni ifodalashi ma'no kengayishi yoki torayishi tufayli ham sodir bo'ladi.

5. Ko'makchi fe'li o'z ma'nosida qo'llanmagan qo'shma fe'llar (ko'makchili birikuvlar) tushinishda ma'lum qiyinchilik tug'diradi. Kesim sodda yoxud qo'shma fe'l bilan ifodalanganligi gapdagi ega haqida nima deyilayotganligini aniqlash orqali tekshiriladi.

Rusiyzabon o'quvchilarning gap boshida ishlatilgan atoqli otlarni taniy olish-olmasliklarini sinab ko'rish maqsadida rus tiliga tarjima qilish topshirig'i bilan «*Xolbek rubob chalishni o'rganyapti*» gapi berildi va qaysi so'zning tarjimasini lug'atdan topa olmasangiz, слова ... нет в словаре deb yozing, deb aytib qo'yildi. Bir necha o'quvchi Xolbek so'zining ism ekanligini bilmay «*Xolbek – нет в словаре*» deb yozishdi. Ular gap boshida kelgan atoqli otni tanimaganlar. Buning ustiga gapning birinchi so'zi qanday so'z bo'lishidan qat'i nazar bosh harf bilan boshlanadi. Bu ham gap boshida kelgan atoqli otni tanimaslikka sabab bo'lgan.

Gap mazmuni qaysi so'zlar tufayli anglanmayotganini aniqlashda savollardan yoki boshqa usullardan foydalaniladi. Aniqlangan so'zning xarakteridan kelib chiqib tahlil qilish yo'sini tayin etiladi.

Analitik o'qish ko'r-ko'rona tahlil mashqiga aylanib ketmasligi kerak. Leksik va grammatik tahlil o'tkazayotganda pirovard natijani – o'xshash holatlarda til hodisasini ichdan mustaqil tahlil qilish malakasini hosil qilishni ko'zlab ish tutish darkor. Aks holda rus xalqining «Daraxtlar orqasidan o'rmonni ko'rmaslik» qabilida dars o'tiladi. Vaholanki, matni analitik o'qishning yakuniy bosqichi sintetik o'qish bo'lishi darkor..

Matni analitik o'qish quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich –matn mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilish maqsadida o'quvchilarga uni ichdan o'qish topshiriladi. Matn umumiy mazmunining qanday tushunilganligi ikki-uchta savol bilan tekshiriladi.

2-bosqich – matn uning mazmunini to'liq tushunish maqsadida ikkinchi marta o'qiladi. Notanish til miateriali mavjud bo'lgan matn qismlari tahlilga tortiladi<sup>1</sup>.

Shuni ta'kidlash lozimki, notanish til hodisalari bo'lmagan ayrim matn qismlari leksik va grammatik tahlilni taqozo qilmaydi, ya'ni sintetik o'qiladi.

Matndagi, xususan, ayrim gaplardagi barcha so'zlar ma'nosi tanish bo'lgan holda ba'zan o'quvchilar mazmunni tushunishda grammatik qiyinchilik sezib turadilar. Matnning bunday o'rinlari grammatik tahlilni talab etadi.

O'qish paytida o'quvchilarga *grammatik tahlilni* o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Notanish til hodisasini fahmlab bilish ko'nikmalari shunday til hodisalari mavjudligiga qarab sintetik o'qish chog'ida ham, analitik o'qish paytida ham shakllanaveradi.

O'quvchilar, odatda, o'zbek tilidagi matni o'qishda grammatik material tufayli tushunish qiyin bo'lgan o'rinlarni taxmin bilan anglashga harakat qiladilar yoki bunday joylarni chetlab o'tadilar. Taxmin ba'zan to'g'ri, ba'zida noto'g'ri chiqadi. Hajmi uncha katta bo'lmagan matnlarni o'qishda qiyin joylarni tashlab o'tish ham, mazmunni taxminan anglash ham umumiy mazmunini to'g'ri

<sup>1</sup> Рабинович Ф.М. К вопросу о месте аналитического чтения в средней школе // В сб. «Вопросы обучения устной речи и чтению на иностранном языке». – М.: Просвещение, 1965. – С. 227.

tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Matnni analitik o'qishdan, ya'ni o'qish paytida grammatik tahlil qilishni o'rgatishdan maqsad o'quvchilarni gapning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan til hodisalarini fikran bajariladigan tahlil yordamida anglash malakasi bilan qurollantirishdan iborat.

Matnni analitik o'qish jarayonida sintetik o'qish, tarjimali o'qish qatnashadi. Matnda ishlatilgan barcha gaplar mazmunini tushunadigan holatlar bo'ladi, shuningdek, ayrim gaplar mazmunini mustaqil, buning ustiga grammatik tahlilsiz anglab yetish mushkul bo'ladi. Mazmunini mustaqil ravishda anglash mushkul bo'lgan gaplar, ulardagi ayrim grammatik materiallar tahlil obyektiga aylanadfi.

O'zbekcha gapni rus tiliga tarjima qilish paytida tug'iladigan grammatik qiyinchiliklar grammatik tahlilga undaydi. Bunday qiyinchiliklar tarjimasiz, sintetik o'qish chog'ida ham tug'ilishi mumkin. Shunga ko'ra analitik o'qishni tarjimali o'qish bilan tenglashtirib bo'lmaydi: ularning ikkalasi ikki olamdir. Tarjimali o'qish chog'ida grammatik qiyinchilik o'zining tashqi ifodasini namoyon etsa, tarjimasiz o'qishda, sintetik o'qishda bunday qiyinchilik yuzaga kelgan-kelmaganligini bilib bo'lmaydi. Bu narsa matn mazmuni yuzasidan savol-javob, matn mazmunini hikoya qilish paytida ma'lum bo'ladi.

O'quvchi duch kelgan grammatik qiyinchilik matn mazmunini tushunib o'qish topshirig'i bilan o'qilganda keyinroq beriladigan savollar orqali ma'lum bo'ladi. Tajribalar, kuzatishlar, tekshiruv ishlari bu qiyinchiliklarni quyidagicha guruhlash imkonini beradi:

- 1) bir so'zda bir nechta qo'shimchaning ishlatilishi;
- 2) o'zbek va rus tillarida gapda so'zlarning o'zaro farqli tartibi;
- 3) aniqlovchi, xususan, qaratqichli birikmalar; bunday birikmalarning turlanishi, ko'makhchilar bilan qo'llanishi; aniqlovchi yoki aniqlanmishning uyushiq holda ishlatilishi; fe'lli birikmalar;
- 4) gap bo'laklarining yoyiq holda kelishi;
- 5) o'rganilmagan grammatik materiallar.

Bir so'zning bir nechta qo'shimchasi bo'lganda bu so'z shakli o'quvchi uchun ba'zan yangi so'zday tuyuladi yoki tanish so'zning grammatik ma'nosini anglash qiyin bo'ladi. Bunday so'z shakllari ham so'z tarkibi jihatdan tahlil qilinadi. Birinchisida qo'shimcha yoki qo'shimchalar bor-yo'qligi aniqlansa va o'zak-negizni tanish sodir bo'lsa, ikkinchi holatda grammatik ma'noni anglash amalga oshadi.

Bir misol. O'quvchi *ishlarida* so'zini tanimay, bu qanday so'z ekanligini o'qituvchidan so'raganda, muallim bu so'zda qo'shimchalar bormi yoki yo'qmi, deb bolaning o'ziga murojaat etadi. Bola *-da* va *-lar* qo'shimchalarini darhol taniydi, shundan so'ng *ish* so'zini ajratish qiyin bo'lmaydi.

Bir so'zda bir necha qo'shimcha ishlatilgan holatlarda so'zlarni tarkibi jihatidan tahlil qilish yuzasidan mashqlar bajariladi. Ko'zlangan maqsad shunda o'z ifodasini topadiki, o'quvchilar kelgusida bir nechta qo'shimchasi bo'lgan so'zga duch kelganda fikran tahlil o'tkazib, uning lug'aviy ma'nosini va grammatik ma'nolarini anglay bilishga odatlanishlari kerak.

Belgi-sifat bildiruvchi otlarning, shuningdek, sifatdoshlarning ko'plik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi ham tushunishni qiyinlashtiradi: «*Ulug'bek yaratgan ilmiy ishlarning eng yirigi uning yulduz va sayyoralar harakatiga bag'ishlangan «Astronomik jadval»i hisoblanadi*» kabi.


O'zbek va rus tillarida gapda so'z tartibining farqlanishi ham mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O'quvchilar tarjima texnikasini egallamaganlik tufayli o'zbekcha gapni rus tiliga so'zlari qay tartibda berilgan bo'lsa, shu tartibda tarjima qiladilar. Masalan, «*Hammalari birga kichik o'g'ilning do'stlari yashayotgan yerga borishibdi*» gapini o'quvchilardan biri «*Все вместе младшего сына друзья которые живут вместе пошли*» deb o'girdi, natijada gapning mazmuni noaniq bo'lib qoldi.

Darsliklarda o'zbek tilida gapda so'z tartibi haqida ma'lumot beradigan qoida bo'lgan taqdirda ham uning tarjimali o'qish texnikasiga yordami tegmasligi mumkin. Shunday ekan, o'zbek tilidagi grammatik materiallarni o'tish jarayonida gapdagi so'zlarni tarjima qilish tartibi o'z ifodasini topadigan eslatmalar bo'lishi zarur.

«O'zbek tilini o'rganamiz» o'quv qo'llanmasida ikkita esdalik berilgan. 1-esdalikda ega va kesimni topish orqali gapni rus tiliga qanday tartibda tarjima qilish kerakligi haqida quyidagicha yo'l-yo'riq ko'rsatilgan<sup>1</sup>:

Найти подлежащее и сказуемое в предложении и определить их состав. Сказуемое находится в конце фразы. Опираясь на него следует поставить вопрос ким? или нима? и найти подлежащее. Сначала надо перевести на русский язык подлежащее, затем слова, которые находятся перед ним и относятся к нему. Часть второстепенных членов предложения в русском языке располагаются перед сказуемым, большая часть из них – после него.

Схематично выглядит так:



Masalan:

*Hokimning Qoplonga yaxshi nazar bilan qarayotganini sezgan oqsoqol itlar haqida hikoya qila boshladi (Mirmuhsin). – Аксакал, который заметил, что хаким смотрит на каплана добрым взглядом, начал рассказывать о собаках.*

Shuni uqitirib o'tish kerakki, o'quvchilar «Men kitob o'qiyapman» kabi gaplardagi «*kitob o'qiyapman*» so'z birikmasini rus tiliga «*книгу читаю*» deb tarjima qilsalar ham, mazmun o'zgarmaydi (aslida, bunday xatoning bo'lmagani yaxshi). «O'zbek tili darsi» birikmasini undagi so'zlar joylashgan tartibda tarjima qilsalar, fikr buziladi. Buning oldini olishda grammatik tahlil muhim rol o'ynaydi. Grammatik tahlil chog'ida o'quvchilarning e'tibori *darsi* so'zidagi egalik qo'shimchasiga qaratiladi. Bu qo'shimcha o'zi qo'shilgan so'zdan oldin

<sup>1</sup> Юлдашев Р. Изучаем узбекский язык / Ўзбек тилини ўрганамиз. Т.: Ўқитувчи, 1993. ; Тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 264 с..

aniqlovchi borligini ko'rsatishi, u aniqlovchini rus tiliga yo so'zdan oldin, yoki keyin qo'yib tarjima qilib ko'rish lozimligi takidlanadi. Bolalar so'zlarni bir chiziqda tarjima qilish, ya'ni «*узбекский язык урок*» deyish noto'g'riligini aytib, «*урок узбекского языка*» deb to'g'risini topadilar. Shunday qilinganda, grammatik tahlil oz vaqtini oladi.

Tahlil o'quvchilarning tarjimasidagi xatoliklarni bartaraf qilishga qaratiladi: ular ba'zan aniqlovchi vazifasida kelgan so'zni rus tiliga imenitelniy padej shaklida o'giradilar, predlogni aniqlovchidan keyin qo'yadilar: *ana u stolda – вот тот на столе (на этом столе o'tniga), beshinchi sinfda – пятый в классе (в пятом классе o'tniga), maktab hovlisida – школа во дворе (в школьном дворе o'tniga)* kabi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, izoh asosan predlogning qo'yilish o'rmini ko'rstish, *u, bu, beshinchi* kabi so'zlarini *stolda, sinfda* kabi kelishikda moslab tarjima qilish kerakligini ta'kidlashdan, o'zbek tilida aniqlovchi aniqlanmish bilan kelishikda moslashmasligini uqtirishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, aniqlanmish vazifasidagi so'zlarning turlanishini eslatish ham (agar ilgari turlanish jadvali berilgan bo'lsa) foydadan holi emas, biroq bu ish yo o'qishdan avval, yoki o'qishdan keyin bajariladi.

O'quvchilar o'rin-payt kelishigidagi aniqlovchili birikmalarni tahlil qilish namunasi bilan tanishganlaridan keyin shu bilimdan amalda foydalanishni o'rgatish yuzasidan mashqlar o'tkaziladi. Tahlil uchun quyidagi kabi gaplar beriladi:

*Mana bu javonda kitoblar ko'p.*

*Bu xonada uchta deraza bor.*

*Kolya uchinchi sinfda o'qiyapti.*

*Dars to'qqizinchi xonada bo'ladi.*

*Zavod hovlisida daraxtlar ko'p.*

O'quvchilar ushbu gaplarni o'qib, kelishik qo'shimchasini olgan so'zlarni topadilar, qaysi so'zlar aniqlovchi vazifasida kelganini aytadilar, so'ngra avval kelishik qo'shimchali so'zni, keyin aniqlovchili birikmani rus tiliga tarjima qiladilar. Tarjima tartibi yuzasidan bajariladigan bunday grammatik harakatlar orqali o'quvchilarda aniqlovchili birikmalarni tushunish malakasini shakllantiradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'quvchilardan har vaqt aniqlovchili birikmalarni tarjima qilishni talab etaverish to'g'ri bo'lmaydi. Navbatdagi bosqichda ularga gapdan rus tiliga ot bilan sonda, rodda, kelishikda moslashib tarjima qilinadigan so'zni aniqlash va strelka chizib ko'rsatishni topshirish ma'qul. Masalan:

*Salim beshinchi maktabda o'qiyapti.*

*Bolalar maktab hovlisiga to'plandilar.*

Ba'zan aniqlovchi ikki va undan ortiq bo'lsa, ular rus tilida ham moslashgan aniqlovchi, ham moslashmagan aniqlovchi bilan ifodalansa, so'z tartibi ma'lum qiyinchilik tug'diradi: aniqlovchilardan birini aniqlanmishdan oldin, ikkinchisini keyin qo'yib tarjima qilish kerak bo'ladi.



Gap bo'laklarining tarkibli (yoyiq) kelishi, ayniqsa, qaratqich bilan qaralmishning yoyiq holda bo'lishi tushunishni sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Masalan:

- Qaratqichning qaratqich aniqlovchisi bo'ladi: *Qo'qon shahrining ko'chalari*. Qaratqichli birikmaning bu turida tarjima orqadan oldinga qarab amalga oshiriladi: *улицы города Коканда* kabi);

- Qaratqich yoki qaralmish sifatlovchi-aniqlovchi oladi: *Ikkinchi sinf o'quvchilari, o'zbek xalqining juda katta bayrami* kabi. Bunday o'rinlarda avval qaralmishni, keyin qaratqichni o'z tarkibi bilan tarjima qilish haqida tushunchaga ega bo'lish zarur: *ученики второго класса, очень большой праздник узбекского народа* kabi.

- Yoyiq qaratqichli birikmadagi qaralmish vazifasidagi so'z turlanganda, ko'makchi bilan qo'llanganda, gapning mazmunini tushunish yanada og'irlashadi: *shu o'quv yilida, oshxonaning boshqa xodimlariga, xo'jalik mollari do'konida* kabi.

- Qaratqich yoki qaralmish oldida sifatdosh orqali ifodalangan aniqlovchi keladi. Bunday aniqlovchi fe'l-kesim kabi to'ldiruvchi yoki hol bilan birikma hosil qiladi. Masalan: «bo'yni ingichka, kallasi katta, shalpang quloq bir bolaning ko'zlarini katta ochib va lablarini qimtib tushgan rasmini» (A.Qahhor) kabi.

- Qaratqich (yoki qaralmish) uyushib keladi: *yashash, kurashish va g'alaba qilishning namunalari, hayvon va qushlarning ba'zi bir xususiyatlari, respublikamizning dala va bog'lari* kabi.

- Qaratqichga (yoki qaralmishga) bog'lanib kelgan bo'laklardan biri uyushiq bo'ladi: *o'quv yilining I va II choraklarida, tinch, ijodiy mehnat bilan farovon hayot sari borayotgan tinchliksevar mehnatkashlarning vatanidir* kabi.

- Yoyiq qaratqichli birikmalarning yuqoridagi ko'rinishlarida qaralmish vazifasidagi so'z u yoki bu kelishik qo'shimchali yoxud ko'makchili bo'ladi: *Kaspiy dengizining kun chiqish tarafida, bir qancha qiz-juvonlarning bir oz o'qib olishiga, motamsaro onaning haykali oldida, Buxoro va Qo'qon xonliklari orasida, xo'jaligimizning hamma tarmoqlari uchun* kabi.

- Qaralmish harakat nomi bilan ifodalanganda, to'ldiruvchi yoki holni ham boshqarib keladi. To'ldiruvchi yoki hol, o'z navbatda, aniqlovchili bo'lishi mumkin. Masalan: *Toshkent-Orengburg temur yo'lining qurilishi, o'lka mehnatkashlarining ilg'orlar harakatiga qo'shilishi* kabi.

Qaratqichli birikmalarning qismlari yoyiq holga kelganda, bunday qaratqichli birikmalardagi qaralmish vazifasidagi so'zlar turlanganda yoki ko'makchi bilan qo'llanganda gapdagi qaratqich bilan qaralmishning o'z tarkiblarini aniqlash, avval qaralmish tarkibini, keyin qaratqich tarkibini rus tiliga tarjima qilish mazmunida saylanma tahlil o'tkaziladi. Umuman, bunday vazifani bajara olish uchun o'quvchi turli tipdagi aniqlovchili birikmalar, xususan, sifatlovchi aniqlovchili hamda aniqlanmish (qaralmish) vazifasidagi so'zlarning turlanishi va ko'makchilar bilan qo'llanishi yuzasidan ma'lumotga ega bo'lishi, shu materiallar yuzasidan ma'lum darajada amaliy malakalar hosil qilishi lozim.

O'qituvchi o'quvchilarni qaratqichli birikmalarning yoyiq variantlari bilan asta-sekin tanishtirib boradi. Matn o'qilgach, shunday birikmasi bor bo'lgan bir-ikki gap xattaxtaga yoziladi va sintaktik jihatdan tahlil qilinadi. Bunday tahlil qaratqich va qaralmish tarkibini aniqlashga qaratiladi. Chiziq chizib ko'rsatishdan foydalanish yoki aniqlovchili birikmalarni ajratib yozish til hodisasini chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

*Kecha darsdan keyin yettinchi «A» sinf o'quvchilarining majlisi bo'ldi. – Yettinchi «A» sinf o'quvchilarining majlisi.*


Sifatdoshli birikmalar ham shu tarzda ajratib ko'rsatilgani ma'qul:

*Sputnikka uylari zilziladan vayron bo'lgan toshkentliklar ko'chib keldilar. – Uylari zilziladan vayron bo'lgan toshkentliklar.*

O'quvchilar yuqorida ko'rsatib o'tilgan til hodisalari haqida tushunchaga ega bo'lganlaridan keyin, ish mazmuni biroz o'zgaradi; endi bolalardan matnda uchragan yoyiq qaratqichli birikmalarni, sifatdoshli birikmalarni ko'chirib yozish talab etiladi.

Ba'zan vertikal chizmaga ham murojaat etish mumkin:

*Yozib qoldirgan 34 ta kasallik tarixini*



Xullas, gapdan aniqlovchili birikmalarni aniqlash va tahlil yordamida gap mazmunini tushunishni o'rgatish ishlari asta-sekin murakkablashib boradi.

Matnda o'rganilmagan so'z shakllari va so'z birikmalarining bo'lishi mazmunini tushunishda tug'iladigan qiyinchiliklardan yana biridir. Qo'shimchasi notanish bo'lgan so'z lug'atda o'sha qo'shimchani qabul qilgan holda berilishi kerak.

Ba'zan yangi til hodisalari darslikda tegishli qoidalar bo'lmaganda, qisqa tushuntiriladi. Bunda grammatik materialning tavsifiga qarab tushuntirish usullari tanlanadi. Masalan, harakat nomi tushum yoki jo'nalish kelishigida qo'llanganda, o'qituvchi o'quvchilardan bunday so'zlarni tarkibi jihatdan tahlil qilishni talab etadi. O'quvchilar tushum yoki jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan so'z harakat nomi ekanligini aytishgach, tarjimasini ma'lum qiladi. Harakat nomi mavzusi o'tilmagan bo'lsa, u holda o'qituvchi kelishik qo'shimchasini olgan so'zning tarjimasini berish bilan kifoyalanaadi.

### 3.4. Matnni sintetik o'qishni o'rgatish

Matnni sintetik o'qish<sup>1</sup> o'quvchining o'z bilimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Agar tarjimon bo'lar-bo'lmasga lug'atga murojaat etaveradigan, eng oddiy va ko'p ishlatiladigan so'zlarni, hatto yordamchi so'zlarni, ba'zan olmoshlarni ham eslash uchun lug'atga qarayveradigan bo'lib qolsa, sintetik o'qish uni lug'atdan foydalanmaslikka odatlantiradi. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida bir tildan boshqa tilga qilinayotgan tarjima jarayonidagi o'z bilimiga ishonchning kamayishi verbalizm deb ataladi<sup>2</sup>. Matnni sintetik o'qishni o'rgatish orqali ana shu salbiy odatlar bartaraf qilinadi, lug'atga qarayvermaslikdek yaxshi odatlar hosil qilinadi.

Amaliyotda o'zbek tili o'qituvchilari matnni tarjimasiz o'qitadilar-da, o'quvchilarning o'qilgan parcha mazmunini qanchalik tushunganliklarini nazorat qilishga o'tib ketadilar, ya'ni sintetik o'qishni o'rgatmaydilar.

T.N.Kuznetsova tarjimali o'qish natijalari haqida bunday yozadi: «O'quvchilar xorijiy matnni lug'at yordamida tarjima qilsalar, odatda, leksik-grammatik tahlilga sira ham murojaat etmaydilar va mazmunni (kontekstni) uqib olishga hamda shu asosda ayrim so'zlarning ma'nolarini ochishga urinib ham ko'rmaydilar»<sup>3</sup>.

Matnni sintetik o'qish uni tarjimasiz o'qish bilan bir xil usul emas: undan kengroq tushunchani ifoda etadi. Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida leksik va grammatik materiallari oldindan o'zlashtirilgan matnlarni tarjimasiz tushunib o'qish mumkin deb hisoblanadi, matnda uchragan ma'nosi unutilgan so'zlarni uni o'qishga qadar takrorlash, shu maqsadda leksik mashqlar bajarish lozim degan fikr ilgari suriladi.

Matnni sintetik o'qish bosqichlar bo'yicha tashkil etiladi. Biz bu bosqichlarni quyidagi izchillikda uyushtirishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- 1) o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi;
- 2) yangi, shuningdek, ma'nosi unutilgan so'zlar, gapning qurilishini murakkablashtiradigan 1-2 grammatik material ustidagi ishlar;
- 3) matnni sintetik o'qish jarayonini tashkil etish;
- 4) matn mazmunining qanday tushinilganini nazorat qilish.

Albatta, yuqorida sanab ko'rsatilgan bosqichlar darslikning tuzilish tamoyillari va strukturasi qarang, dars materiallarining oson-qiynligiga ko'ra ayrim o'zgarishlarga uchrashi mumkin.

Quyida matnni sintetik o'qish bosqichlarini ko'rib chiqamiz va o'z tavsiyalarimizni bayon etamiz.

I. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi sintetik o'qish uchun mos matn tanlashdan, mavjud matnlarni moslashtirishdan boshlanadi.

<sup>1</sup> Йўлдошев Р. IV-VIII синф ўзбек тили дарсларида синтетик ўқишга ўргатиш методларини такомиллаштириш. / "Ўзбек тили ва адабиёт ўқиш методикасини такомиллаштириш" тўпламида. Тошкент: ЎзгФТИ, 1983. – Б. 54-61.

<sup>2</sup> Vaysburd M.L. Nomi ko'rsatilgan kitob, 11-bet.

<sup>3</sup> Кузнецова Т.Н. Обучение бесперводному пониманию текстов, содержащих неизученную лексику (на материале англ. языка). Авт-т. дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1963 – С. 73-74.

Sintetik o'qishga mo'ljallab matn tanlashda quyidagi masalalarga e'tibor beriladi:

a) ta'lim bosqichiga ko'ra tanlanadigan matn hajmi;

b) sintetik o'qishga mo'ljallab tanlanadigan matnning o'quvchilar bilimi, yosh saviyasi va hayot tajribasiga moslik darajasi;

d) yangi (notanish) leksik va grammatik materiallarni kontekst yordamida anglash mumkinligi.

A. Ta'lim bosqichiga ko'ra matn hajmi 5-10 gapdan 0,5-1 betlik va undan ortiq qilib tanlanadi, ya'ni matnlar sinfdan sinfga kattalashib boradi. Matn hajmining ortishi, asosan, avval o'rganilgan leksik va grammatik materiallardan keng foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Matn hajmining kattalashuviga qarab ko'paygan sayin o'quvchilarda tarjimasiz o'qishga intilish kuchayadi.

O'quvchilarning so'z boyligi va til bilimi ortgan sayin sintetik o'qish uchun mo'ljallanadigan matnlar mazmuni boyib, sintezlash imkoniyatlari kengayadi: o'quvchilar matn mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib boradilar, natijada ularning tushunishlari maqsad sari yo'naladi, o'qiladigan asarlar, parchalarning axborot qiymati, tarbiyaviy ahamiyati ortadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga molik matn tuzish, uni o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga moslashtirishda hajmi kattaroq manbalarni adaptatsiyalash muhim rol o'ynaydi. T.V.Muxayevaning ta'kidlashicha, badiiy asarlarni 350-360 so'z hajmida qayta hikoya qilish yo'li bilan adaptatsiyalash (matn tuzish) mumkin<sup>1</sup>. Adaptatsiyalash ham ixchamroq matn vujudga keltirish yo'llaridan biridir.

B. Sintetik o'qish uchun tanlanadigan matnda kontekst<sup>2</sup> yordamida anglanadigan sanoqli so'zlarni (quyi sinflarda 1-3, yuqori sinflarda 3-5 so'z), gaplar mazmunini tushunishga xalaqit bema'yidigan bir nechta so'zni hisobga olmaganda, notanish so'zlar bo'lmasligi kerak.

O.A.Rozovning fikricha, tarjimasiz o'qish uchun 100 ta tanish so'z ichida 1-2 ta o'rganilmagan so'z bo'lishi kerak (70-bet). Lekin bu fikr unchalik to'g'ri emas. U mulohazali. Buning ustiga tajribada tekshirib ko'rilmagan. Biz amaliyotdan bilamizki, har birida bittadan notanish so'z berilgan 10 ta gapni (konktest bo'la oladigan gaplarni) o'qigan o'quvchi 10 ta so'zning ma'nosini fahmlab bila oladi.

Sintetik o'qish uchun mo'ljallangan matnlarda ham ba'zan notanish grammatik materiallar uchrashi mumkin.

Sintetik o'qishga mo'ljallab tanlanadigan matn, eng avvalo, o'quvchilarning so'z boyligi doirasidan haddan tashqari chetga chiqib ketmasligi, ushbu bilimlarni yodga soladigan rasmlar, kontekstlar bilan ta'minlanishi zarur.

D. Yangi so'zlarni matni o'qish orqali anglatish maqsad qilib qo'yiladigan bo'lsa, matnlar ham shunga mos ravishda tuzilishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, matn boshida yangi so'zlar ko'p bo'ladi. Gapda ikki va undan ortiq yangi so'z bo'lganda ularning ma'nosini kontekst yordamida tushunish qiyin.

<sup>1</sup> Muxayeva T.V. Nomzodlik dissertatsiyasi, 28-bet.

<sup>2</sup> Gapda notanish so'zlar ma'nosini anglatish uchun xizmat qiladigan ekstralingvistik va lingvistik omillar haqida qarang. Yo'ldoshev R.A. 2012-yilda chop etilgan monografiya, 162-163-betlar.

Yangi soʻz oʻzini anglashga xizmat qiladigan tanish soʻzlar qurshovida boʻlmasa, u ham notanishligicha qoladi.

Sintetik oʻqish uchun tanlanadigan matnlarda oz miqdordagi notanish soʻzlar boʻlishi mumkin. Chet tillarni oʻqitish metodikasiga doir ayrim ishlarda sintetik oʻqishga, asosan, maʼlum miqdorda oʻrganilmagan soʻzlari boʻlgan matnlarni oʻqib, oʻsha soʻzlarni kontekst yordamida fahmlab anglashni oʻrgatuvchi usul sifatida qaraladi va tarjimali oʻqishga zid qoʻyiladi.

Yangi soʻzlarni rasmlarga, kontekstga tayanib tarjima qildirish aslida oʻquvchilarda dastlabki hosil boʻlayotgan sintetik faoliyat saviyasini aniqlash usuli vazifasini bajaradi. Oʻquvchilarda sintetik oʻqish malakalari tarkib topa boshlagandan keyin bunday tarjimalarga boʻlgan ehtiyoj yoʻqoladi. Oʻzbek tilidan yaratilgan ayrim darsligida baʼzan yangi soʻzlar matn tarkibida quyuq harflar bilan ajratib koʻrsatiladi. Bu soʻzlar kontekst tarkibida boʻlsa, ularning maʼnosini lugʻatga murojaat qilmay anglash mumkin. Aks holda matndagi yangi leksik materiallar ustida ularning maʼnosini ochishga xizmat qiladigan boshqa ish turlaridan foydalanishga toʻgʻri keladi.

Oʻqituvchi notanish soʻz maʼnosini anglashga yordam beradigan kontekstlarni bilishdan tashqari yangi soʻz maʼnosini tushunishga xizmat qila olmaydigan tanish soʻzlar haqida ham maʼlum tushunchaga ega boʻlmogʻi lozim. Leksik materiallar maʼnosini tushuntirishga qaratilgan, aslida kontekst sanala olmaydigan gaplar quyidagi holatlarni ifoda etadi:

1. Bir-birini tarjimasiz anglashga yordam beradigan soʻzlarning ikkalasi ham yangi, baʼzan biri yangi, ikkinchisi takrorlanadigan, yaʼni maʼnosi unutilgan soʻz boʻlib qoladi. Masalan, «togʻlarga chiqadilar» soʻz birikmasidagi ikkala soʻz yangi boʻlsa, ikkalasi ham anglanmaydi. Yoki: «Shuning uchun u topshiriqlarni oʻz vaqtida bajarar edi» gapida *topshiriq* va *bajarar edi* soʻzlarining maʼnosi unutilgan holatda, bu soʻzlar maʼnosi anglanmasligi tabiiy.

2. Bir necha predmetning belgisiga ishora qila oladigan soʻzlar oʻsha predmetlardan birini tarjimasiz anglashga yordam bermaydi. Masalan, oktabrda behi, olma, nok,uzum, xurmo va boshqa mevalar pishadi, shuning uchun «Behi oktabrda pishadi» gapida *oktabrda*, *pishadi* soʻzlari *behi* soʻzini tarjimasiz anglashga xizmat qilmaydi.

3. Obyekt bilan predikatning bogʻlanishi soʻzlarning doimiy juftligini keltirib chiqarmasa, ular bir-birlarini anglash uchun xizmat qila olmaydi. Masalan, «Men har kuni yuzimni, boʻynimni sovunlab yuvaman» gapidagi *yuzimni*, *boʻynimni* soʻzlari *yuvaman* feʼlining doimiy jufti emas.

4. Kontekstda undagi fikrni isbot etuvchi komponentlar yetishmasligi tufayli baʼzan soʻz anglanmaydi. Masalan, «*Bu guldastani kim uchun tayyorlab qoʻyding?*» (Avval gul uzish harakati haqida soʻz yuritilmagan). Yoki: «*Hozir qayerga shoshilyapsan?*» (Shoshilishni koʻrsatuvchi gaplar keltirilgan.)

5. Ayrim soʻzlarning doimiy juftlaridan foydalanmaslik ham sintetik oʻqish uchun tuziladigan matnlarning qiymatini pasaytiradi. Masalan, «*Mening oʻrtogʻim Botir respublikamizning janubida yashaydi*» gapidagi *janub* soʻzi yangi soʻz. Uni boshqa kontekst tuzib anglatish mumkin: «*Qishda qushlar janubga uchib ketadi*», «*Antarktida – janubiy muz okeani*» va hokazo.

Soʻzlarning matnlarda qaysi shakllarda va maʼnolarda ishlatilgani ham eʼtiborga olinadi. Masalan, «*jarohatlanganlarni*» soʻzi sifatdoshning turlangan holatida. Uni tushuntirish ishi feʼlning noaniq shakliga keltirishdan boshlanmogʻi lozim. Koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlar ham avval asl lugʻaviy maʼnoda anglatilgani maʼqul.

Matnda kontekstlarning maqbul tarzda tanlanmagani tufayli tarjimasiz anglanmaydigan soʻzlar koʻp boʻlsa, bu holat sintetik oʻqishni amalga oshirish ishini qiyinlashtiradi.

Oʻqituvchi sintetik oʻqishga moʻljallab tanlangan *matndagi yangi, shuningdek, maʼnosi unutilgan soʻzlar, gapning qurilishini murakkablashtiradigan 1-2 grammatik material xususiyatidan* kelib chiqqan holda oʻqish jarayoniga qadar ular ustidagi ishlarni tashkil etishi kerak. Oʻquvchilarni matn mazmunini tushunishga (ayniqsa, tarjimasiz, sintetik anglashga) yetarli tayyorlamasdan oʻqish mashqiga kirishish, 1-2 oʻquvchi parchani oʻqigandan keyin oʻqish matn mazmuni qanday tushunilganini nazorat qilishga oʻtib ketish, shu maqsadda rus tiliga tarjima qildirish usulidagina foydalanishni oʻqituvchining faoliyatidagi jiddiy kamchiliklar sifatida baholash dardkor.

Ayrim oʻqituvchilar matnni oʻqitishga tayyorgarlik koʻrish paytida faqat yangi soʻzlarini hisobga olib ish koʻlamini belgilaydilar, baʼzi soʻzlarning darslik sahifalarida ishlatilish chastotasining pastligi ilgari oʻrganilgan soʻzlarni oʻquvchilar uchun notanish qilib qoʻyishini hisobga olmaydilar<sup>1</sup>. *Mavzuviylik prinsipi asosida matn tanlab, oʻquv materiallari shu matn atrofida uyushtiriladigan har qanday darslik oʻzga til leksikasini taqdim etishdagi qoʻllanish chastotasining past boʻlish illatidan xoli boʻlishi dushvor.*

Oʻquvchilarning matn mazmunini qanchalik anglaganliklarini nazorat qilishda ijodiy savollarga ijodiy javob qaytarish, mazmunni qayta hikoyalash usullariga murojaat etish oʻqishdan ogʻzaki nutq oʻstirishga oʻtishni bildiradi. Leksik-grammatik hozirliksiz, matn mazmuni yuzasidan olib borilishi lozim boʻlgan ishlarsiz oʻquvchi doim oʻzida soʻzlashga tayyor emaslikni his qiladi. Ayniqsa, maʼnosi unutilgan soʻzlarning talaffuzi uni gapirishdan toʻxtatib turadi. Demak, lugʻat ishi ham, matnni oʻqish ham puxta bajariladigan talaffuz mashqi bilan bogʻlanishi shart.

Sintetik oʻqishga tayyorgarlik koʻrish maqsadi bilan tashkil etiladigan lugʻat ishinin oʻz vazifalari, usullari, chegara imkoniyatlari bor. Masalan, agar ogʻzaki nutq oʻstirish niyatida soʻzlarni rus tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish tartibida mashq oʻtkazilsa, darsning koʻp vaqti shu ishga sarf boʻlib ketishi aniq. Chunki oʻquvchilarning aqliy imkoniyatlari, mexanik xotirasi bir xilda emas. Shunga koʻra ularning mexanik xotirasini mashq qildirgan yoki yetarli mashq qildirmaganligi ham maʼlum rol oʻynaydi. Kuzatishlar 4-sinf oʻquvchilari bir darsda tinmay lugʻat ishini birjarganda 9-10 soʻzni, 5-sinf oʻquvchilari 10-12 soʻzni, 6-sinfda 12-13 soʻzni ruschadan oʻzbekchaga tarjimasini bilan yod olishlari mumkinligini koʻrsatdi. Oʻrta bahoda oʻqiydigan bolalarning imkoniyatlari

<sup>1</sup> Qarang: Йўлдошев Р. Ўқув текстлари, уларда сўзларнинг ишлатилиши / Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикасини такомиллаштириш масалалари (тўплам). – Тошкент: ЎзПФТИ, 1985. – Б. 40-47.

tamoman boshqacha: ular 45 daqiqa davomida takrorlab yod olganda ko'pi bilan 6-8 so'zni zo'rg'a eslab qoia oladilar. Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarning imkoniyatlari bundan ham kamroq. O'qituvchi o'quvchilarning yangi va ma'nosi unutilgan leksik materiallarni yod olishlariga erishish niyatida butun darsni shu ishga bag'ishlasa, u holda boshqa ish turlari, ayniqsa, og'zaki nutq o'stirish yumushlari bajarilmay qolishi turgan gap. Basharti leksik mashqlar grammatik mashqlar, gap tuzish va matn yaratish kabi nutqiy mashqlar bilan qo'shib olib borilsa, o'quvchilar e'tibori nainki yangi va ma'nosi unutilgan so'zlarga, balki ular bilan birikadigan boshqa so'zlarga ham qaratiladi.

Aksincha, o'quvchilarni o'qishga tayyorlash maqsadi bilan so'zlarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish tartibida eslab qolishga doir mashq tashkil etilsa, bunga kam vaqt sarflanadi, chunki o'quvchilar bunday vaziyatda o'zbekcha so'zni ko'rib turib ma'nosini xotirada olib qolishdek nisbatan oson ish turi bilan mashg'ul bo'ladilar. O'qish leksik va grammatik materiallarni o'zlashtirish nuqtayi nazaridan gapirishdan farq qiladi: o'qib tushuniladigan leksik va grammatik materiallar retseptiv tarzda (ko'rib turib) tezroq ang'lanadi, gapirish paytida ishlatiladigan shunday materiallardan bir necha marta ortiq bo'ladi. Bu tabiiy holat. Chunki o'qish jarayonida faol va nofaol so'zlar, grammatik vositalar o'zaro farqlanmagan holda sidirg'asiga o'qib tushunadigan darajada, ya'ni oson o'zlashtiriladi.

Quyi sinflarda qo'llanish chastotasi yuqori bo'lib, o'quvchilarda ularni nutqda ishlatish yuzasidan amaliy malakalar hosil qilingan bo'lsa, bir o'qishdayoq xotiraga tushadi. Passiv so'zlar bir necha marta uchragan bo'lsa ham, o'quvchilar ko'pincha ularni eslay olmaydilar.

Yangi so'zlarning ma'nosi alohida tashkil etiladigan ish turi orqali tushuntirilgani uchun ular dars materialini o'tishda katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Quyi bosqichda faol tanishilgan so'zlarga yuqori sinflarda yetarli e'tibor berilmasa, garchi ular oson so'zlar sirasiga kirsam ham, matnlarning mazmunini tushunish ishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Qisman quyi sinflar darsliklarida ko'p uchragan, lekin passiv sanalgan so'zlarning ayrimlari, asosan quyi sinflarda ishlatilish chastotasi past bo'lgan so'zlar – ma'nosi unutilgan so'zlar – o'qish paytidagi lug'at ishi obyektii hisoblanishi mumkin. Shunda ham agar ma'nosi unutilgan so'zlar matnda oz bo'lsa, ular asosiy mazmunni ifoda etadigan so'zlar jumlasiga kirmasa, matnning asosiy mazmunini tushunishga monelik ko'rsatmaydi. Aksincha, ma'nosi unutilgan so'zlar ko'p bo'lsa, ular asosiy mazmunni ifoda etuvchi so'zlar jumlasiga kirsam, matnning umumiy mazmuni deyarli tushunilmaydi.

Matnni sintetik o'qishni o'tkazishda leksik materiallarning ishlatilishidagi yuqoridagi holatlarni ko'zda tutish ma'qul.

Eslatish zarurki, quyi sinflarda o'rganilgan so'zlarni ko'rsatmalilik hamda tarjimadan foydalanib o'quvchilar xotirasiga tushirib borish mumkin. Gap shundaki, og'zaki mashqlar yordamida faollashtirilgan so'zlarning yozilishi ustida yetarli ish olib borilmagani uchun o'quvchilarda ularni o'qib tushunish malakasini shakllantirish masalasi hal etilmay qoladi.

Soʻz oʻrgatganda maʼnosi, shakli va qoʻllanishi asos qilib olinadi. Dastlab yangi, keyinroq maʼnosi unutila boshlagan leksik materiallar ustida shu koʻlamda ish olib boriladi. Lugʻat ishi qisman matnni oʻqishga qadar, oz miqdori oʻqish jarayoni bilan bogʻlab tashkil qilinadi. Oʻqish paytida kontekst yordamida anglash mumkin boʻlgan yangi soʻzlarni oʻrgatish, maʼnosi unutilgan leksikani shu usul bilan takrorlash mumkin. Shunday ekan, matnni sintetik oʻqish orqali nimalarga erishish mumkinligi masalasiga toʻxtalish ayni muddaodir.

*Oʻquvchilarda sintetik oʻqishga doir hosil qilinadigan bilim, koʻnikma va malakalar (BKMLar)ni belgilab olish muhim ahamiyatga ega.*

**Bilimlar:** matnni sintetik oʻqish gaplar, shuningdek, parcha mazmunini kontekstlar yordamida tarjimasiz anglash ekanligi, gapdagi ayrim soʻzlarning maʼnosini asosan fahmlab eslash zarurliri, xotiraga tushirish uchun lugʻatga qarash yoki oʻqituvchidan soʻrash mumkinligi, ayrim notanish soʻzlar gapning umumiy mazmunini anglashga xalaqit bermagan holatlarda ularni matnni oʻqib boʻlgunga qadar chetlab oʻtish mumkinligi; notanish soʻz shakli uchraganda uni kontekst orqali fahmlab bilish kerakligi, buning iloji boʻlmagan taqdirdagina darslikdagi nazariy maʼlumotdan qarab yoki oʻqituvchidan soʻrab olish lozimligi.

**Koʻnikmalar:** maʼnosi xotiraga tushmayotgan soʻz va grammatik vositalarni tarjimasiz oʻqish jarayoniga xalaqit bermagan holda tegishli manbalardan koʻrib olingan bilish, murakkab gaplar duch kelganda mazmunini tarkibini sintezlash asosida tushuna olish, matndan umumiy fikrni ajrata bilish.

**Malakalar:**

– matn mazmunini tushunishga oʻz kuchiga ishonch bilan kirishish va uddalash;

– matndan maʼlum axborotni ajrata olish;

– matnda bayon etilgan faktlarni umumlashtira bilish;

– matnning ayrim qismlarini oʻzaro nisbatlay olish;

– faktlarni talqin qila bilish; voqeaning keyingi rivojini oldindan koʻra va ayta olish;

– matnda bayon etilgan faktlar asosida biror fikrga kela bilish; uning gʻoyasi, mohiyatini tushuna olish; voqea-hodisalarni oʻz tajribasi bilan bogʻlay bilish;

– bayon qilingan faktlarga (umuman, matn mazmuniga) baho bera bilish»<sup>1</sup>.

Oʻzbek tili darslarida «Hozir «...» matnini sintetik oʻqiyamiz» deyilmaydi. Oʻqituvchi matnni sintetik oʻqishni nazarda tutgan holda «Hozir «...» matnini tarjimasiz oʻqiyamiz» tarzida darsning maqsadini maʼlum qiladi, matnni tarjimasiz oʻqib mazmunini tushunish yoʻlida ular nimalar qilishlari kerakligi sintetik oʻqishga doir bilimlar tariqasida xabardor etiladi. Ushbu bilimlar oʻquvchilarning haq-huquqlarini ifoda etadi..

Har safar yangi matn sintetik oʻqilganda gaplar mazmunini tarjimasiz, zarur oʻrinlarda leksik va grammatik tahlildan, lugʻatdan, oʻtilgan nazariy maʼlumotdan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

<sup>1</sup> Klichnikova Z.I. Nomi koʻrsatilgan kitob. 82-bet.



ko'nikmalarini hosil qilish va ushbu ko'nikmalarni malakalarga aylantirish vazifalari qo'yiladi va ado etiladi.

Ko'rinadiki, matnni sintetik o'qishni o'rgatish uni 1-2 o'quvchiga tarjimasiz o'qitib, mazmunini qanday tushunganliklarini nazorat qilishdangina iborat emas. Matnni sintetik o'qishni o'rgatishning o'z maqsad va vazifalari bor bo'lib, o'quvchilarga tegishli yo'l-yo'riqlar berib, mashqlar bajarishga darsdan ma'lum vaqt ajratishni talab qiladi. T.V.Muxayeva bu ishlarga darsning taxminan 30 daqiqasini ajratish lozim deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

O'quvchining kerakli so'zni lug'atdan tez topa olish malakasi sintetik o'qish jarayoni uchun juda muhimdir. Lekin ma'nosi unutilgan so'zni darslikning darslar lug'atidan ham, lug'at daftaridan ham, kitob oxiridagi «O'zbekcha-ruscha lug'at»dan ham, maktab lug'ati sifatida nashr qilingan «O'zbekcha-ruscha lug'at»dan ham topish oson ish emas. So'zni lug'atlardan topish qiyinligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. O'qilayotgan matnda uchragan notanish so'z ma'nosini eslash uchun avvalgi darslar lug'atini ko'zdan kechirib chiqish lozim bo'ladi. Birinchidan, notanish so'zni bu tarzda qidirish ko'p vaqtni oladi, ikkinchidan, avvalgi darslar lug'atida so'z boshqa, ya'ni ilgari matnda qo'llangan shaklda berilgan bo'lishi, shu sababli o'quvchi o'zi izlayotgan so'z shaklini topa olmasligi mumkin.

2. 2–9-sinf darsliklarining darslar lug'atida ham, lug'at daftarida ham, kitob oxiridagi «O'zbekcha-ruscha lug'at»da ham, maktab lug'ati sifatida nashr qilingan «O'zbekcha-ruscha lug'at»da ham otlar, kishilik va ko'rsatish olmoshlari bosh kelishik shaklida beriladi. O'quvchi so'z shaklidan (*Vatanni, dunyoda, mehnatdan, daryolar, chirog'imiz* va boshqalar) unga qo'shilgan qo'shimchani ajrata olishi, o'zbekcha so'zni tayanch holga keltirib, lug'atdan topishi hamda ma'nosini bilib olishi kerak. Ko'rinadiki, so'z shaklini tayanch shaklga keltirish, uni so'zlar aralash holda joylashtirilgan darslar lug'atidan, alfavit tartibida joylashtirilgan «O'zbekcha-ruscha lug'at»dan qidirib topa bilishi zarur.

3. Boshlang'ich sinflarda darslar lug'atida ham, lug'at daftarida ham, kitob oxiridagi «O'zbekcha-ruscha lug'at»da ham fe'llar har xil tayanch shakllarda: II shaxs birlik bo'lishli shaklda (*hurmat qil, tayyorla*), hozirgi zamon fe'llining I shaxs birlik bo'lishli shaklida (*kutyapman, yordam beryapman*), aniq o'tgan zamon fe'llining I shaxs birlik bo'lishli shaklida (*kutdim, yordam berdim*), fe'llning noaniq ahaklida (*sevmoq, kuylamoq*) beriladi. Matndagi fe'llarning qo'shimchalarini ajratish, tayanch sjaklga keltirish shunga doir bilim, ko'nikma va malakalarni, ushbu BKMLarni hosil qilishga ko'maklashadigan mashqlar bajarishni taqozo etadi.

4. Yuqori sinflarda darsliklarning darslar lug'atida ham, lug'at daftarida ham, kitob oxiridagi «O'zbekcha-ruscha lug'at»da ham, maktab lug'ati sifatida nashr qilingan «O'zbekcha-ruscha lug'at»da ham fe'llar asosan noaniq shaklda (-moq qo'shimchasi qo'shilgan holda) beriladi. O'quvchilar mayli, nisbat

<sup>1</sup> Muxayeva T.V. Nomzodlik dissertatsiyasi, 115-bet

shaklidagi fe'llar, ravishdosh, sifardosh, harakat nomini noaniq shaklga keltirib lug'atdan topa olishi lozim.

Demak, so'zlar ro'yxati asosida «Lug'atdan so'zlarni kim tezroq topa oladi?» o'yinini o'tkazish, maxsus mashqlar yordamida o'quvchilarga lug'atdan foydalanish yo'llarini o'rgatish kerak<sup>1</sup>.

So'zni lug'atdan tez topa olishgina matnni sintetik o'qish jarayoniga putur yetkazmaydi, aksincha, o'quvchilarni sintetik o'qishga ruhan tayyorlash imkonini beradi. So'zni lug'atdan tez topa olish uchun esa tegishli BKMLarni shakllantirishga qaratilgan ta'limiy tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish zarur. Lekin axborot-kommunikatsiya vositalari rivojlangan bugungi kunda o'quvchilarga lug'atdan foydalanishni o'rgatish ishlarini, matnga doir so'zliklarni darsda slaydlar orqali namoyish qilish va matnni sintetik o'qish jarayonida ixchamlashtirilgan lug'atdan foydalanish imkoniyati yuzaga keldi.

Darslikda so'zlar va gaplar rasm ostida berilgan bo'lsa, ularni anglash uchun tarjimaga murojaat etmaslikka undaydi.

II. Matn mazmunini tushunish, bir tomondan, leksik materiallarning anglanish ko'lamiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, leksik materiallar to'liq tushunilgan holatlarda ham fikrni uqib o'la bilishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'qishdan avval o'quvchilarni matn mazmunini chuqurroq idrok etishga yo'naltirish darkor. Matnni sintetik o'qib, undan fikr olish jarayoni tashkiliy jihatdan quyidagi ish turlarini o'z ichiga oladi:

a) o'qish avvalida sarlavhaga e'tiborni qaratish, savol va topshiriqlar berish orqali o'quvchilarni matn mazmunini tushunib o'qishga yo'naltirish;

b) rasmlardan matn mazmunini sintetik o'qishni ta'minlash maqsadida foydalanish;

d) o'quvchilarni matn mazmuniga chuqurroq kirib borishga undovchi ish turlarini o'tkazish;

e) matn mazmunining qanchalik tushunilganini aniqlash (nazorat qilish).

Matnni o'qishdan oldin o'quvchilarning diqqatini bir joyga to'plash, matn mazmuniga qaratish kerak. Odatda o'qituvchi matn ustidagi ishni: «Hozir mana bu matnni o'qiyamiz», – deb boshlaydi, ya'ni o'quvchi oldiga biror jiddiy vazifa qo'ymaydi, ularni o'ylashga, mustaqil fikrlashga undamaydi. Biz matnni sintetik o'qish jarayonini quyidagi mazmunda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb nisoblaymiz:

A. O'qituvchi o'qiladigan matnni e'lon qilib, o'quvchilarga matn sarlavhasiga qarab, unda nima haqda so'z yuritilishini taxmin asosida aytishni topshiradi.

Matnning nima haqda ekanligini, asosiy mazmunini, kichik mavzularning sarlavhasiga qarab, oldindan bilish imkoniyatlari turli matnlarda turlicha ekanligini quyidagi jadvaldan bilish mumkin:

---

<sup>1</sup> Qarang: Жулдосев Р. Лугатдан фойдаланишга доир // Совет мактаби. – 1975, 9-сон. – Б. 41–43.

	Sarlavhaga tayanish. Saylanma o'qish.	Ilmiy ommabop matn	Ilmiy matn	Badiiy matn
1. Xabar predmeti		+		
2. Asosiy mazmun		+	+	+
3. Kichik mavzular		+	+	

Ko'rinadiki, ilmiy-ommabop matnlarda uchala unsur (matnning nima haqda ekanligi, asosiy mazmuni, kichik mavzular) oldindan taxmin qilinishi mumkin. Ilmiy matnlarda ularning nima haqda ekanligi anglanmasligi mumkin. Badiiy matnning faqat asosiy mazmuni faraz qilinadi.

B. Matnni tarjimasiz o'qib tushinishda voqeaband rasmlarning ma'lum roli bor. Ularning ahamiyati o'qish paytida illyustrativ materiallardan to'g'ri foydalanilgan taqdirda ro'yobga chiqadi. Chunonchi, rasmga shunchaki qarab o'qimasdan, ko'rsatkich tayoqcha (qalam yoki ruchka) yordamida matnda fikr yuritilayotgan obyekt yoki subyektni ko'rsatib o'qish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Hovli» matni o'qilar ekan, o'quvchi avval hovlini, keyin bir tomondagi ayvonni va yo'lakni, ikkinchi tomondagi ariqni yoki boshqa narsani ko'rsatadi, undan keyin daraxtlarga o'tadi.

Hajmi kichik tasvir yoki rivoya tipidagi matnlarning har bir gapini mazmunan mos rasmni ko'rsatish yo'li bilan tushunish mumkin. Illyustrativ materiallarda ana shunday imkoniyat mavjud bo'lishi kerak. Rasmlar so'zga, uning ma'nosiga ishora qilib turadi, natijada so'z ma'nosi, gap mazmuni tarjimasiz anglanadi. O'quvchi matndagi gapni o'qib, shu gap mazmuniga mos rasmni yoki kartinaning tegishli o'rmini ko'rsata oladi.

Matnni sintetik o'qish paytida o'rganilayotgan tilda fikrlash rivojlanadi. Ayniqsa, rasm mazmuniga mos gapni yoki gaplarni topib o'qish ham o'quvchilarning fikrlash faoliyatini yanada oshiradi. Masalan, o'qituvchi rasmdan kitob o'qiyotgan bolalarni ko'rsatadi, o'quvchilar matndan mos gapni topib o'qishadi.

D. O'qishdan avval o'quvchilarni matn mazmunini tushunishga tayyorlabgina qolmay, ularda bu ishga qiziqish ham uyg'otish kerak. Chunonchi, 1) ularning diqqatini matn mazmuniga qaratish, shu maqsadda muammoli savollar qo'yish; 2) ishchanlik kayfiyatini yaratish zarur.

J.I.Manuelyan o'z tajribalarini xulosalab ta'kidlaydiki, matnni o'qishdan oldin beriladigan savollar tavsifi o'qishdan ko'zlangan pirovard maqsadga bog'liqdir.

Hajmi kichik matnlar yuzasidan berilgan savollarga javob qaytarishda bolalar mexanik taqqoslashdan foydalanadilar: savoldagi ko'p so'zlar javob-gapda bo'ladi, o'quvchi shu o'xshashlikka tayanib javobni o'qiydi yoki eslab qolib aytadi. Bunday usul kam samara beradi.

*Sintetik o'qish jarayonida* matn mazmunini tushunishga qaratilgan savol va topshiriqlar yordamida chuqurlashtiriladi. Dastlab topshiriqlar matndagi faktlarni aniqlash, keyin esa ushbu faktlar o'rtasidagi elementar aloqalar va bog'lanishlarni izohlash tavsifida murakkablashtirib boriladi. Faktlarni guruhlash ham shu maqsad uchun xizmat qiladi.

Quyidagilardan boshlab sintetik o'qish oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi: 1) leksik materiallarni (so'zlar, so'z shakllari), gaplarning mazmunini o'qib tushunish sur'atini oshirish; 2) yangi va ma'nosi unutilgan so'zlarni kontekstga tayanib tushuna olish; 3) matn mazmunini, undagi yangi axborotni o'zlashtirish; 4) matndagi faktlarni ma'lum xususiyatlariga qarab guruhlash.

Kontekstlar yangi va ma'nosi unutilgan so'zlarni kundalik passiv takrorlab borishning eng qulay vositasidir. Buning uchun o'quvchilarning sintezlash faoliyatini so'zlar ma'nosini eslash sari yo'naltirish lozim.

F. Matn mazmuni ustida ishlash.

**Sintetik o'qishni tashkil etishda o'qituvchi sintezlash jarayonining qanday kechishini aniq tasavvur qilishi shart.** Sintezlash hajmi kattaroq matn mazmunini o'zlashtirishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunday matnlar mazmunini tushunish va o'zlashtirish ma'lum izchillikdagi aqliy operatsiyalarni taqozo etadi. Ushbu masala bo'yicha A.A.Smirnov, A.N.Sokolov, P.I.Zinchenko, A.I.Lipkina va boshqa psixologlarning olib borgan tajriba-sinov natijalari diqqatga sazovordir. M.A.Izmaylov ularning fikrlarini umumlashtirib, tajribali kitobxonning tushunib o'qishidagi faol fikrlash jarayoni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha boradi deb ko'rsatadi:

- 1) matnning asosiy mazmunini ajratish;
- 2) muhim bo'lmagan materiallarni tushirib qoldirish yo'li bilan o'qilganlarni qisqartirish va umumlashtirish;
- 3) matn mazmunining umumiy planini o'zgartirish;
- 4) asl nusxada ishlatilgan so'z va iboralarni kitobxoniga yaqinlari bilan almashtirish<sup>2</sup>.

Matnning asosiy mazmunini ajratish uning kim yoki nima haqida ekanligi, kim yoki nima haqida nimalar deyilganini anglashda o'z ifodasini topadi. Masalan, o'quvchilar quyidagi matnni o'qib, mazmunini qisqa bayon etadilar<sup>^</sup>

*Qadim zamonda bir kishi saxiylik bilan dovuq taratibdi. U ekin ekar, mol boqar, tun-u kun ter to'kar, ammo topganini odamlarga ulashib berar ekan. Uning xotini ham, farzandlari ham saxiyning shu xayrli ishini qo'llab-quvvatlab, uning yonida turib mehnat qilar ekanlar.*

*O'zi qiynalgan vaqtda ham saxiy bor-yo'g'ini atrofdagilarga ulashib, hammaning hojatini chiqarib turar ekan. Uning uyiga biror narsa so'rab kelgan odam hech quruq qaytmas ekan.*

*O'quvchilardan biri: Qadim zamonda bir saxiy odam bo'lgan ekan. U ekin ekib, hosilini odamlarga tarqatar ekan. Xotini ham, bolalari ham unga yordam berishar ekan.*

Matn mazmunini tushunish undagi leksik va grammatik materiallarni bilishdan tashqari, bayon qilinayotgan fikrlarni o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyatni ham o'z ichiga oladi.

Kitobxon gaplarni emas, fikrlarni, g'oyalarni, voqea-hodisalarni eslab qoladi. So'z va iboralarni almashtirish ham o'qish chog'ida emas, balki qayta

<sup>2</sup> Измайлов М.А. Обучение чтению на французском языке как виду речевой деятельности в VII классе. Дисс. ... канд пед. наук. - Горький, 1976. - С. 25.

hikoyalash paytida amalga oshiriladi. Matn ustidagi ishlarni kitobxon qayta hikoya qilish jarayonida sodir etgani uchun bu ishlar ongli ravishda, ya'ni lingvistik jihatlarini o'ylab bajarilmaydi. Yaratilgan bayonni matn bilan solishtirish tilshunoslarning vazifasi, ular bajargan lingvistik tahlil natijasidir.

Kichik hajmdagi matn asosida yuqoridagi kabi aqliy jarayonlar to'laonli kechmaydi. O'quvchi uning qurilishini o'zgartirishga botina olmaydi, shuning uchun ham matnni yaxlit qabul qiladi. Albatta, matn mazmunini anglash va o'zlashtirish mexanizmlarini to'liq ishga tushirish uchun matnning hajmi kattaroq bo'lishiga e'tibor berish lozim.

O'quvchi kichik matnlarni o'qiganda, uni tom ma'noda o'zlashtirish bilan bog'liq aqliy operatsiyalarni bajarmaydi. Chunonchi: 1) «asl nusxa tushunchalarini yuqori, teng yoki quyi tushunchalar bilan» (P.P.Blonskiy) ekvivalent almashtirish; 2) matn mazmunini «mantiqiy guruhlash» (A.A.Smirmov) orqali qismlarga bo'lish; 3) matn qismlari mazmunini ifoda etuvchi «mantiqiy tayanch»larni ajratish va ularni oddiy signallar yoki ko'rsatmali obrazlar bilan almashtira borish (N.I.Jinkin) kabi faoliyat ko'rsata olmaydilar<sup>1</sup>.

Matn mazmuni o'quvchining hayot tajribasidan uzoq bo'lsa, uni o'zlashtirish yod olishni taqozo etadi.

M.A.Izmaylovning ta'kidlashicha, kitobxon abzats mazmunini tushunish uchun gaplarning yaxlit sabab-natija bog'lanishlari yig'indisi, ya'ni fikrlar tizimini anglashi zarur bo'ladi. U operativ xotirasida bir kichik mavzuga birlashgan «gaplarning ba'zi zonalarini» (N.I.Jinkin) saqlab qolishi va avvalgi abzatsning mavzusini esda tutib turishi kerak<sup>2</sup>. Shu boisdan tushunish: a) o'qilayotgan matnlarning mantiqiy tuzilishiga, b) ayrim gaplarning subyekti va predikati o'rtasidagi turli bog'lanishlarga, d) matn mazmunining mavzusiga, e) tasvirlanayotgan hodisalarning o'quvchilar hayoti bilan yaqinligiga, f) qahramonlarning oz yoki ko'pligiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir<sup>3</sup>.

Matndagi asosiy fikrni ajratish qiyin. A.S.Yegorovning ta'kidlashicha, ikkinchi sinf o'quvchilari asosiy fikrni ajrata va uni ochib bera olmaydilar<sup>4</sup>.

Sintetik o'qishning yakuniy bosqichida nazorat ishlari amalga oshiriladi. O'quvchilarning quyidagi ko'nikma va malakalari tekshiriladi:

- matn mazmunining tushunilganligi;
- kontekstda ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nosining anglanganligi.

O'quvchilarning matn mazmunini qanchalik tushunganliklari quyidagi yo'llar bilan tekshiriladi:

- o'qituvchi o'qigan gaplarga rasmdan mos tasvirlarni ko'rsatish;
- matn mazmunini o'zbek tilida so'zlab berish;
- matn mazmuni yuzasidan berilgan ijodiy savollarga javob qaytarish;
- matn mazmunini rus tilida qisqa gapirib berish.

<sup>1</sup> Qarang: Измайлов М.А. Nomzodlik dissertatsiyasi, 2-bet.

<sup>2</sup> Измайлов М.А. Nomzodlik dissertatsiyasi, 44-bet.

<sup>3</sup> Измайлов М.А. Nomzodlik dissertatsiyasi, 108-bet.

<sup>4</sup> Егорова А.С. Развитие устной русской речи на уроках чтения в чукотской начальной школе (на материале второго класса): Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1977 – С. 5.

O'qituvchi o'qigan gaplarga rasmdan mos tasvirlarni ko'rsatish nazoratning passiv usuli hisoblanadi. O'qituvchi rasmdan biror tasvirni ko'rsatib, shu tasvirga mos gapni o'qishni talab etsa, o'quvchi retseptiv nutqiy faoliyat namoyon qiladi. O'quvchi rasmdan ko'rsatilgan tasvirga mos gapni o'zi tuzib aytsa, nutqi faollashadi.

Matn mazmunini qayta hikoya qilish sintetik o'qilgan matn mazmunining qanchalik tushunilganini nazorat qilishning asosiy usuli sanaladi, chunki bunday tekshirish bevosita og'zaki nutq o'stirish bilan bog'lanadi.

Ba'zan matn mazmunini qayta hikoya qilish uchun murakkablik qilganda savol-javob usuli qo'llanadi. O'qituvchi savol beradi, o'quvchi javob qaytaradi. O'quvchi so'zlari savoldagi so'zlarga yaqin gapni darslikdan aynan o'qib bermasligi uchun ijodiy savol tuzishga harakat qilish va o'quvchilardan ijodiy javob talab etish darkor.

Savol tuzganda, uning bolalar o'z nutqida bemaolol ishlata oladigan gap tuzilishlariga monand kelishiga e'tibor beriladi. O'quvchi darslik matnidagi tayyor gapni o'qib emas, balki o'zi tuza oladigan gap bilan javob qaytargani ma'qul. Bunday javob matndagi tayyor gapni yod olib aytishdan oson ko'chadi.

J.I.Manuelyan yuqori sinf o'quvchilari oldiga quyidagi kabi vazifalar qo'yish foydali ekanligini alohida ta'kidlaydi: ilmiy ommabop matnni ko'z yugurtirib o'qib chiqish, ushbu mavzu bo'yicha o'zlari bilganlarini xotirada tiklash, so'ngra mustaqil xulosalar chiqarish<sup>1</sup>.

Matnni ikkinchi marta o'qiganda, uning mazmunini tushunishga bo'lgan qiziqish pasayadi. Matn mazmuni to'liq anglangan bo'lsa, o'quvchi takror o'qishga butunlay qiziqmaydi. Topshiriq shartini o'zgartirish, vazifani bir muncha murakkablashtirishgina bolalardagi qiziqishni saqlab turishga yordam beradi. Ayniqsa, sintetik o'qish og'zaki nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lsa, o'qib-o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish barqarorlashadi.

Amaliyotda tajribali o'qituvchilar sintetik o'qilgan matn mazmuni yuzasidan savollar tuzib o'zaro so'zlashish, reja tayyorlab, shu reja asosida matn mazmunini so'zlash, xabar uchun xos ayrim gaplarni aytish kabi ish turlaridan foydalanadilar. Testlarda esa, odatda, tayyor javoblardan matn mazmuniga mos javobni tanlash topshirig'iga ko'p o'rin ajratiladi.

Ayrim ruhshunos va metodist olimlar (chunonchi, M.A.Izmaylov) o'quvchilarning matn mazmunini qanchalik tushunganliklarini tekshirishda ona tilida ifodalatish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu usuldan foydalanish juda qisqa fursatda o'tkazilishi lozim bo'lgan nazorat nuqtayi nazaridan samarali. Faqat uni tegishli topshiriq asosida matn bir-ikki o'qilgandan keyin o'q'illash zarur. Topshiriq quyidagicha ta'riflanadi: *Hozir ... matnini o'qidik. Endi uni ichdan yana bir marta o'qib chiqing va mazmunini tushunishga harakat qiling. So'ngra matn mazmunini rus tilida so'zlab bering.*

---

<sup>1</sup> Мануэльян Ж.И. К вопросу о методике работы над текстом в зависимости от его характера. // Журн. "ИЯП", 1970, № 5. – С. 47.

Xullas, sintetik o'qish orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda tarjimasiz tushuntirish metodlariga e'tibor kuchayadi, tarjimali o'qishdan yuzaga keladigan nuqsonlar bartaraf etiladi.

Shunday qilib, o'zbek tili darslarida o'quvchilarga sintetik o'qishni o'rgatish, aniqrog'i, bolalarning sintetik faoliyatlarini kamol toptirish ishi ularda yangi so'zlarni kontekst yordamida anglash bilan birga ma'nosi unutilgan so'zlarni ham shu yo'l bilan eslash malakasini hosil qilish, kitobxonlarni matn mazmunini o'zlashtirish yo'lida bajariladigan operatsiyalar bilan qurollantirishdan iborat bo'ladi.

Yuqori sinflarda matn ustidagi ishlar faktlar haqida mushohada yuritish, fikr almashish unsurlari, asar g'oyasini aniqlash tarzida murakkablashadi.

Hikoyalarni o'qishdan so'ng o'quvchilarning diqqati qahramonlar hatti-harakatlarining sabablari yoki oqibatlarini aniqlashga qaratiladi; ertak o'qilgandan keyin bolalarni fikrlash, muhokama /mulohaza/ yuritish, o'qilganlarni voqelik bilan taqqoslashni o'rgatish yuzasidan ish olib boriladi.

#### 4-BOB

### O'ZBEK TILI DARSLARIDA NUTQNI TINGLAB TUSHUNISHNI O'RGATISHNING AYRIM MASALALARI<sup>1</sup>

O'zbek tili darslarida nutqiy faoliyat turlaridan biri sanalmish nutqni tinglab tushunishni o'rgatishda eshitish mashqlarining o'z o'rnini bor. Ushbu mashqlar orqali o'quvchilar o'zbek tilidagi muloqotda ishtirok etish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan xabarlarini tinglab borish, sahna asarlarini, filmlarni ongli tomosha qilish layoqatini qo'lga kiritadilar, ularda tegishli BKMLar shakllanadi. Darslarda o'tkaziladigan eshitish mashqlari<sup>2</sup> ana shu maqsadlar uchun xizmat qiladi. Amaliyotda bunday mashqlar tez-tez tashkil etilib turilsa-da, o'qituvchilar uyushtirayotgan ba'zi mashqlarning ta'limiy jihatlari oz, ayrim holatlarda shunchaki rasmiyatchilik uchun tashkil etiladi.

Agar muallim o'quvchilarga eshittirilayotgan matnning har bir gapini rus tiliga tarjima qilishni buyursa, topshiriqni odatdagidek tilni amaliy biladigan o'zbek bolalari yoki yaxshi o'zlashtiradigan rusiyazon o'quvchilar bajaradilar. Bir o'quvchi gapni rus tiliga o'girayotganda, boshqa bolalar o'zbekcha gapdan ko'ra ko'proq ruscha ifodalarni diqqat bilan tinglaydilar.

O'quvchilardan o'qib eshittirilgan matn mazmunini rus tilida qisqa gapirib berish talab qilinsa, ularning ishi yana ham osonlashadi: bir kishi rus tilida so'zlayotgan paytda boshqalarining diqqati asosan ana shu hikoyalashda bo'ladi.

Matn eshittirilgandan keyin savol-javob o'tkazilsa, ushbu mashq turini bajarish chog'ida ba'zan qo'l ko'targanlar yana o'sha tilni amaliy biladigan o'zbek bolalari, yaxshi o'zlashtiradigan rusiyazon o'quvchilar bo'lib chiqadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan uchala holatda eshitish mashqining ta'limiy jihati past darajada bo'ladi. Nutqni tinglab tushunishdan ko'zlangan maqsadning kutilganidek samara bermasligiga quyidagi sabablarni ko'rsatish joiz:

– aksariyat o'quvchilar o'qituvchining kuchli bolalardangina so'rashini bilgani uchun eshitish mashqi paytida aytilayotgan gaplarning mazmunini tushunishga astoydil harakat qilmasliklari;

– eshittirilayotgan matn mazmunini o'rtoqlarining rus tiliga qilgan tarjimalaridan bilib olish mumkinligi.

O'qituvchi mashqni tashkil etish chog'idayoq kamchilikka yo'l qo'yadi deb hisoblash mumkin: u matn mazmunini barcha o'quvchilarning tushinishga harakat qilishlari, buning uchun diqqat bilan tinglashlarini shart qilib qo'yishi kerak, nazorat paytida qo'l ko'tarmay o'tirgan o'quvchilardan so'rashi, javob berishi uchun imkoniyat yaratishi zarur edi.

Bundan tashqari, matn davlat ta'lim standartida hamma o'quvchilar o'zlashtirib ulguradigan majburiy minimal ta'lim mazmunidan kelib chiqib

---

<sup>1</sup> Йўлдошев Р.А. Ўзбек тили дарсларида нутқни эшитиб тушунишга ўргатишнинг айрим масалалари // "Рус ва козок мактаблари ҳамда муассасаларида ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш масалалари" илмий мақолалар тўпламида. - Тошкент: ЎзПФТИ, 1997. - Б. 3-12.

<sup>2</sup> O'zbek tili o'qitish metodikasida nutqni tinglab tushunish talab etiladigan mashqlar eshitish mashqlari deb yuritiladi.



tanlansa, matn mazmunini mutlaqo tushuna olmagan o'quvchilar deyarli bo'lmaydi.

Eshitish mashqlarining ta'limiy ahamiyati kam bo'lishiga tuzilishi murakkabroq gaplar mazmunini tinglab tushinish qiyinligi sabab bo'ladi. Bunday gaplarni rus tilida mos tarzda ifodalash ko'p vaqt o'qituvchining yordamisiz amalga oshmaydi. O'quvchi o'zi eplab o'gira olmagan gap so'z boyligini boyitmaydi, til bilimiga yangilik qo'shmaydi, yangi axborot bilan tanishtirmaydi. Tarjima jarayonini ikki davlat vakillarining uchrashuv chog'ida har bir tomonning o'z ona tilida so'zlashi, uning nima deyaotganini tarjimonning tarjimasidan bilib borishiga qiyoslash mumkin: vakillar asosan tarjimon aytgan so'zlarni tinglaydilar.

O'zbek tili darslarida nutq tovushlari, so'zlar va so'z shakllari talaffuzi o'rgatilyotganda, matn mazmuni yuzasidan savollarga javob olinayotgan paytda nutqni tinglab idrok etish jarayoni mavjud. Ammo ushbu jarayonlarda ham darsning ta'limiy jihati juda kam bo'ladi. Chunki so'z va so'z shakllarini, murakkabroq gaplar mazmunini tarjimasiz anglash yo'llari ustida maxsus ishlar tashkil etilmaydi.

Bundan tashqari, matnda uchraydigan o'ta murakkab gaplar mazmunini tushunish g'oyatda mushkul bo'ladi.

Ayon bo'ladiki, nutqni tinglab tushunishni o'rgatish maqsadida o'tkaziladigan eshitish mashqlari muayyan talablarga javob bermog'i lozim. Bu talablar quyidagi lingvometodik muammolarni hal etishda o'z ifodasini topadi:

1) ruhshunoslikda nutqni tinglab tushunish jarayoni haqida qanday ma'lumotlar borligi;

2) eshitish mashqi uchun tanlanadigan materiallarning qanday bo'lishi kerakligi;

3) mashqlarning ta'limiy jihatlari nimalarda o'z ifodasini topishi;

4) eshitish mashqlarini qay tarzda o'tkazish lozimligi (mashqlar tizimi).

I. Ma'lumki, eshittirilayotgan matn mazmunini tushunish gapma-gap boradi. Bir gap aytilganda yoki o'qilganda tinglovchi mazmunini tushunish uchun undagi barcha so'z va so'z shakllarini qisqa fursat ichida miyada saqlab turishi kerak. Tahlil va sintez, xulosalash kabi aqliy jarayonlar orqali gap mazmuni anglangach, unutish mexanizmi ishga tushadi, gapdagi so'zlar xiralashib, ba'zilar xotiradan o'chadi. Ana shu mexanizm bo'lmasa, kishi matnni tashkil etuvchi gaplarning har bir so'zini ma'lum izchillikda yodida saqlab turishi zarur bo'lardi. Buning uchun uni she'r yoki qo'shiqni yodlaganday yodlash lozim bo'ladi. Bugina emas, bir gap bilan ko'p band bo'lish eshittirilayotgan navbatdagi gaplarni qabul qilishga to'siqlik ham qiladi. Unutish mexanizmining ishga tushishi xotiraning amal qilish xususiyatidir<sup>1</sup>. Bir gap eshitib tushunilgandan keyingina navbatdagi gapni idrok etib tushunishga o'tiladi.

<sup>1</sup> Демьяненко М.Я., Лазаренко К.А., Мельник С.В. Основы общей методики обучения иностранным языкам. Теоретический курс, изд. 2-е, доп. и перераб. – Киев: Вища школа, 1984. – С. 130.

Gap mazmunini tushunish uchun uning barcha soʻzlarini qisqa muddatli xotirada saqlab turishda oʻquvchining xotira chegarasi ham maʼlum roʻl oʻynaydi. I.P.Kritskaya olib borgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, magnit tasmasiga yozib eshittirilgan 8 soʻzli gap baʼzi bir 5 soʻzli gaplarga nisbatan xotirada tez saqlab qolinadi va aytiladi<sup>1</sup>. U bu xususda boshqa bir qator mualliflar chiqargan xulosalarga qoʻshiladi va shuni taʼkidlaydiki, bir gap tuzilishini ikkinchisiga qoʻshish imkoniyati cheksiz boʻlgan gaplar grammatik jihatdan toʻgʻri boʻlishi mumkin, lekin ularni ruhshunoslik nuqtayi nazaridan eshitib tushunish uchun toʻgʻri deb boʻlmaydi.

I.P.Kritskaya nutqni eshitib tushunish uchun tanlanadigan materiallarning ayrim sintaktik xususiyatlarini oʻrganib, bu xususiyatlarni belgilovchi ikki asosiy omilni ajratadi: 1) gapning sintaktik qurilishi va 2) uning uzunligi. Birinchi omilga koʻra gapda soʻz tartibi va bazaviy gap tuzilishining kengayishi kabi holatlar mazmunni anglash qiyinchiligini keltirib chiqaradi.

Gapda sifat-dosh, harakat nomi, ravishdoshning ishlatilishi uning kengayishiga olib keladi. Bunda bir gapga ikkinchisi, ikkalasiga oʻz navbatida uchinchisi qoʻshilganday boʻladi. Natijada gapning sigʻimi (chuqurligi) ortib boradi. Bu esa uning mazmunini tushunish va gapning oʻzini aytish ishini qiyinlashtiradi. Bu xildagi gapning mazmunini tushunish va uni eslab qolish uchun tinglovchi xotirasida saqlanib turgan ushbu gapning tarkibiga sifat-doshli yoki boshqa xil birikmalar shaklida kiritilgan gaplarni bir-biridan ajratishi, bir tarkiban tugallanmagan birikmani ishlab chiqayotib, boshqalarini yodida saqlab turish kerak boʻladi. Birini tahlil qilib, mazmunini anglab ulgurmasdan navbatdagi 2-3 boshlangan gap tuzilishini esda tutib turishga toʻgʻri kelganda esa, vazifa inson xotirasi uchun gʻoyatda mushkul boʻlib qoladi. Oʻquvchining matn mazmunini tushuna olmaslik sabablaridan biri ana shu holat bilan izohlanadi.

Soʻzlar miqdoriga qarab gaplar uzun yoki qisqa boʻladi. Uzun gaplarning hammasi ham sigʻimli (chuqur) boʻlavermaydi. Sifatlovchi aniqlovchi va tarz hollari hisobiga kengaygan gap uzun boʻlsa-da, chuqur sanalmaydi. Tinglovchi birmuncha uzun, lekin chuqurligi eng kam boʻlgan gaplarni uzunligi bir xil, lekin chuqurligi koʻp boʻlgan gaplarga qaraganda oson tushungani uchun yaxshiroq eslab qoladi va aytga oladi. Shuning uchun ham oʻquvchi chuqur hisoblanmish 5 soʻzli gapga qaraganda 8 soʻzli uzun, lekin sayoz gapni tez tushunadi va esda saqlab turib, aytga biladi.

I.P.Kritskaya gap uzunligi va chuqurligining tushunishga qanday taʼsir qilishi yuzasidan tajribalar oʻtkazib, 11 soʻz-gacha uzunlikdagi gaplar tinglovchi uchun anglash qiyinchiligini tugʻdirmasligini aniqlagan. Uzunlik 14-15 soʻzga yetgandan boshlab tushunish va soʻzma-soʻz aytish yomonlashgan. Buni muallif shunday izohlaydi: «Tinglovchining qisqa muddatli xotirasi imkoniyatlaridan oshib ketgan hollarda gapni qayta ifodalash chogʻida, odatda, gapning uzunligi va chuqurligiga sabab boʻlgan qismlarni «tashlab yuborish» yuz beradi, yaʼni tinglovchi qisqaroq va sayozroq gapni aytga oladi». Oʻquvchi gapni esda saqlab

<sup>1</sup> Крицкая И. П. Некоторые синтаксические особенности материала для аудирования // Иностранные языки в школе. 1974, № 4.

qolmasa, to so'zlarini anglab, mazmuniga tushunib yetmaguncha uning takror aytilishini so'rayveradi. Lekin eshitish mashqi paytida bunga imkon bo'lmaydi. Uzunroq gapni ravon ayta olish uning mazmunini tushunish bilan baravar sodir bo'ladi.

Nutqni eshitib tushunish jarayonida o'quvchi o'zining ichki nutqida gapni qaytadan tuzadi (bir kishi aytgan gapni ikkinchisining boshqacha aytishi shundan).

Uzoq muddatli xotirada so'z yoki grammatik qo'shimchaning, so'z shaklining etaloni (stereotipi) mavjud bo'ladi. Eshitib idrok etish jarayonida til hodisasining xotiradagi etaloni qidiriladi, xotiradan shunday andaza topilmasa, ma'no anglanmaydi, natijada unutilish (voz kechish) yuz beradi.

***Demak, eshitish mashqi uchun tanlangan matnda 11-12 so'zdan uzunroq va chuqur gaplar bo'lmisligi, bunday jumlar bor bo'lsa, ularni soddalashtirish zarur bo'ladi.***

Nutqni tinglab idrok etish va tushunish faol aqliy harakatlarni talab qiladi, ushbu faollik gapirishdagi faollikdan kam emas: u ko'pgina operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Tinglovchi eshitib idrok etgan gap o'zi tuza oladigan gapdan farq qilsa, yangi gap tuzilishini o'zlashtirishga harakat qiladi. Qisqa muddatli xotirasida shu tarzda egallangan gap turi bir muddat saqlanib turadi, lekin unutish mexanizmi ishga tushgach, tuzilishi mustahkamlanib ulgurmagan gap ham yoddan ko'tariladi.

Qo'zg'alishlarni bosh miya po'stlog'ining tegishli sohalariga yetkazuvchi eshituv, harakat, idrok etish analizatorlarining faoliyati nutqni eshitib tushunishning fiziologik asosini tashkil qiladi. Bu analizatorlar o'zaro chambarchas aloqada bo'ladi. Biz nutqni eshitish paytida uni albatta ichdan takrorlab boramiz: Har qanday eshituv sezgilari shunchaki eshituv reaksiyasini qo'zg'atibgina qolmay, balki eshituv-motor reaksiyasini ham uyg'otadi. Biz nimanidir eshitib idrok etayotganda hamma vaqt ichdan (yoki ba'zida ovoz chiqarib) talaffuz qilamiz. Boshqacha aytganda, nutqni eshitib tushunish jarayonida talaffuz qilish ana shu idrok etishning tarkibiy qismi hisoblanadi. So'z va gaplarni taniy olish va tushunib yetish eshitilganlarni ichki nutq yordamida aytib ko'rish bilan bog'liq ravishda kechadi. Ichdan aytish uchun ma'lum muskul quvvati sarflanadi. O'quvchi to'g'ri talaffuz malakalariga ega bo'lmasa, gap tuzishda va uni eslab qolib aytishda qiynalsa, muskul quvvati ko'proq sarflanadi. Ikkinchi tilda tinglash charchog'i ona tilidagidan ko'p bo'lib, uni kamaytirish uchun mashqlarni ko'paytirish lozim.

Eshituv nervlarining o'tkazuvchanlik qobiliyati ko'ruvnikiga qaraganda 16 marta kam. Kishi matni o'qib mazmunini tushunishga qaraganda nutqni eshitib tushunish jarayonida ko'proq charchaydi. Agar ruhshunoslarning hisoblaridan kelib chiqadigan bo'lsak, kishi 8 soat kitob o'qiganda 10 soatda 50 km masofani piyoda bosib o'tganchalik ish bajarsa, nutqni eshitib tushunishdagi charchoqni tasavvur qilish uchun yuqoridagi raqamlarni 16 ga ko'paytirish kerak bo'ladi. Bugina emas, eshitish mashqida o'qishdagiga qaraganda, fikrlash uchun ko'p kuch va quvvat sarf bo'ladi, bu narsa eshituv kanali orqali olinadigan bilimlarning ko'ruv orqali olinadigan bilimlarga nisbatan yaxshiroq esda

saqlanib qolishini isbotlab beradi. Zero nutqni eshitish chog'ida tinglovchi aytiladigan gaplarni bashorat qilib boradi, o'zicha gaplar tuzadi, aytilgan gap bilan chog'ishtiradi, xayolan hikoya qilinayotgan voqea-hodisalar sodir bo'layotgan joyga boradi, kimlar bilandir gaplashadi va hokazo.

Nutqni eshitib tushunish paytida tinglovchi o'z nutq malakalariga ham baho berib boradi, o'z-o'zini tekshirib turadi: qanday gap aytilishini taxmin qilib, gaplar tuzib ko'radi.

Nutqni eshitib tushunish jarayonining murakkabligi yana shunda ko'rinadiki, tinglovchi birinchi so'zni eshitgani zahotiy oq shu so'zning andazasi bo'lmish timsolini xotiraga keltiribgina qolmay, shu so'z bilan birika oladigan boshqa so'zlarni xayolidan o'tkazib boshlaydi, ya'ni so'zlovchidan ilgari lab borib, keyingi aytiladigan so'zlarni bashorat qiladi.

I.P.Kritskaya ta'kidlaydiki, kishi tinglayotganda doim unda javob reaksiyasi yuz beradi, bu jarayonning tarkibiy qismi gapning davomida qanday so'z va shakllar ishlatilishini, gapning intonatsion jihatdan shakllanishini bashorat qilish, ya'ni grammatik kutish hisoblanadi.

Nutqni eshitib tushunishga ovozlantirish sur'ati ham ta'sir etadi. Matn sekini, har bir so'zdan keyin to'xtam qilib eshittirilsa, tushunish qiyinlashishidan tashqari, tasavvurlarni tugal obrazga umumlashtirish ishi murakkablashadi. Ovozlantirish sur'atini oshirish esa nutq oqimini analitik qabul qilishga imkon bermaydi, bu ham idrok etish jarayonini qiyinlashtiradi.

Nutqni eshitib tushunishning to'g'ri bo'lishida nutq sur'ati, ovoz tembri va baland-pastligi, eshitish mashqi o'tkazilayotgan vaziyat xususiyatlari, og'zaki nutqning uslubiy xususiyatlari, idrok va tovush signallarini qayta ishlash, nutqni qabul qiluvchining shaxsiy tavsif xususiyatlari, ruhiy holati, motivlari va boshqa shu kabilar ham katta ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Gap tuzishda ham shunday bo'ladi. So'zlayotganda kishida grammatik majburiyat bo'ladi. Masalan, gap «Qishki ta'tilda...» deb boshlansa, qandaydir ega, hol va kesim aytilishi kutiladi. Bunda so'zlovchi uch xil majburiyatni o'ziga olgan bo'ladi. Demak, «qishki ta'tilda» birikmasining chuqurligi uch birlikka teng (ya'ni qisqa muddatli xotirada uch simvol saqlanadi).

Tajribalarning tasdiqlashicha, yaxshi mashq qildirilmagan eshituv xotirasi eshitib idrok etilayotgan materialning atigi uchdan bir qismini xotirada saqlab qoladi.

Nutqni eshitib tushunish (idrok etish) psixolingvistik jarayon bo'lib, axborotni tushunish va uni keyingi qayta ishlash shu jarayonning natijasidir. Ushbu jarayon uch bosqichda o'tadi:

- 1) eshituv-muskul yoki ko'ruv sezgilaridan o'tish;
- 2) so'zlarni ma'nolariga ko'ra ular anglatgan tushunchalar bilan solishtirish, gapda so'zlar o'rtasidagi aloqalarni tiklash, ularning gapdagi vazifalarini aniqlash;
- 3) nutqiy xabarning mazmunini aniqlash va so'zlovchining fikrini tushunib yetish.

<sup>1</sup> Pogosyan E.G. Nomzidlik dissertatsiyasi. 10-bet

O'quvchi nutqni eshitib idrok etar ekan, tushunish gapma-gap boradi, lekin gaplar aynan esda saqlab qolinmaydi, o'rin-joy tasvirlari, fikrlar, timsollar xotirada gavalana boshlaydi, shular o'zlashadi. Bundan tashqari, tinglovchi o'zgalar nutqini tinglab tushunish jarayonida ularning muddaosini, ya'ni ushbu fikrlar nima uchun aytilayotganini anglashga alohida e'tibor beradi, busiz fikrlarini tushunish to'liq bo'lmagan tushunish hisoblanadi.

I.P.Pavlovning ta'limotiga ko'ra, kishining miyasi ikki signalli tizimga ega bo'lib, birinchisi predmet-ko'zg'atuvchilar ta'sirida amal qiladi. Nutqni eshitib tushunishni birinchi signalli jarayon, nutqni tushunishni esa ikkinchi signalli jarayon deb farqlamoq kerak<sup>1</sup>.

Eshitish paytida nutqni harakatga keltiruvchi impulslar quyidagi holatlarda yuzaga keladi: 1) tushunish uchun diqqat kuchli darajada markazlashganda va topshiriqni qaydlashda, 2) tushunishdagi qiyinchiliklarda va matnga mantiqiy qayta ishlov berishda.

II. Eshitish mashqi uchun tanlanadigan materiallarning qanday bo'lishi kerakligi muhim metodik muammolardan biridir. Ma'lumki, matn mazmunini tushunishning to'g'riligi va to'liqligi parchaning mavzusiga, tuzilishiga, bayon usuliga, so'zlari hamda grammatik vositalari yaxshi o'zlashganligiga bog'liqdir. Notanish so'zlari, murakkab gap qurilmalari ko'p bo'lmagan matnlar eshitish mashqi uchun tavsiya qilinmasligi lozim. O'qituvchi undagi ayrim so'zlar va so'z shakllarini, ayrim gaplarini rus tiliga tarjima qildirib ko'rishi mumkin. Shunda hamma narsa ayon bo'ladi-qoladi: talay so'zlari notanish, ba'zi grammatik vositalar yaxshi o'rganilmagan, murakkabroq gaplarni tahlil yo'li bilan anglash malakasi shakllanmagan bo'lib chiqadi.

O'quvchilarning yosh xususiyatiga ko'ra nutqni eshitib tushunishdagi xotira imkoniyatlarini hisobga oladigan bo'lsak, matnning hajmiga ham e'tibor berilishi lozim. Matn quyi sinflarda dastlab 4-6 gapdan iborat bo'lib, hajmi asta-sekin ortib borishi, ko'pi bilan 0,5 daqiqaga mo'ljallanishi, yuqori sinflarda 1,5-2,5 daqiqagacha ovozlantiriladigan qilib tanlanishi maqsadga muvofiqdir.

Nutqni tinglab tushunishda mavzu va u bilan bog'liq ravishda mazmun qiyinligi ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Matnning mavzu jihatidan og'irligi o'quvchilar hayot tajribasidan yiroqligi, notanishligida o'z ifodasini topadi.

Matn tanlashda uning janri ham hisobga olinadi. Tasvir-matnning mazmuni rivoya-matnga qaraganda qiyinroq anglanadi. Tasvir-matnda narsa-buyum va tushunchalarning yoritilish izchilligi o'quvchilarning ichki nigohida tasvirning gavalanishi, tushunchalar haqida tasavvurning paydo bo'lishi tarzida in'ikos etsa, rivoya matnda voqea-hodisalarning sodir bo'lish ketma-ketligi – syujet chizig'i tarzida ko'rinish turadi. Tasvirdan ko'pincha bayondagi mantiqiy izchillikni ilg'ab olish mashaaqqatli kechadi. Shunga ko'ra ham qisman 3-, asosan 4-sinfdan boshlab eshitish mashqi uchun tasvir-matnga nisbatan qiziqarli fabulasi bo'lgan rivoya-matnlar tanlash maqsadga muvofiqdir. Eshitib tushunish uchun

<sup>1</sup> Цесарский И.Д. Обучение пониманию английской речи на слух в V-VI классах восьмилетней школы. Автореф. Дисс. ... канд. педнаук – М., 1967 – С. 5.

tanlanadigan hikoyada tugun, voqeaning rivoji va yechimini aniqlash oson bo'lishi kerak.

Syujetli matnlarda til qiyinchiliklari oz bo'ladi. Ularda bayon qilinayotgan voqeaning syujet chizig'ini anglab borish oson. (Albatta, notanish so'zlar asosiy mazmun bilan bog'liq bo'lmasligi lozim.) Rivoya-matnlarda ma'nosi kontekstual tushuniladigan notanish so'zlar tasvir matnlardagiga qaraganda 2 marta ortiq bo'lishi mumkin.

Nutqni eshitib tushunish jarayonida tug'iladigan til qiyinchiliklari o'quvchilarni shunday mashqlarni bajarishga tayyorlovchi bosqichning (nutqni eshitib tushunishni o'rgatish ishlarining) asosiy mazmunini tashkil qilmog'i darkor. Ana shu mazmuni ta'lim bosqichlari bo'yicha rejalashtirish zarur.

Ayrim metodistlar nutqni eshitib tushunishni murakkablashtiradigan til hodisalari jumlasiga omonim so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar va boshqa shu kabi leksik materiallarni kiritadilar.

Metodik adabiyotlarda o'quvchilarning eshittirilayotgan matnga bo'lgan qiziqishlari hamda ixtiyorsiz diqqatlarini rangdor suratlar bilan oshirish mumkin degan fikrlar mavjud. N.G.Gotskinning aniqlashicha, bunday diqqat uzoq davom etmaydi: u odatda o'qituvchi suratga qarab hikoya qila boshlagunga qadar saqlanib turadi. Hikoyaning o'zini eshitish o'quvchilardan iroda kuchi bilan bog'liq ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Binobarin, nutqni eshittirish jarayonida o'quvchilarda avval maqsadni ma'lum qilish orqali ixtiyoriy diqqat, so'ngra – mazmunga qiziqish tufayli – ixtiyoriydan keyingi diqqat safarbar bo'ladi<sup>1</sup>. Ixtiyoriydan keyingi diqqat mahsuldorroq bo'ladi. Bunday diqqat matnni dastlabki eshitish chog'ida yuzaga keladi. Shuning uchun matnni dastlabki tinglash mahalida ko'proq axborot olinadi. Nutqni eshitib tushunish malakasi ana shu vaqtda yuqori samara bilan rivojlanib boradi. Matn ikkinchi marta eshittirilganda diqqat pasayadi, tanlab olib eshitishga yaqin holat yuz beradi. Jonli nutqiy kommunikatsiya jarayonida ham shunday bo'ladi.

Matnning axborotga boyligi, mazmunining qiziqarliligi eshitish mashqlarining o'qishga qaraganda qulay nutqiy faoliyat turi sifatida katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishini ta'minlaydi. O'quvchi qisqa vaqt ichida ko'p narsalarni bilib oladi. O'qituvchining darslikka kirmagan olimlar, san'atkorlar, adiblar haqida, o'zbek xalqining milliy an'analari to'g'risida tushunarli tarzda hikoya qilib turishi ana shunday rol o'ynaydi.

Matn uchun tanlanadigan savollarda puxta o'zlashtirilmagan so'zlar asosiy mazmuni ifoda etmasligi kerak. Uch-to'rt yangi (takrorlanadigan) so'z boshqa so'zlar bilan birikmada oson tushuniladigan bo'lishi lozim.

Eshitish mashqi uchun matn tanlaganda uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor beriladi. O'zbek xalqining ma'naviyatini o'zida aks ettirgan matnlar, ma'rifat tarqatuvchi lavhalar ta'lim mazmunida ustuvorlik kasb etar ekan, shunday matnlarga keng o'rin ajratish bugungi kunning asosiy talabidir.

<sup>1</sup> Готкин Н.Г. Психологические факторы беспереводного понимания при аудировании на иностранном языке // В сб. «Обучение рецептивным видам речевой деятельности в школе и вузе». Хабаровск: Хабаровский ГПИ, 1981. – С. 24.

O'quvchilarni hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar dasturga kirmagan, darslikda bo'lmagan adiblar, tarixiy shaxslar bilan tanishtirishning ma'rifiy ahamiyati katta. Bunday ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazishda eshitish mashqlari o'ziga xos o'rin tutadi. Yoshlarga Sakkokiy, O'toiy kabi shoirlar to'g'risida matnlar tanlansa, ularni eshittirish orqali o'quvchilarda ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin.

Eshittiriladigan matnlar tugal mazmunga ega bo'lishi kerak.

Bir matn o'qib o'rganilgandan keyin mazmunan yaqin boshqa matn o'quvchilarga eshittiriladi va mazmuni so'zlatiladi.

2-sinfda dastlab ayrim gaplar guruhi eshittirilsa, navbatdagi bosqichda kichik bog'lanishli matnlarga o'tiladi. Nihoyat 0,5 daqiqa eshittirishga mo'ljallanadigan matnlar mazmunini tushunishga erishilgach, o'rta va yuqori bosqichda eshittirish vaqtini ko'paytira borib, 3-3,5 daqiqaga yetkaziladi. O'qish sur'ati I daqiqada 220-250, ko'pi bilan 300 bo'g'indan oshmasligi kerak (N.G.Gotskin).

Noan'anaviy darslarda adabiy kompozitsiyadan ham foydalaniladi. Kompozitsiya ko'pi bilan 15-20 daqiqaga mo'ljallangani ma'qul, aks holda idrok yangiligi yo'qoladi, charchoq ortadi, leksik birliklarni o'zlashtirish darajasi pasayadi.

III. O'zbek tilidagi nutqiy muhit rusiyzabon o'quvchilarda matnni tinglab tushunishga doir BKMLarni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Chunonchi, tilni biladigan bolalarning tanaffusdagi o'zaro suhbatlari, ko'chada, transportda so'zlashayotganlarni tinglash, radio eshittirishlari va televizion ko'rsatuvlarning o'zbek tilida olib boriladigan qismlarini tinglash ana shunday ahamiyat kasb etadi.

Og'zaki va yozma nutq o'stirish, o'qishni o'rgatish jarayonida nutqni tinglab tushunish unsurlari bor. Lekin bu unsurlar ta'limiy xarakterga ega emas. Mashqlarning ta'limiy jihatlari o'quvchilarga matnda ishlatilgan notanish so'zlar va so'z shakllari ma'nosini kontekst sifatida shakllantirilgan gap mazmuni orqali anglash, ayrimlarini chetlab o'tgan holda gap mazmunini tushunish, murakkabroq gaplar mazmunini tahlil yo'li bilan tushunish, matnning umumiy mazmunini anglash, axborot olishni o'rgatishda o'z ifodasini topadi.

Eshitish mashqlari ta'limiylik nuqtayi nazaridan ikki xil bo'ladi:

- 1) matnni yoki gaplarni eshitib tushunishga tayyorlovchi mashqlar;
- 2) matnni eshitib tushunishga doir mashqlar.

Matnni eshitib tushunishga tayyorlovchi mashqlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) leksik-grammatik topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq ravishda tashkil etiladigan eshitish mashqlari;
- 2) notanish so'z ma'nosini fahmlab bilib olishga doir eshitish mashqlari.

Quyidagi kabi gaplar *shifokor*, *o'ynayaptilar*, *dori*, *gul* so'zlarini anglash uchun kontekst bo'la oladi: *Shifokor retsept yozyapti. Bolalar futbol o'ynayaptilar. Analgin – dori. Geran – gul.*

Agar soʻz noaniq talaffuz qilinsa, shovqin yoki boshqa biror narsa uni aniq eshitishga xalaqit bersa, tanilmasligi mumkin. Tanilmagan soʻz shu holda qoʻyib turiladi. Nutq davomida anglanmagan soʻzni anglash imkoniyati tugʻilishi bilan oʻsha soʻz taniladi.

Soʻzlarni mustahkamlashda ularni eshitib tanib idrok etish va ularni (ayniqsa paronimlarni) bir-biridan farqlashga doir mashqlarga yetarli oʻrin ajratilmogʻi dardor.

Nutqni tinglab tushunishda tovush-harfni tanish va farqlash emas, balki soʻzlar maʼnosiga diqqatni qaratish muhim oʻrin tutadi. Chunonchi:

1. Soʻz va soʻz shakllari yozilganidek talaffuz qilingan nutqni tushunishni oʻrgatish.

2. Oʻzbek adabiy tilining orfoepik meʼyorlari asosida soʻzlangan nutqni eshitib tushunishni oʻrgatish.

3. Sheva taʼsirida soʻzlangan nutqni eshitib tushuna olishni oʻrgatish.

4. Oʻzbek tilida soʻzlangan nutqning mazmunini tushunishni oʻrgatish va ogʻzaki nutq orqali oʻquvchilarni yangiliklardan xabardor boʻlib borishga odatlantirish.

Oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarga oʻzbek adabiy tili orfoepik meʼyorlari asosida talaffuz etilgan soʻz va soʻz shakllarini nutq oqimidan eshitib tushuna olish malakasini hosil qilish talab etiladi. Bola *muomila*, *munosibat*, *maxsat*, *kerey* kabi oʻzgarishlar bilan aytilgan soʻzlarni eshitib tayanch shakli (*muomala*, *munosabat*, *maqsad*, *kerak*) tushuna olishi kerak. Oʻquvchi maktabda oʻzbek tilini oʻrganar ekan, muloqotga tayyorgarlik koʻradi. Baʼzan hayotda u sheva taʼsirida soʻzlangan nutqni ham tushunishi zarur boʻladi. Oʻquvchi bunga ham tayyor turishi lozim. Albatta, u oʻzbek tilining barcha sheva xususiyatlari bilan tanisha olmaydi. Bunga zaruriyat ham yoʻq, lekin oʻzi qaysi sheva vakillari xududida yashasa, shu sheva taʼsirida soʻzlangan nutqni eshitib tushuna olishi zarur.

Koʻpincha oʻqituvchi oʻquvchilarga oson boʻlsin deb soʻzlarni atayin yozilganidek talaffuz qiladi, matnni undagi soʻzlar qanday yozilgan boʻlsa, shunday oʻqiydi. Baʼzan oʻquvchining oʻzi yangi soʻz va soʻz shakllarini, grammatik qoʻshimchalarni yozilganidek oʻqiylik deb taklif qiladi. Masalan, -**ning**, -**ingiz**, -**ngiz** va boshqa bir qator qoʻshimchalar soʻzlashuv nutqida turli oʻzgarishlarga uchraydi. Bunga, birinchidan, orfoepik meʼyorlar sabab boʻlsa, ikkinchidan, sheva taʼsirida shunday oʻzgarish yuzaga kelishi mumkin.

Notanish soʻz oʻquvchida uning maʼnosini fahmlab bilish ehtiyojini tugʻdirgani uchun u tinglanayotgan matnning davomini bir muddat eshitmay turadi. Natijada tushunishda uzilishlar paydo boʻladi. Notanish soʻz gapning umumiy mazmunini anglashga xalaqit bermasa, oʻquvchi uni tashlab ketib, navbatdagi gaplarni idrok qilishda davom etaveradi. Bunda yuzaga kelgan lingvistik toʻsiq yengib oʻtilgan boʻladi.

Bola notanish soʻz maʼnosini kontekst yordamida anglashga harakat qilib tinglashda davom etsa, psixologik toʻsiq olib tashlangan boʻladi.

**Matnning gaplarini tinglab tushunishga tayyorlovchi quyidagi maxsus mashqlar bajariladi:**



Notanish soʻzga eʼtibor bermagan holda gaplarni eshitib tushunish. Masalan: Hozir men aytadigan gaplarning har birida bittadan notanish soʻz boʻladi, shu soʻzlarga eʼtibor bermay, gaplar mazmunini tushunishga harakat qiling.

*Notanish ishchi stanokda ishlayapti. Petya kulrang qalamni olyapti. Natasha vazani ohista koʻtaryapti.*

Matnning kim yoki nima haqida ekanligini topish. Masalan: Shaxsning qisqacha tavsifini eshiting, uning kasbini ayting: *Ana u kishi rasm solyapti. U bogʻning rasmini solyapti. Rasm chiroyli chiqyapti. Kim rasm solyapti?*

Turli axborotlarni, faktik materiallarni ajratishga doir eshitish mashqlari. Masalan: Xaridorlarning nimalar sotib olganliklarini aniqlang:

*Kolya otasi bilan doʻkonga bordi: Kolya beshta daftar, ikkita qalam oldi. Otasi oʻn pachka fotoqogʻoz, bitta fotoplenka oldi.*

Gaplar orasidagi bogʻlanish usulini aniqlashga doir eshitish mashqlari. Masalan: Ikki gapni eshiting, bogʻlanish usulini ayting:

*Karim bogʻda ishlayapti. U yaxshi ishlayapti.*

*Valya kitob oʻqiyapti. Natasha esa xat zoʻryapti.*

Gaplar guruhidan asosiy fikrni ifodalovchi gapni aniqlash (aytilgan gaplarning nechanchisi ekanligi, yaʼni tartib raqami koʻrsatiladi). Masalan:

1. Bolalar maktabga ketyaptilar.
2. Bugun maktabda adabiy kecha boʻladi.
3. Kechada shoir va yozuvchilar ham ishtirok etadilar.

Aytilmoqchi boʻlgan gaplar mazmunini rasmlar yoki boshqa koʻrsatmalilik orqali maʼlum qilib bayon etish (avval rasm koʻrsatiladi, keyin gap aytiladi; oʻquvchilar aytilmoqchi boʻlgan gapni oʻzlaricha taxmin qilib koʻradilar).

Oʻqituvchi aytgan gaplarni eshitib takrorlashga doir mashqlar ham tayyorlovchi mashqlar sirasida muhim oʻrin tutadi.

***Matnni yaxlit eshitib tushunishga doir mashqlar quyidagicha boʻladi:***

Xona haqidagi matnni eshiting. Xona tasvirlangan uchta rasmning qay biri shu matn mazmuniga mos ekanligini ayting.

Bunday mashqlar oʻquvchilarning timsolli tasavvurini oʻstirishga yordam beradi.

Matnni eshiting. Gaplarni fikr izchilligiga mos ravishda joylashtiring.

*Xonada ikkita deraza bor. Mana katta va yorugʻ xona. Deraza yonida kichik stol turibdi.*

*Soat yetti yarimda choy ichaman. Men soat yettida turaman. Keyin maktabga ketaman.*

Eshiting, asosiy mazmun bilan bogʻlanmagan gap aytilganda qoʻl koʻtaring.

*Mana katta va chiroyli bogʻ. Bogʻda daraxtlar koʻp. Ishchilar zavodga ketyaptilar. Bolalar bogʻda ishlayaptilar ...*

Matnni eshitib savollarga javob bering (mazmunini qayta soʻzlab bering).

***Leksik tahlil bilan bogʻliq eshitish mashqlari:***

Ikkita gapni eshiting. Omonim soʻzlarni aniqlang va rus tiliga tarjima qiling.

*Kecha men teatrga bordim. Kecha soat 7 da boshlandi.*

Koʻp maʼnoli soʻzni aniqlang.

*Samolyot shahar ustida aylanyapti. Toshkent yirik industrial shaharga aylanyapti.*

Gaplarni eshiting. Qo'shma fe'llarni aniqlang. *Ruchkam uyda qoldi. Kolya yerdagi ruchkani ko'rib qoldi. Valya daftarga sanani yozib qo'ydi. Nazar kitobni javonga qo'ydi...*

Gaplarni eshiting. Sinonimlarni aniqlang.

*Odamga hayot bir marta beriladi. Yetmish ikki yosh – bugungi kun kishilarining o'rta umri. Tuzamiz yangi turmushni zamon ichra...*

O'quvchilarga eshitib tushunish jarayonida qism bilan butunni nisbatlay olishni o'rgatish uchun quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

1) eshittirilgan gaplar guruhidagi bosh fikrni ifodalovchi jumlaning aytish;

2) tinglangan matnning asosiy mazmunini ifoda etuvchi gapni aniqlash;

3) eshittirilgan matnda kimlar yoki nimalarning holati yoxud bajargan harakatlari haqida nima deyilganini aytish;

4) tinglangan ikki guruh gaplar orasidagi farqni tushuntirish;

O'quvchilarni boshlamasiga (kirishga) qarab matnda nima haqida gap borishini fahmlay olishga o'rgatish uchun quyidagi nutqiy mashqlar tavsiya etiladi:

1) boshlama asosida matnni davom ettirish;

2) boshlamani eshitib, o'zida tug'ilgan fikrlarni bayon etish;

3) eshittirilgan hikoyaga sarlavha o'ylab topish;

4) eshittirilgan boshlama ikki matndan qay biriga mos kelishini aytish.

Nutq oqimida ikki-uch so'z va so'z shakllari o'zaro to'xtamsiz, go'yo bir so'zday qo'shib talaffuz qilinadi. Masalan, «Bog'da gullar ham bor» gapini aytilganda bir o'quvchi qo'l ko'tarib; «А что такое гullarhambor?» – deb so'raydi. U «gullar ham bor» so'zlarini - uch so'zni bir so'z deb qabul qilgan bo'ladi.

Ayrim so'zlardagi ba'zi tovushlar noaniq eshinishi tufayli so'z ma'nosi anglanmasligi mumkin. Anglanmagan so'z o'quvchi miyasida tormozlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, natijada nutqni to'liq tinglab borish mumkin bo'lmaydi.

Axborot texnologiyasi o'quvchiga matnni necha marta eshinish kerak bo'lsa, shuncha marta takror eshinish imkoniyatini beradi.

IV. Eshinish mashqlari ma'lum izchillikdagi tadbirlar asosida tashkil etiladi.

Chunonchi:

– mashq shartlari tushuntiriladi;

– matn eshittiriladi;

– o'quvchilar matn mazmunini qanchalik tushunganliklari aniqlanadi va ularning javoblariga baho beriladi.

O'qituvchi eshinish mashqining avvalida o'quvchilar oldiga vazifa qo'yadi: *Hozir eshinish mashqi o'tkazamiz. Siz matn mazmunini tushunishga harakat qilib, mazmunini o'zbek tilida so'zlab berasiz. Vazifa boshqacha bo'lishi ham mumkin: Hozir eshinish mashqi o'tkazamiz. Siz matn mazmunini tushunishga harakat qilib, berilgan savollarga javob qaytarasiz.*

Matn murakkabroq bo'lsa, mazmunini rus tilida qisqacha so'zlatish mumkin. Bunday nazorat usuli kamdan-kam qo'llangani ma'qul.

Taqvimiy reja asosida o'tkaziladigan ta'limiy bayon bir hisobda eshiting mashqiga o'xshab ketadi.

Nutqni tinglab tushunish mashqi o'quvchilarga vazifani tushuntirishdan boshlanishi kerak. Aks holda ba'zi o'quvchilar e'tiborsizlik qilib, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin. Bu hol, afsuski, amaliyotda ko'p kuzatiladi. Vazifa aniq bo'lsa, mashq kutilgan natijani bera oladi.

Eshittirilgan matn mazmunining o'quvchilar tomonidan qanchadik tushunilganligini tekshirishda og'zaki hikoyalash ustuvorlik qilmog'i lozim. Albatta, bunday vazifa qo'yish uchun o'qituvchi bolalarga og'zaki hikoyalashni o'rgatib kelgan bo'lishi shart. Ushbu yo'nalishda ish olib borilmagan bo'lsa, rusiyzabon o'quvchilar topshiriqni uddalay olmaydilar.

Nutqni tinglab tushunish mashqini o'tkazishning eng muhim va mas'uliyatli bosqichi matnni eshittirishdir. B.D.Lempert eshiting mashqini o'tkazish yuzasidan quyidagilarni tavsiya qiladi<sup>1</sup>: o'qituvchi matnni birinchi marta sekin, talaffuz va urg'u qoidalarini buzmaganda holda so'zlaydi; ikkinchi martasida avval aytganlarini normal sur'atda takrorlaydi.

O'qituvchi matnni yo o'qib beradi, yoki mazmunini qayta hikoya qiladi. Ushbu ikki usuldan qay birini tanlash kerak degan savol tug'ilishi tabiiy. S.K.Kukushkina matnni og'zaki ravishda o'quvchilarga havola etish paytida xabarning har bir bo'lagi ularga qay darajada yetib borayotganini kuzatib borish zarurligini alohida ta'kidlaydi va bunda barcha o'quvchilarning ko'zi o'qituvchiga qaratilgan bo'lishi kerakligi, o'qituvchi esa talabalarini ko'rib turishi lozimligini nazarda tutadi.

Bundan shunday metodik xulosa kelib chiqadi: matn mazmunini so'zlab berish uni o'qib berishga qaraganda samaraliroq usuldir, ya'ni eshiting mashqini o'qituvchining jonli hikoyasi tarzida o'tkazgan ma'qul. Lekin o'qituvchi o'zi matnni yod olmasa, uni qayta-qayta hech bir o'zgarishsiz hikoya qila olmaydi. O'zgarishlar bilan so'zlash esa rusiyzabon o'quvchini qiyin vaziyatga solib qo'yadi: biror o'zgarish bilan aytilgan gapning mazmunini anglash harakatlari qayta bajarilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ikkinchi va uchinchi marta matnni eshittirish matnni o'qib berish tarzida amalga oshirilgani ma'qul.

Nutqni magnit yozuvidan, radio yoki televizordan eshitib idrok etish va tushunish ta'limning yakuniy natijalariga yaqin keladi.

O'qituvchi matnni o'qib berganda yoki magnit tasmasi orqali eshittirganda bunday ikki tomonlama kuzatuv bo'lmaydi. Shuning uchun eshiting mashqining bu shaklidan o'quvchilarda ma'lum malakalar shakllangandan keyin, aniqrog'i, o'rtacha tezlikda so'zlangan nutqni tushuna olish ko'nikmalari hosil bo'lgandan so'ng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bir material avval o'qituvchining nutqi sifatida, keyin o'qiladigan nutq sifatida eshittirilishi mumkin.

Amaliyotda matn bir necha marta o'qib beriladigan darslar ham bo'ladi. Ruhshunoslar olgan ma'lumotlarga qaraganda, nutq ikkinchi marta

<sup>1</sup> Лемперт Б.Д. Комбинированный урок иностранного языка и его разновидности // Иностранные языки в школе. – 1960. № 1. С. 61.

eshittirilganda tushunish 18% ga, uchinchisida 7,5% ga yaxshilanadi. Lekin bundan keyingi qayta tinglashlar matn mazmunini tushunishni bir oz bo'lsa-da, durustlamaydi (M.N.Shardakov).

Bog'lanishli matn yo qismlarga bo'lib, yoki yaxlit eshittiriladi, o'qituvchi lozim topsa, o'qib beriladi.

Ayonki, nutqiy mashqlarni o'tkazishda tushunishning butundan bo'lakka, qismga qarab borishiga monand mashqlar tanlanadi.

O'zbek tilini amaliy biladigan o'quvchilarning bittasigagina hikoyalashni topshirish mumkin.

Ba'zan o'zbek tilida berilgan savolga rusiyzabon o'quvchilar ona tilida javob qaytarishlari mumkin. Bunday javob tushunganlikni bildirsa-da, yuqori baholanmasligi kerak..

Eshitish mashqida rasmlardan foydalanilgan bo'lsa, tekshirishni boshqacha tashkil etish mumkin: o'qituvchi gapni aytadi, o'quvchilar uning mazmuniga mos rasmni ko'rsatadilar yoki o'qituvchi to'rtta gap aytadi, xattaxtaga chaqirilgan o'quvchi rasmlarni aytilgan gaplar tartibida joylashtiradi.

O'quvchilarga vazifani anglatish, matnni eshittirish va nazoratni amalga oshirish uchun 5-7 daqiqa vaqt sarflanishi to'g'ri bo'ladi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash zarurki, o'zbek tili darslarida nutqni eshitib tushunishni o'rgatishda o'quvchilarni jonli so'zlashuv nutqini anglashga tayyorlash, ularda ham yozilganidek, ham orfoepik me'yorlar asosida so'zlangan nutqni tushuna olish malakasini hosil qilish, eshitish mashqini tashkil etishda nutq mexanizmi haqidagi ruhshunoslik fani ma'lumotlaridan foydalanish, matn tanlashda mazmundorligiga, tasvir yoki rivoya tavsifida ekanligiga e'tibor berish darkor.

## M u n d a r i j a

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-bob. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish</b> .....	8
1.1. O‘quvchilarga o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatish metodikasi .....	10
1.2. O‘zbek va rus tillarida unli va undosh tovushlar; orfoepiya me‘yorlari; urg‘u. ....	24
1.3. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning monologik nutqini o‘stirish .....	37
1.3.1. O‘quvchilarga hikoyalashni o‘rgatish. ....	40
1.3.2. Matn mazmunini qayta hikoya qilish. ....	56
1.4. O‘quvchilarning o‘zbekcha dialogik nutqini o‘stirish. ....	64
1.5. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar bilan yalpi suhbat o‘tkazish. ....	83
1.6. O‘quvchilarning o‘zaro savol-javoblarni tashkil etish yo‘llari. ...	90
<b>2-bob. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarga o‘qishni o‘rgatish</b> .....	96
2.1. O‘qish ustida olib boriladigan ishlardan ko‘zlanadigan maqsadlar .....	96
2.2. O‘zbek tili darslarida alifbo harflarini o‘rgatish va o‘qish texnikasi ustidagi ishlar .....	98
<b>3-bob. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilarga matn mazmunini tushunib o‘qishni o‘rgatish va o‘qish turlari ustidagi ishlar</b> .....	106
3.1. O‘qish turlarining matn mazmunini tushunib o‘qishga ta‘siri .....	109
3.2. Tarjimali o‘qish xususida.....	117
3.3. Matnni analitik o‘qishni o‘rgatish.....	122
3.4. Matnni sintetik o‘qishni o‘rgatish.....	131
<b>4-bob. O‘zbek tili darslarida nutqni tinglab tushunishni o‘rgatishning ayrim masalalari</b> .....	144



Blank lined writing area

**YO‘LDOSHEV RUSTAM A‘ZAMOVICH**

**TA‘LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA**

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISH**

**METODIKASI**

**Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 9,75. Nashriyot bosma tabog‘i 10,0.  
Tiraji 80. Buyurtma №127.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining  
bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**